

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**RAYXON RASULOVA BAXRITDINOVNA**

**YOZMA ISHLARNI  
TASHKIL ETISH METODIKASI**

**O‘quv qo‘llanma**

**TOSHKENT – 2023**

**YŷK**

**КБК**

**Rasulova R.B. / Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi / O'quv qo'llanma**  
– Toshkent.: «Zebo Prints», 2023. – 251 bet.

### **ANNOTATSIYA**

“Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi” fanini o'rganish barobarida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, yuksak umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini oshirish ko'zda tutilgan. Shundan kelib chiqib, “Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi” fani talabalarga zamonaviy talablar bo'yicha o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanishning asosiy mazmun-mohiyatidan saboq beradi. Kompetentli mutaxassislarni tayyorlashga imkon yaratadi. Mazkur o'quv qo'llanma yuqorida nazarda tutilgan yo'nalishlar mazmunini o'zida to'la qamrab oladi.

**Mas'ul muharrir:**

**Shukurullo Mardanov,**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**A.R. Davlatova**

filologiya fanlari doktori, dotsent

**S.H. O'tanova**

filologiya fanlari nomzodi

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil “27” Martdagi “68”-sonli buyrug'iga asosan (guvohnoma raqami № 68 - 441) nashrga tavsiya etilgan

ISBN

© Rasulova R.B., 2023 y.

© «Zebo Prints», 2023 y.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida, axborot texnologiyalarining tez sur'atda taraqqiy etishi, xususan internet tizimining har bir xonadonga kirib borishi bir qator ijobiy jihatlar bilan birga turli ko'rinishdagi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqdaki, yoshlarda ularga qarshi immunitetni shakllantirish dolzarb muammoga aylandi. O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli yoshlarga bilim berish bilan bir qatorda ularning ma'naviyatiga, sog'lom qilib o'stirishga, milliy mafkura va o'z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashga bog'liq bo'lib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarning ta'lim-tarbiyasi mustaqil O'zbekistonning davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois pedagogik ta'lim tizimi filologiya yo'nalishi tarkibidagi "Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" kursini o'rganish barobarida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, yuksak umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kitobxonlik va muloqot madaniyatini oshirish talab etiladi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy talablar bo'yicha yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, ularni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish davr talabidir.

Oliy ta'lim tizimida, asosan, filologik yo'nalishlar dasturiga kiritilgan "Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" fani bo'yicha o'zbek tilida darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish masalasi ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Chunki ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shakllantirilayotgan yoshlarda, avvalo, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar o'quv dasturlari, darslik va uslubiy qo'llanmalarni zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Adabiyot olamining boy meroslarini o'qib tahlil qila oladigan yetuk adabiyotshunos, murabbiylar yetishtirish muhim ahamiyat

kasb etmoqda. O'quv qo'llanmada adabiy-estetik qadriyatlarining milliy va umumbashariy jihatlari yoritilgan. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi bo'yicha oliy o'quv yurti talabalari uchun o'quv adabiyotini tanqidiy yondashgan holda qayta ishlab chiqish vaqti allaqachon yetib keldi. Taqdim etilayotgan qo'llanmada ana shu bo'shliqni to'ldirishga, yozma ishlarni tashkil etishda hozirgi zamon nuqtayi nazaridan baho berishga baholi qudrat harakat qilindi. O'quv adabiyotining asosiy maqsadi talabalarga yozma ish turlari va barcha jarayonlar haqida to'liq va batafsil ma'lumot berish emas. Chunki ushbu o'quv predmeti uchun ajratilgan dars soatlari ham chegaralangandir. Maqsadimiz yozma ishlar o'tkazish jarayonining muhim jihatlari, uning asosiy maqsadlari haqida ma'lumot berish, bo'lajak filologlarga ushbu ta'limni o'rganishlarida ko'mak berishdan iborat. Talabalarda yozma ishlarni maqsadli va mantiqli tashkil etish jarayoni haqidagi tasavvurni shakllantirish murakkab va mas'uliyatli vazifa sanaladi. Qo'lingizdagi kitob ana shu mas'uliyatli vazifani ado etish maqsadida yaratildi. Qo'llanmada qo'yilayotgan muammolar qamrovini kengroq olishda O.Madayev, M.Bo'ronov, T.Ziyodova, O.Yoqubjonova, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shoahmedov, H.Ne'matov, A.Q.G'ulomov, Tekin Halil, B.To'xliyev, F.Bobojonov, M.Asqarova, K.Qosimova, G'.Adizov, A.Abduqodirov, G.Ergasheva, T.Toshtemirov, R.Shomaxmudov, T.Ne'matov, U.Holmatova, X.Jumanazarova, A.Nurmanov singari mualliflarning darslik, qo'llanma va tadqiqotlari hamda xorijiy manbalarga murojaat qilindi. Qo'llanmaning avvalgilardan farqli tomoni yozma ishlarning turlari va mezonlaridan tashqari talabalarning didaktik adabiyot bo'yicha tasavvurlarini boyitishga yo'naltirilgan yangi janr va metodlar kiritilganligida ko'rinadi. Xususan, qadimgi sharqiy va turkiy adabiyoti namunalaridan pand-nasihati ruhidagi hikoyat va rivoyatlar hamda ularning uslub xususiyatlariga oid ma'lumotlarning bayon etilganligi talabalarning mazkur fan bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lishiga yordam beradi, deb umid qilamiz. "Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" bo'yicha umumiy o'quv

qo'llanmada ayrim kamchiliklarning uchrashi ehtimoldan xoli emas. Mualliflar qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalar uchun avvaldan minnatdorchilik bildiradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qalbingizga quloq soling, inson nutqining ahamiyati qanchalik deb baholaysiz? Siz tanlagan kasbda-chi?

Kelajagimiz poydevorlari atalmish yosh avlodni tarbiyalashga o'zingizda layoqatsezyapsizmi? Bunday mas'uliyat uchun javob bera olasizmi?

2. Ruhiyatingizda kasbingizga, bo'lajak o'quvchilaringizga mehr-muhabbat tuyg'ulari shakllanganmi? Bu tuyg'ularni yetkazib berishga qodirmisiz?

4. O'z fikrlaringizni yoshligingizda atrofdagilarga bermalol ayta olganmisiz? Agar ayta olmagan bo'lsangiz, nima bunga xalaqit bergan? Siz o'quvchilaringiz mustaqil fikrlarini ayta olishlari uchun nimalar qilgan bo'lardingiz?

5. Darsdan ko'nglingiz to'lmagan o'rinlar bo'lganmi? Siz darsda qanday o'zgarishlar qilgan bo'lardingiz?

## **YOZMA ISHLARNI O'TKAZISH METODIKASI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

### **REJA:**

1. Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining predmeti.
2. Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining maqsadi.
3. Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining vazifalari.
4. Fanni o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar haqida ma'lumot va umumdidaktik tamoyillar.
5. "Tamoyil" yoki "Prinsip" tushunchasiga ta'rif.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mazmun-mohiyati barchani birdek o'ylantirib kelayotgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy texnika hamda didaktik vositalardan, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" pedagogik fanlar tizimiga mansub, yozma ishlarni to'g'ri tashkil etish jarayoniga bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni o'rganadi. Bunda adabiyotshunoslik, tilshunoslik, notiqlik san'ati, pedagogika, mantiq fanlari ba'zi xususiyatlariga ko'ra uyg'unlasha oladi. Bu fanlar o'z yo'nalishlariga ko'ra ma'lum darajadagi ma'lumotlarni yetkazib beradi, lekin nimani, qanday maqsadda, nima uchun va qanday yozishni "Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" fani mukammal anglatadi. Ushbu fan filologik ta'lim, yosh avlod tarbiyasi hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun o'ta zarur hisoblanadi. Uning o'z obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmun hamda metodlari mavjud.

**Uzluksiz ta'lim tizimidagi ona tili va adabiyot darslarida yozma ishlarni tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar "Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" fanining obyekti hisoblanadi.**

**"Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" fanining predmetiga uzluksiz ta'lim tizimida yozma savodxonlikni**

**oshirishga hamda yozma manbalarni tahlil qilishga doir didaktik namunalar, yo'l-yo'riqlar, yozma ishlarni o'tkazishda subyektlar o'rtasidagi hamkorlik jarayonlari kiradi.**

**“Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi” fanining maqsadi bo'lajak pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish va yoshlar ma'naviyatini qaror toptirishda hamda ularning zarur kompetensiyalarini shakllantirishda yozma ishlarning ta'siridan unumli foydalanish usullarini o'rgatishdan iborat.**

Talabalarga munosib va innovatsion metodlarni qo'llashni o'rgatish, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim berish uchun zarur qobiliyatlarini shakllantirish; zamon talablari darajasida o'rgatishning samarali yo'llari, shakl va usullariga oid nazariy bilimlarni egallashini ta'minlash hamda amaliyotda qo'llash uchun barcha imkoniyatlarini ko'rsatish, jumladan, yozma ishlarning mazmuni, tamoyillari, shakli, vositalari haqida ma'lumot berishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarga asarlarni tahlil qilish, yozma ravishda qayta bayon etishning yangi shakl va usullari haqidagi nazariy qarashlar hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bu maqsadlarga erishish uchun ushbu o'quv fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga oid umumiy va xususiy yondashuvlarga bog'liq kasbiy kompetensiyani shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning BKMLariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba yozma ish turlari, tashkil etish mazmuni, tamoyillari, metodlari, shakli hamda vositalariga doir bilimlarga ega bo'lishi;

- metodlarni to'g'ri va o'rinli qo'llash, tahlil va yozma bayondagi muammolarni bartaraf qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni oldindan taxmin qilib, oldiniolish malakalariga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim mazmuni pedagogika tarixida eng qadimiy va hozirda dolzarb masalalardan bo'lib turibdi. **“Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi” fanining vazifalari o'qitish jarayonida ta'limning**

**samarali pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, yozma ishlar tahlilida o'quvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlarni ochish hamda maqsadga muvofiq tarzda qo'llashga o'rgatishdan iborat. Shuningdek:**

– talabalarni fanning nazariyasi va metodikasining ilg'or yutuqlaridan xabardor qilish;

– talabalarga o'quv dasturi va darsliklarning mazmuni haqida ma'lumot berish;

– mustaqillik yillarida ta'limning mazmun-mohiyatini hamda o'rgatish usullarini yangilashga doir masalalar bilan talabalarni xabardor qilish;

– o'quvchini dars jarayonining subyektiga aylantiradigan eng qulay va samarali yo'llaridan foydalanishga o'rgatish;

– talabalarni o'quvchilarga beriladigan BKMLar majmuasi bilan tanishtirish;

– talabalarga yozma ish o'tkazishga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini: adabiy asarlarni o'qitish hamda yozma tahlili orqali o'quvchilarning badiiy – estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishga o'rgatishdan iborat.

Yozma ishlarni tashkil etish metodikasini o'rganish jarayonida quyidagi **vazifalar** bajariladi:

-o'quv mashg'ulotlarini til va nutq hodisalarini farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, talabaning mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

-o'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj paydo qiladigan topshiriqlar orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini, tafakkur doirasini kengaytirish, yozma salohiyatni ichki va tashqi matn yaratish shakllantirish kengaytirish

Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada muhim tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ijodiy-amaliy ko'nikmalarni tashkil etadi. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi



fanining mazmuni o'qitish metodlari, usullari, shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, yozma ishlar tashkili bilan bog'liq nazariy va didaktik tushunchalar, yozma ishlarni tashkil etish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi ishtirokini tashkil etish yo'llarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til faktlari, nutq madaniyati tushunchalari, yozma savodxonlikka doir imlo qoidalar, yozma ish turlari bo'yicha ta'riflar), o'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish, ya'ni qayta xotirlash, ijodiy va ilmiy — ijodiy, ichki va tashqi nutq tafakkur o'sishi kabi masalalarni qamrab olmog'i ko'zda tutiladi. Fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, mantiqiy fikrlash, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish (qiroat) va o'qiganlarini tushuna olish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.<sup>1</sup>

Demak, talabani ijodiy va mustaqil fikrlashga o'rgatish, so'z farqlash, gapda so'zni to'g'ri va o'rinli qo'llash, o'z fikrini aniq, ixcham, ravon, tugal yozma nutq ko'rinishida ifodalashga o'rgatish yozma ishlarni tashkil etish metodikasining birlamchi vazifasi bo'lsa, o'zaro muloqotni, bahs-u munozarani to'g'ri tashkil qilish, talaba tafakkurini rivojlantirish jarayonlarini oqilona boshqarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirish, talabalarni o'qituvchilik mahorati va yozma nutqlarni oshirishda ilg'or texnologiyalar bilan tanishtirish fanning bag'oyat muhim vazifasi hisoblanadi.

Talabalar metod va usullar haqida to'liq bilimga ega bo'lsalar, har qanday yaratiladigan matnni ham ilmiy, ham didaktik, ham o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali tashkil eta olishlari hamda professional muloqotga kirisha olishlari mumkin. Yozma nutqni rivojlantirish, dunyo miqyosida o'rgatiladi.

Mumtoz adabiy meroslarimizda aks etgan g'oya va mazmun hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Pedagogikamizda bildirilayotgan fikr-mulohazalar – ota - bobolarimiz tomonidan bizga yetib kelgan fikrlardir. Yoshlar kelajakka qo'yiladigan qadamning, ajdodlarimiz tafakkur ziyosi bilan yoritilgan

dovonlardan o'tishini anglab yetishlari va aslo unutmasliklari lozim. Ajdodlar merosini, tarixini, ma'naviyatini, milliy qadriyatini, o'zlikni qadrlamasdan turib yetuk, barkamol mutaxassis kamol topishi qiyin. Yozma nutq va tafakkur rivojida mumtoz asarlar mohiyatini o'zlashtirish, milliy qadriyatlarni anglash muhimdir.

Ushbu qo'llanmada "Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" fani bo'yicha ta'lim bosqichlarida olib boriladigan mashg'ulot turlari, zamonaviy metod va usullari, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqlarini o'stirish, tafakkur olamini kengaytirishni nazarda tutgan holda bilim va malaka berish yo'llari haqida ma'lumot beriladi.

### **Fanni o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar.**

Darslarda metod va usullardan foydalanishda amal qilinadigan yondashuv va tamoyillarni aniqlashda N.Mahmudov, H.Nurmonov, A.G'ulomov, H.Ne'matov, R.Safarova, T.G'aniyev, Sh.Yusupova, I.Toshev, Sh.Yo'ldosheva, N.Yo'ldosheva, N.M.Dadajonova, X.Qurbonova, T.Ziyodova, M.Mirmaxsudova, T.Yusupova, F.H.Aminova va boshqa metodist olimlarning, didaktika bo'yicha esa M.I.Maxmutov<sup>2</sup>, E.G'oziyev<sup>3</sup>larning tadqiqot ishlari inobatga olindi.

Til ta'limi, avvalo, kommunikativ yondashuv xususiyatlarini namoyon etmog'i zarur. Filologik va nutq o'stirish maqsadi birligini ta'minlash tamoyili kommunikativ yondashuvning amal qilish yo'sinini ifoda etadi.

### ***"Tamoyil" yoki "Prinsip" tushunchasiga ta'rif.***

Ta'lim tamoyillari ta'lim tizimida tayaniladigan eng muhim qoida va qarashlar tizimi. Tamoyillar pedagogik amaliyotni to'g'ri tashkil etish, ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish tamoyillarini amalda to'g'ri qo'llash zaruratidan yuzaga kelgan. Tamoyil va prinsip atamalari adabiyotlarda sinonim sifatida almashinib keladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"<sup>4</sup>da prinsip va tamoyil atamalariga berilgan ta'rif: "*Prinsip*" – lotincha so'z bo'ib, *asos, negiz, ibtido* ma'nolarini beradi. Ko'p ma'noli so'z: 1. *Biror*

*nazariya, ta'limot, dunyoqarash va sh.k. ning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida. 2. Xulq-atvor, xatti-harakat me'yorlarini belgilaydigan, kishi og'ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqtai nazar, qarash, moslik. "Tamoyil" – arabcha so'z bo'lib, tebranish, chayqalish, o'zgarib turish, o'zgaruvchanlik, moyillik degan ma'nolarni anglatadi. Ko'p ma'noli so'z, ma'nolari:*

*1. Mayl, moyillik. 2. Biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy- yo'nalish. "O'qitish prinsipi darsni tashkil etish, samaradorligini ta'minlash, o'qitish uchun asosiy talablar, qoidalar. Ta'lim tamoyillarini quyidagilarga ajratish mumkin:*

- 1. O'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi tamoyili. (umumdidaktik tamoyillar).*
- 2. Ilmiylik, tizimlilik, ijodiylik va izlanuvchanlik tamoyili.*
- 3. Ta'limning amaliy hayot bilan bog'lanishi tamoyili.*
- 4. Onglilik va faollik, muloqotga kirishuvchanlik tamoyili.*
- 5. Ko'rsatmalilik va ko'rgazmalilik tamoyili.*
- 6. Tushunarlilik tamoyili.*
- 7. Puxtalik va mantiqlilik tamoyillari va boshqalar.*
- 8. Ta'lim-tarbiya tamoyili.*
- 9. Mustahkam bilimga ega bo'lish tamoyili.*
- 10. Tafakkur tadrijiyligi tamoyili*

Ta'lim kechimida mana shunday tamoyillarga rioya qilinishi shart, chunki har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, narsa va hodisalarni idrok etish, fikrlash tamoyillariga amal qilish, nazariy xulosalarni tushunish va bilish, tajribada hayotda qo'llay olish zarur.

Yozma ishlarni tashkil qilishda esa o'quvchini ezgu ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirish uchun ta'limning quyidagi tamoyillari yetakchilik qiladi:

Mashg'ulot jarayonini noan'anaviy shaklda tashkil etish, ajdodlarimiz tajribalarini innovatsion texnologiyalar bilan

uyg'unlashtira olish va bir xillikdan qochish zarur. Takrorga yo'l qo'yilmasdan, yangi-yangi innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish hamda o'quvchilarga bilim berishda hayot bilan bog'lay bilish, mustaqil, ijodiy ishlarini ta'minlash asosida tashkil etish zarur. O'quvchilar ishlarida tafakkur darajasi, mantiqiy fikrlashi, ma'naviy olamiga e'tobor qaratiladi. Jarayon o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga qaratiladi, fanga doir qonuniyatlarni mustaqil o'zlashtirishga urinadilar, nazariyadan hayotga qaytadilar. O'qituvchi rahbarligida nazariy bilimlar hayotiy haqiqatni anglash vositasida tiniqlashib, chuqurlashadi. O'quvchilar adabiy qahramonlar va narsa-hodisalarni tahlil qiladilar, yozma ishga ijodiy yondashib turli g'oyalar kashf etadilar, hamda hayotda uchraydigan hodisalarning asosini o'rganadilar. Ta'limning hayot bilan chambarchas bog'liqligi, o'quvchi bilimlarini hayotda qo'llashi va o'z tafakkuri bilan ilmiy, mantiqiy xulosalariga erishilsa, bilimlari xotirada emas, tafakkur va ruhiyatga singib, ko'ngil xazinasiga aylanadi. Hayotiy haqiqatlar bilan tarbiyalash, shakllanayotgan shaxsga hayotning asl mohiyatini ochadi hamda qiyinchiliklarni yo'qotishning haqiqiy halol yo'llarini ko'rsatadi. Yozma ishlarga tayyorgarlik ko'rish hamda didaktik materiallar yig'ish, yalpi yoki guruh bo'lib mustaqil amalga oshiriladi. O'quvchilar kutubxonalariga jalb qilinadi, topshiriqlarni mustaqil izlanib bajaradilar, bu ishlar ularni faollashtiradi. Chunki, faoliyatsiz insonning asab tizimi yaxshi rivojlanmaydi. Intellektning barcha tarkibiy qismlari ishlagina rivojlanadi. Bolalar tayyor bilimlarni xotirada saqlash emas, mustaqil fikrlashlari, ijodiy izlanishlari zarur. Shuningdek, yozma ishlar o'quvchilar bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlashda katta ahamiyatga ega, ular ishlarida individual xususiyatlari, bilim o'zlashtirishdagi o'ziga xosligi, xotirasi, xarakter va qiziqishlari namoyon bo'ladi. Alohida-alohida ishlashga imkoniyatlar ko'payadi. O'qituvchilardagi oldindan ko'ra bilish qobiliyatlari orqali darsga ijodiy tayyorgarlik ko'rish, darsni tashkillashtirishda samaradorlikka erishish oson kechadi. O'quvchilar ma'naviy

kamolotini ta'minlashda, yangi bilimlarni kashf etishida hamda o'zlashtirishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, hayotiy haqiqatlarni kashf etishga sharoit yaratiladi. Bunga, ayniqsa, adabiy matn yaratishda qahramonlarni ijobiy yoki salbiy emas, haqiqiy inson deb, ichki olami, kechinmalari, shodlik va iztiroblari bilan anglash va tuyish hamda o'quvchiga bevosita daxldor shaxs sifatida qarash talab qilinadi. Insonda kamchiliklar bo'lishi, butunlay yomon yoki yaxshi odam bo'lmasligini ijodiy insholar, mustaqil matnlar tuzish orqali, insonlarni o'rganadi va o'zini tanib boradi. Yozma nutq va yozma savodxonliklarni oshirishda, avvalo, o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini oshirish zarur. Buning uchun o'quvchilarga ko'proq badiiy asarlar o'qish va uqish, asarlar botinidagi inson dardini, iztiroblarini tuyish quvonchiga sherik bo'lishga o'rgatiladi. Asar qahramonlarini baholash, o'quvchilarda amallariga qarab atrofidagi odamlarga baho berish qobiliyatini shakllantiradi.

O'qituvchi o'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltiruvchi matn yaratishga tayyorlaydi. Masalan, "Menga yoqqan asar" mavzusida insho yozish topshirig'ini olgan o'quvchi ijodiy ishni boshlashdan oldin asarlardan mazmundor, taassurotlarga boy va muhim lavhalarni qidirib topadi. Insho mazmuniga mos sarlavha qo'yadi. Asarning badiiy qiymati, lavhalarni nima uchun tanlagani, u qanday fikr va tuyg'ular uyg'otgani yoritiladi.

O'quvchi muhim qismlarni aniqlash uchun asarni qayta-qayta o'qiydi, o'ylanadi, izlanadi, tahlil qiladi. Natijada taassurotlar, fikr va tuyg'ular ifodalanishida yangi-yangi g'oyalar tug'iladi. O'quvchi yozma ishlarida muallif yoki o'qituvchining fikrlariga tayanmasdan yoza olmasa, demak, yozma ishni yozishga o'z qarashining yo'qligi, matn mazmuni yoki timsollarning qaysi o'rni yoki jihati muhimligini anglay olmaganligidandir. Buning oldini olishga o'qituvchi o'quvchilarning badiiy asarni qanday o'qigani va qanchalik tushunganini aniqlash uchun, suhbat, bahs-munozaralar yoki muammoli savollar uyushtiradi. Natijada o'quvchi shaxsiyatida tafakkur mustaqilligi va ma'naviyat sog'lomlashuvi amalga

oshiriladi.

Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanini o'qitishda mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishga qat'iy amal qilinsa, nutqda til hodisalarini ajratish, nutq malakalarini mustahkamlash, til xususiyatlarini hamda mahalliy sheva ta'sirini aniqlashtiradi. Ayni vaqtda yozma ishlar o'quvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish vositasi hamdir. O'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlari shakllantirilib, til hodisalari o'rgatilar ekan, ayni vaqtda ularga tarbiya beriladi hamda ma'naviyati rivojlantiriladi.

Ma'rifiy matnlar ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishini ta'minlovchi muhim vositadir.

Yozma ishlar uchun tanlangan matnlar mavzusi rang-barang bo'lsa, o'quvchilarda ijodiy jarayonga qiziqish yuqori bo'ladi hamda darsning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo'nalishini oshiradi.

Adabiyot darslarida esa badiiy asarlar tahlili yuzasidan o'tkaziladigan yozma ishlarda pand-nasihat, didaktik ahamiyatiga e'tibor qaratilsa, tafakkur rivojining samaradorligi yuqori bo'ladi. Shaxsning atrofdagilar bilan munosabatda bo'lishiga hamkorlikdagi ta'lim, munozara, muzokara hamda musobaqalar tashkil qilish qulay sharoit yaratadi. O'quv masalalari va topshiriqlar yechimining samarali yo'llarini birgalikda izlanish hamda tadqiqot ishlarida o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi, bir-biriga do'stona yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, ularda mas'uliyat hissini oshiradi. Yozma ishlar uchun har bir sinfda tanlangan material hajmi hamda mazmun jihatlari bir-biridan farq qilishi zarur. Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan yozma ishlar o'zbek tilshunosligida hamda pedagogikada qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Yozma ishlar ta'limi mazmunida o'quvchilarning ruhiy (psixologik) xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olish zarur. Yozma ishlarni tashkil etish mashg'ulotlarida onglilik va ijodiy faollik muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma ishlarda izchillik va ketma-ketlik, uzviylik va uzluksizlikka erishilsa o'quvchilarning tafakkurini,

mantiqiy fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Yozma nutqni rivojlantirish nazariyani amaliyotga bog‘lash, ya‘ni o‘quvchilarning egallayotgan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo‘llash, mustaqilturmushda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariyani amaliyotga bog‘lash atrofdagilar bilan adekvat muloqotga kirisha olish, o‘zlashtirganlarini nutqiy faoliyatni rivojlantirishga bo‘ysindirish, hayotiy saboqlar chiqarish hamda muammoli vaziyatlarda tashabbus ko‘rsata olishdir. O‘z ona tili mukammal o‘rganilsagina, shaxs zehni, ongi va madaniyati ortadi.

O‘z tilining keng imkoniyatlaridan og‘zaki va yozma nutqda bimalol foydalana olgandagina, ajdodlari yaratgan madaniy-tarixiy boyliklardan xabardor bo‘ladi va boshqa fanlar asosini chuqur o‘zlashtirishga dadil qadam tashlaydi. Og‘zaki hamda yozma nutqdan foydalanish malakasiga ega bo‘lgan o‘quvchi ijtimoiy hayotda erkin faoliyat ko‘rsata oladi. Mustaqil turmushga uning kommunikativ kompetensiyasi, yozish va o‘qish savodxonliklari, mazmunli va chiroyli so‘zlash san‘ati, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash ko‘nikmalari, ish qog‘ozlari bilan muomala qilish layoqati qo‘l keladi.

Yozma ish mashg‘ulotlarida o‘quvchilar tomonidan tuziladigan matnlar, yoziladigan bayon va insholar nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirishga yordam beradi. Badiiy asar mazmunini va til hodisalarini tahlil etish, xulosalar chiqarish, o‘rganilgan qoidalarni dalillar vositasida isbotlash, matn ustida ishlash, ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish nazariyani bevosita amaliy faoliyatga olib o‘tadi.

O‘quvchi yozma ishlarning asosiy maqsadini to‘g‘ri anglasa, mavzularni ongli egallash, o‘rganish, o‘zlashtirish va mustahkamlash kabi xususiyatlari tarbiyalanadi. Yozma ishlarni o‘tkazishning o‘ziga xosligi til, me‘yor, nutq mutanosibligidan kelib chiqib, tilning xususiyatlari hamda adabiy ta‘limni o‘zlashtirish psixologiyasiga ko‘ra belgilanadi. Mahalliy sheva va ta‘sirini nazarda tutib, til

hodisalari o'rgatilsa ijobiy natijalarga erishiladi.

### **Fan bo'yicha talabalarning BKMLariga qo'yiladigan talablar**

«Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi» fanini o'zlashtirishda zarur masalalar:

-fanning nazariy asoslarini bilish; badiiy asarni tahlil qilish va baholash mezonlarini bilish; o'quvchilarning yozma savodxonlik va nutq malakalarini o'stirish; darsda qo'shimcha adabiyotlar, yangi axborot hamda turli texnologiyalardan foydalana bilish;

-talaba yozma savodxonlikni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi bo'yicha maktab ta'limining mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirishi; o'quv topshiriqlariga ko'ra maqsadli yondasha olishi; milliy mafkura va mustaqillik g'oyasini singdirishda yozma ishlardan unumli foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

-talabalar ta'limning turli bosqichlarida namunali yozma ishlar tuzish, ko'rik- tanlovlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi yozma ishlarni tashkil qila olish malakalariga ega bo'lishlari lozim.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi «Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi» dasturini amalga oshirishda falsafa, mantiq, etika, estetika, pedagogika, psixologiya, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, hozirgi o'zbek adabiy tili, umumiy tilshunoslik, tilshunoslikka kirish, shevashunoslik, onomastika kabi fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

### **Fanning ta'limdagi o'rni**

«Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi» yetuk kadrlar tayyorlash, adabiyotshunoslik, umumiy tilshunoslik yo'nalishidagi fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish, ta'lim tizimida yozma ishlarni tashkil etishda samaradorlikka erishish hamda yosh avlodda ma'naviy barkamollik, tafakkur o'sishida beqiyos ahamiyatga ega.

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

O'qitish jarayonida ta'limning innovatsion metodlari, didaktik,



pedagogik va AKTlardan qo'llanilishi nazarda tutilgan:

-fanni o'qitishda zamonaviy (xususan interfaol) metodlar;

-pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsiya (ko'rgazmali taqdim qilish), elektron-didaktik) texnologiyalarni qo'llash;

-yozma ishlarni tashkil etish metodikasi kursida badiiy adabiyotlardan, didaktik ashyolardan, turli plakatlardan, tarqatma materiallardan, kompyuterdan, jadvallardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fani qanday tamoyillarga tayanishi bilan tanishdingiz. Qanday tushunganingizni izohlang. Misollar bilan ifodalang.

2. Mazkur fanning predmetini qanday tushundingiz? Fikringizni asoslang.

3. «Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi» fanining maqsadiga e'tibor qiling:

«...bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetenti» deganda nimalarni angladingiz? Bu fikrlardan o'zingizga daxldorlik tuydingizmi?

4. Ushbu fanning zimmasiga ortilgan vazifalarga e'tibor bering. Fikringizni badiiy asarlar misolida asoslashga urinib ko'ring.

5. Talabaga qo'yilayotgan talablarga diqqat qiling. Ular orasida sizning qo'lingizdan kelmaydiganlari bormi? O'zingizda ularni egallashga ishtiyoq sezyapsizmi? Aks holda nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

6. Yosh avlodni ma'naviy barkamollikka yetishuvida, tafakkur o'sishida xizmat qiladigan omillar haqida gapiring.

## **DTSDA YOZMA ISHLARGA QO'YILADIGAN UMUMIY TALABLAR**

Reja:

1. Davlat ta'lim standartining maqsadi
2. Davlat ta'lim standartining vazifalari
3. Davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplari
4. DTS umumiy talablari haqida ma'lumot
5. Yozma ishlarni tashkil etish bo'yicha DTS me'yorlari
6. Umumiy o'rta ta'limning DTS da belgilangan malaka talablari; bilim, ko'nikma va malaka ko'rsatkichlari.

Davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

-umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

-milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

-o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

-kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

-ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

-davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

-o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

-umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

-davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxsehtiyojiga mosligi;

-umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi vata'lim mazmunining uzviyligi;

-umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi vayaxlitligi;

-umumiyo'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashdainnovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

-o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch vafanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

-rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

**bilim** — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

**ko'nikma** — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

**malaka** — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

**kompetensiya** — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSda o'quvchilarga umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumiy o'rta ta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari qo'yilgan. O'quvchilar yoshi, o'zlashtirish qobiliyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar belgilangan. Ya'ni, majburiy minimal ta'lim mazmuni har bir ta'lim bosqichi uchun uzviylik, uzluksizlik asosida taqsimlab berilgan. Jumladan, umumiy o'rta tizimida fanlarni o'rganish bosqichlari shunday tartibda joriy qilingan.

**Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi** (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq, mavhum vahokazo);
- c) tavsifning mavzuga muvofiqligi va tavsifning qiymati;
- d) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;
- e) imloviy (yozma) savodxonlikning sifati.

**Yozma ishlarni tashkil etishda ona tili fanining maqsad va vazifalari.**

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ona tilifanini o'qitishning asosiy maqsadi:**

— o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq

madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi:**

o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fanidan o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuziladi. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Umumiy o'rta ta'limda – ona tili imkoniyatlari asosida ta'lim oluvchida mustaqil va ijodiy fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq muhiti, sharoiti va vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon va aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

#### **I. TK-tayanch kompetensiya**

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

## **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish)
2. FK2-lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid):

**Nutqiy kompetensiyani shakllantirishda diktant matni uchun so'zlar miqdori** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari **A1** Ona tilini o'rganishning boshlang'ich darajasi 65 — 70 ta

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari **A1+** Ona tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi 70 — 75 ta

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari **A2** Ona tili fanini o'rganishning tayanch darajasi 140-160 ta

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari **A2+** Ona tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi 160-180 ta

1. Bog'lovchilar, ko'makchilar, ayrim yoziladigan yuklamalar alohida so'z hisoblanadi.

2. Sinfning umumiy tayyorgarligi va boshqa sabablarga ko'ra, matndagi so'zlarning soni orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

DTS talablariga ko'ra o'quvchilarda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasini hosil qilish ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ona tili va adabiyot o'quv fanlari sifatida nutq imkoniyatlarini birlashtirib, o'quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go'zal olamiga olib kiradi,

nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo'yoq berish, nafosat bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**5-sinf o'quvchilari yozma nutq bo'icha quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart<sup>7</sup>.** Yozma adabiy nutq, og'zaki adabiy nutq kabilarni izohlay olishi; matn yaratish darajasida gap tuzish; mustaqil gaplarni o'zaro bog'lay bilish, gapda so'z tartibini to'g'ri belgilash; matnda xat boshining yaxlitligi va fikr izchilligi, muhokama elementli matn yaratish; fikrni yozma ravishda bayon etish (10-12 gap); tinish belgilaridan (undalmali gaplarda), uyushiq bo'laklarda, ajratilgan izoh bo'laklarda, undalmalarda va qo'shma gap qismlarini bog'lashda, ko'chirma gapda, dialogda to'g'ri foydalanish; grammatik atama va tushunchalardan, qoida va ta'riflardan matn yaratish jarayonida foydalanish; o'rganilgan gap qurilishlariga mos keladigan matn yaratish; o'rganilgan mavzular doirasida saylanma, ijodiy diktantlarni hamda 96-120 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi.

**6-sinf o'quvchilari yozma nutq bo'yicha quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart:**

Leksikologiya va morfologiya bo'yicha egallangan ko'nikmalarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash; nutqda o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlariga rioya qilish; sinonimlar, omonimlar, antonimlar va paronimlardan foydalanish talablariga rioya etish; qisqartma otlarni to'g'ri yozish va qo'llash; gapda so'z tartibiga amal qilish. Rivoya-matn, tasvir-matn tuzish. Tabriknoma, ma'lumotnoma yozish; fonetik, lug'aviy, morfologik, sintaktik, uslubiy tahlil qilish; fikrni yozma ravishda bayon etish (12-14 gap).

## **A2**

– 95-105 so'zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi. 10-12 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, mustaqil fikrlay oladi;

– husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.

## **A2+**

- mashq va topshiriqlardagi voqea-hodisalarni, tinglangan matndagi axborotni tushuna oladi;
- mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib ravon o'qiydi;
- so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon qila oladi;
- 121-130 so'zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi. 16-18 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, mustaqil fikrlay oladi;
- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.

### **7-sinf o'quvchilari yozma nutq bo'yicha quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart:**

O'zlashtirma gap va undagi tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish; ega bilan kesim orasida, dialogda tinish belgilarini ishlata olish; mustaqil va yordamchi so'z turkumlari bo'yicha egallangan ko'nikmalarni yozma va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llash; fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko'rsatkich: 14-16 gap); sifat ko'rsatkichlari: gaplarda fikrni aniq, mantiqiy izchillikda yoritish; mustaqil gaplarni, qo'shma gap qismlarini, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'lashda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilardan, matniy sinonimlar va boshqa vositalardan foydalana olish; xatboshilarni to'g'ri ajratish, matniy sinonimlarni ishlata bilish; fikr izchilligini ta'minlash; ariza yozish so'z ishlatishda nutq uslublari doirasidagi qoidalarga amalqilish.

## **A2**

- tinglangan matn, ko'rilgan lavhadagi voqea-hodisalarni tushuna oladi;
- matnlarni, so'z, iboralarni ma'nosini anglagan holda to'g'ri o'qiy oladi;
- fikrini to'g'ri bayon qila oladi, so'z urg'usini to'g'ri qo'ya oladi;



-grammatik topshiriqli diktantni yoza oladi, husnixatga amal qiladi. 12-15 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

### **A2+**

-tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi voqea-hodisalarni tushuna oladi;

-matnlarni, so‘z, iboralarni ma‘nosini anglagan holda to‘g‘ri o‘qiy oladi;

-fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi, so‘z urg‘usini to‘g‘ri qo‘ya oladi;

-grammatik topshiriqli diktantni yoza oladi, husnixatga amal qiladi. 19-20 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

### **8-sinf o‘quvchilari yozma nutq bo‘yicha quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart:**

Fikrni yozma shaklda bayon etish. (20-25 gap). Sifat ko‘rsatkichlar matnda bog‘lovchi vositalardan to‘g‘ri foydalanish; matn yaratish jarayonida o‘zbek adabiy tili grammatikasining me‘yor va imkoniyatlariga rioya qilish; so‘zlashuv nutqi bilan kitobiy nutq me‘yoriga amal qilish; gapda so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirish; o‘zgargan tartibdan to‘g‘ri foydalanish; ikki bosh bo‘lakli va bir bosh bo‘lakli gaplardan sintaktik sinonimlar tarzida foydalanish; bayon, insho, ish qog‘ozlari (xabar, ma‘lumotnoma, ariza, hisobot, tarjimai hol) yozish; yozish uchun material to‘play olish; to‘plangan materialni tizimga sola bilish; sodda va murakkab reja tuza bilish; yozma ishga epigraf tanlay olish; ishga qiziqarli epizod qo‘sha olish; dialogli parchalar kiritish; tinish belgilarini o‘rinli ishlata olish; matnni tahlil qila bilish; matniy sinonimlarni ishlata bilish.

**A2** – tinglangan matndagi asosiy voqea-hodisalarni tushuna oladi;

– fikrini so‘z va gaplarni mantiqiy bog‘lagan holda, to‘g‘ri bayon qila oladi;

– mavzu asosida 15-20 gapdan iborat ijodiy (erkin insho)

matn yarata oladi, gaplarning izchilligini ta'minlagan holda bog'lanishli nutq hosil qila oladi, mustaqil va ijodiy fikrlay oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

– 125-130 so'zdan iborat bo'lgan diktantni yoza oladi, husnixat va imlo qoidalariga amal qila oladi.

### **A2+**

– 21-25 gapdan iborat ijodiy (erkin insho) matn yarata oladi, gaplarning izchilligini ta'minlagan holda bog'lanishli nutq hosil qila oladi, mustaqil va ijodiy fikrlay oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

- tinglangan matndagi asosiy voqea-hodisalarni tushuna oladi;

– matnni ma'nosini anglagan holda to'g'ri va ravon o'qiy oladi;

– fikrini so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri bayon qila oladi;

– 141-160 so'zdan iborat bo'lgan diktantni yoza oladi, husnixat va imlo qoidalariga amal qila oladi.

### **A2 - A2+**

– insho turlarini ajrata oladi va izohlay oladi;

– yangi so'z, ibora va istilohlarni o'zlashtiradi hamda sharhlay oladi.

## **9-sinf o'quvchilari yozma nutq bo'yicha quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart:**

Fikrni yozma shaklda bayon etish bo'yicha: 25-30 gapdan iborat bo'lgan tugal matn (fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish. Sifat ko'rsatkichlar — matndagi gaplarni mazmunan o'zaro bog'lash, fikr izchilligini ta'minlash, o'rganilgan ifoda vositalarini o'rinli qo'llash va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish; ish qog'ozlari (ariza, ma'lumotnoma, ishonch xati, ixcham hisobot, axborot, taqriz kabilar)ni yozish;

Muhokama matn yaratish. Fonetik, lug'aviy, morfologik,

sintaktik, uslubiylahlil qilish. Bayon, insho yozish, yozma ish uchun material to'plash, to'plangan materialni tizimga solish, sodda va murakkab reja tuzish, yozma ishga epigraf va ma'lum asarlardan sitatalar tanlash, qiziqarli epizod qo'shish, xatboshilarni to'g'ri belgilash, dialoglarni to'g'ri ajratish, dialogning muallif so'zi qismida qahramonning ruhiyatini ochuvchi, uni tavsiflovchi so'zlarni berish, gaplarni va matn parchalarini o'zaro bog'lovchi leksik-grammatik vositalarni to'g'ri qo'llash hamda matnni tahlil qilish. Og'zaki va yozma nutqda bog'langan qo'shma gap qismlaridan o'rinli foydalana oladi

**A2** -tinglangan matn, ko'rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi;

-matnlarni (mashq va topshiriqlar) to'g'ri va ravon o'qiy oladi;

-fikrini so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri va ravon bayon qila oladi. -140-160 so'zdan iborat diktantni yoza oladi. 20-25 gapdan iborat o'qib eshittirilgan matn asosida ijodiy bayon yoza oladi;

-matn rejasini tuza oladi, fikrni mustaqil, ijodiy, izchil bayon qila oladi. Imlo va tinishbelgilari qoidalariga amal qiladi, tanio' mavzuda taqdimot qila oladi. – mavzu doirasida ajratib olingan gaplarni imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilib yoza oladi. 20-25 gapdan iborat ijodiy matn (insho) yoza oladi. Matndagi gaplarni mazmunan o'zaro bog'lay oladi, fikrini izchil bayon qila oladi, o'rganilgan ifoda vositalaridan samarali foydalana oladi, sodda reja tuza oladi, yozma ishga epigraf tanlay oladi, badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalana oladi. Husnixat va imlo, tinish belgisi qoidalariga amal qiladi.

### **A2+**

-ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushuna oladi;

-fikrini so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri va ravon, qisqa, tushunarli bayon qila oladi. 160-180 so'zdan iborat

diktantni yoza oladi. 26-30 gapdan iborat o'qib eshittirilgan matn asosida ijodiy bayon yoza oladi;

-reja tuza oladi, fikrni mustaqil, ijodiy, izchil bayon qila oladi. Tanish mavzuda taqdimot qila oladi. Ish qog'ozlari (ariza, ma'lumotnoma, xat, ixcham hisobot, axborot, e'lon) ni yoza oladi. Matndagi gaplarni mazmunan o'zaro bog'lay oladi, o'rganilgan ifoda vositalaridan samarali foydalana oladi, yozma ishga epigraf tanlay oladi, badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalana oladi. Husnixat va imlo, tinish belgisi qoidalariga amal qiladi.

Matn va uning maqsadini ajrata oladi. Matnda xabar-hikoya, tasvirlash, mulohaza-muhokama kabi maqsadlarini farqlay oladi. Matnda qo'shma gaplardan foydalana oladi.

Nutq uslublari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. So'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy uslublarni farqlay oladilar. Matnda ulardan foydalana oladilar. Ish qog'ozlari ustida ishlay oladilar.

Umumta'lim maktablarida kompetensiyaviy ta'limi mazmuni, mohiyati, amaliy asoslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Anglash, bilish, amaliy qo'llash, tanish va notanish vaziyatlarda muammolar yechimini topa olish uchun zarur bo'lgan til hodisalari, nutqiy vaziyat va imkoniyat, matn yaratishga yo'naltiruvchi manba, mustaqil topshiriqlarning izchil tizimini dars jarayoniga tatbiq etish.

2. Nutqiy faoliyatni innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda izchil, bosqichma - bosqich shakllantirish, o'quvchi ongida muntazam suratda yangilanib boruvchi, doimiy harakatdagi og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirib borish (o'qish savodxonligini oshirish va til hodisalarini o'rganish jarayonida).

3. O'quvchini turli vaziyatga mos ravishda mustaqil va ijodiy fikrlashga, fikrni, ixcham, ravon, to'g'ri va o'rinli ifodalashga, o'zaro tanqidni to'g'ri qabul qilish, madaniy muloqot sirlarini egallab borish kompetensiyalarini o'zlashtirishga odatlantirish.

4. Berilgan bir mavzuda mustaqil matn yaratish, uni tahrir va qiyosiy tahlil qilish, jamoa oldida mustaqil ma'ruza qilish, notiqlik sirlarini egallash, o'z fikrini himoya qilish, xulosasini dalillar yordamida isbot qilishga o'rganish (aqliy hujum, debatlar, ijodiy yozma ish uchun ajratilgan maxsus soatlarda) v. h.

Pedagoglarning eng dolzarb vazifalaridan umumta'lim maktab o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishni innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etilishini ta'minlash, o'quvchida mavjud bo'lgan lug'at zahirasi, nutqiy intellektual qobiliyatni aniqlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, egallangan bilimlarni mustahkamlashga o'qish savodxonliklarni oshirish orqali mustaqil matn yaratishning texnologiyasini ishlab chiqish, shu tizim asosida o'quvchining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Demak, jahon baholash talablari asosida o'qitishning bosh maqsadi o'quvchi mustaqil fikrlashi, ijodiy fikr mahsulini yozma, og'zaki shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish ekan, til va adabiyotni o'qitish fani oldida o'z yechimini kutib turgan navbatdagi dolzarb vazifa o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdir.

### **Savollar:**

1. Yozma ish darslarini tashkil etishda qo'yiladigan talablar haqida gapiring?

2. Ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar qaysilar?

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasini shakllantirish uchun qanday ishlaramalga oshirilishi kerak?

4. DTS talablariga ko'ra ona tili o'quv fani sifatida qanday tashkil etiladi?

5. Ona tili va adabiyot o'qituvchisi qanday kasbiy kompetentlikka ega bo'lish zarur?

6. Kompetensiya haqida gapiring.

## YOZMA ISHLAR O'QUVCHILAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

### *Reja:*

1. O'quvchi ma'naviyatining rivojlanishida yozma ishlarning ta'siri.
2. Yozma ishlarning o'quvchilar tafakkuri o'sishidagi ahamiyati.
3. Yozma ishlar orqali mustaqil fikrlashga va nutqiy savodxonlikka o'rgatishning alohida xususiyatlari.
4. Nutqiy madaniyat, tafakkur va ma'naviyat.
5. Yozma ishlar o'quvchilar tafakkurini shakllantirishda asosiy vositalardan birisifatida.

Bugungi jamiyatning taqdiri unda yashaydigan mutaxassislargagina emas, balki sog'lom ma'naviyatli insonlarga bog'liq bo'lib bormoqda. Chunki, jamiyatning gullab-yashnashi ham, qoloqlik botqog'iga botishi ham unda yashayotgan odamlarga bog'liqligi har tomonlama isbotlangan. Shu nuqtayi nazarga asoslanib yoshlarimizni chin insoniy ma'naviyatga yo'g'rilgan, barkamol qilib tarbiyalash barcha pedagoglar zimmasidagi vazifadir.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarning dasturilamali bo'lgan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" mohiyati haqida shunday degan edi: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydi. Agar bola erkin, mustaqil fikrlashni o'rganmasa, unga berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir". Zaruriy iqtisodiy strategiya asosida ijtimoiy rivojlanishni umumjahon taraqqiyoti darajasiga ko'tarishni maqsad qilgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida ham umumiy o'rta ta'limning asosiy maqsadlaridan biri, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ong, tafakkur va til hodisalarining bir-birini taqozo etishi, biri-birisiz rivojlana olmasligini inobatga olsak, ijodiy

tafakkur sohibi tarbiyasida ona tili va adabiyotning eng asosiy muhim vosita ekanligini ta'kidlab o'tirishga hojat yo'q. Zero, intellektual bilim, kasbiy mahorat, eng nodir kashfiyotlar ham birinchi galda ona tili yordamida dunyoga keladi, ona tilida namoyon etiladi, ona tilida rivojlanadi va himoya qilinadi. Milliy pedagogikamizning asosiy tamoyillaridan biri yozma nutqni shakllantirish orqali tafakkurni yuksaltirish bo'lgan. Jumladan, Alisher Navoiyning tasvirlashicha, tili jonsiz shirasiz, g'aliz bo'lgan har qanday badiiy asar emas. Badiiy asarda so'zlar va iboralar haroratli bo'lmasa, nur bermaydigan shamga o'xshab qoladi.

Alisher Navoiy nutqdagi ortiqchalik tinglovchini, eshituvchini zeriktiradi, biror kishiga, yoki ko'pchilikka biron-bir mulohazani bayon etish uchun ko'p yozish yoki ortiqcha so'zlash xatolikdir, deydi: "Tilingni ixtiyoringda asrag'il, so'zingni ehtiyot bila degil... Tiling bila ko'nglingni bir tut. So'zni ko'ngulda pishirmaguncha tilga kelturma, harnakim ko'nglingda bo'lsa tilga surma. Agar tilni asramoq ko'ngulga mehnatdir, ammo so'zni sinamoq boshqa ofatdur".<sup>9</sup> Alisher Navoiy oz, sodda, ravon so'zlamoq nutqning ko'rki, bezagi, nutq odobi, deb biladi.

So'z va sarkardalik ilmining benazir bilimdoni bo'lgan Bobur o'z farzandlarining ham adib va arbob sifatidagi kamolini ko'zlab, ularning nutq san'atini egallashini, o'ta savodli inshoga ega bo'lishini eng jiddiy vazifa deb hisoblagan. Nutqning sodda, ravon va aniq bo'lishiga, nutqiy malakaning yuqori bo'lishi lozimligiga alohida e'tibor berganligi, uning xoh nazmiy bo'lsin, xoh nasriy bo'lsin, barcha asarlarida nafis nutqning nodir namunalarini ko'rish mumkin.

Jadid pedagoglari ham yozma nutqning inson tafakkuriga ta'sirini yaxshi ilg'ashgan. O'quvchilarga mo'ljallangan matnlar mazmuni, sodda-murakkabligiga diqqat qilishga chaqirib: "... mushkul iboratlik uzun insholar, albatta, bola zehnini ochmay, balki fikrini(ng) yo'q bo'lishig'a sabab bo'lur. Biljumla mamoliki islomiyaning maktablarindagi bolalar uchun yengil suratda insho

tayyorlanubdurki, ibtidoiyya, rushdiyya, e'tidodiyya maktab talabalarini(ng) har birig'a muvofiq suratda insho ta'lim beriladur". Demak, avvalo, nutq ishontira olishdir. Nutq asoslar va dalillar bilan isbotlanishi lozim va bu qobiliyatlar o'quvchilarda ham shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Ona tili va adabiyot fanining asosiy maqsadi – o'quvchi nutqi madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ona tili o'qitish dasturi va metodikasi mazmuniga nutqni rivojlantirish bilan bog'liq tuzatish va qo'shimchalar kiritildi. Bugungi voqelik o'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni maqsadli rivojlantirish jarayoni sifatida qarashni talab qiladi. Shu sababli asosiy e'tibor, nutq fikr bayonini ifodalashga bo'ysundirilib, yaratilgan matn o'quvchi idrokini hisobga olishga qaratilishi kerak. Bu yo'nalish zamonaviy ta'limda nafaqat fan rivojiga, balki fanlararo integratsiya rivojini ta'minlovchi bilim va kommunikativ ta'lim samaradorligiga mo'ljallangan. Nafaqat ona tili darslarida, balki adabiyot darslarida ham o'quvchilarning idrokini oshirish maqsadida matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Amaliy faoliyatda o'quvchining tafakkuri va nutqi shakllanadi. Sabab-oqibat aloqalari o'quvchining ongida til vositasi orqali yuzaga keladi va nutq jarayonida amalga oshiriladigan kommunikativ faoliyatni voqelik bilan umumlashtiradi. Matn yaratish jarayoni vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- matnni idrok etish;
- matnni talqin qilish;
- matnni yaratish.

Ushbu vazifalar o'quvchiga matn mohiyatiga chuqurroq kirishga yordam beradi.



Inson fikrlash jarayonida voqelik va hodisalarni o'z maxsus belgilari, ular orasidagi bog'lanishlar bilan, ya'ni tavsiflab, hikoya qilib va mulohaza yuritib ifodalashi mumkin. Ushbu birliklar o'quvchilar diqqatini faqat matn nima haqidaligiga emas, balki nutq mavzusi haqida fikrlashga undaydi. Matnning ma'noviy qismlari tahlilida esa o'quvchi muallif matnni nima maqsadda yaratgan va qanday motivga asoslanganligini inobatga olsa, yaratadigan matnlarida g'oyani shakllantirish va amalga oshirish uchun o'z motivini va maqsadini aniqlashtirishga erishadi. Matn turlari bilan ishlash maktab o'quvchilari uchun eng maqsadli usul, chunki u matn xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettiradi. Matnning asosiy belgilarida nimani aytish rejasi va qanday ifoda etish rejasi bo'lib, bu belgilar tipik xususiyatga ega ma'no va ularni yetkazib berish uchun shakl bilan nutq uslubida ham aks etadi. Matn bilan ishlash faoliyati motiv bilan bog'lanishi zarur, chunki motivsiz matn yaralmaydi. O'quvchilarning yozma matn yaratish layoqatini rivojlantirish og'zaki nutqni boshqarish va rivojlantirishga qaraganda ancha murakkabroq jarayon hisoblanadi. Matn yaratish layoqatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, ichki chuqur rag'batga asoslangan, matnni qurish qonuniyatlari, mavzuni ochib berish zaruriyati hamda asosiy g'oyani to'liq shaklda ifodalash haqidagi barqaror fikrlarni umumlashtirish zarur. Matn tahliliga esa tanqidiy baholash nuqtayi nazaridan yondashib, namunali matn yaratishga intilish talab etiladi.

Idrok etish va matndagi muallif niyatini talqin qilish hamda nutq jarayonida o'z niyatini yaxlit, izchil nisbiy to'liq izohlash subyektning shaxs sifatidagi boshlanishini shakllantiradi. O'quvchi har qanday matnni idrok etish va talqin qilishda, matnning tashqi ma'nosidan ichki ma'nosiga o'ta olsa, matn yaratish jarayonida nutqiy muloqotning teng huquqli ishtirokchisi sifatida o'z qobiliyatlarini lingvistik shaxs sifatida amalga oshira oladi.

Muloqotda tez va to'g'ri harakat qila olish, nutqni to'g'ri rejalashtirish, muloqot akti mazmunini to'g'ri tanlash, ushbu

mazmunni yetkazish uchun adekvat vositalarni topish ko'nikmalari shakllantirilishi lozim. Matnni baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- mavzu va topshiriqning mazmunga muvofiqligi;
- mantiqiylik;
- izchillik;
- uzviylik;
- tugallanganlik;
- qabul qiluvchining kutganiga, uning manfaatlariga mos

kelish.

N.I.Jinkin o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarida shunday xulosaga keladi: "Bu yo'nalishdagi matnni nazorat qilishda, faqat bitta vosita bor-uni "boshqalarning ko'zlari bilan" qayta o'qish, kitobxon nuqtayi nazaridan yondashish, predmet bayoni haqida hech narsa bilmagandek, faqat yozma matnga tayangan holda qayta tushunish". Bu xulosa o'quvchining tahliliy va ijodiy matn yaratish kompetensiyasi o'zaro bog'liq shakllanishi zarurligini taqozo etadi va bu jarayonning barcha bosqichlarida o'qish savodxonliklarni oshirish talab etiladi.

O'quvchilar bayonidagi kamchilik tufayli nutqning kommunikativligi tabiiyligini yo'qotadi va tilshunos, psixologlar bu qiyinchiliklarni yengish uchun o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini oshirish kerakligini ta'kidlaydi. "Nutqning tabiiy aloqasi" paydo bo'lishini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning matn yaratish layoqatini shakllantiradigan tegishli innovatsion texnologiyalardan foydalanib, tahliliy, ijodiy va klaster faoliyat jarayonida erishish mumkin.

Motiv ta'sirida yuzaga kelgan bayon g'oyasi, o'quvchi tajribasi va fikrlash qobiliyatlariga tayanishi sababli, o'quvchilarning intellektual faoliyatida ong va hissiy soha paydo bo'lishi va rivojlanishiga ko'maklashuvchi tahliliy, ijodiy va klaster matn bilan ishlash faoliyatini o'zaro bog'liq holda shakllantirish kommunikativ-

kognitiv jarayonning asosi sifatida qaraladi.

G'oya konsepsiyasi mashhur xorijiy psixologlar, psixolingvistlar, neyropsixologlarning bayon yaratish nazariyasini ishlab chiqish ishlarida markaziy qismlardan biridir. "Butun matn g'oyasi" va "g'oyani amalga oshirib, matn yaratish" tushunchasini psixolingvistikaga N.I.Jinkin kiritdi. N.I.Jinkinining tadqiqotlariga ko'ra, "Agar matnning semantikasi matn yozishni boshlashdan ancha oldin ta'minlanmagan bo'lsa, birinchi jumlaning yozishdan noaniqlik, maqsadsizlik boshlanadi, tushunmovchilik yoki ma'nosizlik kelib chiqadi".

O'quvchilarning matn yaratish layoqatini rivojlantirish jarayonida, avvalo, tahliliy faoliyat obyekti bo'lgan muallif matnlari bilan ishlanadi, buning natijasida ularda mantiqiy va ijodiy faollik, o'ziga nisbatan ishonch hissi kuchayadi.

Bayonning ichki dasturlash bosqichlari tashqi rejadagi leksik va grammatik joylashuv va amalga oshirilish bosqichidan oldin keladi. Barcha turdagi bayon natijasi ularni shakllantirish texnologiyalarini to'g'ri tanlashga bog'liq. Tahliliy jarayon asosida mustaqil ravishda matn yaratishning maqsadli yo'li taqlid uchun birinchi bosqichdagi namunani to'g'ri tanlashdan boshlanadi. O'quvchilarning ijodiy matn yaratish layoqatining rivojlanishida matnni original his qilish muhim ahamiyatga ega. Agar g'oyadan bevosita oldingi kommunikativ niyatga alohida e'tibor berilsa, o'quvchi faqat mavzuni yoritishni emas, bayonning umumiy mazmun va mavzusidan yaxshi xabardor bo'lib yozadi, keyin umumiy g'oyani yaratadi va rivojlantiradi, natijada, bir vaqtning o'zida ham berilgan mavzuni ochishga, ham mavzu bo'yicha nima deyish kerakligini dolzarblashtirishga erishadi. Mashhur psixolingvistlar matn yaratishning asosi motiv ekanligiga va uning ichki nutqda g'oya shakllanishiga turtki berishiga, "nima haqida yoritish kerak", "nimani yoritish kerak", "qanday yoritish kerak" degan savollarga javob talab qiladigan bayonning semantik dasturida va keyin tashqi nutqda paydo bo'lishiga qo'shiladi. Avvalo, motivatsion

komponentni amalga oshirish idrok natijasi, matnни talqin qilish va muallifning niyatidan xabardor bo'lish bilan qaror topadi (1.1 rasm).



**1.1-rasm. Motivatsion komponentni amalga oshirish**

Matn yaratish layoqatini rivojlantirish jarayonidagi katta qiyinchiliklar matn yaratuvchisiga suhbatdosh tasavvuri bilan bog'liq, bu yozuvchiga matn kimga qaratilgan bo'lsa, ular haqida tasavvur talab qiladi. Boy tasavvurga ega kitobxon qobiliyati va vaziyatga ko'ra muloqot qobiliyati shakllansa, o'quvchining tafakkurini rivojlantiradi, fikr oqimining batafsil ifodasi uchun malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish mumkin. Bu o'quvchini bir vaqtning o'zida ham "yozuvchi", ham "kitobxon" sifatida shakllantiradi va matndagi ifodalarni ikkinchi shaxs nuqtayi nazaridan kuzatib, muallif maqsadini tushuna oladigan o'quvchini tayyorlaydi.

Matn yaratish layoqatini rivojlantirishda maxsus mazmun va ish usullarini ikki qirrali deb hisoblash mumkin. Ushbu jarayon jiddiy ilmiy-didaktik asosli bazani yaratish, o'quvchilarga turli xil matn bilan ishlash turlarini o'zaro bog'liq va uzviy munosabatlarda o'rgatishdan iborat. Zamonaviy ta'lim ehtiyojlarida, muloqotning semiosotsial va psixologik nazariyasi oldinga chiqishi, matn ham nutq sifatida, ham mazmuniy-semantik blokka nisbatan yuqori tartibli murakkab belgi sifatida ko'rila boshlaydi. Bunda matn nima haqida, qanday aytilgan, nimaga qaratilganligini emas, balki qanday

maqsadda yaratilganligi, muallifning kommunikativ niyati va uni qanday amalga oshirishi e'tiborga olinadi. Shuningdek, matnning asosiy mazmunini o'quvchi qanchalik adekvat idrok etganligi va talqin qilganligi inobatga olinadi. Muallif matnni yaratishda o'z shaxsiy farazlari mazmunini saqlagan holda kitobxonning fikrini hisobga olishni maqsad qiladi.

Matn yaratish layoqatini rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida, motiv yaratish harakatlarining turli darajadagi murakkabliklari o'qituvchi tomonidan o'ylab topiladi. Shuningdek, bir qator omillarni, jumladan, o'quvchilarning nutqini rivojlantirish va psixofiziologik imkoniyatlar hamda o'quv vaziyatlarini hisobga olgan holda matn bilan ishlash jarayoni amalga oshiriladi. Matn yaratish layoqatini rivojlantirish texnologiyalari, o'qituvchi tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Matnni rejalashtirish psixolingvistika va pedagogikada doimo asosiy diqqat markazda bo'lgan. Bu bosqichda o'quvchilarga ta'limiy hamkorlikda yoki mustaqil ravishda g'oya ishlab chiqish uchun vaziyat yaratiladi, bu avvalo, reja shaklida amalga oshiriladi. Xorijiy psixologlar matn yaratishda dastlabki samarali yondashuv taxminiy reja tuzish va keyinchalik matnni tekshirish, qayta ishlab chiqishdir, degan xulosaga kelgan. Yozish jarayonida yangi tug'ilgan fikr ko'pincha rejada ko'zlanmaydi, dastlab taxminiy rejada asosiy fikrni rivojlantirish yo'llari ko'rsatiladi va uni ifodalash yondashuvlari shakllanishi va matn elementlari o'rtasidagi munosabatlar biridan ikkinchisiga o'tish izchilligini ta'minlashi zarur. Fikrlash bosqichi rejalashtirish bosqichiga o'rnatiladi va ijodiy faoliyatning imkoniyatlarini kengaytirish uchun matnni yaratish jarayonida ham rejani qayta qurish talab etiladi. Xatboshilarni kengaytirish yoki qisqartirish, rejaning tartibini o'zgartirish yoki ba'zi bandlarini olib tashlash shular jumlasidandir.

Rejaga muvofiq fikr bayonini amalga oshirishda o'quvchilar asosiy g'oyani aniqlabgina qolmay, balki ularni matn birliklari doirasida tahlil qiladi, bu esa matn tarkibini tashkil etuvchi

qismlarni birlashtiradi. Bu yondashuvlar hamkorlikda ishlashni, mustaqillikni va asosiy fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan kalit so'zlar va iboralardan foydalanishni talab qiladi.

O'quvchilarning matn yaratish layoqatini rivojlantirish modelining vazifani taqdim etish va tashkil etish jarayoni quyidagilarga qaratilmog'i lozim:

motivatsion komponentni amalga oshirish; idrok etish va matn talqini;

muallifning niyatidan xabardor bo'lish.

O'z g'oyasini bayon etishga intilayotgan muallifning matn yaratishga qaratilgan harakatlar majmui motiv to'g'ri tanlansa, maqsad to'g'ri belgilansa, g'oya aniqlashtirilsa va fikr izchilligi ta'minlansa, samarali faoliyatni shakllantirishga yordam beradi.

O'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati matnni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy omillaridan hisoblangan. Zamonaviy ta'lim sharoitida universal o'zlashtirish ustuvorlik etgan jarayonda, shu jumladan, ta'limiy jarayonlarda ma'lumotlar oqimining ko'payishi tanqidiy yondashuvni talab qiladi va olingan ma'lumotlarning ishonchliligini baholash alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Bunday yondashuvlarda o'quvchilar yaratayotgan matnlarida egallagan ko'nikma va qobiliyatlarga tayanadilar va matnni baholashning muhim mezonlari, fikr ifodasining vazifaga va mavzuga mosligi, shuningdek, mantiqiylik, izchillik, ketma-ketlik va tugallanganlik talablari, ya'ni kitobxonning kutganlariga muvofiqligi inobatga olinadi. Matnni bunday baholash o'quvchilarning kitobxonlik malakalariga tayangan holda kechadi, matnni baholash kitobxon pozitsiyasidan amalga oshiriladi. Bular zamonaviy axborot davrini hisobga olib, o'quvchilar egallashlari zarur bo'ladigan kommunikativ-kognitiv jarayon asoslari tahliliy, ijodiy matn yaratish kompetensiyalarining o'zaro bog'liqlikdagi kuchli aloqasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Matnning qismlari tahlilida, bir tomondan, g'oyaning keyingi rivojiga yo'llovchi fursat, fikrlar izchilligi, ikkinchi tomondan,

matnning bosh g'oyasi va tuzilishini talab qiluvchi tanqidiy baho o'z aksini topishi kerak. Matnni tahlil qilish va tanqidiy baholash bosqichi g'oyani amalga oshirish bosqichidan boshlanishi maqsadga muvofiq.

Matn bilan ishlashga o'rgatish kommunikativ va kognitiv faoliyat mexanizmlari rivojlanishi uchun optimal sharoitlar yaratadi. Jamiyatda o'zaro munosabatlarga tayyor, muloqotga qodir o'quvchi nutq odobini o'zlashtirib, uni matndarajasiga yetkaza oladi.

Shaxsning har tomonlama va to'liq rivojlanishi faqat qobiliyatlar qaror topishiga asoslangan o'z faoliyati jarayonida sodir bo'ladi. Shuni hisobga olish kerakki, rivojlanishni maqsadga muvofiqlik, to'g'ri yondashish, uzluksizlik kabi xususiyatlar amalga oshiradi va rivojlanish darajasi nafaqat tezkorlik va davomiylik, balki ongli faoliyat bilan ham belgilanadi. "Agar menda qandaydir mahorat bo'lsa va u menda mavjudligini bilmasam, men uni beixtiyor ishlataman. Ongli qilinadigan ish, beixtiyor amalga oshiriladi, tegishli vaziyat yo'qligida bajarish juda qiyin", deb yozgan edi L.S.Vigotskiy. Shuningdek u shaxsiy harakatlarni boshqarish refleksi va ongli ko'nikmalarni egallash zarurligini ta'kidlaydi. Ongli harakat esa faqat amaliy jarayonda shakllanadi, chunki o'quvchi nutqida ma'lum qobiliyatlar mavjud, lekin u bularga ega ekanligini bilmasa ongli, maqsadli, ixtiyoriy ravishda bajara olmaydi va o'z bilganlaridan ketma-ketlikda foydalanishga qodir emas. U maktabda bajaradigan ishini ongli tushunib, o'z bilimlaridan erkin, ketma-ketlikda foydalana olishga o'rganadi. Uning malakasi beixtiyor, ongsiz harakatdan maqsadli, rejali, ongliga o'tadi. Onglilik matn yaratish jarayonida harakat maqsadini tushunishni, har bir xususiyatiga nisbatan qarorlar qabul qilishni bildiradi.

Matnni idrok etish jarayonidagi harakatlar o'quvchilarning o'z his-tuyg'ulari aks etishiga va fikrlash qobiliyatiga asoslanishi va bu fikr, tuyg'ularning paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish jarayoni bilan bog'laydi. Fikrlash qobiliyatlari o'z mulohazalarini yaratish istagini uyg'otadigan kuchli omillardan biridir, chunki har bir

mulohaza akti harakatlarni ongli his qilish, tushunish va insonning nafaqattuyg'ularini baholash, balki fikrlash hamda rejali faoliyatidir. Refleksiya matn faoliyati paydo bo'lishida onglilikni ta'minlaydi va matn bilan ishlashda o'quvchining o'zini muallif pozitsiyasida tasavvur qilish qobiliyatini shakllantiradi va shu tufayli o'quvchida muloqot jarayonida tinglovchiga yetkazib bera oladigan o'z fikrlari shakllanadi. Refleksiya tajribasining ko'payishi ta'limda boshqa sharoitlar qatori matn bilan ishlashning mazmunini, maqsadini, tugal qimmatini tushunishga qodir qiladi. Bu tushuncha mustaqil matn yaratish, o'quvchilarning o'z fikrini bayon qilishda ichki ishtiyoq uyg'otuvchi mustahkam poydevor, tinglovchi pozitsiyasini tushunish kabi ijodiy faoliyat va yuqori natijalarga intilishni shakllantirish uchun zarur. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiya shakllansa, har qanday muloqot o'quvchinig o'z-o'zini anglashida ustuvorlik qiladi. Ta'lim jarayonining samaradorligi quyidagilarga bevosita bog'liq:

- hissiy idrok;
- mantiqiy tushunish;
- mazmunli idrok;
- amaliy qo'llanilish tabiati.

Matn bilan ishlash jarayoni idrok etilgan matn mazmuniga o'quvchilarning hissiy munosabati, matn mazmunining rejaga muvofiq tanlanishi, ushbu mazmun tarkibining qurilishi va o'z ifoda faoliyati natijasi bilan birga kechadigan jarayondir. Matn bilan ishlash faoliyatida o'quvchilar obyektning aniq tavsifi, uning umumiy xususiyatlarini aniqlash, muallif tomonidan tanlangan tafsilotlar va ularning xususiyatlariga mualliflik munosabatlari, matnning rasmiy kompozitsion rejasini belgilash orqali matnning tarkibiy va semantik rejasi bo'yicha matn harakatlari va operatsiyalarni ixtiyoriy, maqsadli va ongli ravishda amalga oshirishadi.

O'z rejalarini amalga oshirishda o'quvchilar matnlar bilan



ishlash orqali g'oyadan uni amalga oshirishgacha matn mavzusini aniqlash, asosiy fikrni shakllantirish va yaratiladigan matnning tipologik tuzilishini aniqlashda izchil yo'lni bajarishlari kerak. Bu jarayonlarning muvaffaqiyati, o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning har bir bosqichida o'tkaziladigan ongli harakatlarning uzluksizligi bilan ta'minlanadi. Onglilik-matnlarni talqin qilish va yaratish jarayonida, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish orqali matn bilan ishlash turlari va operatsiyalarni tanlash va amalga oshirish bilan bog'liq hayotiy, kommunikativ, ta'lim tajribasi, hissiyotlarni jalb qilish imkoniyatini beruvchi matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning eng muhim mexanizmidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, refleksiyaning ta'limdagi yoyilmasi o'qitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari va innovatsion texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq holda rivojlanadi. Bunday vaziyatlarda amalda qo'llanilayotgan topshiriqlar bilan qancha ko'p ishlansa ham, kutilgan natijaga erishish qiyin bo'ladi. Ba'zi o'quvchilarning so'z boyligi kamligidan, kerakli so'zlarni o'z vaqtida topolmay qiynaladi, bunday muammolardan kelib chiqqan holda, o'qitishni o'qish savodxonliklari ustida ishlashga qaratish talab etiladi. Aks holda, ayrim o'quvchilar balog'atga yetganda ham fikrini yetkazib bera olmaydigan bo'lib qolishadi. Bu kabi "nutqiy kemptiklik" turli davralarda o'quvchiga bir umr xalaqit berishi mumkin. O'qituvchi o'z vaqtida nutqi rivojlanmagan o'quvchilarga alohida e'tibor berib, nutq o'stirish ustida muntazam ishlasa, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirsa, ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosini topgan hisoblanadi.

Bu jarayonda yosh avlodning aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning ta'biricha, tafakkur inson miyasida sodir bo'lib, uning nutqida xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Tafakkur aqliy hamda ongli xatti-harakat bo'lib, u atrof-olam, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish vositasi hamda inson faoliyatini to'g'ri va

mazmunli amalga oshirishning asosiy belgisidir. Inson fikrlash jarayonini yuzaga keltirishning asosiy sharti undagi borliq sirlarini bilishga bo'lgan xatti-harakat, kuchli ehtiyoj, ya'ni cheksiz qiziqishdir. Mantiqiy fikrlash – ongli ravishda ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarga tayanib fikrlash bo'lib, mantiqning yo'qligi fikrlash jarayonida onglilikning, ilmning yo'qligidir. Fikrlash insonning aqlan va ruhan sog'lomligining birlamchi belgisidir. Uning mustaqilligi tushunchalar, mantiqiy birikmalar, mavjud til vositalaridan oqilona foydalanish bilan tavsiflanadi. Fikrlashning mustaqilligi kishi shaxsiyati va «men»i bilan bog'liq. Mustaqil fikrlash barcha maqsadlar yo'lida bilimi, hayotiy tajribasiga tayangan ongli aqliy faoliyatdir. Fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining tashabbuskorligi, mulohazakorligi, puxtaligi bilan belgilanadi. Avvalo, insoniyatning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish hamda ajdodlar ma'naviy manbalarini tadqiq etib jamiyat rivojiga hissa qo'shishni o'quvchilar ongiga singdirib borish zarur. Yozma manbalarni o'rganish va shunday manbalarni matn yaratish texnologiyasi orqali hosil qilish mumkin. Demak, asosiy imkoniyatlardan biri matn yaratishdir. Til imkoniyatlar manbai, matn esa natijalar mevasidir, chunki matn egallagan bilim, ko'nikma, malakalar hosilasidir. Mustaqil yaratilgan matn o'quvchi tafakkuri qobiliyati aks etishi, tugal mantiqli, falsafiy xulosaning o'quvchi tomonidan kashf etilishi, yuzaga chiqishidir. Aynan mana shu kashfiyot shaxsnirivojlantirish kompetensiyasining bosh manbaidir. Bu yutuqqa erishishni matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishdan boshlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilim o'zlashtirish qobiliyati ijodkorlikni, yaratuvchanlikni yuzaga keltiradi. Mantiqiy fikrlashning xato qilmaslik talabi, o'quvchini izlanishga, kashf qilishga yo'naltiradi, shaxs sifatida o'zligini anglash, o'z bilim va iqtidorini o'zgalarga namoyish qilish istagini paydo qiladi. O'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uni yozma fikr ifodalash, mustaqil matn yaratishga o'rgatish, o'qish

savodxonligini oshirishdan iborat. Kishi fikri mustaqilligining belgilaridan biri – yaratuvchanligi insonning o‘z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo‘yishi, ularni amalga oshirish yo‘llarini topa bilishidadir. Bu faoliyat mustaqilligi favqulodda vazifalarni tez bajarish, jarayonda qo‘l keladigan usul va vositalarni zudlik bilan tanlay bilish, yaratish ularni farqlashda ko‘rinadi. Aqliy faoliyat mulohazakorligi esa mustaqil fikrlovchining vaziyatga munosabati va xususiyatlarini ajrata bilishidadir. Ma‘lumki, tafakkur jamiyatning barcha qatlamlarida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Inson faqat ta‘lim-tarbiya muassasalarida fikrlashga o‘rgatilmaydi. U har bir ruhan sog‘lom insonda tabiatan mavjud bo‘lgan aqliy-jismoniy hosiladir. U har kimda o‘ziga xos tarzda, o‘z intellektual darajasida mavjud bo‘ladi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida tafakkurning shakli, sifati, darajasini tarbiyalash, ma‘lum yo‘nalishni belgilash, uni sayqallash va rivojlantirish mumkin. O‘quvchi fikrining ta‘sirchanligi, ehtiyotkorligi, harakatchanligi yoki faoliyatsizligi, o‘sinh-rivojlanishi uning ta‘lim jarayonida shakllantiriladigan sur‘ati va sifatiga ham bog‘liq. Inson fikrlashining hissiy, obrazli, mantiqiy salmog‘i tafakkur jarayonining rivojlanish sur‘ati bilan qanchalik aloqador bo‘lsa, uning sifat yo‘nalishlari bilan ham shunchalik bog‘liq. Mustaqil tafakkurgaega bo‘lmagan kishilar, o‘zgalar fikrining quliga aylanadilar. Bunday insonlar fahm- farosatdan yiroq bo‘lib, kaltabin va majruh qalb egalaridir. Bular millat taraqqiyotining zavoli, fikr egasining fojiasidir. Inson aqlining faoliyati hamda sifati uning o‘ziga bilinmaydi, shu sababli o‘quvchilarda fikrlash mustaqilligini nazorat qilish, uni taqqoslash hamda rivojlantirishga o‘qituvchi mas‘uldir. Buning uchun o‘qituvchidan ziyraklik, ta‘lim jarayonining har bosqichida har bir o‘quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi.

Darslarda o‘quvchi faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylansagina, o‘rganilayotgan mavzuni tushunishi va o‘zlashtirishi osonlashadi. Buning uchun o‘qituvchi–o‘quvchi orasida hamkorlik bo‘lishi kerak. Bu esa yangi pedagogik texnologiyani

qo'llashda namoyon bo'ladi. Ona tili va adabiyot mashg'ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g'oya va ajdodlarimiz an'analarini e'zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda yozma ishlarning ahamiyati katta.

Masalan, o'quvchilarga xos bo'lgan harakatchanlik, ishtiyoqning zo'rliigi, turli muammolarni mustaqil hal qilishga bo'lgan moyillik, mustaqillik sari intilishning balandligi bilan ta'lim-tarbiya jarayonidagi bir xillik, sustlik kabi farqlarning zararli oqibatlari ochib berilishi lozim. Bunday o'qitish natijasida bola mustaqil fikrlamaydigan kimsaga aylanadi va tabiiyki, biror ishni bajarishdan zavq, lazzat yoki qoniqish tuymaydi.

### **Yozma ishlarning mustaqil fikrlashga o'rgatish xususiyatlari.**

Ma'naviy-ma'rifiy buloqlarimiz hisoblangan Qur'oni Karim va muborak Hadislarda ham, qolaversa mumtoz adabiyotimiz namunalarida, mutafakkir ajdodlarimiz qarashlarida ham odam ma'naviy kamolotini ta'minlashga doir fikrlar ustuvorlik qiladi. Mustaqillik davrida qator olimlarimiz o'quvchi tafakkuri mustaqilligi masalasiga e'tibor qaratishgani bejizga emas, chunki ota-bobolarimiz avlod tarbiyasiga, mustaqilligiga jiddiy yondashishgan. Maktab davrida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ona tili va adabiyot o'qituvchilari faoliyatida samaraliroq kechishi bilan ajralib turadi. Chunki boshqa o'quv fanlari aniq qonun- qoidalar, xulosalar va nazariyalarni o'rgatadi. Ammo nutqiy faoliyat ta'limining istalgan bosqichida o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil hal qilib, o'zining haqiqatini yaratish mumkin. Bunday imkoniyatlar, ayniqsa, yozma va og'zaki nutqlarni shakllantirishda yetakchi o'rinlarda turadi. O'rganilayotgan badiiy matn, undagi qahramonlar, tasvirlangan biror hodisa yoki vaziyatni har bir o'quvchi asar muallifinikidan farqli o'z xulosalari bilan baholay oladi. Ijodiy ishlarni ularning mustaqil fikrlarini aks ettirishlariga

yo'naltirib tashkillashtirish tafakkur darajalarining oshishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'z fikrlarini tugal va mantiqli izohlash zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Badiiy adabiyot og'zaki ijodning boshqa turlaridan farq qiladi, chunki o'qish paytida o'quvchi ongida ko'rinadigan, unutilmas tasvirlar tug'iladi.

Yuqoridagilardan tashqari qadimda tafakkur rivojida "Eydos-konspekt"lardan ham foydalanishgan. Bu tahlilda asosiy e'tibor asarning estetik qimmatini har kim mustaqil ko'rsatishga, asar badiiyligini ta'minlagan omillarni idrok etishiga va asardan o'z g'oyasini yaratishga qaratilishi lozim. Eydos (yun.-ko'rinish, timsol) - yunon falsafasi va adabiyotidagi tushuncha. Dastlab "ko'rinadigan", "ko'rinib turgan", "tashqi" (Gomer), keyinchalik muayyan hodisa, ko'rinadigan mohiyat (Parmenid), substansional g'oya (Platon), shakl (Aristotel) ma'nolarini bildirgan. E.Gusseri (1859-1938) fenomenologiya fakt (hodisa)dan farqlanadigan mohiyat sifatida tavsiflagan. So'ngi davr falsafasida "Eydos" tushunchasi dastlab "g'oya", "ko'rinadigan", "ko'rinadigan narsa", "tashqi ko'rinish" degan ma'noni anglatadi, konspekt-biror narsa mazmunining qisqacha bayoni yoki qisqacha tasviri. Adabiyot darslarida asar mazmunini idrok etishda, muallif fikrlarini anglashda yordam beradi. Butun mavzuni "Eydos konspekt" yaratish orqali loyihalash faoliyati bitta darsning bir qismi bo'lishi yoki tadqiqot ishiga aylanishi mumkin. Badiiy matnda hali ko'p narsa yashiringan bo'lib, har bir avlod mumtoz asarni o'ziga xos tarzda ko'radi. Asosiysi, yozuvchi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida suhbat paydo bo'lishi muhimdir. "Eydos-konspekt" badiiy asar mavzusi va obrazlari haqidagi tasavvurlarni talqin qiladigan rasm va qisqacha mulohazalardir.

Haqiqiy yozuvchi qahramonlarni, hayot hodisalarini aniq tavsiflay oladi. Va u buni ko'zga tashlanmasdan, sezilmasdan qiladi, go'yo muallif fikrlari matnda sochilgan marvaridlar singari yashirin bo'ladi. O'ychan o'quvchi ularning yonidan befarq o'tolmaydi.

Ammo o'qituvchi o'quvchisi nimani ko'rganini va u matnda

yashiringan asosiy g'oyani ilg'ay olganini qanday aniqlay oladi? O'quvchilar asar zamiridan ilg'agan kashfiyotlarini tushunishga yordam beradigan usul ular yaratgan "Eydos- konspekt"lardir.

O'quvchilar uchun "Eydos-konspekt"lar bilan ishlashning maqsadli afzalliklari:

- asar g'oyasini tushunishni chuqurlashtiradi;
- muallifning badiiy topilmalarini o'rgatadi;
- o'qiganlarining majoziy tasvirini ishlab chiqaradi;
- turli faoliyatlarni integratsiyalaydi.

-o'quvchidan mavzular, qahramonlarni tanlashda mustaqil ishlashni talab qiladi, uning faoliyatini o'rgatadi;

-o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, san'atning turli turlarini birlashtiradi:

adabiyot va rasm;

O'qituvchilar uchun Eydos-konspekt bilan ishlashning afzalliklari:

-rassom tomonidan yaratilgan tasvirni o'quvchining ko'zlari bilan ko'rishga yordam beradi;

-asarni idrok etish darajasini tekshirishga imkon beradi, chunki EK o'quvchi tomonidan matn qanchalik chuqur tushunilganligini ko'rsatadi;

-turli faoliyatlarni integratsiyalaydi.

-ko'pincha o'qimagan o'quvchi uchun sinfdoshi tomonidan tuzilgan EK o'qishning o'ziga xos yordamchisidir: turli nuqtayi nazarlarni taqqoslashni o'rgatadi.

Eydos-konspektlarning turlari shakli bo'yicha ularni quyidagilarga bo'lish mumkin: badiiy (rasm asosida); grafik (mos yozuvlar sxemalariga yaqin - konspektlar, diagramma tasvirlar asosida).

Shakliga ko'ra "Eydos konspekt"larni quyidagilarga bo'lish mumkin:

-badiiy (rasm asosida);

- grafik (mos yozuvlar sxemalariga yaqin-tezislar, lekin diagrammaning asositasvirlardir);
- ranglar (ranglar asosida);
- assotsiativ (o'z tasvirlarini yaratish);
- birlashtirilgan (har xil turlarni birlashtirgan: rasm va rang, diagramma va tasvirlar, muallif va kitobxon tasvirlari);
- raqamli (kompyuterda yaratilgan).

Har qanday muammo va favqulodda vaziyatlar shuni taqozo etmoqdaki, bugungi kun yoshlari kreativ fikrlashga doim tayyor turmog'i lozim.

Ijodiy matn yaratish, bayon, insho kabi yozma ish turlari bunday qobiliyatlarni rivojlantirib, ularni mustaqil hayotda o'z o'rinlarini topib ketishida katta ahamiyatga ega. Asarlar yoki asar qahramonlari muammolari yozma ishlarda ko'proq tahlil qilinmog'i maqsadga muvofiqdir. Ko'tarilgan muammolarni har kim o'zicha yechadi, turli xulosalarga keladi va nima uchun shunday xulosaga kelganini matndan dalillar keltirgan holda yoki hayotiy xulosalari bilan asoslaydi va bunda har bir o'quvchining o'z fikri, xulosasi, o'z haqiqati yaratiladi. Qachonlardir chiqarilgan yalpi xulosalar buguni kun talabiga javob bermay qoldi. Bunga bugungi o'quvchilarning barchasini birday ishontirib ham bo'lmaydi va agar shunga harakat qilinsa, yosh avlod ma'naviyatiga zug'um o'tkazilgan bo'lardi. Yozma ishlarni yaratishda adabiy qahramonning o'ziga xos ruhiy olami va axloqiy sifatlarini anglash hamda tahlil qilish o'quvchi oldiga qo'yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday bilimni o'zlashtirish ma'lum darajada fikriy zo'riqish asosida kechadi. Ijodiy yozma ishlarda adabiy qahramon shaxsi va hayoti tahlilida o'quvchining o'zi ham hayotga faol kirib boradi. O'zgalarni o'rganish orqali o'z shaxsiyatiga xos sifatlarini shakllantiradi. Asar qahramonlariga qarab, o'quvchi shaxsini belgilash mumkinligi ham haqiqatdan yiroq emas. Bolaning qiziquvchanligi, bilishga intilishi so'nmagan davrida undagi mavjud imkoniyatlardan unumli

foydalanmoq zarur. Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun, avvalo, ularni ertaklar to'qib, sarguzashtlar tuzishga o'rgatish, fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozimligini italiyalik ertakchi adib J.Rodari ta'kidlab o'tgan. O'quvchi takror eshitishni, bir xil vazifalar bajarishni, ta'lim jarayonidagi takrorlarni xushlamaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida, hatto, bugun ham o'quvchi bir xil shakldagi hamda mavzudagi yozma ishlarga to'qnashadi. Bir xil shakl va qolipga keltirilgan, umumiy rejalarga asoslangan yozma ishlar boladagi qiziquvchanlikni susaytirib, ta'lim-tarbiya jarayonini zerikarli qilib qo'yadi. Ijodiy yozma ishlar o'quvchining qiziqish va istaklariga muvofiq tashkil qilingandagina samarali bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsadida tashkil qilingan yozma ishlarda ularga ma'lum vaqt ichida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq beradi. Masalan, 6-sinfda Musa Jalilning "Ishonma" she'ri o'rganilib, o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalab berishlari uchun hayotiy dalillar keltirishlari talab qilinadi. Topshiriqni to'g'ri bajarish uchun o'quvchi badiiy asarlarga murojaat qiladi, asarning mazmunini izohlashda ularga nutqiy tafakkur yordamga keladi. Bu topshiriqni o'z muddatida bajarish uchun o'quvchi vaqtini to'g'ri taqsimlashi va qiladigan ishlarini puxta rejalashtirishi talab etiladi. Shuning o'ziyoq o'quvchini mustaqil o'ylashga majbur qiladi. She'rni o'qib, adabiy qahramon hissiyotini tuyib shu asosda fikrlash o'quvchini inson tuyg'larini, kechinmalarini topishga intiladigan tadqiqotchi holatiga soladi. Yozma ishlarda har xil adabiy timsollarni mustaqil taqqoslash talabini qo'yish o'quvchining qat'iy qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchida bunday ko'nikmani hosil qilish uchun, avvalo, uni konkret shaxs yoki hodisani kuzatish, taqqoslab o'xshash va farqlarini ajratish, umumiy va xususiy jihatlarni, ikkinchi darajalilarni farqlashga yo'naltirish talab qilinadi. Yozma ishlarda taqqoslab tahlil qilish, mustaqil fikrlashning samarali usulidir. Timsollar tabiatidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash uchun inson fikran ularning alohida



xususiyatlarini ajratadi, belgilarini aniqlaydi va ularni taqqoslagan holda umumiyliklarini ko'ra biladi. 9-sinfda «Alpomish» dostoni qahramonlari Boybo'ri va Boysari timsollarini o'zaro taqqoslaganda o'qituvchi yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi: «Boybo'ri bilan Boysarining qanday o'xshash jihatlari bor? Boybo'ri tabiatidagi fazilatlarining ildizini dostonidan topib, izohlang. Boysarida norozilik fikri qanday tug'ilgani haqida o'ylab ko'ring. Noroziligi sabablarini asardan toping, siz qanday fikrdasiz. U boshqacharoq yo'l tutishi mumkinmidi? Nega bunday yo'l tutdi? Boysariga nisbatan ko'nglingizda qanday tuyg'u paydo bo'ldi? Achinishmi, nafratmi, rahm-shafqatmi? Buning sababini toping» va hk. Yozma ishlarda o'quvchilarning har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishiga, o'z fikrini aytishiga harakat qilinadi. Muallim o'quvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirishi; qolipda fikrlatmasligi, nafaqat asar mualliflari, balki o'rtoqlarining fikrlarini takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga yetaklashi; ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; o'quvchilar oldiga o'ziga xos muammo qo'ya olishi va uni yechishga yo'naltirishi; uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga odatlantirishi zarur. O'quvchilardagi tanqidiy tafakkur va mulohazaning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi, estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi yozma ishlarda ijodiylikning yuzaki ko'rinishiga olib keladi. Asar to'g'risida chuqur fikr yuritmasdan turib unga baho berishga shoshilish hollari asl turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglay olmaslikdan kelib chiqadi. Demak, yozma matn tuzishda berilgan matnni tushunishning o'zi yetarli emas, unga o'quvchi yangicha yondasha bilishi ham kerak. Shunda uning mustaqil nuqtayi nazari shakllanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu fazilat o'zgalarning ko'rsatmalari emas, o'spirinning shaxsiy fikri, mustaqil o'ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarining tortinchoq bo'lishiga, fikrini ochiq aytmay, dilida saqlab qolishiga yo'l qo'yimasligi kerak. Ayniqsa, og'zaki aytoilmagan his-tuyg'ularini

yozma ifodalab berishlariga erishish, keyinchalik o'z so'ziga, fikriga ega bo'lishiga samarali yordamdir. Ijodiy yozma ishlarida o'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan, ko'p va chuqur o'ylagan, qalban his etolgan narsalar haqida fikrlab, yozishga undash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchi uchun o'zi yaxshi bilmagan, o'ylamagan, his qilolmaganlarni yozishdek azob yo'q. Bunday topshiriq uning shaxsida yuzakilikni, soxtalikni keltirib chiqaradi, ko'chirmachilikka majbur qiladi. O'quvchida bezovta, uyg'oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, insonlarga nisbatan muhabbat uyg'otish, har bir narsaning mohiyatiga kirishga qiziqtirish lozim. Buning uchun ko'proq bolalar kitobxonligini shakllantirish, ularni asar qahramonlari hayoti bilan yashashga, ular tuyg'ularini his etishga jalb etish zarur bo'ladi. O'quvchi doim tinimsiz o'qish, o'rganish, ilmiy izlanishlarni tashkillashtirish, mehnatga qiziqtirish, o'zida muayyan axloqiy sifatlarni qaror toptirishga odatlantirish zarur. O'quvchining yosh xususiyatlariga mos talab va topshiriqlar bilan huzur va zavq bag'ishlash lozim. Talabchanlik uni kamolot sari yetaklashi, o'zini rivojlantirish va axloqiy jihatlarini tarbiyalashi kerak. O'quvchilarda o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga barcha bosqichlarda e'tibor berish lozim. Ma'lumki, quyi sinflarda diktant yoki bayon yozishda malakali o'quvchilar yuqori sinflarga borganda adabiy yoki erkin mavzularda ijodiy ishlar yozishga qiynalib qoladilar. O'zgarar fikrini maromiga yetkazib takrorlab beradigan o'quvchilar ko'pincha o'z fikrlarini ifodalashga qiynaladilar. Ular asarni qayta hikoya qiladilar ba'zan muallif yoki o'qituvchining xulosalarini takrorlaydilar. Hatto o'quvchilarimiz o'z fikr va qarashlaridagi originallik keraksiz ekaniga ishongan holda ulg'ayishmoqda, shu fikrlar bilan maktabni tugatib, katta hayot ostonasiga qadam tashlab ketyaptilar. Shuning uchun ham fikrni ifodalash ishini fikr aytishga uyalmaydigan davrdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun barcha chora-tadbirlar o'z vaqtida ko'rilmog'i zarur. Yozma ishlarni tashkillashtirishda badiiy asarlar bilan ishlash, asarlar zamiriga

singgan yuksak insoniy g'oyalarni o'quvchining ko'ngil mulkiga aylantirish va bularga asoslangan yangi g'oyalar paydo qilishga erishish bosh maqsadga aylanmog'i lozim. Bu o'quvchilarda ularni faqat o'qishi bilan emas, balki tom ma'noda uqishi bilan kechadi. O'rgangan va bilganlarini yozma yoki og'zaki ravishda ifodalay olishlari shakllanadi. Yozma ishlarni tashkil etishda asosiy ish asarni o'qish, matn haqida o'quvchilar bilan suhbatlashish, uni yozma tahlil qilishdan iborat. Badiiy asarlarni mantiqli, yozma tugal fikrlar orqali ifodalash o'quvchining hayotga yaqin, qiziqarli masalalar bilan doim band bo'lgan aqliy faoliyatidir. Kuzatishga, taqqoslashga, mantiqiy asoslar va xulosalashga o'rgangan o'quvchi o'zi uchun mavhum bo'lgan fikrlarni ham tushuna boradi, ulardan ham qiziqarli narsalarni kashf eta boshlaydi. O'qilgan badiiy asarni o'rtoqlari bilan birgalikda tahlil qilish, asardagi hayotiy muammolarni yechish o'quvchida tanqidiylikni shakllantiradi. Bu hol yoshlarni biror ishga yuzaki yondashmaslikka, puxta o'rganmay, asoslanmagan fikrlarga tayanmaslikka o'rgatadi. Yozma ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun ular bilan asar haqida suhbatlashish, ularni asar matnidan javob izlashga majbur etadigan rejalar tuzish, bu rejalar yordamida o'quvchini asar mohiyatiga olib kirish, undagi tasvir haqida ongli ravishda, to'la ishonch bilan xulosalarga kelishga ko'maklashish juda muhim. Badiiy asarni to'laqonli o'zlashtirish tuyish va fikrlashning birligi orqali amalga oshadi. O'zlashtirish uchun esa fikrlash lozim. O'zlashtirilgan bilimgina hayotda asqotadi, ma'naviyat yuksalishida tom ma'noda xizmat qiladi. Har qanday asar zamiridan uning tahliliga asos bo'ladigan jihatlarni topa bilish va izohlay olish zarur. Tahlil jarayonida hayotiy va badiiy mantiq asosida mana shu jihatni ilg'ay olishga va o'z so'zlari bilan yozma ifodalay olishlariga erishish zarur. Yozma ishlar o'quvchilarning erkin fikrlashi asosida to'g'ri tashkil etilsa, ularning mustaqil fikrlashlari uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars shaklini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

Bunda materialning mazmuni, hajmi, darsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va qiyinlik darajasini belgilash; materialning o'quvchi hayotiy tajribasi, ilgari o'zlashtirgan bilimi va aqliy amaliy faoliyati bilan aloqasini o'rnatish; o'quvchining mustaqil ishlari va yozma ishlar o'tkazishda qo'yiladigan topshiriqlar tizimini aniqlash ko'zda tutiladi. Insonning ma'naviy to'kislik sari intilishida so'zning o'rni beqiyos. So'zdan o'rinli foydalanish – ma'anaviy barkamollik uchun qo'llash tabiiy jarayon. Bolalarni doimo go'zal asarlar o'qishga qiziqtirish, badiiy so'zni tuyish, undan ta'sirlanish va zavq ola bilishga yo'naltirish ularning ko'ngillarini o'stirib ruhiyatini tozalaydi. Ota-onalarni farzandlariga badiiy kitoblar o'qishlari uchun sharoit yaratishga jalb qilish lozim. Buning uchun ota-onalarning o'z farzandlari bilan kitobxonlikka bag'ishlangan tadbirlarda birgalikdagi ishtiroklarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktab kutubxonasini zaruriy adabiyotlar bilan boyitish hamda kitoblarning o'qilish muddatini ota-onalar ishtiroki bilan nazorat qilish yaxshi natijalar beradi. Bolasining ertasi uchun qayg'urayotgan ota-onalar bu ishlarni sidqidildan bajarishadi. Belgilangan muddatda o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan yozma ishlar tashkilshtirish, bunda matn mazmunini qayta hikoyalashni emas munosabat bildirishni talab qiluvchi rejalar tuzdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarning zamonaviy texnika vositalariga qiziqishlaridan ham unumli foydalanmoq lozim, ya'ni kerakli badiiy asarlarni elektron kutubxonalardan topib o'qish yoki kompyuter orqali ko'rilgan multfilm, kinolar bilan ularning kitob variantini solishtirib matn yaratish ishlarini tashkil etish mumkin. Bunday taqqoslashlarida o'quvchilar kitobda ifodalangan, kino yoki multfilmda aks ettirish aslo mumkin bo'lmagan muhim jihatlarni topishga undash, topolmasalar, buning sabablari haqida mulohaza yuritishlarini, qahramonlar shaxsini, asar mohiyatini yoritishda kitobda aks ettirilgan baland tuyg'ular tasviri, iztiroblar ifodasining qanchalar muhim ekanini anglatish zarur. O'quvchilarni kitob o'qishga yo'naltirishning yana bir muhim yo'li rag'batlantirishdir.

O'quvchilar ma'lum bir sinfni bitirishayotganda, yoshlariga mos kitoblar sovg'a qilinsa, taniqli shoir yoki yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilsa, yosh kitobxonlar o'qigan asarlar yuzasidan davra suhbatlari uyushtirilsa o'quvchilarning badiiy so'zgamuhabbati oshishi tabiiy.

Ayni paytda, ta'lim turlari o'rtasidagi aloqa va uzviylikning ta'minlanishida klaster usulidan foydalanish joriy qilinmoqda, bu esa maqsadni belgilashdagi aniqlikka va ta'lim sifatining o'sishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida pedagogik ta'lim tizimida yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandi, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat, raqobat, qiyoslash hamda manfaatlarning qondirilishi zamon talabiga aylandi. Buning uchun o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni ko'proq kitob o'qishga jalb qilish, to'garaklar faoliyatini takomillashtirish va barcha ko'rilgan natijalarni darslarda nazorat qilinishini yo'lga qo'yish zarur. To'garaklarda mumtoz asarlardan namunalar o'qish va tahlil qilish, milliy ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash bilan bir qatorda o'quvchilarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishi shubhasizdir. Buyuk siymolarimiz ijodida ilgari surilgan yuksak insoniy xislatlar, insonparvarlik g'oyalari o'quvchi yoshlar ma'naviyatiga chuqur ta'sir etadi, ularni xalq uchun, vatan uchun munosib inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Bolaning voyaga yetishida tarbiyaning katta ahamiyatga ega ekanligi, insonlardagi ijobiy fazilatlarining namoyon bo'lishida halollik va sofdillik, soddalik va samimiylik kabi fazilatlar asosiy omil ekanligi adabiyotimiz qatlamlarida bot-bot takrorlangan.

Yozma ishlar o'qish samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladigan eng qulay usuldir. Ona tili va adabiyot darslarida badiiy kitoblar o'qish, asar qahramonlarini ta'riflash, ularni tasvirlab berish, rasm chizish, fikrni asoslash uchun maqollardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik yondashuv bo'lib, ularning didaktik asosini topish ham mashg'ulotning predmeti hisoblanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Yozma ishlarni tashkil etishda o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirish borasida fikr yuriting.
2. Inson tafakkuri mustaqilligi darajalarini belgilab chiqing. Ularni o'z qarashlaringiz asosida, hayotiy yoki badiiy haqiqatlar misolida tahlil qiling.
3. Inson tafakkurining mustaqilligi darajasini o'lchash mezoniga e'tibor qiling:  
*«Ma'lum vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko'lami va sifati».* Siz buni qanday tushundingiz? Bo'lajak adabiyot o'qituvchisi sifatida o'quvchilar bilimining mustaqilligi darajasini nimalarga asoslanib baholash to'g'risida o'ylab ko'ring. Kursdoshlar o'zaro muhokama qilib, bir asar misolida qarashlaringizni asoslang.
4. Fikrlar ko'chirmasining mazmunini sharhlang.
5. Yuqorida o'quvchilarga namuna sifatida keltirilgan topshiriq: *«Alpomish» dostoni qahramonlari Boybo'ri va Boysari timsollarini o'zaro taqqoslash»* zamiridagi savol va topshiriqlar ustida Siz ham o'ylab ko'ring. O'z munosabatingizni bildiring, xulosa chiqaring. Nega shunday xulosaga kelganingizni asoslang.
6. Bo'limda taqdim etilgan darslarida o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undovchi har bir tavsiyani alohida ajratib yozing. Ularni qanday tashkil etish borasida o'qituvchingiz bilan birgalikda fikrlashing.
7. Siz, bo'lajak o'qituvchi, matn yuzasidan o'quvchilaringizni mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan qanday savol va topshiriqlarni tavsiya etgan bo'lardingiz?
8. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga xos bo'lgan tafakkurni rivojlantirish zamon talabi jumlasiga qanday qaraysiz?
9. O'quvchilarni kitob o'qishga jalb qilish borasidagi taklif va mulohazalarga diqqat qiling. Siz qanday tavsiyalar berardingiz?
10. "Ishonma" she'ri mavzusida tahliliy insho yozing. Har biringizning ishingizni birgalikda muhokama qiling.

## OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRUVCHI YOZMA ISHLAR

Reja:

- 1.Og'zaki nutqni shakllantiruvchi yozma ishlar.
- 2.Yozma nutqni shakllantiruvchi yozma ishlar.
- 3.O'quvchilar tafakkurini shakllantirishda yozma ishlarning ahamiyati.
- 4.Yozma ishlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab tanlash
- 5.Og'zaki va yozma nutqni shakllantiruvchi yozma ishlar.

«O'zbek maktablarida ona tili ta'limi konsepsiyasi»ning bosh maqsadiga ko'ra, ona tili mashg'ulotlari ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi jarayonida tashkil etiladigan turli yozma ishlar, xususan, insho, bayon va ijodiy matn yaratishning o'ziga xos o'rni bor.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini oshirishda yozma ishlarning o'rni beqiyos bo'lib, ijodiy yondashilgan adabiy-ta'limiy yozma ishlar, matn yaratishdagi ilmiy izlanishlar, bayon etish jarayonidagi mantiqiy fikrlashlar ularning nutqiy tafakkuriga serqirra ta'sir etuvchi omillardir. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarning nutqini, aqliy va ijodiy bakamolligini ta'minlaydigan hikoya, bayon, insho va matn yaratishga jiddiy e'tibor berilgan. Ayniqsa, turli rasmlar, didaktik vositalar asosida tashkil qilinadigan yozma ishlar bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir qiladi. Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiy uslubini shakllantirish, silliqlash, aqliy faoliyatini o'stirish, mustaqil fikrlarini rivojlantirishda bayon va inshoning roli kattadir. Ularning yozma va og'zaki savodxonligini oshirishda diktant, bayon va inshoni tahlil

etish darslari, savollarga javob berish, ijodiy insho, rasmga qarab insho yoki bayon yozish, turli lug'atlar bilan ishlash, darslikdan mashqlar ko'chirib yozish, yod olingan she'riy matnlarni yoddan qayta yozish mashqlarini ham o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu jarayon o'quvchilarning bilim saviyasini oshirib borish bilan birga ularning nutqiy malakalarini, so'z boyliklarini ham o'stiradi. Bolalar nutqini rivojlantirish va ijodkorlik muammolariga katta e'tibor qaratgan Lev Nikolayevich Tolstoy 1859 yilda dehqon bolalari uchun Yasnaya Polyanada ochgan maktabida bolalarning nutqi va ijodiy qobiliyatlari rivojining rag'batiga bag'ishlangan ta'lim vositalarini qidiradi. Shu vositalardan biri insholar yozishda deb bilgan L.N.Tolstoy "Kim kimdan yozishni o'rganishi kerak: bizdan dehqon bolalarimi yoki dehqon bolalaridan biz?" (1862) maqolasida bolalarni ijodga uyg'otish maqsadida tuzilgan vaziyatni tasvirlab beradi. Bunday vaziyat o'quvchilarga tayyor tugallangan asarni berish emas, balki o'quvchilar ijodiy jarayonlarni kuzatishlari va bu jarayonda faol ishtirok etishlarini ta'minlashdir, deydi. Tolstoy ijodiy jarayonga qiziqish uyg'otish uchun birinchi insholarni o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida yozishni taklif qiladi. Insholar yaratishda o'quvchilarning qo'shma ishda ishtiroki o'zlarining ijodiy imkoniyatlariga ishonch hosil qilish, tasavvur qilish, badihago'ylik(improvizatsiya) va tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Yozuvchining fikricha, o'quvchilarda insho yaratish jarayoniga qiziqish uyg'otadigan va muvaffaqiyatini ta'minlaydigan yana bir muhim omillaridan biri bolalarni butun ijodga-mavzuni tanlashdan tortib to amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonga, ularning qiziqishlarini, idrok etish, qabul qilish jihatlarini, hayotiy va hissiy tajribalarini hisobga olib jalb qilinishidir.

Yozma ishlarni tashkillashtirish jarayonida o'quvchi berilgan manbani tushunish va izchil yoritish, o'z nutqini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga keltirish, reja tuzish va reja asosida izchil yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos



ravishda til vositalaridan unumli foydalanishga harakat qiladi. Yozgan ishini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Mazmun va shakl birligiga erishiladi. Bulardan tashqari matnni yozishda imloviy, uslubiy, tinish belgilariga va husnixatga e'tibor qaratib, matnni xat boshidan yozish, hoshiya chizig'iga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Bu kabi talablar o'quvchini mehnatga undaydi, zero mehnat insonni tarbiyalaydi, chiniqtiradi, hayotga tayyorlaydi. Abu Rayhon Beruniyning "Insonning qadr-qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi", degan fikrlari yoshlarga hayotda yo'l ko'satuvchi mayoq vazifasini o'tashi bugungi kun talabidir. O'quvchilarning matn yaratish va matn ustida ishlashlari mashg'ulotning ijodiy jarayoni hisoblanib, badiiy asarlardan izlanish va sinfdan tashqari beriladigan topshiriqlarga yakka hamda jamoaviy yondashishlari markaziy o'rinni egallaydi. Xalqaro baholash dasturlarida ko'zda tutilgan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlari, o'qish savodxonligini oshirish bilan chambarchas bog'liqlikda bo'lib, nutqiy kompetensiyani oshirishda ham asosiy mezondir. Ma'lumki, o'rta ta'lim maktablari uchun qo'yilgan davlat ta'lim standartlarida yozma savodxonlikni o'stirish eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Yozma savodxonlik inson kelajakda qaysi sohani tanlashidan, qaysi ijtimoiy mavqeda bo'lishidan qat'iy nazar doimiy amalda qo'llaniladigan va nuqsonlari yaqqol ko'rinadigan jarayondir. Shu sababli, yozma ishlarni bajarish orqali o'quvchi ong-u tafakkurini, dunyoqarashini, yozma va og'zaki nutqini hamda savodxonligini oshirishni maqsad qilib olish zarur. Bu jarayonda yozma savodxonlikni o'qish savodxonligi bilan birga ikki yoqlama rivojlantirishni yo'lga qo'yish va bu borada barcha imkoniyatlarni ishga solish zarur. Ayniqsa, matn yaratishda tanlangan mavzu zamon muammolariga yechim topa oladigan, an'anaviy mavzulardan tanlansa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilarga ko'proq badiiy kitoblar o'qish va bu o'qigan

asarlarini o'z ijodiy yozma ishlariga olib kirish tavsiya etiladi. Ayniqsa, matn yaratishda tahliliy-statistik, qiyosiy-retrospektiv, tavsif va tadqiqot metodlaridan foydalanilsa o'quvchida ilmiy izlanish kompetensiyasi shakllanadi. Buning uchun yozma ishlarni tashkil etishda reminissensiya hodisasidan foydalanilsa xotira mustahkamlanishiga, tafakkur o'sishiga, ijodiy va mustaqil fikrlashga hamda mantiqiy nutq shakllanishiga zamin yaratiladi. Og'zaki hamda yozma nutq rivojida ham ta'siri katta bo'lib, xotirani kuchaytiradi hamda so'z boyligini oshiradi. Reminissensiyaga "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da shunday ta'rif beriladi: "Reminissensiya (lot. *reminiscentia* – eslash) (psixologiyada) – es-es xotirlash; inson ilgari hayotda uchratib o'rgangan narsa va hodisalarni, fikrlar, so'zlar, voqealarni tasmollab eslashidir. Bunda eslashning to'liqligi, aniqligi xotiraning individual xususiyatlariga, materialni esda olib qolingani yoki yodlangan paytdan keyin o'tgan vaqtga, materialning mazmuniga, insonning psixik holati va yoshiga, shuningdek, boshqa omillarga bog'liq bo'ladi". "Adabiyotshunoslik lug'ati"da quyidagicha ta'rifni o'qiyamiz: "Reminissensiya (lot. *reminiscentia* – xotirlash, eslash) – adabiy hodisalarning dialogik munosabatda bo'lishi natijasi o'laroq yuzaga keluvchi hodisa, adabiy asardagi ilgari mavjud bo'lgan asarlarni yodga soluvchi nuqta. Bunday reminissensiyalar anglangan yo anglanmagan (asarda ijodkor xotirasida muhrlanib qolgan o'zga asardagi nuqtalarning g'ayriixtiyoriy tarzda aks etishi) ravishda voqe bo'ladi; ular ochiq-oshkora emas, shu bois ilg'ab olinishi ham birmuncha qiyin va shu jihati bilan o'zlashtirish va taqliddan farqlanadi". Demak, Reminissensiya, bu – bironta badiiy asardan xotirada qolgan voqea yoki obrazni ijodkor tomonidan ataylab yoki bilmasdan takrorlashdir. Ba'zan eslash takrorlanuvchi harakatlarni nusxalash orqali ifoda etiladi, ba'zan asl va eslatuvchi iboralarni yonma-yon qo'yish bu ishlarning ta'sirini kuchaytiradi. Shuningdek, avtoreminissensiya (o'z-o'zidan ta'sirlangan yoki faxrlangan o'z ishlarida uchraydigan reminissensiya) hodisasi ham uchraydi.

I.I.Murzak reminissensiya to'g'risida quyidagicha kuzatishlar olib borgan: "Badiiy ijodning ichki qonuniyatlarini o'rganishda adibning avvalgi adabiy an'ana bilan aloqasi, muammosi alohida o'rin tutadi. Badiiy obrazning yangi semantik tovushlarini yaratishning eng samarali usullaridan biri bu reminissensiya hodisasidir. Reminissensiya (lotincha *reminiscentia* – aks-sado, noaniq eslash) adabiyot, yozuvchi va o'quvchining xotirasi va assotsiativ fikrlashga qaratilgan. Ko'pincha muallifning qasddan birovning obrazini yoki so'zini qarzga olishni belgilash va ongsiz ravishda reminissensiya o'rtasidagi chegarani o'rnatish qiyin. An'anaga murojaat qilmasdan u yoki bu tarzda yangi matn yaratish mumkin emas. Faqatgina bu holatda o'quvchining o'qish tajribasi ijodiy va samarali bo'ladi. Asriy obrazlarning badiiy mujassamlashuvi ta'lim jarayonida matn yaratishda ham an'anaviy, ham yangilik paydo qiladi. So'zma-so'z aynan keltirish, kichik o'zgartirishlar bilan manbani ko'paytirishlardan voz kechilib, erkin tartiblash, qayta o'z fikrlari bilan hikoya qilish, tarjima, arxetip tasvirining ko'rsatkichi, asl kuzatuv, kitob, hikoyaviy vaziyatni qayta qurish sifatida, assotsiativ iqtiboslar, syujetli reminissensiya, asl matn va tarjimini birlashtirish, sinkretik madaniy reminissensiya, plastik va rasmi durdonalar, falsafiy fikrlar, ilmiy nazariyalar, nufuzli hukmlar, maqol va matallar, aforizmlarni keltirish, belgilarning tipologik yaqinligi". Bu fikrlardan yaratiladigan har qanday matnga alohida tayyorgarlik ko'rish, ayniqsa, o'quvchilarning yoshi inobatga olinishi shart ekanligi aks etgan. Badiiy asarlardan iqtiboslar olish, xotirada qolganini jonlantirish o'quvchilarda badiiy adabiyot bilan yaqinlik tuyg'ularini oshiradi. Kitobni sirdosh bilib, o'z muammolari yechimini o'zlari sevgan kitobdan, yoqtirgan qahramonlaridan topish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qish savodxonligini oshirish yozma savodxonlikni oshirish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarni hayotga tayyorlash, kompetentlikni oshirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi. Ayniqsa, matn yaratishda tanlangan mavzu zamon muammolariga yechim topa oladigan, ilm olishga, mehnat qilishga,

umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashga yo'naltirilgan mavzulardan tanlansa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilarga ko'proq badiiy kitoblar o'qish tavsiya etiladi. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashdagi muammolarni bartaraf etish mumkin. Avvalo, matn yaratishda fanlararo uzviylik klaster usulidan foydalanish o'quvchini hayotga tayyorlashda, olgan bilimlarini qo'llay olishda zaruriy mezondir. Matn yaratish orqali mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish kabi muammoli masalalarga ham yechim topish mumkin. Buning uchun matn yaratishga bir yoqlama me'yoriy talablar qo'yilmasdan, yangicha, ajdodlar meroslariga murojaat etilib ilmiy yondashilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina o'quvchilarning og'zaki va yozma tafakkuri oshadi, nutqi rivojlanadi. Adabiyotimizning ilk bosqichlarida yaratilib, barcha qatlamlarida uzluksiz yashab kelayotgan an'anaviy obrazlarning bugungi kun taraqqiyotida muhim manbalardan biri ekanligi va yaratiladigan matnlarda ulardan foydalanish o'quvchilar tasavvurini boyitibgina qolmasdan, ilmiy izlanish qobiliyatlarini ham o'stiradi. Turli janrlarga oid matnlardagi so'z, ibora va atamalarning ma'nosini tushunib, to'g'ri va ravon o'qiy oladi. Shuning uchun, ularga ta'sir o'tkaza oladigan, ruhiyatini poklaydigan asarlar bilan tanishtirib borish, o'zlari mustaqil o'qishlariga erishish zarur, bunda ularga hamkorlikda guruh bo'lib, tahlil qilishlari yaxshi samaralar beradi. O'quvchilarning yosh va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ong-u shuurini maftun eta oladigan adabiyotimiz durdonalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunga erishishning samarali yo'llaridan biri adabiyotga oshno bo'lish, kitobni do'st va sirdosh tutish, yuqorida ta'kidlaganimizdek sinfdan tashqari o'qilgan asarlarni ham yozma ishlarda unumli tahlil qilishdir. Darsdan tashqari o'qilgan asarlarini, shu jumladan, mumtoz adabiyotimiz tarixidan bugungi kungacha yetib kelgan an'anaviy mavzu va obrazlarni matn yaratishda foydalanilsa serqirra natijalarga

erishiladi. Avvalo, matn yaratish jarayonida ilmiy izlanish, ya'ni badiiy meroslarimizni chuqur o'rganib mustaqil tahlil qilish, qiyosiy solishtirish ko'nikmalarini o'stiradi. Milliy g'urur, vatanparvarlik, ajdodlar merosini asrab-avaylash tuyg'ularini rivojlantiradi. O'quvchilar ongida bunyodkorlik g'oyalarni paydo qilib, turli vaziyatlarda yetakchilik qobiliyatlarini namoyon eta oladigan, ma'nan chiniqqan kompetentli shaxslarni shakllantiradi. Natijada, turli yot g'oyalar ta'siridan nafaqat o'zi, balki tengdoshlarini ham olib chiqib keta oladigan ijtimoiy faol shaxs yetishib chiqadi. Demak, o'quvchilarni bekor qoldirmasdan, adabiyotimiz meroslari bilan tanishtirib borish og'zaki hamda yozma nutqlarini oshirishda, tayanch va fanga oid kompetensiyalar shakllanishida muhim bosqichdir. O'qish savodxonligi hamda kommunikativ kompetensiya paydo bo'lish bilan bir qatorda har tomonlama rivojlangan kompetentli shaxs shakllanadi. Ma'lumki, har qanday nutq erkin va mustaqil tafakkurning mahsuli. O'quvchining og'zaki va yozma nutqi barobar rivojlanmasa, bir yoqlama rivojlanish bo'lib qoladi. Bugun ona tili va adabiyoti fani oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdek yuksak vazifa qo'yilgan. Bu vazifani bajarishda yozma ishlarning o'rni beqiyos. Zamonaviy ta'limda, yozma ishlarga an'anaviy tartibdan noodatiy tarzda, ijod namunasi sifatida yondashilish fursati allaqachon yetib keldi. Yozma ishlarda o'qituvchi tomonidan tanlangan mavzular o'quvchilar psixologiyasiga va yoshiga mos, o'quvchilar uchun yangilik bo'la olishni e'tibordan qochirmaslik lozim. O'quvchilarga beriladigan mavzular o'ylantiradigan, qiynaydigan, sevintiradigan tuyg'ularga hamohang bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun «Chin do'st», «Vatandan ayro ko'ngil», «Menga yoqqan qahramon» kabi mavzular tanlanib, ularni yozishda esa “Alpomish”, “Ravshanxon”, “Farxod va Shirin” kabi dostonlarga murojaat etishning o'zida olam-

alam ma'no topish mumkin. Erkinlik va ozodlik mavzularida an'anaviy qushlar, uchqur otlar obrazlaridan foydalanish va bu obrazlar qaysi asarlarda yoritilganliklarini qidirib topish yanada yoshlarni qizg'in izlanishga boshlaydi. Bu yoshdagi o'quvchilarni kasb tanlashda ham adashmaslik, o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olish maqsadida "Men yoqtirgan kasb", "Kasbim mening-faxrim mening" mavzularida yozma ishlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Asrlar osha yashab kelayotgan kasblarga e'tibor qaratish uchun "Moziyga sayohat" metodidan foydalaniladi.

Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish ularning ongini rivojlantirish bilan bir butunlikni tashkil etadi. Bunda, avvalo, o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish uchun lug'at ustida ishlash, mashq bajarishda uchragan notanish so'zlarni lug'atdan topish, badiiy asarlardan dialektlarni to'g'ri talqin qila olishlariga erishish zarur bo'ladi. O'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rgatishda me'yorni singdirish, o'quvchilar nutqida uchraydigan shevaga xos so'zlarni farqlash uchun, o'qituvchi, avvalo, o'zi sheva xususiyatlarini puxta o'rganib chiqib, shu asosda ish ko'rish kerak. O'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma mantiqli bayon qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish zarur. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish matn ustida ishlash malakasini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Birlamchi vazifalardan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish uchun, o'qish savodxonliklarini kuchaytirish bo'lib qolmoqda. Har qanday nutqni o'stirish, avvalo, matn yaratishdek jiddiy hamda mas'uliyatli jarayonni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Bevosita o'qish savodxonligini oshirish ham yetakchi masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mantiqiy va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy tafakkurga ega shaxsni kamol toptirish ona tili va adabiyot fanining bosh maqsadi ekan, demak, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ham shunga ko'ra amalga oshirmog'i lozim. Asrlar osha sayqallanib bugungi ijtimoiy hayotda ham zalvorli

kuchga ega adabiyot insoniyatning doimiy hamrohidir. Har bir ulug' xalq ma'rifatining dunyoga kelishi, ma'naviy ongi shakllanishi va taraqqiyotida uning adabiyoti alohida o'ringa ega. Alohidaligi shundaki, chin qadimiy xalq ijodiyoti millat ma'naviy hayotida yangi o'zgarishlar, tafakkurda esa yuksalishlar paydo etadi va xalqi uchun mayoq vazifasini o'taydi. Shuningdek, haqiqiy ijod har qanday sharoitda ham xalqining ishonchini oqlash bilan bir qatorda, uning qalb tayanchi-malhami ham bo'la oladi. Xalq qiyin ahvolda qolganda adabiyotiga murojaat qilsa, ma'naviyatini rivojlantirishda bot-bot tayanadi. Mutafakkirlar olamni qalb ko'zlari ila ko'rib, dunyoni rangin bo'yoqlarda tasvirlashi bilan insonlarda hayotni sevishtirishga, mehnatga, ijodga havas uyg'otib kelganlar. O'zlarigacha yaratilgan ijod mahsullarini o'rganib, sayqallab takomillashtirganlar. An'anaviy mavzu va obrazlarni takomillashtirib, yangicha novatorlik muhitini yaratganlar. Masalan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida bir qancha kasblarga to'xtaladi, o'ziga xos ziyraklik bilan dehqonlar, savdogarlar, chorvadorlar, hunarmand va kosiblar haqida gapirib, ularning hayoti, sharoiti, mafkuralari, odatlari, axloqlari kabi sohalarda nozik fikrlar yuritadiki, bu o'rinda bularning barchasi haqida mufassal to'xtalib o'tishga hech imkon yo'q, chunki bularning barchasini maxsus bob qilib berilganda ham uning tafsilotlarini aytib tugatib bo'lmaydi. Hayotning oddiy ikir-chikirlaridan tortib yulduz sirlarigacha, kohinlarcha davolash usulining soxtaligidan tortib dori turlari va ularni qaysi kasalliklarga berish nafli bo'lishigacha, qon bosimi oshishi-yu qon olishgacha, oddiy bir kishi bilan gaplashishdan tortib davlatni idora qilish usulining nozik sirlarigacha yozib qoldirgan. Barcha sohalardan xabardor, bilim doirasi keng, asarida tilga olingan barcha xislat, zakovat, ravish atvor, yo'riqlarning barchasi o'zida mujassamlashgan ulug' siymodirki, u yozib qoldirgan ulkan asarini o'quvchilarga yaqindan tanishtirgandagina ular ong-u shuuriga singdirish mumkin. Jumladan, shoirlar bilan bilan aralashmoqlik xususidagi fikrlaridan namunalarni o'quvchilare'tiboriga havola qilish mumkin.

### **Shoirlar haqida:**

Boqib ko'rsang, ular butun ko'ngli bilan dengizga kiradilar, Misli gavhar, inju, yoqut chiqaradilar.

Yosh avlod hayot yo'llarini to'g'ri tanlashida, jamiyatda kerakli insonlar bo'lishida ularga doimo murojaat qilish zarur. Bu insonlar qalb gavharlari sarchasmalari hisoblanmish bebaho asarlarida halol peshona teri orqali rizq topishni, farzandlarini halol boqishni, eliga – yurtiga manfaati tegishni insoniylikning oliy burchi deya kuylab kelganlar. “Insoniyatning oliy burchi halol yashashdadir”,- deya moziydan to bugungi kunga qadar adabiyotimiz qatlamlarida aks etib kelayotgan asosiy g'oyani teran nigohlar ila ilg'ab olishimiz va buni barcha zamonlar muammosi yechimi ekanligini ko'rsatib bera olishimiz darkor. Adabiyotning kuchi “o'tin yorish”da emas, balki tom ma'nodagi zalvorli ta'siri mavjudligini his etish barchamizning oliy burchimizdir. Ilk insoniyat madaniyatini belgilagan kichik – kichik ijod mahsullaridan to yetuk qalam sohiblari ijodlarigacha sevib badiha qilingan obrazlar, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Mehnatni sevishga, hayotini go'zal qilishga, o'zgarlar mehnatini qadrlashga, hayot muammolarini yecha olishga undovchi matn yaratish ko'nikmasini shakllantirar ekanmiz, yoshlarimizda ulug' siymolarimizga nisbatan ehtirom va hayrat hissini kuchaytiramiz hamda hayotni sevishga o'rgatamiz, bunday insonning tafakkuri teran, nutqi mantiqli bo'ladi. Bu kabi mavzular orqali o'qituvchi o'quvchilardagi fikr mustaqilligining o'sishini nazorat qilib boradi. O'z shaxsiyati va asarlari bilan insonlarga ibrat bo'la oladigan, ma'rifat nuri ulashadigan buyuk siymolarning hayoti va faoliyatini o'qib-o'rganish, yoshlar ongiga singdirishda bu ishlarning o'rni beqiyosdir.

### **Savollar:**

1.Yozma ishlarning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati?



2.Og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda yozma ishlarning ahamiyati?

3.Yozma ishlarning turiga qarab o‘quvchining qaysi faoliyatini o‘stirish mumkin?

4.O‘quvchi qaysi yozma ish turida erkin ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rganadi?

5.Reminissensiya hodisasi haqida nimalar bilasiz? Fikrlaringizni misollar orqaliizohlang.

6. “Moziyga sayohat” metodidan foydalanib matn tizing.

7. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirish uchun, o‘qish savodxonliklarini kuchaytirishda nimalarga e‘tibor qaratiladi?

## YOZMA ISHLARNING TURLARI

Reja:

1. Yozma ish va uning turlari.
2. Yozma ish turlarining o'ziga xos jihatlari.
3. Yozma ishlarga qo'yiladigan talablar.

O'quvchilarning kognitiv bilimlarini o'stirishda yozma ish turlari asosiy omillardan hisoblanadi. O'quvchilarning matn yaratish va matn ustida ishlashlari ta'limning barcha bosqichlarida, sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda markaziy o'rinni egallaydi.

Yozma ishlar o'quvchilar bilan ishlashda, darslarni maroqli va ijodiy tashkillashtirishda, o'quvchilarning diqqatini jamlashda zarur jarayon hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi qiziqarli mavzularni tanlash va o'tkazishga mos interfaol metodlarni ham qo'llay olishi lozim. **Yozma ish** atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llanadi: Keng ma'nodagi **yozma ish** – ilmiy xarakterdagi yozma ishlar, yozma shaklda bajariladigan nazorat turlari, topshiriqlar, ko'chirib yozishlar. Nazoratning bu turi nafaqat filologiya, balki barcha sohalarga ham tegishlidir. Masalan, *fizika, kimyo, geografiya, musiqa, matematikaga oid yozma ishlar*. Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar uchun eng asosiy manba maktab darsliklari, turli ensiklopedik lug'atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzulardagi teleko'rsatuvlar bo'lishi mumkin.

**Tor ma'nodagi yozma ish** – yozma shaklda bajarilgan ijodiy matnlar (insho, ijodiy bayon), tinglab tushunish, xotira kuchini belgilash, tafakkur darajasi va fikrni yozma tarzda bayon etish ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan (bayon), so'zma-so'z tinglash va ayni tarzda yozma nutqda aks ettirish, imlo me'yorlariga amal qilish darajasini bilishga mo'ljallangan (diktant) matnlar.

Matn yaratishda nasriy hamda she'riy matnlarga tayanish mumkin. Nasriy va nazmiy matnlar, sharh, monolog, dialog, polilog; *nasriy matn*: badiiy, badiiy-ramziy, tasnifiy matn, ilmiy, ma'rifiy matn, annotatsiya, ixtisosiy matn, ilmiy-grammatik matn, rasmiy

matn, reklama, test, MSB larni farqlash. *nazmiy matn*: bolalar uchun she'rlar ustida ishlash, yod olish, ifodali o'qish, mazmunni sharhlash, she'riy san'atlar, qiroat san'atini o'rganish.

O'quvchilarda muayyan bir asarni o'rganish jarayonida, asar yoki asar qahramonlari haqidagi mustaqil fikrlarini erkin bayon etishlari, mazmun va g'oyani o'z dunyoqarashlari asosida yozma tugal nutq shaklida yoritishlari va o'zlarining mutlaq g'oyalari erishishlari, boshqalarni ishontira bilish, himoya qila bilish kabi ko'nikmalar hosil qilishga erishish zarur. Bunday tahlil orqali o'quvchilarda bunyodkorlik g'oyalari shakllanishiga zamin yaratish mumkin. Ma'lum bir asar o'rganilgandan keyin, shu asar ta'sirida yaratilgan yangi g'oyalarni yozma nutqda ifodalashlari esa ushbu g'oyani tafakkurda rivojlantirishga va amaliyotda tadqiq etishda turtki bo'lishi mumkin. Masalan, O'.Hoshimovning "Urushning so'ngi qurboni" asari tahlilida o'quvchilarga "O'g'rini tutish uchun siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?" kabi yangi innovatsion g'oyalar yaratiladigan savollar bilan murojaat qilinganda yosh avlodda o'z-o'zidan o'g'rini tutish uchun men nima qilardim degan savol tug'iladi. O'quvchilarda bu vaziyatda fantaziyaga berilishni ham tashkil etish mumkin. Amalga oshishi mushkul bo'lgan g'oyalarni ham qo'llab-quvvatlash natijasida, o'quvchilardan kashfiyotchi iqtidorlar tarbiyalash mumkin. Masalan, o'quvchilar o'g'rini tutish uchun moslamalar kashf qilishlari mumkin, ushbu fikrlarni yozish jarayonida yangi g'oyalar tug'ilib boraveradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Muammoli vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilish, vaziyatdan chiqib ketish uchun o'quvchilarda g'oyalarni shakllantirish va yozma ravishda mantiqli hamda asosli dalillar orqali ifodalab berishlari tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Puxta va chuqur estetik hamda ilmiy tahlilgina o'rganilayotgan asarning o'quvchilar hissiyotiga ta'sirini ta'minlaydi. Har bir sinfda bajariladigan yozma ishlar o'quvchilarda innovatsion g'oyalar shakllanishiga ham xizmat qilishi zarur. Bu ish turlari badiiy asarlarni o'rganishdan kelib chiqadi va badiiy asarlar tahlilida

yaraladi. Ular o'quvchilarni mantiqiy va obrazli fikrlashga o'rgatadi, ularning tasavvur olami va estetik hissiyotlarini rivojlantiradi, badiiy asarlarni tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Shuningdek, yozma ishlar katta ijtimoiy - ma'rifiy ahamiyatga egadir. Bu ishlarni bajarishda o'quvchilarning o'zbek tili va adabiyoti fanlari bo'yicha egallagan bilimlari ko'nikmaga, ko'nikma malakaga aylanadi. Savodli yozma nutq shakllanadi, jamiyatda faol fuqarolik burchlari oshadi, quyida jadvalda keltirilgan ish turlaridan ham o'quvchilarni tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozma matnlar bilan ishlash:
Asarlardan keltirilgan parchalar
Kasbga yo'naltirilgan materiallar; rasmiy uslubda ish yuritish hujjatlari
Ensiklopedik maqolalar, qomusiy maqolalar
Shaxsiy xatlar, o'z yaqinlariga maktublar
Kundaliklar va kun tartibi aks ettirilgan matnlar
Informatsionbukletlar, broshyuralar, (filmlar, ko'rgazma va hokazolar.), sayyohlik yo'riqnomalari, publitsistik uslubga xos matnlar
Jurnal maqolalari (mashhur shaxslar bilan suhbatlar); intervyular
Ma'ruzalarda keltirib o'tilgan g'oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama
qilingan matnlar, tahliliy- qiyosiy matnlar
Yangiliklar bayoni, axborot matnlari
Internet matnlari (bloglar)
E'lonlar (grantlar, sayohat manzillari haqida), turizm sayohatlari asosida
Yo'riqnomalar (texnik vositalar, asboblarni uchun), texnik xavfsizlik qoidalari
Kichik hikoyalar, masallar
She'rlar, nasriy she'rlar

Xulosa yasash, "qatorlar orasi" ma'noni anglash:

Xulosa qilish va yozma bayon etish
Muallif fikrini yoqlash yoki inkor qilish va uni asoslash; - tahlil qilish; - sintez qilish, tezislar
Turli janrdagi matnlarni tahlil qilish, xulosalash
O'qish ko'nikmasini baholovchi yozma ishlar o'qib tushunganlarini yozma Ifodalash
Mustaqil o'qish, darsdan tashqari o'qiganlari bo'yicha yozma mustaqil ish

Yozish ko'nikmalarini rivojlantiradigan ishlar:

Tabriknomalar va taklifnomalar, tilaklar va niyatlar matni
Shaxsiy ma'lumotnomalar,
Sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar, hikmatli so'zlarni yozib borish
Voqea-hodisa, odamlar va predmetlar tasviriga bag'ishlangan xatlar, matnlar
e-mail, internet forumlariga xatlar;
Rezyume va tarjimai hol;

Yozma nutqni rivojlantirishning asosiy omillari

Yozma ishni rejalashtirish (klaster usulida, aqliy hujum va h.)
Yozma ishning maqsadi va kimga yo'naltirilganligini aniqlash va shunga qarab tegishli uslubni tanlash mahorati.

Grammatik tamoyillar:

Gap tuzish (gapda so'z tartibi)
Gapda ega va kesimning o'rni, moslashuvi;
Gap turlari (oddiy, qo'shma gaplar);
Bog'lovchilar va kirish so'zlar;
So'z tanlash (rasmiy va norasmiy uslubdagi so'zlar va h.)
Punktuatsiya

Qisqa insho (paragraf) yozish bosqichlari:

Mos sarlavhani tanlash;
Kirish qismini yozish
Inshoning asosiy g'oyasini ifodalash
Dalil va isbotlarni bayon etish;
Yozma ishda plagiatga (ko'chirmakashlikka) yo'l qo'ymaslik.

Faktlar asosida yozish:

Bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, darsjarayoniga oid muammolar va b.)
--

Insholar:

“Qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi” insho
Bahs munozarali insho turi - tanqidiy bayonlar-voqea-hodisalar sharhi
Fikr bildiruvchi insho
Tasviriy

Maqola sharhi:

Hikoya tarzidagi;
Qiyosiy
Tahliliy (sabab va natijalarni tahlil qilish
Kitob yoki filmlarning qisqa taqrizi
Maktab gazetasi uchun maqola

Turli matnlar tahlili ( gazeta, jurnal maqolalari):

Matnlarni qiyoslagan holda tahlil qilish
Darsdan tashqari yozma vazifalar

Yozma nutq jarayoni:

Yozma nutq uchun tayyorgarlik mashqlari
Dastlabki (xomaki)
O'zaro qayta ko'rib chiqish
O'z-o'zini baholash.

### **ADABIY NUTQ ME'YORLARI. NUTQNING KO'RINISHLARI**

Til – fikrni bayon etish va o'zgarlar fikrini tushunishning eng asosiy vositasi. U o'z vazifasini og'zaki va yozma shaklda bajaradi.

Til ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: adabiy nutq va sheva nutqi. Faqat adabiy nutq yozma shaklga ega. Sheva nutqining belgilab qo‘yilgan qonuniy me‘yorlari yo‘q. **Adabiy nutq** — xalq tilining ishlov berilgan, qat‘iy qoidalashtirilgan ko‘rinishi. U ko‘p shevali millatning yaxlitligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Har bir so‘z va qo‘shimchanning adabiy nutqdagi talaffuzi va imlosi, tinish belgilarining qo‘llanishi, odatda, qoida sifatida qonun bilan aniq belgilab qo‘yiladi. Zarur hollarda bu qoidalarga amal qilmaslik qo‘pol xato, qonunni buzish sifatida baholanadi. Og‘zaki adabiy nutqning ham, yozma adabiy nutqning ham o‘z qoidalari bor. Har doim ham aytilgandek yozish, yozilgandek aytish to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o‘qitish va nashr ishlari, ommaviy axborot vositalarining xabarlari adabiy nutqda beriladi. Adabiy nutq me‘yorlariga amal qilmaslik faqat befarosatlik, manmanlik, savodsizlik va madaniyatsizlik emas, balki o‘z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik hamdir. “Ona tili” o‘quv predmeti o‘quvchilarni ana shu adabiy nutq me‘yorlari bilan qurollantiradi, ularning so‘z boyligini oshirib, so‘z qo‘llash **malakasini** shakllantiradi va yuksaltiradi. Faqat rasmiy holatlarda adabiy nutq me‘yorlariga rioya qilish talab etiladi. Esda tutish lozimki, oila davrasida, o‘zaro suhbatlarda sheva nutqida so‘zlash ayb emas. Madaniyatli kishi adabiy nutqqa ham, sheva nutqiga ham o‘rinli rioya qiladi. Adabiy nutqning turli qo‘llanish sohalari mavjud. Masalan, og‘zaki so‘zlashuv sohasi, badiiy adabiyot sohasi, axborot-**targ‘ibot** sohasi, ish yuritish sohasi, ilmiy soha. Adabiy nutqning biror sohaga xoslangan bunday ko‘rinishi **adabiy nutq uslubi** deyiladi. **So‘zlashuv uslubi** – oilada, ko‘cha-ko‘yda fikr almashish jarayonida qo‘llanadigan nutq uslubi. So‘zlashuv uslubi, ko‘pincha, dialog shaklida bo‘ladi. So‘zlashuv uslubida adabiy nutqning og‘zaki me‘yorlariga qat‘iy rioya qilish talab etilmaydi. Ammo turli sheva vakillari suhbatida adabiy nutqning og‘zaki me‘yorlariga rioya qilish madaniyatlilik hisoblanadi. **Badiiy uslub** – badiiy adabiyotga xos nutq turi. Unda badiiylik, ifodaviylik, ta‘sirchanlik kuchli bo‘ladi.

**Publitsistik uslub** – rasmiy axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga mo'ljallangan ommaviy axborot vositalari (radiotelevizioniye, gazeta- jurnallar) uslubidir. **Ilmiy uslub** – ilmiy asarlar, ilmiy jurnallar, darslik va qo'llanmalar yoziladigan uslub, unda ilmiy atamalardan keng foydalaniladi, ko'chma ma'noli til ifodalari nihoyatda kam ishlatiladi. **Rasmiy-idoraviy uslub** – davlat qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar yoziladigan uslub. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq mazmunli quriladi, ko'pincha, egasiz, kesimlari majhul nisbatda bo'ladi.

**Yozma nutqqa qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilarda o'z ifodasini topadi.** Yozma nutqdagi imlo va tinish belgilari ustida ishlash matn mazmuni ustida ishlash bilan yaxlit birlik hosil qiladi.

**Mazmundorlik** o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablardan biridir. Mazmunsiz fikr na shaxsning o'ziga, na o'zgalarga yoqadi.

**Badiiylik.** O'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biri matnning badiiyligidir. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan fikrning  **mantiqan to'g'ri, aniq va izchil** bo'lishidir. Fikr  **mantiqan** asoslansa, ta'sirchanligi ortadi. Bu o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, to'g'ri baholay olish, nutqni muntazam va izchil tartiblash, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda fikrlarini mantiqan to'g'ri bog'lashi, mavzuga aloqador asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlashi, qaytariqlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Nutq mantiqiy fikrlash mahsuli bo'lib, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat bilan chambarchas bog'langan. Nutqning mantiqan to'g'riligi fikrlarning aniq va izchil bog'langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va g'aliz jumlar bo'lmasligini, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo'lishini talab etadi. Nutqning  **aniqligi** faqat narsa, voqea-hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa voqea-hodisa uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlash, ularning



tasviriga mos tushadigan soʻz, soʻz birikmalari va gaplarni tanlashdan ham iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bogʻlangan. Nutqning grammatik jihatdan **toʻgʻri** qurilishi ham unga qoʻyladigan muhim talablardan biridir. Nutqqa qoʻyiladigan yana bir muhim talab uning soddaligi va sofligidir. Sodda nutq, avvalo, tushunarli boʻladi. Nutqning tushunarli boʻlishi, bir tomondan, fikrni qisqa, aniq bayon qilish, tushunarli boʻlmagan gʻaliz jummalardan saqlanishda namoyon boʻlsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bogʻliqdir. Nutqning **sofligi**, avvalo, uning tozaligi demakdir. Maʼlumki, oʻquvchilar nutqida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlar, oʻzbek adabiy tiliga xos boʻlmagan soʻzlar koʻp uchraydi. Nutqni bunday soʻzlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish muhimdir.

Oʻquvchilarni soʻzlarning maʼnosi va qoʻllanishiga doir onomastik tadqiqotlar bilan tanishtirib borish ham, matn tuzishda yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan xato va kamchiliklarning oldini oladi. Masalan, yaratilayotgan ijodiy ishlarda maʼlum hududlar qahramonlari tilidan gapirish yoki bu qahramonlarga taʼrif berishda aniq maʼlumotlarga tayanilsa maqsadga muvofiq boʻladi. Jumladan, “*otin*”, “*otincha*” soʻzlari koʻproq Toshkent va Fargʻona vodiysidagi ijodkorlarga xos boʻlsa, “*mullo*”, “*oyimullo*” kabi soʻz va iboralar buxoroliklar uchun xarakterlidir. Lugʻatlarda ushbu soʻzlar *xotin*, *ayol*, *oydek goʻzal ayol*, *xonning xotini* yoki *qizi*, yuqori tabaqaga mansub ayol yoki qiz kabi maʼnolarni anglatadi. Yuqorida qayd etilgan soʻz va iboralar davr oʻtishi bilan oʻz maʼnosini oʻzgartirgan. Agar “*xonim*”, “*begim*”, “*bonu*”, “*niso*” singari soʻzlar dastlabki paytda yuqori tabaqaga mansublikni bildirgan va nomga qoʻshimcha sifatida qoʻshib ishlatilgan boʻlsa, keyinchalik mustaqil nom sifatida qoʻllanilgan. Uning funksiyasi oʻzgarishi bilan mazmuni ham kengaya borgan. Keyinchalik bu soʻzlar yoqimli, estetik didli, dilkash, goʻzal, iffatli, madaniyatli, odobli, savodli ayol kabi maʼnolarni anglatgan. Shu nuqtayi nazardan shoirlar bokira,

nozima-yu zebolar nomiga bu qo'shimchalar qo'shib kelganda o'qimishli, bilimdon, she'rshunos, zukko, asl sifatida tushunilgan, xalq o'z sevimli shoirlarini siylab, e'zozlab ushbu qo'shimchalar, iboralar bilan atab kelgan. Zebuniso, Sultonxonim, Nodirabegim (Mohlar oyim), Jahon otin (Uvaysiy), Bonu, Nozimaxonim, Anbar otin va boshqa o'nlab ta'bi nazmi bo'lgan dilbar va dilkash ayollar xalq hurmat va ehtiromiga sazovor bo'lgan. Ayniqsa, qadimda va bugungi kunda adabiyot olami, ijtimoiy muhit, madaniy hayotda insonlarga berilgan unvon, taxallus, daraja yoki laqablarning jamiyatda tutgan o'rni, vazifasi, kelib chiqishiga haqida ma'lumotlar yoshlarimizni ilm ahliga hurmat ruhida tarbiyalab, ilmiy faoliyatda faollikka undaydi. Ijodiy ishlar, ilmiy maqolalar, tezislar yaratishda turli chalkashliklarga yo'l qo'yishmaydi, tahlillarda ilmiy ma'lumotlar bilan qurollanishadi. Bunday holat ularga kuchli ta'sir qilib, zerikish, noaniqlik va xatoliklardan bezishning oldini oladi. Ma'lumotlar ilmiy asoslab berilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, **"Mavlono"**, **"Mavlaviy"**, **"Maxdum"** so'zlari *"hakim"*, *"shayx"* so'zlari singari o'qimishli, donishmand ma'nosini anglatadi. Mavlono va mavlaviy arabcha so'z bo'lib, bir xil ma'noni anglatadi. Ega, sohib ma'nolarida keladigan bu so'zlar olim va shoirlar nomidan oldin kelib, ularning zukko va dilkashligiga kafolat beradi. Arab tilidan olingan *"maxdum"* so'zi ulug' zot, martabali kishi kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'z olim va shoirlar nomiga qo'shib aytilganda bilimdon, she'r ilmi olamidan xabardor, yuksak mahoratli degan ma'noni anglatadi. Shoirlar haqida gap borganda, ularning nomi zikr etilganda *"xoja"*, *"xo'ja"* va *"mirzo"* kabi unvonlar ham ishlatiladi. Jahon she'riyati xazinasiga bebaho javohir tuhfa etgan *"xoja"* so'zi *"mavlono"*, *"mavlaviy"*, *"maxdum"*, *shayx"*, *"hakim"* so'zlari bilan teng ma'noda turadi. *"Mirzo"* so'zi – *kotib*, munshiy, Hindistonda lashkar boshliqlarining laqabi tarzida izohlanadi. Mazkur so'zning ikkinchi ma'nosi ancha kengdir. Sayidlar avlodidan bo'lmish shahzodalar ismining oxirida aytilgan, masalan, Ibrohim Mirzo. Savodli, donishmand, zukko, ilmi adabdan xabardor, ziyoli

shaxslarning nomidan oldin keladi. Jumladan, Mirzo Ibrohim, Mirzo Abdulqodir Bedil. “*Mirzo*”so‘zi ishlatilish o‘rniga qarab, alohida tushunilgan. Bu so‘zning nomdan keyin kelishi tegishli shaxsning shahzodaligiga ishora bo‘lsa, nom yo taxallusdan oldin kelishi sifatlovchi bo‘lib, shu unvonni olishga sazovor bo‘lgan shoir yoki olimning ziyoli, savodli, katta bilimdon ekanligini ko‘rsatadi. Bunday ma’lumotlar, yaratiladigan matnda aniqlik, to‘g‘rilik kabi sifatlarni ta’minlab, o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Yozma ish o‘quvchini ijod qilishga, fikr yuritishga undashi, aqliy mehnatga qiziqish uyg‘otishi zarur. Shunga ko‘ra, o‘quvchining yozgan ijodiy ishlariga bir qator talablar qo‘yiladi. Dastavval, husnixat bilan bitilishi lozim. Bunda harflarning aniq va to‘g‘ri yozilishi talab etiladi. Inson o‘z fikrini boshqa kishilarga og‘zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu ikki shaklining o‘xshash va farqli tomonlari mavjud bo‘lib, ular o‘z o‘rnida afzalliklarga ega. Og‘zaki nutq kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog‘och, teri, metall, qog‘oz kabilarga ko‘rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo‘yilgan. Yozuv kishilarning o‘zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir- biriga bog‘laydi, uzoq davrlar mobaynida saqlanadi. Yozuv tufayli kishilar fikri, insoniyat qo‘lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi. O‘quvchilarning yozma nutqidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini osonlashtiradi. Demak, yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Chiroyli yozish tushunchasi ichiga tozalik, tartiblilik tarbiyasi kiradi. **Birinchi**dan, husnixat bilan yozish o‘quvchilarda mehnat qilish madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va did bilan bajarish ko‘nikmasini hosil qiladi. **Ikkinchi**dan, dastxatga pala-partish va bee’tibor munosabatda bo‘lish o‘quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o‘quvchilar qiladigan ishlarini o‘ylab o‘tirmay

bajaraveradilar, o'z xato va kamchiliklarini ham o'ylab ko'rmaydigan bo'lib qoladilar. Hayotda ham tartibsiz yashashga ko'nikadi. **Uchinchi**dan, husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan, to'ldirilmagan hujjatlarni o'qishga kitobxonning ko'p vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Vaholanki, maktabda har kuni o'qituvchi birgina sinfning o'zida 30 dan ortiq o'quvchilar daftarini tekshiradi. O'qib bo'lmaydigan dastxat bilan yozilgan xat o'qituvchining ko'p vaqtini yo'qotishiga olib keladi. Aniq va ravon qilib yozilgan dastxat o'qituvchining ishini yengillashtiradi, keyingi ta'limiy maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bunday holatlar jamiyatning barcha jabhalarida aks etadi. Chiroyli yozishga harakat his, tasavvur, fikr, intilish, istak, havas, qobiliyat kabi tushunchalarni kuchaytiradi.

O'zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy merosida xattotlik san'ati alohida o'rin egallaydi. O'rta asrlarda har qanday asar qo'lda ko'chirilib kitob qilingan. Nafis kitob ko'chirish katta hunar va san'at hisoblangan. Bu hunar egalari tarixda xattot nomi bilan mashhur bo'lganlar. Xattotlarning ko'chirgan kitoblari kishilarni hayajonga solib, ularni zavqlantirgan. Shuning ushuni ham xattotlik bilan nom chiqargan shaxslar oddiy ko'chiruvchi emas, balki o'sha davrning ilm-ma'rifatli va yirik madaniyat arbobi hisoblangan. Qo'lda ko'chirilgan har bir asar san'at mo'jizasi kabi nodir hisoblangan. XIV-XVI asrlarda bir qancha iste'dodli san'atkorlar-nafis kitoblarning ijodkorlari yetishdi. Muhammad bin Husayn at-Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqalam, Munislar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, o'rta asrlarda yashagan bir qancha olim va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san'atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Ular faqat o'z asarlarinigina emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham ko'chirganlar. Masalan, Hofiz Sheroziy Xusrav Dehlaviyning "Xamsa"sini ko'chirgan. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan ma'lum. Zahiriddin

Muhammad Bobur arab grafikasida turkiy xalqlarga moslab “Xatti Boburiy” deb atalgan alifbe yaratdi. Munis Xorazmiy xattotlik san’ati haqida “Savodi ta’lim” nomli risola yozdi va Alisher Navoiyning “Xamsa”sini nihoyatda chiroyli xat bilan ko’chirdi. Muqimiy ham juda mayda nasta’liq va shikasta xati uslubida bayoz ko’chirgan. Bularning hammasi shuni ko’rsatadiki, O’rta Osiyoda nafis kitob yaratish texnikasi ixtiro etilmagan bir davrda kotiblikka talab nihoyatda kuchli bo’lgan. Qo’lyozmalarni kitob holiga keltirishda bir necha mutaxassislar ishtirok etganlar. Tayyorlangan nafis kitoblar shohlar, buyuk olimlar va shoirlar kutubxonalarida saqlanar edi. Xattotlar texnik vazifalardan tashqari o’z yozuv uslublarini ham ishlab chiqarishga intilganlar. Masalan, XII asrdan boshlab xattotlar hayotida ko’fiy xati uslubi keng o’rin oldi. Bu uslub asosida arab yozuvining quyidagi asosiy uslublari maydonga keladi:

1. Suls xati-bu xatning to’rt bahrasi tekis, ikki bahrasi yumaloq shaklda yoziladi.

2. Nasx xati-bu xatning ixtirochisi mashhur xattot Ibn Muqla’ hisoblanadi.

3. Muhaqqaq xati-bir bo’lak qismi tekis bo’lib, qolgan bo’laklari yumaloq shaklidayoziladi.

4. Rayhoniyy xati-muhaqqaqdan kelib chiqqan bo’lib uning ixtirochisi Ibn Bavvobdir.

5. Tavqe xati - yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.

Eski maktabda husnixat qoidalarini o’rgatuvchi birdan-bir qo’llanma “Mufradot” kitobi bo’lgan. Domlalar yozishni o’rgatish va husnixat mashq qildirishda shu kitobdan foydalanganlar. Bu vaqtda husnixatga o’rgatishning birdan-bir yo’li ko’chirib yozish ko’nikmasini hosil qilish bo’lgan. Bolalar uchun arab alfavitida yozish juda qiyin bolib, unda biror nuqtaning noo’rin qo’llanishi yoki nuqtalar sonini kam yoki ortiq bo’lishi so’zning ma’nosini tubdan o’zgartirib yuborgan. Shuning uchun, arab yozuvida juda ehtiyot bo’lib yozish zarur edi. Ana shunday bir vaqtda husnixat bo’lishni,

har bir harfni to'g'ri va aniq yozishni talab qilish, bu masalaga kishilarning diqqatini jalb qilishda husnixat ta'limini o'rgatuvchi metodik qo'llanma juda muhim bo'lgan. Bu ishga birinchi bo'lib shoir va xattot Shermuhammad Avazbek o'g'li Munis (1778-1829) bel bog'laydi. Munis 1804 yilda o'zbek tilida "Savodi ta'lim" nomli risola yozadi. Uning bu risolasi amaliy hamda nazariy tomondan o'sha davrga nisbatan katta ahamiyatga ega edi. Munisning bu asari uning vafotidan keyin Xorazm xattotlari tomonidan ko'chirib yoziladi. Munis bu risolasini ikki qismga bo'lib, birinchi qismida husnixat ta'limini bergan ustozlari haqida, xat va chiroyli yozuv asboblari haqida foydali maslahatlar beradi.

So'z maxzanining nishonasi ham, Ma'ni durining hazonasi ham,  
Har so'zki, ko'nguldan o'ldi mavjud, Xat bo'lmasa bo'lg'ay erdi  
nobud

U yozuv qoidalariga ham katta ahamiyat berib shunday deydi:  
Olam ishi intizomi andin,

Olam elining nizomi andin,

Ul bo'lmasa bo'lmag'ay kitobat, Bu bo'lmasa qolmag'ay hikoyat...

"Savodi ta'lim"ning ikkinchi qismida arab alfavitidagi harflarning o'lchovi va shakli katta-kichikligi tushuntiriladi. Munis bu kitobida harflarning o'lchovini qofiyalashtirib har xillikka chek qo'yib, husnixat ta'limiga yangilik kiritgan. Uning bu risolasi xattot va kitoblarga hamda o'z xatini tuzatmoqchi bo'lgan kishilarga yaqindan yordam bergan. Hozirgi kunda maktablarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarning savodxonligini oshirish ekan, bunda toza va chiroyli yozuvning roli katta. Rus pedagogi K.D.Ushinskiy husnixat darslariga alohida e'tibor berib, "dastlabki orfografik malakalar husnixat darslarida tiklanadi",- degan edi. Qadimda qo'lyozma kitoblarning muallif tomonidan parcha-parcha qog'ozlarga yozilib ijod etilgandan so'ng, uni oqqa ko'chirib, kitob tusiga kirituvchi g'oyat murakkab, mashaqqatli, ayni vaqtda sharafli vazifani bajaruvchi shaxs kotib bo'lgan. Kotiblik daf'atan qaraganda kishiga bir texnik vazifaga o'xshab ko'rinadi,

go'yo muallifning yaratgan asarini harfma-harf ko'chiruvchi kishidek bo'lib tuyuladi. Haqiqatda esa bunday emas. O'rta asr tarixida va u davrdagi madaniy hayotda kitobatlik hunari eng sharaflari va muqaddas vazifa hisoblangan. Avvalambor, kotibning savodli bo'lishining o'zi uni yuqori mavqega olib chiqadi. Ikkinchidan, kotib kitobat qilish munosabati bilan har bir ko'chirgan kitobning mazmunini o'zlashtira boradi. Shuning natijasida haqiqiy kotib o'z zamonasining o'qimishli ilm- ma'rifat egalari qatoridan joy oladi. Demak, o'rta asr Sharq mamlakatlarida kitob ko'chirish bilan shug'ullangan xattotlarni biz oddiy ko'chiruvchilik vazifasini bajaruvchi shaxs deb emas, balki har bir xattotni o'z zamonasining o'qimishli ma'rifatparvar, ilg'or ziyolisi va yirik madaniyat arbobi deb tushunishimiz kerak. Hozirdagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida mavjud minglab kitoblar va kitobat san'ati, husnixat to'g'risidagi qator risolalarda berilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, husnixat san'ati O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyat tarixida yetakchi rol o'ynagan deyish mumkin.

Savollar:

1. Yozma ish nima va uning qanday turlari bor?
2. Og'zaki va yozma nutqning birlashtiruvchi va farqlovchi jihatlarni izohlang.
3. Ta'limiy-tarbiyaviy matnlarning o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rinadi?
4. Yozma ishlarning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati?
5. Yozma ishlarning o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati?
6. Yozma ishlarning turiga qarab qaysi faoliyatni o'stirishga yordam berishim mumkinligini aniqlash mumkin?
7. Qaysi yozma ish turida o'quvchi erkin ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o'rganadi?

## SODDA VA MURAKKAB TARKIBLI MATNLAR

Reja:

1. Matn va uning turlari.
2. Matnlarning o'ziga xos jihatlari.
3. Sodda tarkibli matnlar.
4. Murakkab tarkibli matnlar.
5. Matnlarning muayyan janr xususiyatlarida namoyon bo'lishi.

Matnlar xilma-xil bo'lib, ta'limiy-ma'rifiy va ta'limiy-tarbiyaviy matnlarga bo'linadi. Uzluksiz ta'lim tizimining o'rta bosqichida ko'proq foydalanilsa, samarali natijalar beradi. Chunki, aynan shu davr ona tilining grammatik qurilishi, til qoidalariga va ta'riflarga oid nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilib, ham bilim berishni, ham tarbiyalashni ko'zda tutadi. Matnlar turli ko'rinishlarga egadir. Ular haqida ma'lumotlar darslikda berilsa ham, asosan, o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Dastur o'qituvchiga darslikdagi matnlarga ijodiylikva izlanuvchanlik asosida yondashishga to'liq imkoniyat beradi. **Ma'lumotnoma matn**ida voqea-hodisa yoki holat haqida oddiy axborot beriladi. Bunday matn obrazlilik va bo'yoqdorlikdan, badiiy-tasviriy vositalardan xoli bo'ladi. Ma'lumotnoma matnida so'zlovchi axborotni o'z nuqtayi nazarisiz, xolis bayon qiladi. Rasmiy matnlar ma'lumotnoma matniga misol bo'ladi. **Ijodiy-tavsifiy matn**da dalillar so'zlovchi yoki yozuvchining shaxsiy munosabati, nuqtayi nazari asosida ifodalanadi; badiiy-tasviriy vositalar qo'llanishi mumkin. Ilmiy, publitsistik va badiiy matnlar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlari. O'quvchilar uchun matn ko'rinishlaridan asosiylari:

1. Mashg'ulotda hosil qilingan bilim va ko'nikmalar asosida matn yaratish. Bunday matnlar 2-3 bosqichdan iborat bo'lishi, monolog va dialog tarzida, ixcham tasvir yoki hikoya bo'lishi mumkin.



2. Mavzu bo'yicha tasvir (kichik insho) yaratish.

3. Insho-matnning oliy ko'rinishi. Dasturda quyidagi insho turlari berilgan: a) ilmiy insho (barcha fanlardan har bir fan uchun xos bo'lgan biror mavzu yoki masalani ochish); b) ilmiy-badiiy insho (badiiy asar, yozuvchi ijodi, adabiy jarayonlar tahliliga bag'ishlangan insholar); v) badiiy-ijodiy insholar (san'at asarini o'rganishdan o'quvchining hosil qilgan shaxsiy kechinmalari tasviri); g) tasviriy insho (narsa, shaxs, manzara va h.k. tasviriga bag'ishlangan insho); d) erkin mavzudagi insho.

Matnlar maqsadi, shakli, uslubiga ko'ra turli-tuman bo'lib, badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlardan foydalaniladi. Har bir uslubning xususiyatlari va maqsadlari bo'lib, o'z me'yoriy talablariga ega. Har bir nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, matn tuzishda ularni e'tibordan qochirmaslik zarur. Nutq uslublariga oid matn tuzishda integratsion yondashib o'rganilsa, davlat tilida ish yuritish masalalariga e'tibor kuchayadi.

Matnlar **sodda va murakkab tarkibli** bo'ladi. *Sodda tarkibli matn* bir yoki bir necha gaplardan tuzilib, xabar, maqol, matal kabi ko'rinishlarda bo'lib, hajmi kichik, yagona maqsad va fikrda birlashadi.

*Murakkab tarkibli matnda* biror g'oya, mavzu yoritilib, bo'limlar, qismlar, boblardan tashkil topadi.

Bir necha so'zning mazmunan birikishidan tortib butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matndir. O'quvchilarninig tafakkurini rivojlantirishda o'qituvchi tomonidan turli ko'rinishdagi matnlar yaratishning yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, avvalo, o'qitish jarayonini tom ma'nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida shakllantirish zarur.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada kamol toptirish maqsadida darsliklarda **ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matn** berilgan. Ma'lumotnoma matnida biron voqea yoki holat haqida axborot berilsa, ijodiy-tavsifiy matnda esa voqea-hodisa, borliqni

ifodalashda yoki munosabat bildirish asosida yuzaga keladi. **Ma'lumotnoma matnida**, asosan, uslubiy betaraf so'zlar ishlatiladi. **Ijodiy tavsifiy matn** badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan ta'riflab, izohlab yaratiladi. Insho ijodiy-tavsifiy matn. Shu o'rinda aytish joizki, "matn yaratish" va "matn tuzish" tushunchalarining o'zaro farqlanishi va ulardagi lug'aviy ma'no semalarining butunlay uyg'un emasligi sababli bu tushunchalarni o'z o'rnida to'g'ri tatbiq etishga erishishimiz lozim. Matn tuzish deganda o'qituvchi tomonidan maxsus tayyorlangan yoki darsliklardan, mavjud o'quv manbalaridan foydalangan holda gap va so'zlarni mavzu talabiga mos tarzda joylahstirish ma'nosini anglatadi. Matn yaratish qo'shimcha manbalardan foydalanmagan holda, o'quvchi ongida mavjud bilim, ko'nikma va malakalardan ijodiy foydalanish asosida yaxlit fikr ifodalash tushuniladi.

Matn yaratish o'quvchi uchun to'liq ijodiy izlanish hisoblansa, matn tuzish qisman ijodiy izlanishga taalluqli bo'ladi. "Matn yaratish" faoliyati o'quvchi so'z boyligi, nutqiy savodxonligi, mustaqil, izchil, o'rinli fikr ifodalash bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniq ko'rsatishga xizmat qiladi. "Matn tuzish"da esa o'quvchining lug'at xazinasini, idrok va xotirasini zo'riqtirishga hojat yo'q, chunki berilgan manba unga o'ziga xos tayyor mahsulot, yordamchi material vazifasini o'taydi. O'quvchi manbadagi tayyor fikrlarni o'z o'rnida, to'g'ri, ravon qo'llashni bilsa yetarli hisoblanadi, matn tuzish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. "Matn yaratish" tushunchasi ko'proq milliy maktablarda ona tili amaliyotiga xos, "matn tuzish" tushunchasi boshqa millat vakillariga o'zbek tilini o'rganishda samarali qo'llaniladi. Matn tuzuvchi matn yaratuvchi kabi mualliflik huquqiga ega emas (masalan, diktantlar, bayonlar to'plamlari, buyruq va ko'rsatmalar, adabiy va grammatik xrestomatiyalarni to'plab, tartib bergan va nashr qilgan kishilar "tuzuvchi" maqomida bo'ladi.

Barcha matnlar, muayyan janr xususiyatlarini namoyon qiladi.

Turli janrdagi matnlarni yaratish sermulohaza, savodli, ma'naviyati yuksak o'quvchini tarbiyalaydi, tildagi ma'no nozikliklarini fahmlash, obrazli fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Bunday yozma ishlar birmuncha mustaqil va turli-tuman bo'ladi. Ularning mohiyatini anglash uchun yozma ishlarni muayyan tartibda olib borish kerak. Har bir janrning o'ziga xosligini tushuntirish, turli janrdagi badiiy asar yoki adabiy tanqidchilik namunalarini o'qish va tahlil qilish; turli mualliflarning bir asarga bag'ishlangan maqolalarini taqqoslash; o'quvchilarning biron bir janrda yozma ish yozishiga hamda janr xususiyatlarini o'zlashtirishga yo'naltiruvchi namunaviy savollar tuzish; yozma ishlarni bajarish va ularni tahlil qilishda asosiy vazifalar hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimiz qatlamlarlarida yaratilgan mashhur asarlarda qoliplash kompozitsion usulidan foydalanib matnlar tuzilgan, bunday asarlar ham yosh avlod tafakkuri rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Qadim sharq xalqlari adabiyotida mavjud ushbu asarlar ustida tadqiqot ishlarini olib borib ularni o'zbek tiliga erkin, ijodiy tarjima qilib o'zbek adabiyotimizni noyob durdonalar bilan boyitgan ajdodlarimiz mehnatlari e'tirofga loyiqdir. 1796 yil Kitob shahrining Charmgaron guzarida kosib oilasida dunyoga kelgan Mulla Qurbon Xiromiyning bu sohaga qo'l urishi bugungi yoshlar dunyoqarashi kengayishiga, ma'naviy olami o'sishiga, nutqi mantiqli, fikri teran bo'lishiga salmoqli hissa qo'shadi deb baralla aytish mumkin. Zamon bilan hamnafas bo'lgan haqiqiy pedagog izlanadi, ijod qiladi, boy meroslarimizdan unumli foydalanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida barcha chora- tadbirlarni ko'rib zamon talabi bilan uyg'unlashtira oladi. Qadimda yaratilgan ushbu noyob asarlar ustida qayta-qayta ishlab ta'lim jarayonida foydalanish, yoshlarning og'zaki va yozma nutqida, tafakkuri o'sishida samarali natijalar beradi. Bu asarlarda keltirilgan hikoyalarning uzviy g'oyaviy bog'liqligi bugungi klaster tizimini aks ettiradi. Qadimda ajdodlarimiz o'zaro uzviy bog'lanib, tarmoqlangan g'oyaviy jihatdan mukammal asarlarni yaratishib, insoniyat tafakkuri rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelishgan. Bunga

misol tariqasida qoliplash usuli haqida ma'lumotlar berib, namunalar keltirishni lozim topdik.

**Qoliplash kompozitsion usuli.** Qoliplash kompozitsion usuli sharq xalqlari adabiyotining eng qadimgi namunalarida uchraydi. Bu usul qaysi xalq folklori yoki adabiyotida paydo bo'lgan, keyin qanday yo'llar bilan tarqalganligini aytish qiyin. Umuman, bu usul sharq xalqlari adabiyotlarida paydo bo'lib, ularning bir-birigata'siri natijasida shakllanib, taraqqiy topganligi haqiqatga ancha yaqin. Qoliplash kompozitsion usulining ta'siri XIV asr o'zbek adabiyoti namunalarida, masalan,

“Yusuf va Zulayho”da ko'rinsa ham, ammo uni hali to'la ma'nodagi qoliplash kompozitsion usuli deb bo'lmas edi. Bu usuldagi asarlarning yetuk namunasini o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy (“Sab'ai sayyor”, “Lison ut- tayr”) yaratdi. Bu an'ana XIX asr ijodkorlari Gulxaniy, Xiromiy, Masiho Boysuniy, Miriy, Siddiq, Muhammad Rasullar tomonidan rivojlantirildi. Qoliplash kompozitsion usulining eng qadimgi namunasiga fors- tojik va arab xalqlari tomonidan yaratilgan “Ming bir kecha” ertaklar to'plami misol bo'la oladi. Bu usulning xususiyatlarini xalq kitoblari va hatto xalq eposlarida ham ko'plab uchratamiz. Masalan, “Go'ro'g'li” eposi o'ziga xos qoliplash kompozitsion usuliga ega bo'lib, u o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon va boshqa qardosh xalqlar o'rtasida mashhurdir. “Go'ro'g'li” eposining qoliplovchi hikoyasi Go'ro'g'lining o'zi haqidagi hikoyadir. Qolgan 40 dan ortiq doston Go'ro'g'li haqidagi hikoyaga qoliplanadi yoki o'sha hikoyadagi asosiy g'oyalarni to'ldiradi. Qoliplovchi dostonlar turli xalqlarda har xil xarakterda bo'lgan. Qoliplash kompozitsion usuli Yevropa adabiyotida ham bo'lgan. Masalan. Bokachchoning “Dekameron”i shu usulda yozilgan. Bunday “usul” so'zi uslub mazmunida emas, balki tartib, kompozitsiya mazmunida keladi. Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida ham voqea ichiga voqea, hikoya ichiga hikoya berish hollari uchraydi. Qadim xalqlar ajdodlari haqidagi qahramonlik dostonlari asosida qator dostonlar yaratganlar.

“Baxtiyornoma”, “To‘tinoma” va boshqa qator asarlar ham o‘ziga xos qoliplash kompozitsion usuliga egadir. Bu usulni tojik adabiyotshunoslari “chahorcho‘ba”(ramka) yoki “afsona dar afsona”, “povest dar povest” deb ataydilar. “Hind ertaklari”ga kirish so‘zi yozgan M.Kalyagina-Kondratyeva qoliplash kompozitsion usulining xususiyatlari haqida fikr yuritib, yozadi: “Xalq ertaklarini qaytadan ishlagan yozuvchilar ularning fabulasiga zeb-u ziynat berar, ularga she‘rlar, maqollar, hikmatli so‘zlar kiritib, o‘zlari ham yangi ertaklar ijod etardilar. Aksari, birmuncha ertaklarni bir to‘plamga birlashtirib, “ramka” bilan o‘rab olardilar. Bu terminda qadimgi hind yozuvchilariga xos kompozitsion usullar ko‘zda tutiladi. Bunda ichki bog‘lanishi bo‘lmagan ayrim asarlar sun‘iy ravishda birlashtirilib, asosiy qissaning fabulasi bilan o‘rab olinadi. Mashhur ertaklar to‘plami “Ming bir kecha” ham shu asosda tuzilgan. Bu xil to‘plamlarga xos xususiyatlar quyidagicha: qissa asosan fabulani bayon etish bilan boshlanadi. Shuning davomida qahramonlardan biri ikkinchisiga hikoya qiladi, bir hikoya tugashi bilan, asosiy qissaning talabiga muvofiq, ikkinchi, uchinchi hikoyalar boshlanib, nihoyat asosiy qissa tugallangandagina hikoya aytish tamom bo‘ladi”. Albatta, bu fikrda bir tomonlamalik ham yo‘q emas. Aslida, bu qissalar faqat qoliplovchi hikoya talabi bilangina “ramka”ga olinmaydi, balki ularni bir umumiy natija va maqsad bir yerga to‘playdi. Masalan, shunday xususiyatli ba‘zi asarlarda sabr va chidam kabi masalalarni hal etishda sarosimaga tushmaslik, har tomonlama fikr yuritish kabi umumiy g‘oyalar ilgari suriladi. Chunonchi, “Baxtiyornoma”da shunday, hatto ularning ba‘zilarida syujetda yagonalik prinsiplari ham bor. Bunday xususiyatli asarlar, olimlarning yozishicha, qadimgi hind, sanskrit adabiyotida maydonga kelgan. Bunday asarlarning muhim namunasi sifatida “Pancha tantra”-“Besh kitob”ni ko‘rsatish mumkin(variantida “Kalila va Dimna” deb ataydilar). “Vitala pancha vinatgi”(“Vitalining 95 afsonasi”), “Shukasptati” (“To‘tining 75 hikoyasi”) ham shunday xarakterdagi asarlardandir. “Ming bir kecha” ertaklar to‘plami ham

qoliplash kompozitsion usulining eng yaxshi namunalaridan ekanligini yuqorida eslatib o'tgan edik. Uning dunyoga mashhur bo'lishida undagi ajoyib-g'aroyib ertaklar bilan bir qatorda kompozitsion usuli ham sabab bo'lgan. "Ming bir kecha"ning qoliplovchi hikoyasi "Shahriyor va Shohizamon" hikoyasidir. "Ming bir kecha"dagi qoliplovchi hikoyada adolatli shoh, vafo, soflik, ahillik, to'g'rilik kabi qator g'oyalar madh etilib, bularga teskari g'oyalar Shohizamon xotinlari timsolida qoralanadi. Shahriyor obrazi orqali aql va donish kuchiga ishonch bildiriladi, sabr va qanoat, iroda va sabotning kuchi ko'rsatiladi. Albatta, bu hikoyadagi obrazlar asosiy maqsadni amalga oshirish uchun vosita sifatida tanlanganligini unutmash kerak. Hatto asosiy hikoyadagi obrazlar ham shu kompozitsion usul asosida rivolanadi. Ularning xatti-harakati, voqealarga aralashishi, xarakterining shakllanishi va boshqa tomonlari ham kompozitsion markazga bog'liq holda o'zgaradi. "Ming bir kecha" kompozitsiyasi markazida johil, qonxo'r podshoni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarish masalasi turadi. Shu sababli u faqat qoliplovchi hikoyada va xotimada harakat qiladi, xolos. Birinchi kechadan bir ming birinchi kechagacha asosiy "yuk" Shahriyorning gardaniga yuklanadi. U asosiy maqsadni amalga oshirish uchun har qanday kenglikda, har qanday holatda harakat qiladi va har xil hikoyani aytib beradi. Demak, uning faoliyat ko'rsatishi uchun qissada keng maydon yaratib berilgan. Boshqa hikoyalar ham o'z kompozitsion markaziga hamda o'z qoliplanuvchi hikoyalari ega. Ammo ularning barchasi ham birgalikda bosh markazga xizmat qiladi. XIX asr shoiri Gulxaniyning "Zarbulmasal"i ham qoliplash kompozitsion usulida yaratilgan asarlardan biridir. Gulxaniy ham o'zigacha yaratilgan folklor asarlarini to'plash va ularni zamonaviylashtirish asosida "Zarbulmasal"ni yaratdi. "Zarbulmasal"ga shoir Boyo'g'li va Yapaloqqush mojarosini qoliplovchi hikoya qilib, qolganlarini unga qoliplantirish hodisasi va avvalo, zamona ruhidan, ijodkor pozitsiyasidan kelib chiqqan holda birlashtirdi. Aslida Gulxaniydagi qoliplovchi hikoya ham,

qoliplanuvchi hikoyalar ham ancha ilgari yaratilgan. Ammo Gulxaniygacha bironta adib ham bu asarlarni ma'lum bir tizimga solgan emas. Gulxaniyning novatorligi uning bu hikoyalarni to'plashida emas, balki ularni Boyo'g'li va Yapaloqqush hikoyasi atrofida jamlab, ma'lum bir siyosiy-ijtimoiy g'oyani tashuvchi sifatida kompozitsiyalashtirishidir.

Gulxaniy parrandalar va hayvonlar dunyosidan allegorik ravishda foydalanib, xalq og'zaki ijodi materiallari asosida bu asarni yaratgan. Asarda yuqori tabaqa vakillari-mulla, eshonlar, ularning kirdikorlari, bu orqali zo'ravonlikka asoslangan jamiyat va uning g'oyalari qattiq tanqid ostiga olinadi. Bu asari bilan Gulxaniyo'zbek adabiyoti tarixini ham g'oyaviy, ham badiiy tomondan boyitdi. "Zarbulmasal"da qoliplovchi hikoya Boyo'g'li bilan Yapaloqqushning quda bo'lishi haqidagi qissadir. Ikki ota-ona tomonidan Gunashbonuni Kulankirsultonga turmushga chiqarish harakatiga bog'liq voqealar va bu masalaning yechilishi uchun Ko'rqush va Hudhud hamda boshqa qushlar tilidan keltirilgan qator hikoya, masal, hikmatli so'z, latifa va maqollar bosh hikoyaga qoliplanadi. Agar "Ming bir kecha"da hikoya aytish, voqealarning o'tish o'rni, bosh hikoyadan keyin, asosan, saroyda sodir bo'lsa, "Zarbulmasal"da voqealar o'rni chegaralanmagan, undagi voqealar bir oyda sodir bo'lmaydi. "Ming bir kecha"da har bir hikoya o'zining alohida markaziy hikoyasiga, markaziy hikoya esa o'z qoliplanuvchi hikoyalari ega bo'lsa, "Zarbulmasal"dagi qoliplanuvchi hikoyalar o'zaro yana qoliplanmaydi, ular har xil qushlar tomonidan voqeaning mazmuniga qarab aytilaveradi. "Ming bir kecha"dagi hikoyalarning hammasi qoliplovchi hikoyadan ajratilgan holda aniq bir asar xususiyatini kasb etsa, "Zarbulmasal"da bu fikr faqat uch hikoyaga, ya'ni "Maymun bilan najjor", "Teva bilan bo'taloq" hamda "Toshbaqa bilan chayon" gagina taalluqlidir. Gulxaniyning mahorati shundaki, u alohida asar xarakteridagi shu uch hikoyani ham "Zarbulmasal"ning ruhiga mos ravishda unga payvand etadi, kitobxon bu hodisani darhol payqamaydi, asarning tarkibiy qismi

sifatida his etadi. “Zarbulmasal” ham “Ming bir kecha” singari optimistik ruhda Gunashbonu bilan Kulankirsultonning murod-u maqsadga erishish to’yini tasvirlash bilan yakunlanadi. Xuddi shunday kompozitsion soddalik “Chor darvesh” va “To‘tinoma”ning asl nusxalariga (“Chor darvesh”ning tojikcha nasriy, “To‘tinoma”ning o‘zbekcha nasriy tarjima variantlari) ham xosdir. “Chor darvesh”ning nasriy varianti muqaddima, ya’ni qoliplovchi hikoya, to‘rt darveshning sarguzashti va xotimadan iborat. “To‘tinoma”ning sochma nusxasi ham bitta qoliplovchi va 38 qoliplanuvchi hikoyadan iborat. 38-hikoya esa yakunlovchi xarakterga ega. “Ming bir kecha”dagi bir muhim xususiyat “Chor darvesh” va “To‘tinoma”da ham uchraydi. Bu “Ming bir kecha”dagi qoliplovchi hikoyadan keyin Shohizamon obrazining syujet oqimidan butunlay chiqib qolganiday, “Chor darvesh”dagi Ravshanro‘y, “To‘tinoma”dagi Maymunning otasi kabi obrazlar ham voqealar oqimidan butunlay ajralib qoladi. Qoliplash kompozitsion usulining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, unda qoliplovchi hikoyadagi asosiy g‘oyaviy motivlar qoliplanuvchi hikoyalar va ko‘makchi obrazlar vositasi bilan to‘ldiriladi. Buni “Xamsa”chilikda birinchi dostonidagi nazariy, falsafiy fikrlar, asosiy g‘oyaviy mazmunning boshqa dostonlardagi obrazlar vositasi bilan rivojlantirishga o‘xshatish mumkin. O‘rta Osiyo xalqlarining og‘zaki ijodiga xos asarlar ko‘pincha o‘zining soddaligi, bayonchilikka ko‘p o‘rin berishi, mubolag‘adan ko‘p foydalanishi, qahramonlar xarakteridagi xususiyatlarni o‘ta g‘ayritabiiylashtirishi, o‘z kirish va chiqishiga ega bo‘lishi bilan yozma adabiy asarlardan farq qilib turadi. Bunga “Ming bir kecha”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlar, qator o‘zbek, tojik, hind, afg‘on ertaklari misol bo‘ladi. Chunonchi, qoliplash kompozitsion usulida yaratilgan “Ming bir kecha”, “To‘tinoma”, “Chor darvesh” kabi xalq kitoblari Xiromiy, Gulxaniy va boshqa shu usulda ijod etgan san’atkorlarning shu nomdagi asarlari kompozitsiyasidan, albatta, farq qiladi. Bu usul bilan ish ko‘rgan shoirlar xalq kitoblari kompozitsiyasidan



ta'sirlangan bo'lsalar ham, ular bu usulga faol munosabatda bo'lganlar. Albatta, bu usul ulargacha ham bir necha san'atkorlar ijodiy laboratoriyasidan o'tib, ma'lum darajada shakllanganligini unutmash kerak. Sadriddin Ayniy "Chor darvesh"ning tojikcha variantiga yozgan so'zboshisida "Chor darvesh" qissasi qadim zamonlar mahsuli bo'lsa ham, Hindistonni kolonizatorlar zabt etgandan keyin qayta ishlanib, yangiliklar kiritilganligini, bungacha ham bir necha kishilar tomonidan qayta ishlanib sayqal berilganligini juda ko'p faktlar bilan isbotlab bergan edi. "Chor darvesh"ni qayta ishlagan qalamkashlar nima uchun unga o'z nomlarini qo'yimaganliklarining sababi hozirgacha ma'lum emas. Ularning asar kompozitsiyasi ustida bosh qotirganliklari esa haqiqatga yaqindir. Chunki kompozitsiya badiiy asarning estetikasiga taalluqli bosh masala bo'lib, yozuvchining unga e'tibor qilmasligi aslo mumkin emas. Basharti shunday fikrlarni "To'tinoma" ustida yurgizadigan bo'lsak, unda manzara birmuncha ravshanroq ko'rinadi. Chunki "To'tinoma"ni to'plagan va qayta ishlagan san'atkorlarning nomlari bizga aniq. Masalan, uni dastlab Ziyo Naxshabiy (1330) to'plab, kitob holda nashr etgan, undan keyin XVIII asrda Xudoydod Qodiriy birmuncha o'zgartirishlar bilan fors tilida ishlagan. Haydar-baxsh- Haydariyning ham bu sohada xizmatlari singgan. Demak, ular "To'tinoma"ni kompozitsion tomondan ham bir butun holga keltirishda o'z mehnatlarini sarf etganlar. Masalan, Naxshabiyning "To'tinoma"si shu asarning asl manbai "Shukasaptati"dan birmuncha farq qilganidek, Muhammad Qodiriyning "To'tinoma"si Naxshabiy "To'tinomasi"dan katta farq qiladi. Bularning farqlari haqida sharqshunos M.Kalyagina Kondratyeva shunday yozadi: "Qodiriyning tahriri Naxshabiy tekstidan ancha farq qiladi. Boblari o'ttiz beshtagacha qisqartirilgan; ikkita yangi ertak qo'shilgan. Muqaddima tarzidagi ba'zi ertaklar mustaqil ertakka aylantirilgan, boshqalari chiqarib tushlangan yoki yangilari bilan almashtirilgan. Ba'zi ertaklarning tafsiloti va hatto syueta ham o'zgartirilgan". Olimaning bu fikridan

M.Qodiriyning “To‘tinoma” kompozitsiyasi ustida ancha ishlagani, avvalgi variantdan bir qator mukammallashtirgani ayonlashadi. Kompozitsiyaga oid bunday tafovutlarni Haydar-baxsh-Haydariy “To‘tinoma”sida ham uchratish mumkin. “Chor darvesh”, “To‘tinoma”, Mahfiloro” va “Ming bir kecha”dagi hikoya, ertak, qissalar qachonlardir alohida-alohida shaklda bo‘lib, ularni umuman sharq xalqlari ijod etganlar. Bu hikoya va ertaklarning mavzusi va mazmuniga qarab ijodkor kishilar keyinroq ularni guruhlashtirganlar. Guruhlarga ajratilgan hikoya va ertaklarni xonanda va qissago‘ylar xalqqa aytib yurganlar. Tinglovchilarga manzur tushgan hikoya va ertaklar ertakchi yoki qissago‘ylar tomonidan mukammallashtirilgan. Shunday qilib, ular avloddan-avlodga o‘tib kelavergan. Shuni aytish kerakki, aytuvchilar tinglovchilarning diqqatini tortish uchun ularni “zamonaviylashtirib” aytishga majbur bo‘lishgan. Qoliplovchi hikoyalar qoliplanuvchi hikoyalardan birmuncha keyin, ma‘lum bir talab bilan ijodkorlar tomonidan o‘ylab topilgan, shu tariqa boshqa barcha hikoyalar “ramka”siga kiritilgan va qoliplanuvchi hikoyaning ruhi bilan sug‘orilgan. Qoliplovchi hikoyalardagi g‘oyalarning feodal jamiyatining keyingi asrlariga to‘g‘ri kelishi, ularda, asosan, adolatli va xalqparvar shoh, sof ishq-muhabbat, to‘g‘rilik, tinchlik, odamiylik kabi muammolarning qo‘yilishi buni isbot eta oladi. Qoliplanuvchi hikoyalarning qoliplovchi hikoyalardan oldin yaratilganligini ularda qadimgi xalqlarning urf - odatlari tasvir etilganligi, diniy aqidalar, dev-u parilar, jin-u ajinalar haqida fikr yuritilishi ham isbot etishi mumkin. Ko‘rinadiki, qoliplash kompozitsion usuli o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmay, balki aql va donish mahsuli sifatida vujudga kelib, ko‘p asrlar davomida shakllangan. Aniqrog‘i, uni mukammallashtirishda Naxshabiy, Durbek, Lutfiy, Navoiy, Majlisiy, Qodiriy, Haydariy, Xiromiy, Gulxaniy, Miriy, Masiho Boysuniy, Muxammad Rasul, Siddiq kabi qator san‘atkorlar o‘z hissalarini qo‘shgan. Xiromiyning bu sohadagi san‘atkorligi uning shu usul bo‘yicha an‘analarni o‘zlashtirib, uni yanada mukammallashtirishda, yozma adabiyot

qonun-qoidalariga muvofiqlashtirishda ko‘rinadi. Xalq kitoblari sifatida shuhrat qozongan “Chor darvesh”, “Ra‘no va Zebo”, “To‘tinoma”lar kompozitsiyasi Xiromiy asarlarida soddaligi, oddiyligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, “Chor darvesh”ning tojikcha nasriy varianti muqaddima, xotima, Xojai sagparast ahvolining bayoni va to‘rt darveshning sarguzashtidan iborat. Bu kompozitsion qurilish folklor va xalq kitoblari an‘anasiga to‘la mos tushadi. “To‘tinoma” ham xuddi shunday qoliplovchi va qoliplanuvchi hikoyalar hamda xotimadan iborat. Boshqacha qilib aytganda, u “Ming bir kecha” tartibida tuzilgan. Bularning barchasi bir an‘ana izidan borish, ma‘lum bir tartibga kirgan usulni buzmaslikdan kelib chiqqan xususiyat bo‘lsa kerak. Ma‘lumki, “Chor darvesh” asl nusxasining qoliplovchi hikoyadan keyingi uchinchi bobi “Xojai sagparast ahvolining bayoni” deb nomlanadi. Shu sarlavha ostida Ozodbaxt tilidan shohning o‘z sarguzashti ham, Xojai sagparastning sarguzashti ham, 12 la‘l topgan yigit voqeasi ham aytiladi. Ya‘ni mustaqil holatdagi uch hikoya, g‘ayritabiiy holda bir bobga birlashtirilib, uning kompozitsiyasi sun‘iylashtiriladi. Bu, birinchidan, kitobxon va tinglovchini zeriktirsa, ikkinchidan, bir kishining bir o‘tirishda shuncha hikoya aytishiga ishonish qiyin. Binobarin, unga ijodkorning o‘zgartiruvchi qo‘li kam tekkanligi, shaxsan ishlanmaganligi ravshanlashadi. Xiromiyning “Chor darvesh”iesa bunday qusurdan yiroqdir. Shoirning bu sohada ijodiy yo‘l tutganligini, ayniqsa, yuqorida eslatib o‘tilgan uchinchi bobda yaqqol ko‘rish mumkin. U asl nusxadagi anashu bir bobni avvalo uch bobga bo‘ladi, so‘ngra, har bir bobning mazmunini o‘sha bob qahramoni tomonidan so‘zlatadi. Birinchi bobni (ya‘ni o‘z sarguzashtini va vazir qizini Qustantaniyaga olib kelishini) Ozodbaxtning o‘zi hikoya qilib beradi, ikkinchi bobdagi barcha voqea-hodisalar, Ozodbaxtning aytishicha, Xojai Sagparast tilidan, uchinchi bob-12 la‘l hikoyasi boshqa bir kishi tomonidan keltiriladi. Shunday qilib, asar kompozitsiyasi puxta, ishonarli holga keltiriladi. Xiromiy badiiy asar kompozitsiyasi oldiga qo‘yilgan barcha

talablarga amal qilib, voqea-hodisalar markaziga Ozodbaxtni oladi, Ozodbaxt rolini oshirish maqsadida ba'zi obrazlarni, masalan, muqaddimadagi Ravshanro'y obrazini qisqartiradi. "To'tinoma"dagi ayrim hikoyalarning ikki hikoyaga ajratilishi, ba'zida ikkita hikoyaning bir hikoyaga aylantirilishi (masalan, birinchi va ikkinchi kecha), kompozitsion markaz talabiga muvofiq hikoyalardagi ma'lum o'rinlarning rivojlantirilishi, ayrim o'rinlarning qisqartirilishi ham shoirning bu asar qurilishi ustida jiddiy bosh qotirganligini ko'rsatadi. Boblar, qismlar, hikoyalar, voqea va hodisalarga bunday tartib berish, tizimlashtirish hollarini "Ra'no va Zebo" dostonida ham uchratamiz. Xiromiy "Chor darvesh"ining asosida jamiyatdan norozilik motivi, tuzumning inson shaxsi bilan nomuvofiqligi g'oyasi turadi. Shoir mana shu bosh g'oyani ifodalash uchun obrazlar bilan bir qatorda kompozitsiyaga ham alohida e'tibor beradi. "Chor darvesh" ko'p tarmoqli, murakkab kompozitsion asarlardan hisoblanadi. Bunday asarlarda bosh kompozitsion markaz aniq bo'lmasa, uni topib olish qiyinlashadi va yozuvchining bayoni yoyilib ketadi, ya'ni shoir asosiy masaladan chiqib ketib, ikkinchi darajali voqea-hodisalar bayoniga berilib ketishi mumkin. Xiromiy o'z asaridagi bosh va yordamchi g'oyalarni, obrazlarni qanday belgilasa, bosh kompozitsion markaz va markazchalarni ham xuddi shunday aniq belgilay olgan. "Chor darvesh"ning bosh kompozitsion markazi dostonning bosh qahramoni Ozodbaxt taqdiri bilan bog'liq. Ko'makchi kompozitsion markazlar har bir qahramon taqdiri va sarguzashti bilan bog'liq bo'lib, ular ham bosh kompozitsion markazni to'ldiradi, quvvatlaydi. "Chor darvesh"ning kompozitsiyasini butun asar bo'ylab Ozodbaxt harakatga keltiradi. Uning qabrisrtonga borishi va ikki darvesh hikoyasini tinglashi asar kompozitsiyasining rivojiga turtki bo'ladi. Mana shu voqeadan keyin asarning bosh kompozitsion markaziga bevosita qo'shimcha kompozitsiyalar qo'shiladi. O'z boshlanishi, rivoji, kulminatsiyasi va xotimasi bo'yicha avvalgi ikki darvesh hikoyasi ham bosh kompozitsion markazga muvofiqdir. Bosh

kompozitsion markaz va bosh g'oya bilan ko'makchi kompozitsion markazlar va g'oyalar o'rtasida muvofiqlik bo'lmaganda har qaysisi bir butun asar xarakteridagi bir necha qissani bir markazga birlashtirib bo'lmas edi. Chunki darveshlar o'zi singari alamzada bo'lmaganda Ozodbaxt ularni saroyiga chaqirmas, o'z sarguzashtini aytib bermas edi. Ozodbaxt sarguzashtidan oldingi hikoya asosiy qoliplovchi hikoyadan keyingi markazlashtiruvchi hikoya bo'lib, doston kompozitsiyasida uning ahamiyati qoliplovchi hikoyadan kam emas. U avvalgi ikki darvesh hikoyasi bilan birga, keyingi ikki darvesh sarguzashtini hamda Xojai Sagparast va 12 la'l topgan yigit sarguzashtini ham markazlashtiradi. Shoir bosh g'oya va kompozitsion markazni diqqatdan qochirmaslik uchun, uni qissaning har bir bo'limida rivojlantiradi, me'yoriga yetkazishga harakat qiladi. "Chor darvesh"da asosiy qissaning, ya'ni Ozodbaxt qissasining talabiga muvofiq 7 ta hikoya aytiladi. Bu hikoyalar qoliplovchi hikoyadan kelib chiqqan biror masalani yoritish va konkretlashtirish uchun illyustratsiya vazifasini bajaradi. Ayni chog'da ularning o'z mavzu va maqsadi, mustaqil syujeti va kompozitsiyasi, obrazlari bor. Shoir bu hikoyalarda kichik voqea tasviri bilan katta masalani yechadi, ibratli xulosalar chiqaradi. Ularning obrazlari ham individuallashtirilgan bo'ladi. San'atkor kompozitsiyaning puxta, aniq va ixcham bo'lishi uchun asardagi obrazlar, ularning harakati, voqealarning me'yori va rivojlanishini hamda ularning boshlanishi, davom etishi, tugallanish o'rinlarini ham aniq belgilashi kerak. Shu nuqtayi nazardan "Chor darvesh" qissasi Xiromiyning boshqa dostonlariga nisbatan ancha murakkab asardir. Undagi qahramonlarning biri qustantaniyalik, ikkinchisi yamanlik, uchinchisi ajamlik, to'rtinchisi Fors viloyatilik, beshinchisi xitoylik, oltinchisi nishopurlikdir. Sarguzasht voqealar shu yerlardan boshlanib shahri Nimro'z, Ummon, Basra, Farang, Shom, Chin kabi mamlakatlarda davom etadi. Qahramonlar shuncha oylarni aylanib, voqea-hodisalarni boshdan o'tkazsa ham baribir o'z maqsadiga erisha olmaydi. Oxiri ularning barchasi ham (bu yerda

to'rt darvesh ko'zda tutiladi) maqsadga muvofiq tushmagan muhitdan norozi bo'lib, o'zlarini o'ldirish uchun toqqa chiqishadi va donishmand cholning maslahati bilan Kustantaniyaga yo'l olishadi. Darveshlar yig'ilib bo'lgach, bir-birlariga o'z sarguzashtlarini aytishadi. Ikki sarguzasht qabristonda, qolgan ikkitasi esa saroyda aytiladi. Ozodbaxt o'z sarguzashtini aytgach, g'ayritabiiy holda murod-maqsadiga erishadi. Ma'lum bo'layotirki, voqealar o'rnini aniqlash uchun dostonda to'rt nuqta belgilangan. Ya'ni, voqealarning boshlanish o'rnini (har bir darveshning chiqish o'rnini- vatani), voqea-hodisalar davom etgan mamlakatlar, asosiy maqsad amalga oshmagach, dunyodan voz kechish o'rnini (tog', cholning maslahatiga binoanyuborilgan va sarguzashtlar aytilgan o'rnini-Qustantaniya) bor. Mana shu usul ham, ya'ni to'rt burchak usuli ham asar kompozitsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, uni bir butun holga keltirishda muhim rol o'ynagan. Bu hol qoliplash kompozitsion usulining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xiromiyning qoliplash usulida yaratilgan dostonlarida voqea-hodisalar sodir bo'lish o'rnini jihatidan bir-biridan farq qiladi. Zero, voqea-hodisalarning o'tish o'rnini ham asar kompozitsiyasiga bog'liq masaladir.

### **Sarlavha qo'yish san'ati**

Asarlarni talabga muvofiq nomlash, boblarga sarlavha qo'yish uning g'oya va mazmuniga tegishli masaladir. Bu masalani to'g'ri, aniq va konkret hal etish ijodkorga katta mas'uliyat yuklaydi. Badiiy asarning nomi qisqa, sodda, ta'sirchan, dilkash bo'lishi bilan birga, mazkur asarning umumiy mazmunini ham ifodalay olishi kerak. Aks holda asarning ismi-jismiga yoki jismi ismiga mos tushmay qolishi mumkin. Har ikki holatning bir-biriga mos tushishi, biri ikkinchisini, ikkinchisi birinchisini ifoda etishini tubdan ta'minlash ijodkorning saviyasiga bog'liq masaladir. U yoki bu asarni nomlash mumtoz adabiyotimizda avvalo, asarning g'oya va mazmuniga muvofiqlashtirib qo'yilgan, ikkinchidan, asarlar nomining sodda, lo'nda, ta'sirchan bo'lishiga e'tibor berilgan.

Savollar:

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matnning qanday turlari bor?
3. Ta'lim-tarbiyaviy matnlarning o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rinadi?
4. Sodda va murakkab tarkibli matnlar haqida ma'lumot bering?
5. Matnga sarlavha qo'yishda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
6. Qoliplovchi va qoliplanuvchi hikoyalardan qanday maqsadda foydalaniladi?
7. Qoliplovchi hikoya tuzing va kursdoshlaringiz bilan qoliplanuvchi hikoyalardannamunalar keltirishga harakat qiling.

## DIKTANT VA UNING TURLARI.

Reja:

1. Ona tili ta'limida diktantning o'rni.
2. Diktant va uning turlari.
3. Ko'zlangan maqsadiga ko'ra ta'limiy diktant turlari.

Yosh avlodni ilmiy iqtidorli o'quvchiga aylantirish uchun bilimlarini kengaytirish hamda ijodiy faoliyatga yo'naltirish zarur. Diktant o'quvchilarning orfografik, savodxonlik malakasini o'stiradi, yozuv qoidalarini egallashlari uchun xizmat qiladi. **Diktant** lotincha *dictare* "hadab gapiravermoq", "takrorlamoq", "aytib turib" ma'nolarini ifoda etadi. Imloviy va punktuatsion qoidalarning o'zlashtirilish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish.

**Diktantlarning maydon tasnifi** (V.Ya. Buloxov) Maydon–bu eng tipik xususiyatlarga ega bo'lgan, ba'zilari uning markazini, qolganlari assimetrik periferiyani tashkil etadigan birliklar to'plamidir. Diktantlarning mashq turi sifatida- maydon tuzilishi. Asosiy (o'quvchilar tomonidan yozib boriladigan): eshitish nazorati diktanti, tushuntirish, ogohlantirish, sharhlash, tanlab yozish va h.k. Chegara (o'quvchilar yoddan o'rganganlarini o'zlariga –o'zlari aytib yozadilar): xotiradan yozish. Periferiya: erkin diktantlar (o'qituvchi matnni qismlarga bo'lib o'qiydi); "ovozsiz" diktant.

Ba'zi metodik qo'llanmalarda diktant bir necha xil bo'ladi.

### **Diktant turlari:**

**I. Diktantlar maqsadiga ko'ra** nazorat, ta'limiy. Nazorat diktant o'quvchilarning savodxonligini aniqlash uchungina emas, u ta'limiy xarakterga ham egadir. Nazorat diktant, avvalo, o'quvchilarga ko'pgina imlo qoidalarini eslatadi, o'qituvchi esa diktantda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf qilish uchun mashg'ulotlar o'tkazadi. Demak, nazorat diktant ta'limiy hamdir.

1. Matni o'zgartirilmaydigan;
2. Matni o'zgartiriladigan;



## **Matni o'zgartirilmaydigan diktantlar**

- tushuntiruvchi diktanti -izohli (sharhli) diktant
- ogohlantiruvchi diktanti
- asoslash diktanti
- grafik tasvirli diktant
- “o'zimni tekshiraman”

1. Imlo izohlanish vaqtiga ko'ra ogohlantiruvchi, izohli va tushuntiruvchi diktantlar bir-biridan farq qiladi. Masalan:

- diktant matni yozib boshlanguncha (ogohlantiruvchi diktant);
- diktant yozish jarayonida (izohli diktant);
- yozib bo'lingandan keyin (tushuntiruvchi diktanti)

III. *Diktantlar qo'llanishiga ko'ra* a) eshitishga asoslangan diktantlar; b) ko'rishga asoslangan diktantlar. Eshitish Audiovizual-eshitish **Muayyan mavzularga mo'ljallangan diktantlar. Eshitishga asoslangan diktantlar** – mundarijasiga ko'ra: lug'at diktant, matnli diktant. Bunda diktantga tanlangan matn avval to'liq o'qiladi. So'ng matn qismlarga ajratilib alohida-alohida o'qiladi. Har bir qayta o'qilgan matndagi tahlil etilishi, ta'kidlanishi lozim bo'lgan so'zning yozilish imlosi tushuntiriladi.

**Ko'rishga asoslangan diktantlar** – o'z-o'zini nazorat qilish diktanti; ijodiy diktant. Jamoaviy og'zaki o'tkaziladigan munozaralarda ham o'quvchilar tuzgan savollarga yozma javoblar tashkillashtiriladi. Ko'nikma odatga aylanishi uchun o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirish, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish zarur. Nazorat maqsadida olinadigan diktantlarda ham ijodiy diktant turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **NAZORAT DIKTANT**

Katta mavzular o'tib bo'lingach, shuningdek, chorak oxirida nazorat diktant o'tkaziladi. Diktant orqali o'quvchilarning u yoki bu grammatik mavzularni qaydarajada o'zlashtirganlarini aniqlash ham mumkin. Bunday diktant **nazorat (tekshiruv yoki sinov) diktant deyiladi.**

## **TEKSHIRUV DIKTANT**

Tekshiruv diktant asosan har chorak oxirida, baʼzan mavzular oʻrganilgandan soʻng oʻtkazilib, unga 1 soat ajratiladi. Diktantning bu turida yoʻl qoʻyilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantning taʼlimiy ahamiyati katta. Oʻquvchilarning orfografik va punktuatsion savodxonligini tekshirishda asosiy vosita boʻlib, oʻtilgan mavzularni mustahkamlash yoki yangi mavzular oʻrganilishida asosiy orfogrammalariga eʼtibori qaratiladi. Oʻquv yili oxirgi choragidagi yakunlovchi diktantlar barcha oʻzlashtirilgan mavzularni baholash hamda oʻquvchilarning tayyorgarliklarini tekshirish maqsadida olinadi.

Matn mazmuni oʻquvchilar saviyasiga mos, gʻoyaviy-badiiy jihatdan yuksak boʻlishi lozim. Agar matnda maʼnosi qiyin soʻzlar, soʻz birikmalari, jumlar boʻlsa, almashtirish kerak, ayrimlarini esa diktant yozishni boshlamasdan avval tushuntirib, doskaga yozib koʻrsatsaham boʻladi. Lekin bunda ham toʻgʻri yozish malakasi mustahkamlanadi, Baʼzan nazorat diktant bilan taʼkidiy diktant orasida «**Yarim nazorat diktant**» degan yozma ish oʻtkaziladi. Bunda oʻquvchilarning darslik va lugʻatlardan foydalanishlariga ruxsat etiladi. Lekin yozma ishni baholashda bu holat hisobga olinadi. Oʻquvchilarning chorak davomida oʻrganilgan mavzular boʻyicha savodxonliklarini aniqlash maqsadida oʻtkaziladi. Nazorat diktantlariga odatda badiiy asarlardan bogʻli parchalar olinadi, yuqori sinflarga esa ilmiy maqolalar yoki OAV materiallaridan

foydalaniladi. Diktant matni 3 marta oʻqib beriladi, tinglash, yozish va tekshirish maqsadida.

### **Nazorat-diktantlar**

I.O'quv yili boshida. (o'tilganlarni takrorlash bo'yicha)	1. To'g'ri yozish darajasini aniqlash. 2. To'g'ri yozish ko'nikmalarini mustahkamlash.
II.Mavzu o'tilgandan keyin.	1.Mavzuga oid orfografik va punktuatsion qoidalarni o'zlashtirganligi bo'yicha. 2.Mavzuga oid orfografik va punktuatsion qoidalarni o'zlashtirganligi (2-3 tasi yoki asosiylari) bo'yicha.
III.O'quv yili oxirida (yakunlovchi takrorlash bo'yicha).	1. O'quv yili davomida barcha o'tilgan asosiy orfografik va punktuatsion qoidalarni o'zlashtirganligi bo'yicha. 2. Ushbu sinfda o'zlashirilishi zarur bo'lgan asosiy orfografik va punktuatsion qoidalar bo'yicha.

**Ta'limiy diktantlar** biror imlo qoidasi bilan bog'liq bo'lgan fonetik, so'z yasalishi va morfologik mavzuni mustahkamlash, takrorlash, o'quvchi ongiga singdirish va uni yozuvda qo'llashga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Ta'limiy diktantlar sinfda o'qituvchi va o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkaziladi. Ta'limiy diktantlar o'rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi davomida va ba'zan to'liq darsda o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Ta'limiy diktantning o'tkazilish, mazmuni hamda bajarilish usullariga ko'ra bir necha turga ajratiladi: saylanma, erkin, ogohlantiruvchi, tiklovchi, grafik, taqsimlanadigan, ta'kidiy diktant, o'z diktant, yoddan yozuv diktanti, rasmi diktant, lug'at diktant, grammatik topshiriqli diktant, izohli yozuv diktanti, ijodiy diktant va shunga o'xshash diktantlar kiradi. Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi. Bu diktantlarni nazorat uchun ham olish mumkin. Lekin ko'pincha

nazorat uchun to'liq diktant matn o'zgartirilmagan holatda, grammatik topshiriqli qilib tayyorlanadi. Erkin diktantlar o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantiradi: bunda alohida bir gap bilan emas, butun matn bilan ishlashga to'g'ri keladi. Ijodiy, qayta tiklanadigan diktantlar nazorat diktantlarda ham olinishi mumkin. Tiklovchi diktantlar nazorat-ta'limiy ko'rinishda tashkillashtirilishi lozim. Bunday jarayonda o'quvchi asosiy e'tiborni mazmunga qaratadi.

Moslashtiriladigan diktantlarda o'quvchilar e'tibori shakl va mundarija mosligi taqsimlanishiga qaratiladi: o'quvchilar tuzgan matn shakli o'qituvchi aytgan belgilarga to'g'ri kelishi yoki farqli tomonlarini kuzatishlari kerak bo'ladi va shu jarayonni o'zida o'zlarining yangi mundarija asosidagi butunlay boshqa materiallardan yangi matn yaratish tashkillashtiriladi. Jarayon tugagandan keyin matnda ro'y bergan o'zgarishlar bilan "o'zimni tekshiraman" diktanti, bir necha alohida o'zlashtirilgan, mavzular birlashtirilib, bo'lim bo'yicha olgan bilimlari baholanish maqsadida uyushtiriladi. Nazariy bilimlar o'zlashtirilishi hamda yozma savodxonlik rivojlantirilishi maqsadida o'tkaziladigan diktantlar o'quvchilar faolligi va mustaqilligini o'stiradi (asoslangan diktantlar, taqsimlovchi va tanlovli tarqatish). Izohli, tushuntirish, ogohlantirish diktantlari o'quvchilar o'rganganlarini yozma ifodalab berish maqsadida qo'llaniladi. Taqsimlash, saylab-taqsimlash, asoslash diktantlari ishlash usullari o'rganilgandan keyin o'quvchilar foydalanish mumkin bo'lgan diktantlar.

**Masalan (keyingi o'rinlarda M.): Unli tovushlarning tagiga chizing.**

Urush-urish, sir-sur, tur-tir, qish-qush, tish-tush, burush-burish, yumish-yumush, tushum-tushim, chiz-cho'z, tig'-tug', uq-o'q, sur-so'r, to'r-tur, un-in, ming-mung, til- tul, soda-sada, Sora-sara, olam-alam.

**Aytilishi o'xshash bo'lgan undosh tovushlarni ajrating.**

Xiyla-hiyla, xush-hush, xo'p-xo'b, bod-bot, ham-xam, tuzsiz-

tussiz, xol-hol, xalqqa-halqa, rux-ruh, shox-shoh, uxladi-uhladi, xat-had, tub-tup, yod-yot, bop-bob, yog'-yoq, tog'-toq, tig'-tiq, bog'- boq, qul-kul, tug'ma-tugma, to'q-tiq, qo'1-ko'l, qir-kir.

**Ko'zlangan maqsadga ko'ra ta'limiy diktantlar 3 turga bo'linadi:**

- *orfografik xarakterdagi ta'limiy diktantlar:*
- *nazariy bilimlarni mustahkamlaydigan ta'limiy diktantlar;*
- *nutq o'stirish xarakteridagi ta'limiy diktantlar.*

### **TA'KIDIY DIKTANT**

Ta'kidiy diktant o'quvchilarning orfografik qoidalarni ongli o'zlashtirishida o'ziga xos o'rin tutadi. Bunda eshituv organi orqali qabul qilingan taassurotlarga asoslanish bilan birga, so'z tarkibini, grammatik va orfografik qoidalarni yaxshi bilish ham talab etiladi. Ta'kidiy diktantda mustahkamlanishi lozim bo'lgan orfografik yoki punktuatsion qoida matn o'qib berilishidan oldin izohlanadi.

Ta'kidiy diktant imlo va tinish belgilariga oid ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida ham o'tkaziladi.

O'tilgan qoidaga oid so'zlar, ularing yozilishi so'raladi. Diktantning bu turi uchun ko'proq bog'lanishli matnlar tanlangani ma'qul.

O'qituvchi matnni adabiy tilning talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda sekin o'qiydi. O'quvchilar mustahkamlanayotgan qoidaga mos so'z yoki so'z birikmalarini ajratadilar.

### **IZOHLI DIKTANT**

Izohli diktant quyidagicha o'tkaziladi: o'qituvchi diktovka qiladi, o'quvchilar esa yozadilar. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini mustahkamlanayotgan orforgrammaga jalb qiladi, so'ngra qoida umumlashtiriladi, o'quvchilar yozganlarini tekshiradilar. Diktantning bu turidan yangi materiallarni mustahkamlashda, ilgari o'tilganlarni takrorlashda foydalanish mumkin. O'qituvchi matnni o'qib beradi, o'quvchilar esa yozadilar. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qiladi. So'ngra qoidaga muvofiq adabiy til

me'yorlari asosida matnni o'qiydi. O'quvchilar yozishni davom ettiradilar. O'quvchilar yozgan matnini qoidaga asoslanib yozgan-yozmaganlarini tekshirib chiqadilar.

### **ERKIN DIKTANT**

Erkin diktantda o'quvchi matnning umumiy mazmunini saqlagan holda, ayrim so'z yoki so'z birikmalarini boshqa so'z yoki so'z birikmalari bilan almashtira oladi. Bu jihatdan erkin diktant bayonga yaqin turadi. Ma'lum orfogrammani mustahkamlash uchun mazmun va til jihatidan o'quvchilarning bilim darajasiga mos matn tanlanadi. Matnni avval o'qituvchi o'qib beradi. Mazmunini bir o'quvchidan so'raydi. Orfografiyasi mustahkamlanishi kerak bo'lgan so'zlar tahlil qilinadi. Keyin o'qituvchi birinchi xatboshi (abzas)ni o'qiydi. O'quvchilar eslab qolganlaricha yozadilar. Bunda gaplar soni asliga qaraganda ko'payishi yoki kamayishi, bir so'z o'rniga uning sinonimi ishlatilishi mumkin. Lekin abzasdagi mazmun, mustahkamlanayotgan orfogramma saqlanishi shart. Shu asosda qolgan xatboshilar ham yozdiriladi. Diktant tamom bo'lgandan so'ng, o'quvchilar o'z yozganlarini grammatika, orfografiya, punktuatsiya qoidalariga ko'ra tekshirib chiqadilar. Keyin o'qituvchi daftarlarni yig'ib oladi. Tekshirish vaqtida imlo bilan birga mazmunga ham e'tibor beriladi. Erkin diktantda ayrim o'quvchilar ba'zi qiyin so'zlarni atayin tashlab ketadilar. Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday odatga ko'nikkan o'quvchining savodxonligi har doim past bo'ladi. Buning oldini olish uchun matn mazmunini erkin ifodalashda o'qituvchi ko'rsatgan so'z va iboralarni saqlab qolish shart ekanligi tushuntiriladi. Erkin diktant, ayniqsa, o'qilgan matnni ko'proq eslab qolish, eshitgan fikrlarni bayon qila olish malakasini hosil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Erkin diktant o'quvchilarga o'z fikrini bayon qila olish malakasini hosil qilishda ko'mak beradi.

### **SAYLANMA DIKTANT**

Saylanma diktantning asosiy vazifasi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini va matnni qay darajada tushungan-tushunmaganligini aniqlash, egalik qo'shimchalari, so'z birikmalari,

kelishiklar, qo'shma va juft otlarning qo'llanilishi, ayrim so'zlarning qanday yozilishini bilishi uchun o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar matndan mustahkamlanayotgan orfografik qoidaga mos so'zlarnigina ajratib yozadilar.

Saylanma diktantdan ayrim so'zlarning orfografiyasini mustahkamlashda ko'proq foydalaniladi. Saylanma diktant uchun darsning 10—15 daqiqasi ajratiladi. Izohli yozuv, ta'kidiy va izohli diktant, lug'at diktant, nazorat diktantlarda matn o'zgartirilmay yoziladi. Saylanma diktant, erkin diktant va ijodiy diktantda esa matn ma'lum o'zgartirishlar bilan yoziladi.

**Saylanma diktant bir necha turga ega:** *Ta'kidlovchi saylanma diktant. Tushuntiruvchi saylanma diktant. Nazorat saylanma diktant.*

### **IJODIY DIKTANT**

Ijodiy diktant o'quvchilardan faollik va mustaqillik talab qiladi. Ijodiy diktantning eng muhim turlari quyidagilar:

1. O'rganilgan orfogrammalar yordamida gap tuzish. Diktantning bu turidan ma'lum qoidalarni takrorlashda ham foydalanish mumkin.

2. Mustahkamlanayotgan qoidaga mos bir qancha so'zlar beriladi. O'quvchilar bu so'zlar ishtirokida kichik hikoya yozadilar. Uni uyga vazifa qilib berish ham mumkin. Darsda eng yaxshi ishlar namuna sifatida o'qitiriladi. Bunda so'zlarning to'g'ri talaffuziga ham e'tibor berilishi lozim.

3. Berilgan matnni kengaytirish. Masalan, ozaytirma va kuchaytirma sifatlarning yozilishini mustahkamlash uchun o'qituvchi *A'lochi o'quvchilarga kitoblar sovg'a qilindi. Qir-adirlarda qizg'aldoqlar ochilgan* kabi gaplarni yozuv taxtasi (doska) ga yozadi. Otlar oldiga kuchaytirma sifatlardan mosini topib, matnni kengaytirib ko'chirish o'quvchilarga topshiriladi. O'quvchilar birinchi gapdagi *kitoblar* so'zini *qiziqarli*, ikkinchi gapdagi *qizg'aldoqlar* so'zini *qip-qizil* so'zlari bilan kengaytirib, imlosini izohlaydilar. Daftarlarga ko'chirib, sifatlarning ostiga chizadilar. Bundayish uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin. Umuman, ijodiy

diktant o'quvchilar umumiy bilimining rivojlanishiga, nutq madaniyatining o'sishiga ham yordam beradi. **Ijodiy diktantning quyidagi turlari mavjud:**

*Ta'kidlovchi ijodiy diktant. "So'z va so'z birikmasining mosini qo'yishga" asoslangan ijodiy diktant. Tushuntiruvchi ijodiy diktant. Tayanch so'zlarga asoslangan ijodiy diktant. Rasmlarga asoslangan ijodiy diktant.*

**Ijodiy diktant** o'quvchilardan faollik va mustaqillikni talab qiladi. Ijodiy diktantning afzalliklari:

1. O'quvchilarga bilimlarni ongli o'zlashtirishlarida yordam beradi.
2. Ijodiy diktant o'quvchini mustaqillikka o'rgatadi, faolligini oshiradi.
3. Yozma nutqni to'g'ri shakllantiradi.
4. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq boyliklarini oshiradi, nutqiy savodxonlikka o'rgatadi.
5. O'quvchining ma'naviy kamolotiga, nutq madaniyatining o'sishiga yordam beradi (masalan, mavzu: «A va O unllarining yozilishini mustahkamlash).

O'quvchilar so'zlar yordamida gap tuzishlari, kichik-kichik hikoya yozishlari mumkin.

Matnni kengaytirish maqsadida boshqa so'z turkumlariga, masalan, sifatga oid: Har nimadan or-nomus baland. Nodon bilan sirdosh bo'lma. Odam-temirdan qattiq, guldan nozik kabi gaplarni doskaga yozadi. O'quvchilar gapdagi sifatlarni aniqlab yozadilar va shunday yo'nalishda gaplar tuzish uyga vazifa qilib beriladi.

### **LUG'AT DIKTANT**

Bunday diktantlar o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish va rivojlantirishda o'zining ixchamligi va ko'p vaqt talab qilmasligi bilan boshqa diktantlardan farq qiladi. Lug'at diktant uchun 10 daqiqa vaqt yetadi. Lug'at diktantning asosiy maqsadi imlosi qiyin so'zlarni yozishga o'rgatishdan iborat. Lug'at diktantdagi so'zlar yordamida so'z birikmalari, gaplar tuzdiriladi



lug‘at diktant uchun darsning 7-10 daqiqasi ajratiladi. Lug‘at diktant o‘quvchilarda to‘g‘ri yozish malakasini hosil qilishdan tashqari, ularning fikrlash qobiliyatini ham o‘stiradi. Lug‘at diktant ko‘pincha ijodiy diktant bilan qo‘shib o‘tkaziladi. Bunda lug‘at diktant uchun berilgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari, gaplar tuzdiriladi, kichik-kichik hikoyalar, insholar yozdiriladi.

### **Lug‘at diktantni bir necha turga bo‘lish mumkin:**

*Ta‘kidiy lug‘at diktant. Tayyorlovchi lug‘at diktant. Xotiraga asoslangan lug‘at diktant. Saylanma lug‘at diktant.*

*Tabuga (chegaralangan) asoslangan lug‘at diktant.*

*Taqsimlashga asoslangan lug‘at diktant.*

*Tushuntirishga asoslangan lug‘at diktant. Erkin lug‘at diktant.*

*Ijodiy lug‘at diktant.*

*Grammatik topshiriqlar bilan lug‘at diktant. Qiyosiy lug‘at diktant.*

*Perfokartali lug‘at diktant. “jimlik” lug‘at diktant.*

*O‘yinli lug‘at diktant. Xabarli lug‘at diktant.*

*Video-topishmoqli lug‘at diktant.*

### **TUSHUNTIRISHGA ASOSLANGAN DIKTANT**

Bunday diktantda matn orfografik tahlil etiladi. Tahlillarni o‘quvchilar o‘zlari so‘ng mustaqil ravishda yozib olishadi. O‘qituvchi matn tahlili asosida savollar beradi. O‘quvchilar tahlil yuzasidan javob berishadi. Diktantning bu turida tahlil turlari o‘rganiladi, tahlil qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tushuntirishga asoslangan diktantning ta‘limiy ahamiyati bor.

### **O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISHGA ASOSLANGAN DIKTANT**

O‘z-o‘zini tekshirishga asoslangan diktant turida diktant yozib bo‘lgandan so‘ng o‘quvchilar yozishga qiynalgan so‘zlar yuzasidan o‘qituvchilarga savollar berish imkoniga ega bo‘ladi. Ularda ikkilanish hosil qilgan so‘zlar yuzasidan savol-javob uyushtiriladi. O‘qituvchi hamma savollarga javobni o‘zi emas, sinfdagi to‘g‘ri yozgan o‘quvchilardan so‘rashi va ular tushuntirib berishini tashkil etishi lozim bo‘ladi.

## **RASM ASOSIDA “JIM-JITLIK” DIKTANTI**

O‘qituvchi o‘tilgan biror mavzuga oid rasmlarni izohsiz ko‘rsatadi. Rasmlar umumlashtirilganda umumiy bir mavzuga jamlanishi lozim. O‘quvchilar rasmda aks ettirilgan narsa-buyumlarni so‘z bilan yozishadi. Yozilgan so‘z va so‘z birikmalari grammatik tahlilga tortiladi.

## **RASM ASOSIDA DIKTANT**

Diktantning bu turida ham oqituvchi biror mavzuga oid rasmlarni izohsiz ko‘rsatadi. O‘quvchilar rasmda aks ettirilgan narsa-buyumlarni avvaldan tayyorlangan orfogrammalar, yoki belgilar bilan ifodalab o‘qituvchiga ko‘rsatadi. Masalan, agar so‘z ayirish belgisi bilan yozilsa, o‘quvchilar “+” qo‘yilgan, agar yozilmasa “-” qo‘yilgan kartochkani ko‘rsatadi. Bunda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir necha o‘quvchini baholash imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

## **SURATLI DIKTANT**

O‘quvchilar yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish usullaridan yana biri, suratli diktantdir. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarini, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o‘qitish usuli hisoblanadi. Sinfxonadagi stullar orqama – orqa qo‘yiladi. O‘quvchilar ham bir – birlariga orqa o‘tirgan holda surat chizadilar. Alohida dars ko‘rinishidagi bu usulda birinchi o‘quvchi manzarani bayon qiladi. O‘rtog‘i esa uni suratga tushiradi. Diktant davomida o‘quvchilar almashadilar va surat chizib bo‘lingach, u tasvirlanadi. Tasvirlangan matn yozib olinadi. Ta’limda yuz berayotgan bunday ijobiy ishlar turli xil dastur, darslik, metodik adabiyotlar, elektron lug‘at va darsliklar yaratish imkonini bermoqda.

## **IZOHLI YOZUV**

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri matnni adabiy tilda talaffuz qilishni ta’minlashdir. O‘quvchi, odatda, o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan ma’lum bir so‘zning

yozilishini izohlaydi. So‘zning yozilishi bo‘g‘in-tovush, tovush-

harf tomondan tahlil qilish, qoidani tatbiq etish bilan izohlanadi. Masalan: *Kitob — bilim manbai. Kitob: ki-tob.* 2 bo‘g‘in. 1-bo‘g‘inda *k, i* tovushlari bor, ularni *k, i* harflari bilan ifodalash mumkin. 2-bo‘g‘inda *t, o, b* tovushlari bor, oxirgi *b* tovushi **p** deb talaffuz. qilinadi. Lekin **b** harfi bilanyoziladi. Uni tekshirib ko‘rish ham mumkin. Buning uchun so‘z oxiriga - *i* egalik qo‘shimchasini qo‘shib ko‘ramiz , kabi. Izohli yozuvda iloji boricha so‘zlarni bo‘g‘inlab aytish, tushunarli qilib talaffuz qilish o‘quvchilar tomonidan matnning o‘zlashtirilishini osonlashtiradi. O‘qituvchi izohlanuvchi so‘z yoki gaplarni adabiy til talaffuzi shakllariga muvofiq aytib beradi, o‘quvchilar uni yozadilar. O‘quvchilardan biri o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan ma‘lum bir so‘zning yozilishini izohlaydi.

O‘quvchi orfogrammani noto‘g‘ri izohlasa yoki izohlay olmasa, boshqa o‘quvchidan so‘raladi. Agar o‘quvchilarning ko‘pchiligi ko‘rsatilgan orfogrammani to‘g‘ri izohlay olmasa, o‘qituvchi mazkur orfogrammani takrorlaydi. Izohli yozuv mashg‘ulotida topshiriq dastlab ilg‘or o‘quvchilarga beriladi. Keyinchalik esa har bir o‘quvchining, ayniqsa, yaxshi o‘zlashtirolmaydigan o‘quvchining yozuvini kuzatib borish maqsadga muvofiqdir. Izohli yozuv dastlab sekin olib boriladi: o‘quvchilar ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish, ularning imlosini izohlash va shu paytning o‘zida uni yozishga qiynaladilar. Sekin-sekin o‘quvchilarning bu sohadagi malakasi mustahkamlanib, ish sur‘ati tezlashtiriladi. Izohli yozuv uchun darsning 5-10 daqiqasi ajratiladi. Izohli yozuvda matn qisman emas, to‘laligicha izohlanishi ham mumkin.

### **GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT**

Bunda matn aytib turish yo‘li bilan diktant yozdiriladi. So‘ng matnning biror qismi yoki butun matn yuzasidan tahlil qilish vazifasi beriladi. Masalan, matndagi otlarni (yoki boshqa so‘z turkumlarini) topib, tagiga tegishlicha chizing, ustiga so‘rog‘ini yozing. Yoki matndagi oxirgi gapni (yoki ixtiyoriy bitta gapni) gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling. Yozilishi bilan aytilishi mos kelmaydigan so‘zlarning tagiga chizing. Har qanday grammatik topshiriq

o'quvchining nazariy bilimini mustahkamlash, aniqlash bilan birga savodxonligini ta'minlashi, nutq boyligini oshirishga xizmat qilishi zarur. Bunday diktant turida o'quvchilarning grammatik, jumladan, mustaqil va yordamchi so'z turkumlarini to'g'ri qo'llash layoqatlari, imlo savodxonligi ham aniqlanadi.

### **VIDEO-TOPISHMOQLI DIKTANT**

Bunda o'quvchilar e'tibori ekranga qaratiladi. Ekranda mul'timedia animatsiyalari qo'yib beriladi. Ko'rsatilgan lavhalarda aks etgan voqea-hodisalar, ma'naviy-ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligi nazorat qilinadi. O'quvchilar lavhalarga mos sarlavha qo'yib, sarlavha asosida matn tuzadilar. Tuzilgan matnlar o'qib eshittiriladi. Bunday diktantlar o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqni o'stirish usullaridan biri bo'lib, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik did, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o'qitish usuli hisoblanadi. Vaziyatga to'g'ri baho berish, tevarak-atrofdan bo'layotgan voqea-hodisalarga xolisona munosabatda bo'lish, muammolarni mustaqil yecha olishga ko'nikmalar shakllantiriladi.

#### **Savollar:**

1. Ona tili ta'limida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar qandaytekshiriladi va aniqlanadi?
2. Diktantning qanday turlari bor?
3. Ko'zlangan maqsadga ko'ra ta'limiy diktantlar qanday turlarga bo'linadi?
4. Diktant yozishda nimalarga amal qilish lozim?
5. «Yarim nazorat diktant»lar deganda qanday diktantlar nazarda tutiladi?
6. Tekshiruv diktant asosan qachon o'tkaziladi?
7. Izohli yozuv diktanti qanday maqsadda o'tkaziladi?

## **ONA TILI TA'LIMIDA DIKTANTNING O'RNI. DIKTANT O'TKAZISHTEXNOLOGIYASI.**

Reja:

1. Ta'limda diktantning o'rni qanday?
2. Diktantni tashkil etish texnologiyasi.
3. Yozma ishda xatolarning oldi olinishi.

O'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda diktantning o'rni katta. Diktant olishda quyidagi meyorlarga amal qilish zarur bo'ladi. Mavjud metodik adabiyotlarda keltirilishicha, diktant matni pedagogika hamda tilshunoslikning quyidagi talablariga javob berishi lozim:

1. Yozma nazoratning bu turi o'tilgan mavzu yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga va tekshirishga xizmat qilishi lozim. Matn mazmuni o'quvchilar saviyasiga mos, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lishi zarur. Agar matnda ma'nosi qiyin so'zlar, so'z birikmalari, jumlar bo'lsa, yaxshisi, ularni almashtirish lozim. Ayrimlarini esa diktantni boshlamasdan avval tushuntirib, doskaga yozib ko'rsatish mumkin.

2. Matnda o'tilayotgan yoki takrorlanayotgan qoidaga mos so'zlar, so'z birikmalari, gaplar yetarli bo'lishi lozim. Matnga kiritilgan orfogrammalar teng joylanishi zarur. Ko'pincha o'quvchilar diktant boshida va oxirida ko'p adashadilar. Shuning uchun matn tanlashda uning oxirida qiyin orfogrammalarning mumkin qadar kamaya borishiga e'tibor berish ma'qul. Diktant uchun o'tilgan mavzuga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi zarur bo'ladi.

3. Matnda oldingi yozma ishlarda xato yozilgan so'zlar ham bo'lishi mumkin. Har bir diktantda o'quvchilar uchun yangi so'z yoki atamalar bo'lsa, bu o'quvchining lug'at boyligini kengaytiradi. Tanlangan material o'quvchiga ma'lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo'lishi, mustaqil o'qilgan yoki o'quvchiga notanish

bo'lgan asarlardan bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Matn badiiy asarlardan, gazeta va jurnallardan tanlanishi, ayrim matnlarni esa o'qituvchining o'zi tuzishi ham mumkin.

«Diktantlar to'plami» o'qituvchi uchun asosiy qo'llanmadir.

4. Diktant matni saralangan gaplardan yoki tayyor adabiy-badiiy parcha holida bo'lishi mumkin. Bu o'zlashtirilgan mavzu mohiyatiga bog'liq. Matn o'rniga olingan terma gaplarning mazmuni kontekstsiz ham tushunarli bo'lishi lozim.

4-7-sinflar uchun tanlangan matnda murakkab qo'shma gap mumkin qadar bo'lmasligi lozim. 4-sinf uchun 6-8 so'zli, 5-sinf uchun esa 8-10 so'zli gaplar olinishi lozim. Ta'limdan maqsad tafakkur darajasi shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutqiy ko'nikma va muloqot madaniyati rivojlangan, savodli shaxsni tarbiyalash ekan, bilim, ko'nikma va malakalar uch xil mezon asosida tekshiriladi. Avvalo, o'qish texnikasi, nutqni anglash va matn mazmunini tushunish malakasi, tinglab tushunilgan mazmun asosidagi fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi nazorat qilinadi. Fikrni yozma shaklda bayon etish, tugal matnni hosil qilish murakkab jarayondir, ona tili ta'limining maqsadi shu mezonda mujassamlashgan. Shu maqsadni amalga oshirishdan mazmun o'quvchining fikrlash tezligini, hozirjavobligini, salohiyatini oshirish, mantiqiy tafakkurini o'stirish; borliq haqidagi ma'lumot, tasavvurlarni ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikr va his- tyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olish, yosh avlodning aqliy rivojlanishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan.

Bog'lovchilar, ko'makchilar, ayrim yoziladigan yuklamalar alohida so'z hisoblanadi. Sinfning umumiy tayyorgarligi va boshqa sabablarga ko'ra, matndagi so'zlarning soni orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Diktant matni hammaga tushunarli qilib o'qib beriladi. Diktant uchun bog'lanishli matn tanlangan hollarda oldin butun matn o'qiladi. Uni biror o'quvchiga so'zlatish, ba'zan oldin uning rejasini tuzdirish, sarlavha toptirish ham mumkin.

Matn gapma-gap o'qib berilishi kerak. Agar gap uzun bo'lsa, uni sintagma holida o'qib berish ham mumkinn. Bunda gap oldin to'la o'qib beriladi. So'ngra qismlar 2-3 marta qaytariladi. Lekin o'quvchilarni bir o'qishdayoq yozishga odatlantirib borish zarur. Diktant matnini ayrim-ayrim so'zlarga bo'lib, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib aytib berish aslo mumkin emas. Diktant vaqtida yozishga ulgurmay qolgan o'quvchiga tanbeh berish uning ruhiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun o'qituvchi diktant vaqtida biror o'quvchining ham orqada qolmasligiga erishishi kerak. Agar biror o'quvchi orqada qolsa, u bir-ikki gapni tashlab, davomini yozavergani ma'qul. O'quvchilarning diktant vaqtida u yoki bu so'zning yozilishiga oid savol berishiga ham yo'l qo'ymaslik kerak. Diktant yozib bo'lingandan so'ng, o'qituvchi matnni yana bir marta o'qiydi, yozganlarini yana bir marta ko'rib chiqishlari uchun o'quvchilarga 3-4 daqiqa vaqt beriladi. Bunda o'quvchi matnga ongli munosabatda bo'lib, xatolarini topishga urinadi. Diktant o'quvchilar tomonidan tekshirib chiqilgach, tezda yig'ib olinadi. Diktantni to'g'ri o'tkazishda uni diktovka qilish sur'ati ham o'ziga xos ahamiyatga ega. 5-sinf o'quvchisi bir daqiqada 4-5 so'z, 6-sinf o'quvchisi 5-6 so'z, 7-8-sinf o'quvchisi esa 7-8 so'z yoza oladi. Diktovka vaqtida o'qituvchining ovozi me'yorda, hammaga eshitilib turishi kerak. Diktantning mustaqil yozilishini ta'minlash uchun parta ustida hech qanday qo'llanma («Imlo lug'ati», "Darslik" va boshqalar) bo'lmasligi zarur. O'quvchilar qaysi qoida yuzasidan diktant o'tkazilishini oldindan bilishlari kerak. Bu o'quvchilarga qoidalarni yana bir qaytarib chiqish imkonini beradi. O'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda diktantning ahamiyati katta. Chunki o'quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga harakat qiladi.

### **Tushuntiruvchi diktant**

-tushuntiruvchi diktant-eshitib yoziladigan diktant turi bo'lib, mavzular mustahkamlanishida o'tkaziladi. Diktant matni yozib

tugatilganda imlosi tushuntiriladi;

-o'quvchilarning tovush farqlarini mustaqil ravishda ajrata olish ko'nikmasi o'sadi;

-o'quvchilar bilan individual ishlash imkoniyati oshadi;

-o'qituvchi oldindan o'quvchilar ko'proq xatoga yo'l qo'yishlari mumkin bo'lgan matn tayyorlaydi va xatolar asosida savol-javob uyushtiriladi;

-bu diktant 10 daqiqadan 20 daqiqagacha vaqt ichida olinadi.

### **Tushuntiruvchi diktant metodi**

-diktant matni so'zma-so'z yozib boriladi;

-imlo yoki punktuatsiya aniqlanadi va tagiga chiziladi;

-qoidalar keltirib o'tiladi (imlosi to'g'ri yozilgani isboti uchun).

**Namuna:** Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kuni otasi bozordan olma olib kelib, bolalarini sinamoqchi bo'libdi. "Mana, sizga olma beraman", - dedi. Vali tezlik bilan kelib: "Otajon, menga hammasini bering", - dedi. Ali sekingina kelib: "Menga bitta olma bersangiz bo'ladi", - dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin o'qib, quchog'iga olib peshonasidan o'pdi va ikkita olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki: "Qanoatsiz bo'lma", deb dakki berdi. (A.Avloniy.) Topshiriq: Matnga sarlavha qo'ying. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarning tinish belgilarini izohlang.

**Izohli(sharhli) diktant. Mohiyati:** Izohli diktant matn yozish jarayonida murakkab imlolarning yozilishini tushuntirishni o'z ichiga oladi;

-qoidaning so'zlari esda qolishiga yordam beradi (chunki u ko'p marta takrorlanadi), uning mohiyatini tushunish va qoidadan tezda foydalanishga o'rgatadi;

-bu diktant o'rganilayotgan imlolarni mustahkamlash jarayoni endigina boshlanganda yoki imloning qiyin holatlari yuzaga kelganda o'tkaziladi;

-bunday diktantlarni vaqti-vaqti bilan o'tkazish zarur. (7-15



daqiqa ketadi)

**Metodi:**

-matn o'qilayotganda hamma jim tinglaydi; -yozish uchun qayta o'qiladi (gapni qismlarga ajratib); - o'quvchilar sekin takrorlab yozib boshlaydilar, bir vaqtningo'zida qanday yozish haqida fikrlab, tahlil qilib boradilar; o'quvchilardan biri ovoz chiqarib tahlil qiladi.

**Namuna: Topshiriq: tutuq belgisining ishlatilish o'rinlarini izohlang;** Yaxshi xulqlar. Yaxshi xulqlar: diyonat, qanoat, shijoat, Vatanni suymak va boshqalar insonni ulug'laydi. G'azab, jaholat, adovat, g'iybat, ta'ma, zulm-yomon xulqlar kishini tubanlik qa'riga tashlaydi. (A.Avloniy.)

**Ogohlantiruvchi diktant. Mohiyati:** Ogohlantiruvchi diktant-barcha punktogramma va imlo diktant boshlanguncha tushuntirib o'tiladi: -ko'rishga va eshitishga mo'ljallangan turlari mavjud; - ko'rish uchun mo'ljallangan turida, darslikdan, doskada berilgan (plakatda, proyektrda) matnlardan foydalaniladi. Imlosi aniqlanib, grammatik topshiriq tushuntirib berilgandan keyin o'qituvchi matnni yopib qo'yadi. Diktant yozib bo'lingandan keyin matn qaytadan ochilib, tekshirish jarayoni boshlanadi; -eshitish uchun mo'ljallangan diktant yozilishdan oldin beriladigan grammatik topshiriq qoidalari takrorlanib, muhokama qilinadi va natijada mustahkamlanadi. Keyin diktant yoziladi va tekshiriladi.

**Metodi:** -ogohlantiruvchi diktant matni o'qituvchi tomonidan o'qiladi;

- o'quvchilardan biri yoki butun sinf takrorlab boradi;
- imlo aniqlanadi;
- o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki ravishda ifodalaydilar;
- matn yozilgach orfogrammaga chiziladi.

**Namuna:** Topshiriq oldindan doskaga yozib qo'yilgan, matn ifodali o'qiladi, Grammatik topshiriq: sifat darajalarini aniqlash.

Ta'magirlik va ochko'zlik

Aziz va Aqida gilos daraxtiga chiqib olishib qip-qizil giloslarni

yeya boshlashdi. Aziz qarasa shoxlarning uchidagi gilolar yaxshiroq pishgan va chiroyliroq ekan. Yuqoriroqqa chiqmoqchi bo'ldi. Aqida uni ogohlantirib: "U shoxlarbaland va mo'rt, seni ko'tara olmaydi. Bu yerdagi gilolar ham chiroyli", dedi. Ammo Aziz shoxning uchidagi gilolardan boshqa narsani ko'rmasdi. O'sha mo'rt shoxlardagi gilolar tomonga ko'tarila boshladi. Natijada daraxtning shoxlari ham, Azizning oyog'i ham sindi. (Bolalar uchun 40 hadis)

### **Asosli diktant. Mohiyati:**

- o'quvchidan maksimal e'tibor va xotirani talab qiladigan bu diktantda so'zning yozma va o'ta ixcham imlosini asoslash kerak;

-asos so'zdan oldin yoziladi, bu birinchi navbatda qanday yozish kerakligi haqida o'ylashga, keyin esa so'zni yozishga o'rgatadi.

-o'quvchi so'zlarning to'g'ri yozilishini yozma va ixcham, qisqartirib asoslash zarur, bunda yozayotganlar diqqatini va xotirasini kuchli zo'riqtirish talab etiladi;

-tekshirish harflarni keltirish bilan izohlanishi mumkin.

Masalan, kitobi-kitob;

-diktant 10-15 daqiqada, V-VI sinflarda 8-10 so'z va so'z birikmalaridan iborat bo'lish zarur; Namuna: mardu maydon-mard, kitobim-kitob, sabru-bardosh- sabr, do'stlik-do'st, mashqi-mashq, daraxtimiz-daraxt;

### **Metodi:**

- o'quvchilarga tushunarli bo'lish uchun o'qituvchi matnni juda sekinlik bilan o'qiydi (masalan, mard, kitob, sabr, do'st, mashq, daraxt; -agar bu diktant 1-yarim yillikda olinsa, o'qituvchi qaysi orfogrammaga e'tibor qaratish kerakligini eslatadi. Keyingi mashg'ulotlarda orfogramma ko'rsatilmaydi.

-daftarlarga yozilish tartibi: mardu maydon-mard, kitobim-kitob, sabr-u bardosh- sabr, do'stlik-do'st, mashqi-mashq, daraxtimiz-daraxt.

Punktuatsiya bilan bog'liq bunday diktant turi: Bilmaganni so'rab o'rgangan – (1)olim, (2)orlanib so'ramagan – (3)o'ziga zolim.

1.1-3- ot-kesim bog‘lamalarsiz kelganda ot-kesimdan oldin tire qo‘yiladi.

2.Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar vergul bilan ajratiladi.

3.Gap tugaganda nuqta qo‘yiladi.

### **Grafik tasvirli diktant. Mohiyati:**

-diktant yozayotganda o‘quvchilar imlosi berilgan so‘zlarni tanlaydilar;

-bu til materialini umumlashtirish mashqlaridir;

-o‘quvchi vaqtining eng tejaladigan ish turi;

**Metodi:** o‘qituvchi o‘qiydi; -topshiriqni shakllantiradi;

-o‘qituvchi har bir gapni 2 martadan takrorlaydi, har takror pauza bilan ajratiladi; diktant matni yozilmaydi, topshiriq asosida grafik belgilar bilan belgilanadi; topshiriq: talaffuzda tushib qoladigan tovushlar qatnashgan so‘zli gaplar(+), agar bunday so‘zlar qatnashmasa(-) belgisi bilan ifodalanadi: Namuna: 1. Bahorda daraxtlar gullaydi. 2.Quruvchilar binoga g‘isht tera boshlashdi. 3.Kitobsiz uy jonsiz tanaday gap. 4.Do‘sting ham til, dushmaning ham til. 5.Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do‘stlardir. Javob: 1)+ 2)+ 3)- 4)+ 5)+

### **O‘zimni tekshiraman diktanti**

-diktant yozish jarayonida tasodifiy to‘g‘ri yozilgan imlo ko‘rinishidagi yashirin xatolarning oldini olish vositasidir;

-o‘quvchilar o‘qituvchiga har qanday savol bilan murojaat etish huquqiga ega bo‘ladilar.

-o‘quvchilar savollari orqali o‘zlari xatosini tuzatishganda bahosiga ta‘sir bo‘lmaydi.

-bu o‘qituvchiga o‘quvchi muvaffaqiyatini nazorat qilish imkonini beradi;

-diktant imlo va tinish belgilar bilan bog‘liq savodxonlikda sezgirlikni oshiradi.

**Metodi:** - o‘qituvchi tomonidan diktant matni aytib turiladi. O‘quvchilar diktant yozayotganda to‘g‘ri yozilganiga ikkilangan

so'zlarni, tinish belgilarni belgilab boradilar. Diktant yozib bo'lingandan keyin o'qituvchidan ikkilanganlari haqida so'rab, to'g'rilab chiqishadi;

-diktant yozib bo'lingandan keyin o'quvchilar nechta to'g'rilashgani bo'yicha belgilar qo'yishganini sanab, yozib qo'yishadi, masalan:(4), (3)va h.k. Shundan keyin savol berishga ruxsat etiladi. Bu jarayon o'qituvchiga sinfda har bir o'quvchining haqiqiy bilim darajasini aniqlashda adashmaslik imkonini beradi. "O'zimni tekshiraman" diktanti orqali o'quvchilarda o'ziga ishonch, bilimga chanqoqlik oshadi. O'qituvchiga ham aniq xatolarni topishda yengillik yaratadi. Namuna: Xushmuomalalik

Xushmuomalalik yarim baxtdir, ya'ni u baxt eshigini, ochishi mumkin, xolos. Biroq bu bilan baxtni uzoq ushlab bo'lmaydi. Xushmuomalalik zaminida mehnatsevarlik bilan bir qatorda mehribonlik va g'amxo'rlik qaynab tursa, odam umrbod baxtli hayot gashtini suradi. Tekshiruv: ushbu matnda 34 ta so'z, undan o'qituvchi 2 ta xato to'g'riladi (o'quvchi o'zi to'g'rilaganlardan tashqari) baho "4". O'qituvchining jurnalida, o'quvchining barcha xatolari uchun boshqa baho qo'yilish mumkin.

**Matni o'zgartiriladigan diktant. Mohiyati:** O'qituvchining topshirig'i bilan diktant yozish jarayonida matn o'zgartirilib yoziladigan diktant;

-o'rganilayotgan nutq toifalaridan to'g'ri va erkin foydalanish va bilimlarni mustahkamlashda o'quvchining diqqatini taqsimlay bilishga o'rgatadi;

-o'quvchining faol aqliy faoliyati talab qilinib, matn so'zma-so'z yozilmasdan, mazmunini anglab tushunish va xotirada yaxshi qolishiga yordam beradi.

**Matni o'zgartiriladigan diktant turlari** saylanma diktant; taqsimlovchi diktant; saylanma-taqsimlovchi diktant; erkin diktant; tiklovchi diktant; analog diktant; raqamli diktant; grafik diktant.

**Saylanma diktantlar. Mohiyati:** o'quvchilar diktant yozish jarayonida, diktant matnidan faqat mustahkamlash ko'zda

tutilayotgan mavzu qoidalariga doir soʻz, soʻz birikmasi yoki gaplarni tanlab yozadilar. Maqsad-oʻquvchining yangi oʻrganilgan lingvistik hodisalarni bilishni tekshirish. Natijada mavzuning puxta mustahkamlanishi, zehn oʻtkirliги, imlo savodxonlik oshishi yuz beradi.

**Metodi:** Oʻqituvchi tomonidan gap oʻqib beriladi(hamma jim eshitadi). Gap ikkinchi marta takroran oʻqilayotganda, oʻquvchilar berilgan grammatik topshiriq asosidagi soʻzlarni koʻchirib yozadilar. Yozilganlar boʻyicha frontal tekshiruv oʻtkaziladi: oʻquvchilardan biri yozganlarini oʻqiydi, qolganlar oʻz yozganlarini tekshirib, lozim boʻlsa tuzatadilar.

**Namunasi:** Topshiriq: matnni tinglab atoqli otlarni koʻchirib yozing.

#### Gulbadanbegim

*Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Boburning qizi boʻlib, u 1523- yili Kobulda tugʻilgan. Onasi Dildorbegim temuriy Sulton Mahmud Mirzoning qizi boʻlgan. Humoyun Mirzoning onasi Mohimbegim qoʻlida tarbiyalangan. Gulbadanbegim zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. Akbarshohning taklifi bilan "Humoyunnoma" nomli ajoyib va muhim tarixiy asarni yozgan. "Humoyunnoma" Bobur va Humoyun podshohlarning hayoti va sarguzashtlarining qisqacha tarixi boʻlib, "Boburnoma"ning mantiqiy davomidir. "Akbarnoma"ning muallifi Abul Fazlning yozishicha, Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etgan. **Bajarilish tartibi: Gulbadanbegim, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kobul,***

***Dildorbegim, Sulton Mahmud Mirzo, Humoyun Mirzo, Mohimbegim, Akbarshoh, "Humoyunnoma", Bobur, Humoyun, "Boburnoma", "Akbarnoma", Abul Fazl.***

**Taqsimlovchi diktantlar. Mohiyati:** Diktant yozish jarayonida oʻquvchilar butun matnni guruhlariga taqsimlab yozadilar. Maqsad-oʻzlashtirilgan va unga oʻxshash soʻzlarni chegaralash. Mavzuning toʻliq oʻzlashtirilishi va muammoli vaziyat yaratish uchun

materialni differensiyalash(ajratish).

**Metodi:** 1.Ishning maqsadi va topshiriq e'lon qilinadi. 2.Matn o'qib beriladi. 3.Til birliklar taqsimlanib yozilish uchun qismlarga ajratilib o'qiladi. 4.Takror o'qib berilganda o'quvchilar bajarganlarini yana bir bor tekshiradilar.

**Namunasi:** Unli tovushlardan keyin kelgan tutuq belgisining ishlatilishi. Tutuq belgili so'zlarni o'ng ustunga, tutuq belgisiz so'zlarni chap ustunga ajratib yozing. Mo'jiza, mo'tabar, mo'tadil, tana, surat, e'lon, da'vo, ma'no, ba'zan, ne'mat, bosiq, talaffuz, muallim, sa'va, sher, poyqadam, podsho, a'lo, ancha, asta.

**Tanlab-taqsimlovchi diktantlar. Mohiyati:** Ushbu diktant bajarilish jarayonida, nafaqat tanlab yozadilar, balki yozilganlarni guruhlarga ajratadilar. Diktantdan maqsad: puxta o'zlashtirish; orfogrammалarni mustahkamlash; diqqatni jamlash; o'zlashitilganlar va ularga o'xshashlarini farqlash; fikrlab bajariladigan ishlarni murakkablashtirish;

**Metodi:** 1.Ishning maqsadi va topshiriq e'lon qilinadi. 2. Matn to'liq o'qib beriladi. O'quvchilar o'tilgan qoida asosida so'zlarni tanlab yozadilar va guruhlashadi. 4.Takror o'qib berilganda o'quvchilar bajarganlarini yana bir bor tekshiradilar.

**Namuna:** Topshiriq: Faqat sifat so'z turkumlari tanlab yoziladi, sifat darajalari guruhlarga ajratiladi.

*Bobomiz Amir Temur*

*Temur bobomiz juda bir so'zli, qattiqqo'l podshoh bo'lgan. Ulkan qasrlar, go'zal bog'lar barpo qilgan. Odamlarga faqat yaxshilikni ravo ko'rdi. Bugun Amir Temurning an'analari davom etmoqda. Yurtimizda bir-biridan go'zal binolar qurilmoqda, keng va ravon ko'chalar ko'paymoqda.*

**Erkin diktant. Mohiyati:** Ushbu diktant, bayon va diktant o'rtasidagi oraliq yozma ish bo'lib, matn o'qilayotganda yozilmasdan mazmuni qayta so'zlab beriladi. So'z birikmasi va gaplarning tuzilishi hamda so'z shakllarini to'g'ri qo'llash haqidagi grammatik qoidalar qaytariladi. 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

**Metodi:** 1. Ishning maqsadi va topshiriq e'lon qilinadi. 2. Matn to'liq o'qib beriladi. Keyin qismlar bo'yicha o'qiladi (gaplarga ajratilmasdan xatboshilar alohida o'qiladi). 3. O'quvchilar aynan yozmasdan, erkin yozadilar, sinonimlar qo'llash ixtiyoriy, faqat yoziladigan ma'nodoshining qanday yozilishini oldindan bilish shart emas.

**Namuna:** Topshiriq: Sarlavha qo'yib, matnning asosiy mazmunini aniqlang. *Bir odam maslahat so'rab donishmandning huzuriga boribdi. -Ey ulug' zot,-*

*debdi u.- Mening farzandlarim ko'p. Nima qilsam, ulardan mehr-oqibat ko'raman? Donishmand o'ylab turib javob beribdi: -Mehr ko'ray desang farzandlaring qalbiga mehrigiyo urug'ini soch.(Rivoyatdan)*

**Qayta-tiklanuvchi diktant Mohiyati:** Ushbu bog'li matn parchalari avval tinglanadi, keyin ushbu parchalar asosida saylanma diktant yoziladi, so'nggi bosqichda yozilganlar asosida bog'li matn tiklanadi. Mustaqil fikrlash va idrok etishni rivojlantiradi.

**Metodi:** 1. Ishni matn haqida tushuncha beradigan kalit so'zni chiqarib, topshiriqni bajarish va maqsadni to'g'ri qo'yishdan boshlanadi. 2. Matn ifodali o'qiladi. O'quvchilar tayanch jummalarni rejaga olish maqsadida yozib oladilar. 3. Ushbu matn o'quvchilar tomonidan tahlil yoki qayta hikoya qilinadi. Matn ichidan gaplar birinchi o'qilganda o'quvchilar qaysi o'rinlar yozilishini belgilab oladilar. Ikkinchi marta o'qilishda lozim topilganlar yoziladi. Uchinchi o'qilishda yozilganlar tekshiriladi.

**Namuna:** Topshiriq: Diktantdan ajratib yozilgan son so'z turkumiga oid sintaktik birliklar asosida matnni qayta tiklang. *Quyosh bilan Yer orasidagi masofa 150 million kilometr ga teng. Agar yo'lovchi har kuni 30 kilometr dan yurib borganda Quyoshga 14000 yilda yetib boradi. Poyezd to'xtamasdan soatiga 100 kilometr harakat qilganda 170 yilda Quyoshga yetadi. Samolyot 17 yildan ziyod vaqtda yetib borsa, sekundiga 350 metr tezlikda tarqaladigan tovush Yerdan Quyoshgacha 14 yilda yetib boradi.*

**O'xshash asosli diktant. Mohiyati:** Ijodiy jarayon bo'lib, o'quvchilar diktant matnini jim tinglashadi, matnning tashqi qurilishi va ichki strukturasi aynan o'xshash, lekin mazmuni o'zgartirilgan matn ijod qilinadi. O'quvchilarning qobiliyatlarini shakllantirishi uchun, qoidalar bilan ishlayotganda, mustaqilliklari ta'minlanishi zarur.

**O'tkazish metodi:** Kirish suhbatini yoki matn haqida ma'lumot beruvchi tayanch so'zlar aytiladi. 2. Matnni jumlar bo'yicha tuzish, jumlarini jim talaffuz qilish. 3. Matn takror o'qilayotganda, o'quvchi yozib oladi. 4. Ish yakunida o'qilgan yozilgan matn solishtiriladi.

**Namuna:** Topshiriq: Kuzatish va suhbatlardan keyin ma'naviyat, xalq, yurt, farzand haqida matn tuzing.

*Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon kuch-qudrat bo'lmaydi. Xalqimizning ma'naviy ildizlari juda chuqur. Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi.*

**Raqamli diktant. Mohiyati:** Raqamli diktant grafik yozuvli diktant singari bajariladi, o'quvchilar uchun soddalashtirilgan bo'lib, lingvistik faktni tahlil qilish bo'yicha kamroq vaqt talab qiladi.

**O'tkazish metodi:** Diktantni boshlashdan oldin lingvistik hodisalar qanday raqam bilan belgilanishi kelishib olinadi. O'quvchilar diktant matnini yozmasdan, faqat tinglaydi. Yuqoridagi kelishuvga asosan so'zlar maxsus raqamlanadi.

**Namuna:** Topshiriq: 1. juft so'zlar; 2. qo'shma gaplar; 3. soddaga gaplar; 4. mavhum otlar.

*Vatan.*

*Vatan arabcha so'z bo'lib, ona yurt degan ma'noni bildiradi. U har birimizning kindik qonimiz to'kilgan yagona dargoh. Bu dargohda ota-bobolarimiz xoki yotibdi. Inson uchun Vatan yagonadir. Vatanning katta- kichigi, boy- kambag'ali bo'lmaydi. Inson uchun undan ulug' in'om yo'q. Vatandan judolik eng katta baxtsizlikdir.*

**Grafikli diktant. Mohiyati:** O'quvchilar grafik yozuvli diktant matnini so'zma-so'z yozmasdan, grammatik, sintaktik



xususiyatlariga ko'ra shartli belgilar ko'rinishida yozadilar. O'quvchilarning grammatik salohiyatini oshirib, matn mazmunidan tashqari grammatik strukturasi ham eshitib anglay olish qobiliyatini oshiradi.

**O'tkazish metodi:** *Matn o'qiladi. O'quvchilar matnni grammatik xususiyatlarini aniqlashtiruvchi shartli belgilar ko'rinishida yozadilar.*

**Namuna:** *Topshiriq: 1. Gap bo'laklari qolipini yozing: Bugun do'stlarimni kutubxonada uchratdim.*

..... ----- .....=====.

4. *Qo'shma gaplar qolipini chizing:*

5. *Ko'chirma gapli qo'shma gaplar: "Aqli kishi sabre tar har nafas",- deydi Sa'diy Sheroziy. "", - m. "Jaholat - o'lim,- deb aytadi Nosir Xisrav, bilim esa tiriklikdir". "K, -m, -k". Alisher Navoiy: "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur",- deb aytgan. M: "K", -M. Gruzinlar deydi: "Daraxt ildizi bilan kuchli, odam-do'stlari bilan". M: "K".*

**Ijodiy diktant Mazmuni:** O'quvchilar diktant matniga grammatik xususiyatlar ifodalangan so'z va so'z birikmalarini qo'shib yoki ularni o'xshash variantlari bilan almashtirib yozadilar. Imlo va punktuatsion, nutq o'stiruvchi topshiriqlar bilan birga berilishi mumkin.

**Talablari:** -Matn- bayon matnidek aniq tushuniladigan, mazmunan qiziqarli, o'quvchiga atrofidagi olam haqida yangi ma'lumotlar beradigan bo'lishi zarur; - tinglash va talaffuz ko'nikmalari teng rivojlanishi uchun, o'quvchilar yozib boshlashdan oldin gaplarni o'zlari eshitadigan holda takrorlab borishlari tavsiya etiladi. Ijodiy diktantda o'qituvchi odatdagidan ancha sekin o'qiganligi sababli, o'quvchilarga qo'shimcha vaqt beriladi.

**Ijodiy diktant turlari:** - Kengaytirilgan matn (yoki so'z qo'shiladigan); -o'rin almashtiriladigan; -matnni ixchamlashtirish;- almashtirishlar bilan; -matnni ajratish; - matnni ulash.

**Matni kengaytirilgan ijodiy diktant** Matnga mos so'z qo'shib kengaytirilishi ko'zda tutilmoqda. Har qanday holatda ham

matnning mazmuni o'zgartirilmasdan, grammatik xususiyatlar kengayishi hisobiga bog'lovchi, yuklama, ko'makchilar qo'shilishi mumkin. Kutilayotgan maqsad: o'quvchilarni ma'lum guruhdagi so'z va so'z qurilmalaridan foydalanishga o'rgatish; o'quvchilarni so'z va so'z birikmalarini to'g'ri qo'llay olishga o'rgatish. Bunda o'quvchi muallifning nimani nazarda tutayotganini tushuna olishi zarur bo'ladi.

**O'tkazish metodi:** so'z qo'yib yoziladigan ijodiy diktant uchun bog'li matni tanlanadi va topshiriq shakllantiriladi. Bog'li matn mazmuniga mos keladigan ma'lum guruhga aloqador so'zlar bilan kengaytirib yozish kerak bo'ladi; -Tahlilda zarur o'ringa qo'yilgan so'z yoki so'z birikmasi qanchalik to'g'ri va aniq tanlangani baholanadi.

**Namuna:** o'quvchilarga matn o'qib eshittiriladi, mavzuga doir sifat so'z turkumlari tanlanib kengaytirib yoziladi.

Ey(hurmatli) qizlar! Ey (izzatli) qarindoshlar! Sizlarga ma'lumki (go'zal) xulqli qiz bola butun oila uchun (ulug') boylik va saodatdir.

**O'zgartirishlar bilan yoziladigan ijodiy diktant. Mohiyati:** Diktant matnini yozib olish jarayonida uning ayrim qismlarini almashtirishni o'z ichiga oladi. Materialni yaxshi bilishni talab qiladi, Undagi qat'iy imlolar sonini ko'paytirish orqali izchil matnni saqlashga imkon beradi.

**Metodi:** -o'qituvchi ishni e'lon qilib, maqsad qo'yadi va topshiriq beradi. - o'quvchilar matnni tinglab, mazmunini tushungach topshiriqni bajaradilar; -birinchi o'qilishda o'quvchilar almashtirish rejalarini tuzadilar; -ikkinchi o'qilishda tayyor bo'lgan matnni yozadilar; -uchinchi o'qilishda tekshiriladi.

**Namuna:** Topshiriq: Matn mazmuniga putur yetkazmasdan tovush va so'zlarnima'nodoshlariga almashtirib yozing.

Tilagim(istagim) shuki, barcha (baxtli)baxtiyor yashasa!  
(Yaxshi)Ezgu (orzu) niyatlar(amalga oshsa)ushalsa!

**Matni ixchamlashtiriladigan ijodiy diktant** Matn juz'iy qisqartirishlar bilan, ba'zi o'rinlari olib tashlanib, uslubiy tuzatishlar

bilan yoziladi. Sintaksis va punktuatsiyani o'rganishda qo'llaniladi. Tezis, konspekt va qisqartirilgan bayonlar yozishga yaxshi ko'nikmalar hosil qiladi.

**O'tkazish metodi:** -o'qituvchi ishni e'lon qilib, maqsad qo'yadi va topshiriq beradi;

-o'quvchilar matnni tinglab, mazmunini tushungach topshiriqni bajaradilar; -birinchi o'qilishda o'quvchilar topshiriq shartiga mos qilib jummalarni o'zgartiradilar; - ikkinchi o'qilishda tayyor bo'lgan matnni yozadilar; -uchinchisida uslubiy me'yorga muvofiq kelishi tekshiriladi, zarur bo'lsa tuzatiladi.

**Namuna:** Topshiriq: Matn mazmuniga putur yetkazmasdan uslubiy qisqartirib yoki tinish belgilariga almashtirib yozing. Osmonimiz musaffodir. Osmonimiz-musaffo. Akam uchuvchidir. Akam-uchuvchi.

Onam uchun sovg'a-onamga sovg'a. Mashina bilan ketdi-mashinada ketdi.

**Matnda so'z o'rinlari almashtiriladigan ijodiy diktant.**  
**Mohiyati:** Matn yozishda o'qituvchining topshirig'i bilan gap bo'laklarining o'rinlari almashtiriladi, ammo tayyor matnda bironta so'z tushirib qoldirilmasdan, ko'paytirilmasdan yoziladi. Maqsad tinish belgilarini to'g'ri qo'llashga o'rgatish bo'lib, punktuatsiya bo'limi o'rganilayotganda o'tkaziladi.

**O'tkazish metodi:** -o'qituvchi ishni e'lon qilib, maqsad qo'yadi va topshiriq beradi;- o'quvchilar matnni tinglab, mazmunini tushungach topshiriqni bajaradilar; -birinchi o'qilishda o'quvchilar topshiriq shartiga mos jummalarni o'zgartiradilar; -ikkinchi o'qilishda tayyor bo'lgan matnni yozadilar; -uchinchisida -uslubiy me'yorgamuvofiq kelishi tekshiriladi, tuzatiladi.

**Namuna:** Topshiriq: Matn mazmuniga putur yetkazmasdan gap bo'laklarining o'rinlarini almashtirib, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab yozing. *Tong otguncha shaharga kirib keldik. Shaharga tong otguncha kirib keldik.*

**Qismlarga bo'lish ijodiy diktanti** Matn yozishda o'qituvchining topshirig'i bilan qo'shma gaplar sodda gaplarga bo'lib yoziladi. Maqsad qo'shma gaplar tuzishda noaniqliklarning oldi olinadi. Gap tarkibi haqida bilimlar hamda ega, kesim tahlili malakasi zarur bo'ladi.

**O'tkazish metodi:** -o'qituvchi ishni e'lon qilib, maqsad qo'yadi va topshiriq beradi.

-o'quvchilar matnni tinglab, mazmunini tushungach topshiriqni bajaradilar; -birinchi o'qilishda o'quvchilar topshiriq shartiga mos qilib qo'shma gaplarni sodda gaplarga ajratadilar; -ikkinchi o'qilishda tayyor bo'lgan matnni yozadilar; -uchinchisida – uslubiy me'yorga muvofiq kelishi tekshiriladi, tuzatiladi.

**Namuna:** Topshiriq: Muallif matnidagi qo'shma gaplarni sodda gaplarga ajratib matnni qayta tiklab yozadilar. Nima uchun muallif qo'shma gaplardan foydalanganligini va nutq uslublarining aloqadorligini mulohaza qiling. *Ko'ksaroy oromgohi va unga tutash tog'-adirlar o'simliklar dunyosiga g'oyatda boy bo'lib, bu yerdagi giyohlardan yuzga yaqin shifobaxsh giyohlar tayyorlanadi. Bunday orombaxsh, mo'jizakor maskanlarda sayr qilish inson tanasini qushday yengil qiladi, ruhuni ko'taradi, salomatligini mustahkamlaydi.* (S. Anorboyev)

**Qismlarni umumlashtirish ijodiy diktanti.** Matn yozishda o'qituvchining topshirig'i bilan sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirib yoziladi. Sintaksis va punktuatsiya bo'limlari o'rganilayotganda, so'z birikmalari shakllantirilayotganda o'tkaziladi.

**O'tkazish metodi:** -o'qituvchi ishni e'lon qilib, maqsad qo'yadi va topshiriq beradi;

-o'quvchilar matnni tinglab, mazmunini tushungach topshiriqni bajaradilar; -birinchi o'qilishda o'quvchilar topshiriq shartiga mos qilib sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantiradilar; -ikkinchi o'qilishda tayyor bo'lgan matnni yozadilar; -uchinchisida – uslubiy

me'yorga muvofiq kelishi tekshiriladi, tuzatiladi.

**Namuna:** Topshiriq: Ikkita sodda gapni birlashtirib qo'shma gap hosil qiling. *Ey Farzand! Har bir qadamingni o'ylab bos. Mulohaza bilan ish qil. Zamonga munosib bo'l. O'zingni oliy toifa deb ko'rsatma, amal va boyliging bilan g'ururlanma. Doimo kamtar bo'l. Xalqqa xizmat qil. Kamtarga kamol , manmanga zavol degan maqolni aslo unutma. Bu sening shioring bo'lsin. Odamning ko'ngli nozik.*

**Ijodiy diktant.** Ijodiy diktantlar bilimni yangi sharoit va yangi maqsadlarda egallash zaruratini talab qiladi, shuning uchun undan foydalanish juda samaralidir. D.N.Bogoyavlenskiy imlo savodxonlik va ijodiy maktublar bilan bog'liq savollarni o'rganar ekan, bunday ish turi o'quvchini nutq va imloviy bilimlar bilan qurollantiradi degan xulosaga kelib: "o'quvchilar ijodiy diktant yozayotib, ikkita vazifani "birlashtirish" bosqichidan o'tadilar: o'z fikrlarini yozma ravishda ifodaetish va shu bilan birga imlo qoidalariga rioya qilish". Shunday qilib, ijodiy diktant to'g'ri kommunikativ nutq va imlo ko'nikmalarini shakllantirish uchun eng samarali sintetik mashqlardan biri bo'lib, bir tomondan sof imlo mashqlari va ikkinchi tomondan nutqni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar o'rtasidagi oraliqdir.

**"Ovozsiz" diktant. Mohiyati:** Ovozsiz diktantda o'qituvchi so'zlamaydi, faqat ma'lum harakatlarni bajaradigan, o'quvchilar esa ko'rganlarini bajaradigan, ya'ni o'qituvchining harakatlarini tasvirlab beradigan diktantdir; -u o'quvchilarning kuzatuvchanligini va sodir bo'layotgan voqeani tasvirlash qobiliyatini rivojlantiradi; - u bolalar nutqini boyitish vositasi; -u imlo malakalarini mustahkamlash vositasidir.

**O'tkazish metodi:** -avval o'qituvchi diktant mohiyatini tushuntiradi; -so'ngra ishning bir qismi jamoaviy ravishda amalga oshiriladi; - o'qituvchi harakatlarni bajaradi, keyin o'quvchilar o'z kuzatishlarini aytadilar; -o'quvchilar diktantning boshini mustaqil yozadilar (birinchi diktant uzoq bo'lmasligi kerak); -ovozsiz diktantni birinchi marta o'tkazishda yozilgan narsalarni jamoaviy

tekshirish amalga oshiriladi;

-boshqa hollarda diktant o'quvchilarning o'zlari tomondan yoziladi, o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va nazorat sifatida baholanadi.

**Namuna:** Topshiriq: o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan obrazli harakatlarga ko'ra so'zlarni yozing;- o'qituvchi o'trди, turdi, tegindi, tingladi, orqaga suyandi, bir oz ochdi, yopishtirdi va hokazo.

**“Kim ko'proq eslab qoladi” diktanti. Mohiyati:** Bu diktantda o'qituvchi so'zlar zanjirini bir marta o'qib beradi, pauza vaqtida o'quvchilar eslab qolganlarini yozadilar. Diktantning maqsadi nutq xotirasini, imlo ko'nikmalarini yaxshilash, yozish tezligini oshirish, o'rganishga qiziqishni oshirish; -o'quvchilarning imlo savodxonligi ortadi; -bolalarning xotira masalalariga qiziqish ortadi; -yozish tezligini oshiradi; -maktab o'quvchilarida bilimga qiziqish ortadi.

**O'tkazish metodi:** O'qituvchi so'zlar zanjirini bir marta o'qib beradi, pauza vaqtida o'quvchilar eslab qolganlarini yozadilar. Keyin yangi so'zlar zanjirini o'qiydi, toki berilgan so'zlar yozib tugatilguncha, bu hol takrorlanadi.

**Namuna:** Topshiriq: diktant qilingan so'zlarni xotirada tiklash.  
**Bu nima haqida?** *Porloq, mo'rt, eriydigan, birinchi, oq, yopishqoq, yumshoq, qarsillab.*

**“Klaster”diktanti:** Vatan, ona yer, mehr-oqibat, sadoqat, matonat, inson.

**Mohiyati:** Bu diktantda o'qituvchi so'zlar zanjirini bir marta o'qib beradi, pauza vaqtida o'quvchilar har bir so'zga aloqador so'zlardan topishga harakat qiladilar. Diktantning maqsadi-so'z boyligini oshirish, ijodiy fikrlash, imlo ko'nikmalarini yaxshilash, yozish tezligini oshirish, o'rganishga qiziqishni oshirish.

**O'tkazish metodi:** O'qituvchi so'zlarni bir marta o'qib beradi, pauza vaqtida o'quvchilar har bir so'zga aloqador so'zlardan topishga harakat qiladilalar.

**Namuna:** *Gul-gulzor, chaman, bulbul, muattar, rang-barang. Ona-mehribon, samimiy, go'zal, jonkuyar.*

**Xulosa:** Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilini o'rgatishda diktantning o'рни katta. Diktant diqqatni kuchaytiradi, bu ko'nikmalarni shakllantirish tezligi va aniqligini belgilaydi. Bu esa imlo savodxonlikni oshirishda diktantni asosiy ish turlaridan biri sifatida tavsiya etishga asos bo'ladi. Uni qo'llash jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham faol va bir vaqtning o'zida o'zaro hamkorlik muhitini yaratadi. U asosan imlo va tinish belgilarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga fonetika, lug'at va grammatika bo'yicha ishlarda ham tegishli bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun qo'llanadi.

**Savollar:**

1. Nazorat diktantlariga qanday texnologiyalar mos keladi?
2. Diktantni samarali o'tkazishda qanday mezonlarga amal qilinadi?
3. Yozma ishda xatolar qanday aniqlanadi?
4. Imlo va tinish belgilarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda nimalargae'tibor qaratiladi?
5. Fonetika, lug'at va grammatika bo'yicha bilimlarni mustahkamlashda qanday ishlaramalga oshiriladi?
6. Diktant qilingan so'zlarni xotirada tiklash uchun qanday ishlar amalga oshiriladi?
7. Sintaksis va punktuatsiya bo'limlari o'rganilayotganda qanday diktant turidan foydalaniladi?

## **DIKTANTGA QO'YILADIGAN TALABLAR. NAZORAT DIKTANTLARNIBAHOLASH MEZONLARI.**

Reja:

1. Nazorat diktantlarini baholash zaruriyati.
2. Diktantni baholash mezonlari va metodlari.
3. Yozma ishda xatolarni bartaraf etish metodlari.
4. Nazorat diktantlariga qo'yiladigan talablar.
5. Diktantni baholash mezonlari.
6. Yozma ishda xatolarning belgilanishi.

Ma'lumki, diktant yozish malakasi boshlang'ich sinflardan shakllantirilibboriladi. Yuqori sinflarda bu ko'nikma va malakalar takomillashtiriladi.

Avvalo diktant matnida berilgan so'zlar diktant olinadigan sinflar kesimiga mo'ljallangan bo'lishi zarur. Barcha me'yoriy talablar va so'zlar miqdori DTS talablariga muvofiq tuziladi. Diktant matni o'rganilgan mavzu qoidasi va orfogrammasiga mos tanlanadi. Barcha orfogramma matn bo'yicha teng taqsimlanadi, chunki ko'pincha o'quvchi diktant boshida yoki oxirida xatoga yo'l qo'yadi. O'tilmagan orfogramma 3 tadan ko'p uchramagani ma'qul.

### **Diktantga qo'yiladigan talablar**

-diktant matnining hajmi;

-yosh xususiyatlari bilan bog'liqligi;

-orfografik va punktuatsion xususiyatlar o'zlashtirilgan mavzuga mosligi;

-diktant matni adabiyot darslarida o'tilgan badiiy adabiyot namunalari parchalaridan yoki darsdan tashqari o'qilgan badiiy asarlardan olinishi zarur.

Matn ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ilmiy, badiiy maqolalardan olinishida esa o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinishi talab etiladi. Tanlangan materiallar rang-barang bo'lib, o'quvchilar nutqini, dunyoqarashini, tafakkurini rivojlantirish hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi zarur.



## **Diktant aytib turishdagi talablar:**

Diktant o'qilish tempi sinfda o'rta o'qiydigan o'quvchiga mo'ljallanadi. So'z va tovushlar aniq talaffuz qilinib, adabiy til va talaffuz me'yorlariga rioya qilinadi. O'qituvchi joyini o'zgartirmasdan bir joyda turib o'qishi zarur.

Notanish so'zlar 2-3 tadan oshmasligi shart. Diktant o'qilish o'z bosqichlariga ega: 1. Matn mazmuni bilan tanishish.

2. Diktantni yozish. 3. Diktantni tekshirish.

**Ish tartibi: 1.** Diktant olinishdan maqsad e'lon qilinadi. Bunda diktant olinishda ko'zda tutilayotgan qoida va orfografik jihatlarga o'quvchilar diqqati qaratiladi. 2. Matn o'qituvchi tomonidan to'liq o'qib beriladi. 3. Notanish so'zlar uchrasa tushuntirib beriladi yoki doskada ko'rsatiladi. 4. O'tilmagan orfogrammalar doskaga yozib qo'yiladi. 5. Yozish uchun o'qish. O'qituvchi har bir gapni 2 martadan o'qib beradi: birinchi marta gap mazmunini tushunish uchun, ikkinchi marta yozish uchun. Gap o'qib bo'linmaguncha yozishga yo'l qo'yilmaydi. 6. Diktant oxirida o'qituvchi yana bir bora to'liq matnni o'qib eshittiradi. Bunda gaplar orasida pauzalar bilan o'qiladi, chunki o'quvchilar tekshirib ulgurishlari hamda qolib ketgan o'rinlarini yozib ulgurishlari uchun. Agar gap juda uzun va tinglanishda qiyin tushuniladigan bo'lsa bo'laklarga bo'lib o'qish kerak bo'ladi. Barcha qismlar o'qituvchi tomonidan yetkazib beriladi. Matnni baland va tiniq ovozda, har bir so'z aniq tushuniladigan qilib o'qiladi. Ammo, talaffuz me'yorlari buzilmasdan, qanday yozilishi aytib berilmasdan o'qilishi shart. Masalan, talaffuzda tovush orttirilish yoki tushish holatlari inobatga olinadi: oila-oyila, qoida-qoyida, manbai-manbayi; daraxt- darax, go'sht-go'sh singari. Qator kelgan unlilar yoki undoshlarda ham talaffuz me'yorlariga amal qilib o'qiladi: taassurot-tassurot kabi. Bunda tiklanishi zarur bo'lgan tovushlar yoki orttirilmay yoziladigan tovushlar bo'rttirilmaydi, qanday talaffuz qilinsa shunday aytib turiladi. Yozish uchun o'qishga ajratiladigan vaqtni sinfda o'rtacha o'zlashtiradigan o'quvchi yoza oladigan darajada

o'qish mo'ljallanadi.

**5-7- sinflar uchun diktant olish talablari.** O'rta va yuqori sinflarda ham nazorat diktant olish tartibi yuqorida berilgan tartibda olinadi. Faqat so'zlar miqdori va matn murakkablik darajasi o'zgaradi. O'rta sinflarda olinadigan nazorat diktantlarga grammatik topshiriqlarni ko'paytirish zarur. Aynan bu o'quv davrida erkin diktant, rasm asosidagi diktantlar, ijodiy diktantlarni olish maqsadga muvofiq bo'lib, bu nazorat turlarini boyitadi. Yana bir ajoyib va noan'anaviy nazorat diktant turlaridan biri ogohlantiruvchi diktantdir. O'quvchilar nazorat ishi olinishidan oldinroq shu kunlarda o'tiladigan mavzuga doir grammatik topshiriqlar asosida diktant matni tayyorlanishi ogohlantiriladi. Diktant matni darslikdan ham olinishi mumkin. Tajribalardan shu narsa aniq bo'lganki, o'quvchilar bunaqa ogohlantirishlardan keyin nazorat ishiga anchagina mas'uliyat bilan yondashishlari kuzatilgan. Bu mas'uliyat ularni nafaqat sinfda, hatto uyda ham tark etmaydi, albatta shunday bo'lishi shart, axir matn darslikdan olinadi-da. Oldindan o'quvchilar bu nazorat diktant baholanishi boshqa diktantlarga nisbatan tanishtirilganligi evaziga murakkabroq kechishi ham ogohlantiriladi.

**8-9 - sinflarda diktant olish talablari.** 8-9- sinflardan boshlab o'quvchilar davlat imtihonlariga tayyorlanib boshlaydilar. Davlat imtihonlarida esa o'quvchilarning

bayon yozish mahoratlari sinalgani sababli, diktant turlarini ham aynan o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilinishi mumkin bo'lgan matnlardan tayyorlanish ko'zda tutiladi. Bunday diktantlarga rasm asosidagi diktant, xotira asosida maktub, bayon tipidagi diktantlar misol bo'la oladi. Bu paytga kelib orfogrammalar hajmi ham anchagina ortadi, shu sababli diktant matnlari ham yangi-yangi qoidalar asosida tanlanishni talab etadi. Bu davrga kelib barcha o'zlashtirilgan mavzularni takrorlash zarurati ham tug'iladi. Ilmga qiziqish uyg'otish va nazorat ishi olinishi paytidagi bosimni yo'qotish maqsadida, har bir chorakda bir marta oldindan

tayyorgarlik ko'riladigan musobaqali diktant o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bu diktant bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi. O'qituvchi oldindan o'rganilishi kerak bo'lgan qiyin va notanish so'zlar hamda diktantda talab etiladigan qoidalar ro'yxatini o'quvchilarga taqdim etadi. Berilgan notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan topish jarayoni uyushtiriladi. Keyingi bosqichda o'quvchilarning diktantga tayyorlanish jarayoni boshlanadi, ular o'zlari lug'at diktanti tuzishlari, bir-birlariga diktant aytib turishlari, juft-juft yoki guruhlarda ishlashlari hamda o'zlari tekshiruv o'tkazishlari, xatolarni aniqlashlari, qoidalarni tahlil etishlari mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday tayyorgarliklardan keyin, nazorat diktantlari natijalari yaxshilanib, mavzu materiallari yaxshi o'zlashtiriladi.

**10-11-sinflarda diktant olish talabi.** Bu davrga kelib o'quvchilar diktantning barcha turlarini yozish ko'nikmasiga ega bo'lganliklari sababli, o'qituvchiga qanday diktant turini tanlash va topshiriqlar tuzish imkoniyatini ko'proq beradi. Yuqori sinflarda odatiy aytib turib yoziladigan diktantlardan foydalanish, ularni zeriktirib qo'yish mumkin. Bitiruvchi sinf o'quvchilari imtihonlarga tayyorlanish (insho yozish)da ko'proq samara beradigan matn bilan ishlashga mo'ljallangan dikrantlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Erkin va ijodiy diktantlar o'quvchini orfografik va punktuatsion bilim darajasini aniqlash bilan bir qatorda, matnni tugal fikrli, mantiqan mustaqil yoza olish qobiliyatlarini oshiradi. Tilning ifoda vositalari bilan bog'liq tahlilga asoslangan diktant turi ham ijobiy samara beradi. Odatdagi holatda olinadigan bu diktant turida o'qituvchi tahliliy topshiriqlar berib jarayonga qizg'in tus beradi. Diktant tugashi bilan o'qituvchi nutq uslublari, tilning ifoda vositalari, obrazlar haqida savollar bilan murojaat qiladi. Diktantni yozib tugatishgan o'quvchilar nazorat ishining davomini o'z so'zlari bilan izohlab yozib beradilar. Bunday yozma ishlar o'quvchilarning o'z fikrlarini qanchalik darajada izohlay olishlari hamda so'z boyliklarini baholash imkonini beradi. Nazorat diktantlarini

tekshirish o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash, ularni bartaraf qilish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rish demakdir. Har qanday yozma ish, shu jumladan, nazorat diktanti ham tekshirilib, xatolar tasnif qilinishi, bu xatolarning sababi aniqlanishi zarur.

Nazorat diktantlarini tekshirish o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash, ularni bartaraf qilish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rish demakdir. Har qanday yozma ish, shu jumladan, nazorat diktanti ham tekshirilib, xatolar tasnif qilinishi, bu xatolarning sababi aniqlanishi zarur. Ta'limiy diktantlarni o'tkazish vaqtini, o'rnini, turini o'qituvchining o'zi belgilaydi, avvalo baholash mezonlariga mos tushishi nazarda tutiladi. Ta'limiy diktantlar uchun darsning ma'lum bir qismi (5-10 daqiqasi), ba'zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Ta'limiy diktantda o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beradi. Har qanday yo'l bilan xatoning oldini olish chorasi ko'riladi. Masalan 5-sinfda yuklamalar o'rganilayotgan darsda so'z yuklamalar va qo'shimcha yuklamalar o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoki undan ajratib yozilishi tahlili o'tkaziladi. So'z yuklamalar o'zi qo'shilayotgan so'zdan doimo ajratib, qo'shimcha- yuklamalar esa o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoki undan chiziqcha bilan ajratib yozilishini bilib olgach, o'quvchilardan biri yuklama qo'shilgan so'zlarni doskaga yozadi va tahlil qiladi. So'ng so'zlar o'chirib tashlanadi, shundan keyin aytib turib yozdiriladi. Ta'limiy diktant turlaridan ta'kidiy, o'z(yoddan yozuv diktanti), izohli diktant, saylanma, erkin, rasm diktant, lug'at va ijodiy diktantlarning yozilishi va baholanishi namuna sifatida beriladi. Quyida izohli diktant, erkin diktant, ijodiy diktant turlariga to'xtalamiz.

**Ta'kidiy diktant**dan qoidani tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish

jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini izohlaydilar. O'qituvchi so'zlarni guruhlariga ajratib yozishni tushuntiradi. Ta'kidiy dikdant namunasi: **Paxta, ogoh, xatar, harf, shox, shoh, no'xat, halol, taxta, havaskor, baxt, hayvonot, shaxta, hayot, sinfxona, suhbat, xil-xil, hil-hil.** So'ng o'qituvchi *h* va *x* harflarini yozilishini ta'kidlaydi. O'quvchilar diktantni yozib bo'lishgach, doskadagi namunaga qarab yozganlarini tekshiradilar.

**O'z diktant yoki yoddan yozuv diktantida** o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar qatnashgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydilar(ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar(idrok qiladilar), keyin o'zlari mustaqil yozadilar. O'qituvchi o'quvchilarning kuzatishlarini yakunlab xulosa chiqaradi. Ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakdagi unli tovushlar tushib qoladi, bir tovush boshqa tovush bilan almashadi va shunday yoziladi. O'quvchilar darslikda berilgan qoidani mustaqil o'qiydilar.

-Siz o'qigan imlo qoida nima haqida ekan?

-Qoida necha qismdan iborat? (Qoida uch qismdan iborat)

-Har bir qismni ajrating. (1.Ba'zi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, o'zakda tovush o'zgarishi yuz beradi. 2.Unli tovush tushib qoladi. 3.Undosh tovush almashadi.)

**Saylanma diktantda** o'quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o'qituvchining topshirig'iga mos qisminigina (o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni, so'z birikmalarini) yozadilar. Topshiriqqa zid yozilgan ortiqcha so'zlar xatoga kiritiladi.

**Ijodiy diktantda** o'quvchilarga o'rganilgan qoidaga mos so'z, so'z birikmasi, biror mavzuga doir savollar beriladi. Ular berilgan so'z va so'z birikmalarini qatnashtirib, savollarga javob topish orqali matn yoki hikoyacha tuzadilar. O'qituvchi ana shu berilgan so'z va so'z birikmalari yordamida tuzilgan hikoya mazmunini ishni bajarish usuli haqida o'quvchilarga tushuncha beradi. Chunki ijodiy

diktant matnini o'quvchilarning o'zlari ijod qiladilar va uni o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq yozadilar. Shunisi bilan diktant inshoga o'xshaydi. Ijodiy diktant o'rganilgan qoidalarini o'zlashtirish va yozuvda o'rinli qo'llash malakalarini mustahkamlaydi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi, ularda ijodkorlik, mustaqillik kabi zaruriy malakalarini shakllantiradi. Masalan, 7-sinfda yordamchi so'z turkumlaridan o'rinli qo'llash uchun, ijodiy diktantdan foydalanish mumkin: Maktab tomon ketdim-maktabga ketdim. Telefon orqali xabar bering- telefonda xabar bering. Imlo xatolarga yo'l qo'yilmasa ham shart xato bajarilsa baho tushiriladi.

**Rasm diktant** predmet rasmini yoki o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o'rganilgan qoidani, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi. Nutq uslublarini mustahkamlash uchun ushbu so'zlardan matn tuzish topshiriladi.

**Lug'at diktant.** Lug'at diktant o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o'quvchilar lug'atini boyitish, o'rganilgan imlo qoidalarini o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirilganini aniqlash, hisobga olish maqsadida o'tkaziladi. Lug'at diktant uchun o'rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so'zlar tanlanadi. Lug'at diktantning ko'ruv sezgisiga asoslangan turidan foydalanish lug'at diktantning eshitib yozish turiga tayyorlaydi. Chunki bola nuqtalar o'rniga qaysi harfni qo'yishni o'ylaydi, talaffuzi bilan yozilishini taqqoslaydi, so'ng yozadi. Eshitib yozishda bunday imkoniyat bo'lmaydi. Ta'limiy diktantlarni o'yin shaklida o'tkazish ham mumkin. O'yin-diktantni "Kim ko'p eslab qoladi?" deb nomlagan holda o'tkazilsa o'quvchilar qiziqishini orttiradi. Bu diktantning maqsadi xotirani ishga solish va bu imloviy ko'nikmalarni

shakllantirishdir. Bunda o'qituvchi har bir gapni bir marta o'qiydi. O'quvchilar yodida qolganini yozadi. O'qituvchi biroz pauzadan so'ng ikkinchi gapni o'qiydi. O'yin-diktantning materiali sifatida so'z olinishi ham mumkin. Unda ham o'qituvchi bir qancha so'zni birdaniga o'qiydi va 10-15 soniya pauza qilinadi. O'quvchi eslab qolganini yozadi. Keyin yana shuncha so'z o'qib beriladi. Diktant yozib bo'lingach, har bir o'quvchi diktantidagi so'zlar sonini sanaydi. O'qituvchi oldindan diktantning to'liq matnini yozib ustini bekitib qo'ygan bo'ladi. O'quvchilar diktantini tekshirayotganda uning ustini ochib qo'yadi. O'quvchilarning ishi tushirib qoldirgan so'zlar soniga va yo'l qo'yilgan xatolar soniga qarab baholanadi. O'quvchilar diktantni yozib bo'lishgach, o'rganilgan mavzulardan kelib chiqib topshiriqlar berilishi mumkin. Masalan, "So'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating, asoslarning tagiga chizing", "Ajratib ko'rsatilgan so'zni tasviriy ifodalar bilan almashtirib yozing", "Shu so'zlar ishtirokida bog'li matn tuzing", "Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlang, tagiga tegishlicha chizing" kabi.

**Tekshirish diktanti** dasturning biror bo'limi o'rganilib, xilma-xil ta'limiy mashqlar bilan mustahkamlangach, ular o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti yoziladigan darsda yordam ko'rsatilmaydi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5-6 marta o'tkaziladi. Masalan, 6-sinf o'quvchilari so'z tarkiblari o'rganib bo'lingandan keyin yo diktant yoki bayon yozishda sintaktik qo'shimchalarni qo'shganda imloviy to'g'ri yozishni namoyish qiladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. O'quvchilarga tekshiruv diktanti yozishlari bir kun oldin e'lon qilinadi. Qaysi mavzularni takrorlashlari aytiladi. Diktant yozishda qo'yiladigan talablar tushuntiriladi:

-diktant adabiy-orfoepik talaffuz me'yorlariga, tinish belgilariga rioya qilingan holda bir marta o'qib beriladi, diqqat bilan

tinglashlari aytiladi.

-diktant matnidagi imlosi qiyin va o'rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan so'zlardoskaga yozilib, imlosi tushutiriladi.

-diktant yozib bo'lingach, matn bir marta o'qib beriladi, o'quvchilar yozganlarini tekshirib oladilar.

-diktant yozdirilayotganda, bitta gap bir butun holda o'qib beriladi, o'quvchilar gap chegarasini aniqlab oladilar.

-husnixat bilan yozishlari ta'kidlanadi.

-diktant yozib bo'lingach, ichida bo'g'inlab o'qishlari, tekshirib, xatolarini to'grilashlari uchun vaqt beriladi.

Baholash mezonlari:

1.Imloviy savodxonlik darajasi.

2.Tinish belgilarinig to'g'ri ishlatilishi.

3.Fonetik tahlil.

4.So'z tarkibiga ko'ra tahlil.

5.Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.6.Leksik tahlil.

7.Xatboshilarga rioya qilinishi.

8.Yozuvning husnixat talablariga mosligi.

9.Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Xatolar ustida ishlash to'g'ri tashkillashtirilsa, imlo savodxonlikka erishishdasamarali natijalar beradi. Uni amalga oshirishning tizimli xususiyati;

-yomon o'zlashtirilgan imloni mustahkamlashga qaratilgan turli mashqlar turi;

-mustaqil faoliyat jarayonida imlo xatolarni topish;

-har bir o'quvchiga individual yondashish; Xatolar ustida 2 usulda ishlar olib boriladi:

1. O'quvchilarning imlo mahoratining umumiy darajasiga ko'ra(an'anaviy);

2. O'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra(differensiyalangan).

Xatolar ustida ishlashning an'anaviy turida asosiy imlolarni



ishlab chiqish uchun mashqlar to'plami: tushuntirish, xulosalar keltirish zarur.

Xatolarni tabaqalashtirilgan tuzatish va keyinchalik bolalarning xatolar bo'yicha mustaqil ishlarini individuallashtirish uchun tavsiyalar berish shart. Shuni ta'kidlash kerakki imlo nomi, o'quvchilar uchun bosqichma-bosqish ko'rsatmalar, ijro namunasi bilan tanishtirilganda, o'quvchilarni zeriktirmasdan, qisqa vaqt ichida samarali natijalarga erishiladi. O'quvchilar mustaqil ishlay oladigan so'zlar soni, amaliyot ko'rsatganidan ancha ko'p bo'lsa ham, sinfdagi o'quvchilar ishining tezligiga qarab 5-7 so'zdan oshmasligi kerak. Aks holda ish mexanik ravishda bajarila boshlanadi va unda xatolar miqdori diktantning o'zidan ham ko'payishi mumkin.

Diktantga bitta baho qo'yiladi.

Diktantni baholashda imlo va tinish belgilarga qo'yiladigan talablar;

-so'zlarni ko'chirishda;

-maktab o'quv rejasiga kiritilmagan qoidalar;

-hali o'rganilmaga qoidalar;

-imlosi tekshirilmagan yoki maxsus ish olib borilmagan so'zlarda;

-muallif tinish belgilarini ko'chirishda;

Diktantni baholashda shu kabi xatolarning xususiyatlari ham inobatga olinishi zarur. Xatolar orasida qo'pol bo'lmaganlarini ajratib ko'rsatish zarur. Xatolarni sanashda qo'pol bo'lmagan 2 ta xato 1 ta hisoblanadi.

Jiddiy bo'lmagan xatolar:

-so'zlar va qoidalaridagi istisnolar;

-imlosi qoidalar bilan tartibga solinmagan so'zlar uchrasa;

-bir tinish belgining boshqasi bilan almashgan holatlarda;

-ketma-ket keladigan tinish belgilarning o'рни almashganda, yoki biri tushiribqoldirilganda.

Shuningdek, xatolarning takrorlanishi va bir xilligini hisobga

olish kerak. Agarxato bir soʻzda yoki bir xil oʻzakli soʻzlarning oʻzagida takrorlansa, u bitta xato hisoblanadi.

### **Takroriy va tasodifiy xatolar:**

- bitta soʻz barcha oʻrinlarda toʻgʻri yozilib, bir oʻrinda xato yozilsa, tasodifiy xato sanaladi; agar *bir* soʻz besh oʻrinda xato yozilsa, takroriy xato hisoblanadi;

- raqamlar 2 xil yozib qoʻyilsa, tasodifiy xato hisoblanadi. Takroriy va tasodifiy xatolar yozma ishda tuzatiladi, lekin jiddiy xato hisoblanmaydi. Yaʼni baholash mezoni va meʼyoriga hal qiluvchi taʼsir koʻrsatmaydi.

### **Yozma ishda xatolarning belgilanishi**

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida yozma ishni tekshirishda xatolar tagiga chizish hamda daftar hoshiyasiga belgilar chiqarish yoʻli bilan koʻrsatiladi va hisobgaolinadi. Xatolarni koʻrsatish uchun:

- imlo xatosi ostiga ikki chiziq (=)
- tinish belgilardagi xato ostiga bir chiziq (-)
- uslubiy xato ostiga toʻlqinli chiziq (~) chiziladi. Daftar hoshiyasiga esa quyidagishartli belgilar qoʻyiladi:
  - / (shtrix) - imlo xatosini bildiradi;
  - V (ve) - tinish belgisidagi xatoni bildiradi;
  - W (dubl ve) - uslubiy xatoni bildiradi;
  - Z (zet) - abzatsni, baʼzan matndagi behuda boʻsh qoldirilgan yoki nooʻrin band qilingan satrlarni bildiradi;
  - yozma ishni tekshirishda chiroyli jumla, juda oʻrnida keltirilgan dalil roʻparasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida undov belgisi (!) qoʻyish bilan tahsin yoki maqtovni; noʻnoq, tushunarsiz, notoʻgʻri jumlar, nooʻrin dalillar roʻparasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida soʻroq belgisi (?) qoʻyish bilan eʼtiroz yoki tushunarsizlikni bildirish mumkin. Ish tekshirib boʻlinganidan keyin xatolar tasniflanib, ularning soni, masalan, imloviy - 2 ta, ishoraviy - 3 ta, uslubiy - 1 ta kabi koʻrsatilishi mumkin.

### **5-9 siniflarda oʻtkaziladigan yozma ishlar DTSda**

## ko'rsatilgan hajmda amalga oshiriladi

Sinfi	Diktant		Insho (matn)	
5	85-95	96-120	8-10	11-15
6	95-105	121-130	10-12	16-18
7	105-125	125-130	12-15	19-20
8	125-140	141-160	15-20	21-25
9	140-160	160-180	20-25	26-30

### Diktantni baholashda quyidagicha mezon belgilanadi:

«5» ball: a) mutlaqo xatosiz yozilgan; b) qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi.

«4» ball: ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar nisbati o'zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori to'rttadan, imlo xato esa ikkitadan oshmasligi kerak.

«3» ball: to'rtta imlo hamda to'rtta ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar nisbati 3 imlo, 5 ishorat xato va boshqa ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Ammo imlo xato miqdori 4 tadan oshmasligi shart.

«2» ball: 7 tagacha imlo va 7 ta ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar miqdori 15 tadan ortsa, «1» ball qo'yiladi.

**Eslatma:** 1. Diktantlardagi xatolar nisbatan turlicha ko'rinishda bo'lishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi.

3. Agar diktantdagi tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq bo'lsa, baho bir ballgapasayadi.

4. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo'lsa, «5» ball qo'yilmaydi.

### Savollar:

1. Nazorat diktantlariga qanday talablar qo'yiladi va xatolarni ko'rsatish sabablari?

2. Diktantni baholashda xatolarning xususiyatlari ham inobatga olinishi shartmi?

3. Yozma ishda xatolar qanday belgilanadi, xatolarning takrorlanishi va bir xilligini hisobga olishga misollar keltiring.

4. Saylanma diktantlar qanday maqsadda o'tkaziladi?

5. Diktantni baholashda imlo va tinish belgilarga qo'yiladigan talablar. 6. Xatolar ustida qanday usulda ishlar olib boriladi?

7. Nazorat diktantlariga qanday talablar qo'yiladi?

8. Diktantni baholashda qanday mezonlarga amal qilinadi?

9. Diktant matnini tuzishga harakat qiling.

10. Erkin va ijodiy diktantlar o'quvchilarda qanday qobiliyatlarni shakllantiradi?

## BAYON HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Reja:

1. Bayon haqida umumiy ma'lumot.
2. Bayon turlari va ularni yozish usullari.
3. Bayon yozish uchun tavsiyalar.

Yoshlarimizning tafakkurida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy va ongli fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda bayon o'ziga xos mavqega ega. Bayonning og'zaki va yozma turlaridan yozma bayonlar haqida to'xtalamiz. Bayon matn mazmunini, badiiy-uslubiy xususiyatlarini saqlagan holda mukammallashtirish, qayta yaratishga qaratilgan yozma ish turi bo'lib, berilgan namuna asosida matn yaratishdir. Bunda, taqdim etilganlarni qayta ifodalash yoki ijod etishlari kerak.

**Bayon** arabcha "aniqlik", "ravshanlik", "tavsiflash", "ifodalash" ma'nosidagi so'z bo'lib, o'qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozib chiqilgan ish; yozma ish (o'quvchilar bilimni baholashning yozma shakllaridan biri)ni ifoda etadi. Bayonlar o'quvchilar nutqini xotiraga tayanib rivojlantiradigan yozma ishdir. Tinglangan yoki o'qilgan asarni yozma ravishda qayta yaratish, ko'rganlari asosida film, spektakllardan taassurotlari bayoni ham bo'lish mumkin.

Bayon matnning mantiqiyligi va tarkibini o'rgatish uchun ishlatiladi:

- lug'at, frazeologiya, sintaksisni boyitish;
- janrlarni o'qitish uchun - hikoya qilish, tasvirlash va mulohaza yuritish;
- uslublar - badiiy, rasmiy, ilmiy, publitsistik;
- tilning o'rganilgan grammatik vositalaridan o'z matnida foydalanish;
- taqdim etilgan ishlarning materiali bo'yicha ta'lim olish uchun.

O'quvchilarning tafakkuri oshishida, ma'naviy kamolotida, intellektual va nutqini rivojlantirishda bayonlar muhim o'rin

egallaydi. Bayon modelga taqlid orqali o'rgatadigan ish turlariga tayanib, o'quvchining mustaqil namoyon bo'lish imkoniyatini kengaytiradi, takror ishlab chiqarish va ijodiy fikrlashni faollashtiradi. Matn ustida ishlashda o'quvchilar tahlil va sintez qilish, asosiy mazmunni ajratib, bo'rttirib ko'rsatish, ayrim hodisalarga e'tibor qaratish va ba'zilarini mavhumlashtirishni o'rganadilar. Badiiy matn namunalari bilan ishlash hissiy sohani uyg'otadi, tasvirni his qilishga o'rgatib, ijodiy tasavvurni rivojlantiradi. Bayon o'quvchilar nutqini o'stirish, savodli yozish va fikrni uslubiga ko'ra izchil tartiblash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun taqdim etilgan matnning takomillashtirilgan qayta bayonidir. Bayonlar kichikroq matnlarni so'zma-so'z hikoya qilish, butun asarning qisqacha mohiyatini yoritish hamda yetkazishga mo'ljallangan og'zaki va yozma mashqlardan iborat.

#### **Bayonning vazifalari:**

- mavzu mazmunini anglash va asosiy fikrni ajrata olish, mantiqiy izchillikda qayta ifodalash;
- muhokama qilishda muallif uslubiga xos nutqning ifoda shakli va uslubini to'g'ri tanlash;
- aniq belgi va faktlarni berilish ketma-ketligiga amal qilib yoritish;
- kirish va xulosaga ega bo'lgan matn shakllantirish;

#### **O'quvchilarni tarbiyalashda bayonlarning ahamiyati.**

Matnlarni to'g'ri tanlash va tahlil qilish g'oyaviy-siyosiy, mehnat, axloqiy tarbiya masalalarini hal etishga yordam beradi, o'quvchilarda insoniylik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Turli mazmundagi matnlar dunyoqarashni kengaytiradi, atrofdagi dunyo haqidagi yangi bilimlar bilan boyitadi. Bir tomondan, matnni (tinglash) yoki vizual (o'qish) orqali idrok etish qobiliyati, ikkinchi tomondan, matnni og'zaki (gapirish) yoki yozma ravishda takrorlash qobiliyati oshadi. Manba matnini tahlil qilish, uning mavzusi, g'oyalari, kompozitsion va lingvistik xususiyatlar va uni

keyinchalik takrorlash o'quvchilarda izchil nutq (kommunikativ qobiliyat) ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Ushbu mahorat bayonning mavzusi va asosiy g'oyasini ochib beradi:**

-badiiy asar, darslik kabi manbalardan bayon uchun material to'plash va tizimlashtirish qobiliyati;

-vazifasi, mavzusi, asosiy g'oyasini hisobga olgan holda bayonni rejalashtirish va yaratish qobiliyati;

-turli funksional-semantik tipdagi monolog gaplarni qurish qobiliyati (tavsif, hikoya, fikrlash).

Bayonga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'quvchilar tafakkuri va ichki dunyosi boyib boradi. Savodxonlik darajasini ko'taradi, til vositalaridan unumli va o'rinli foydalanishga o'rgatadi.

Berilgan asar yoki parchani izchil, savodli, qayta bayon etish natijasida ko'nikma va malakalar takomillashtirilib, o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan orfografik bilimlarni oshiradi.

Bayon o'tkazishdan maqsad o'quvchilarda yozma nutq malakalarini shakllantirish, lisoniy savodxonligini oshirishdir. Berilgan materialni adabiy-badiiy puxta, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog'lab yoritishga qaratilib, matnni zarur bo'lsa qisqartirishi zarur. Ba'zan kengaytirib yoki qisqa gaplar tuzish, zarur sitatalar keltirish kerak bo'ladi.

**Bayon talablari:**

-matnni tuzishda o'quvchilarning ijodiyligi (namunani yodlab, matnni to'liq yoki qisman ko'chirmaslik kerak);

-bayon matnida namunadan olingan lug'at, nutqning izchilligi, sintaktikqurilmalardan foydalanish;

-muhim fikrlar olinishning to'liqligi;

-bayon etish ketma-ketligiga rioya qilish;

-sabab-natijaga bog'liqlik, asosiy faktlar.

Bayon yozish tamoyillari:

1. Matn bilan tanishish. O'qituvchi matnni o'qiydi, o'quvchilar diqqat bilan tinglaydilar, hikoya chizig'iga amal qiladilar. O'qituvchi matnning asosiy qismlarini pauza bilan ajratib ko'rsatadi. Taqdim etilgan matnni o'qituvchi emas, balki o'quvchilarning o'zlari o'qishlari ham mumkin.

2. Suhbat, o'qituvchi savollari bo'yicha mazmuni qisqacha tahlil qilish. Matn mazmuni bo'yicha hamma to'g'ri tushunganmi, o'qiganini tushunganmi, sababiy bog'lanish o'rnatilganmi yoki yo'qligini aniqlash maqsadida 3-4 ta savol qo'yiladi.

3. Matnni qayta o'qish. Bayon uchun mo'ljallangan matn o'quvchilar yodlab olmasligi uchun 2 martadan ko'p o'qilmaydi.

4. Rejani tuzish (suhbat bilan birlashtirilishi mumkin). Matnning mantiqiy va kompozitsion bo'linishi, ularning sarlavhasi. Bayon rejasi yoziladi.

5. Imlo ustida ishlash, lug'at bilan ishlash. So'zlarning ma'nolari va imlosini tahlil qilish, matnda tasviriy ifoda vositalaridan foydalanishni kuzatish, eng muhim sintaktik qurilmalarni yasash. Doskaga o'quvchilarning alohida e'tiborini talab qiladigan so'z va iboralar yoziladi.

6. Matn qismlarini oldindan aytib berish. Kalit so'zlarni tanlash. Rejaning har bir bandiga tayanch so'zlar doskaga yoziladi.

7. Matnni og'zaki takrorlash. Bir necha o'quvchilar reja va tayanch so'zlarga ko'ra matnni og'zaki ravishda takrorlaydilar.

8. Og'zaki takrorlash tahlili va uni takomillashtirish. Kamchiliklarni jamoaviy tuzatish, alohida fikrlarni aniqlashtirish. Agar kerak bo'lsa, matn qayta o'qiladi.

9. Bayonni mustaqil yozish. Shaxsiy yordam ko'rsatish.

10. O'quvchilar tomonidan o'z-o'zini tekshirish va takomillashtirish. Baho qo'yishda o'quvchilarning sinchkovlik bilan qilingan tuzatishlari hisobga olinmaydi.

11. O'qituvchi tomonidan bayonni tekshirish.

12. Xatolar ustida ishlash (keyingi darsda amalga oshiriladi).



**Bayon yozish qanday tashkillashtiriladi:** O'qituvchi matnni ikki marta sekin o'qiydi. O'quvchilar parcha mazmunini iloji boricha matnga yaqinroq, uning uslubiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda yetkazishlari kerak, ba'zida olingan asarga nom berish talab qilinadi.

#### O'QUVCHIGA ESLATMA:

Bayon matni malakali yozilib, ish tekshiriladi. Esda tutish juda muhim: bayonda o'quvchi o'qilgan narsa haqida gapirmasligi kerak, balki ushbu matnni u yoki bu uslubga (badiiy, jurnalistik yoki ilmiy) moslab yozish kerak.

#### Bayon yozish texnologiyasi:

O'qituvchi matnni o'qiyotganda, iloji boricha ko'proq eslatmalarni (tegishli ismlar, sanalar, to'g'ridan-to'g'ri nutq va dialog, raqamlar va boshqalar) eslab qolish kerak. O'qish paytida mavzu va asosiy fikrni aniqlang. Shundan so'ng reja tuzishingiz, boshqacha aytganda, matnni mikromatnlarga bo'lishingiz va ularning mikromavzularini aniqlashingiz mumkin. Qoramaga matn yozing. Bayon bo'yicha ishning asosiy bosqichi uning birinchi versiyasi loyihasini tahrirlashdir. Bayon mantig'i qanday kuzatilganligini, bir xil so'zlarning tez-tez takrorlanishini, so'zlarning moslik me'yorlari buzilganligini, grammatik shakllarning to'g'ri qo'llanilishini kuzatib boring. Imlo va tinish belgilarini tekshirish ishning muhim qismidir. Xullas, bayon - tayyor, "tashqi" matnni takrorlash bilan bog'liq ishlarning umumiy nomi.

#### Savollar:

1. Bayon nima? Matnda qo'llangan nutq tiplariga ko'ra bayon qanday turlarga ajratiladi?
2. Bayon ustida ishlash tizimli holatda namoyon bo'lishi uchun o'quvchi nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Bayon mantig'i qanday kuzatilganligini izohlang.
3. Bayon bo'yicha ishning asosiy bosqichi nimalardan iborat?
4. O'qish paytida mavzu va asosiy fikrni aniqlashning ahamiyati bo'ladimi?

## **BAYON VA UNING TURLARI. BAYON YOZISH USULLARI. BAYONNIBAHOLASH MEZONLARI.**

Reja:

1. Bayon va uning turlari.
2. Bayon yozish usullari.
3. Bayonni baholash mezonlari.

### **Bayon turlari va ularning malakasi**

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda bayonning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib, turli ta'limiy bayonlar qo'llanilganda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Bayon turlari turli asoslarni hisobga olgan holda ajratiladi. "Maktab amaliyoti", deb ta'kidlaydi akademik A.V.Tekuchev, - mazmuni, maqsadi, hajmi, rejaning yo'qligi yoki mavjudligi va uni tayyorlash shartlari, qo'shimcha topshiriqlar bilan bayonning murakkablik darajasi va boshqalar bo'yicha farqlanadigan ko'plab bayon turlarini biladi. E.A.Baranova bayonni uchta asosga bo'lishni taklif qiladi: o'tkazish maqsadiga ko'ra (o'qitish va nazorat qilish); matn materialining tabiati bo'yicha (hikoya, fikrlash elementlari, fikrlash turi, xarakteristikaning turi va boshqalar); mazmunni yetkazish usuli bo'yicha (to'liq yoki batafsil bayonlar, matnga yaqin, ixcham, tanlangan, kompozitsiya elementlari bilan). Ta'kidlanganidek, matnga yaqin bo'lgan bayon batafsil bayondan farq qiladi, "darsda mazmun bilan birgalisohiy vositalar ham chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, eng obrazli iboralar tagiga chiziladi, yoziladi va keyin bayonga kiritiladi". Nutqni rivojlantirish metodologiyasi sohasida yangi bayonlarning paydo bo'lishi bayonlarning mavjud tasniflariga ma'lum tuzatishlar va qo'shimchalar kiritadi. Shunday qilib, T.A.Ladijenskaya bayon turlarini ajratib ko'rsatishda asl matn mazmunini uzatishning asosini tashkil etuvchi reproduktiv faoliyat xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. "Ko'paytirish faoliyatining tabiati, - deb yozadi muallif, - o'z navbatida, asl

matnning hajmiga, uni idrok etish usuliga, qanchalik tanish ekanligiga, takrorlashdan oldin qo'yilgan vazifaga va hokazolarga bog'liq".

T.A.Ladijenskaya bayonni tasniflashni shunday taklif qiladi:

-manba matnining hajmiga nisbatan: batafsil va qisqacha;

-manba matn mazmuniga nisbatan to'liq, tanlab, qo'shimcha topshiriqli;

-til vazifasining murakkabligiga ko'ra: leksik, grammatik, stilistik va h. vazifalar;

-manba matnni idrok etishiga ko'ra: o'qilgan (ko'rib idrok qilingan), eshitilgan(eshitish orqali idrok qilingan), eshtilgan va ko'rib idrok qilingan narsaning bayoni;

-manba matni bilan tanishlik darajasiga ko'ra: notanish matn va o'quvchilargama'lum bo'lgan tanish matn bayoni.

T.A.Ladijenskaya bayonlarning eng to'liq tasnifini berishga, nazariy jihatdan muhim bo'lgan takrorlash xususiyatlari va malakasining ko'p o'lchovli xususiyatini ko'rsatishga harakat qildi.

Uslubiy qo'llanmalarda va ish amaliyotida bayonlarni tasniflashning boshqa asoslari ham ajralib turadi, masalan:

-asl matnni takrorlash shakliga ko'ra (yozma va og'zaki bayonlar);

-matn mazmunining tabiati bo'yicha (maktab haqida, tabiat haqida, sport haqida va boshqalar);

-matn hajmi bo'yicha (butun dars uchun mo'ljallangan muhim matnning bayonlari vaminatyura bayonlari);

-ko'rgazmali qo'llanmalar bilan va ularsiz bayonlar (masalan, illyustratsiyalar, qo'llanmalar yordamida) va boshqalar. Shu bilan birga, nutqni o'rgatish amaliyoti, izchil nutqni rivojlantirish uchun ishning muhim turi sifatida bayonning o'ziga xos xususiyatlarini, imkoniyatlarini ko'rishga imkon beradigan tasniflashning eng muhimasoslarini ajratib beradi. Bunday asoslar ikkitadir:

-matnning idrok etilishi;

-uning takror ishlab chiqarish xarakteri.

Manba matnini idrok etishning turli usullari (tinglash, o'qish) "o'z" nutq qobiliyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Har bir idrok qilish usulining o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish kerak.

Matnni ko'paytirish xususiyatiga ko'ra ular farqlanadi:

1. Batafsil bayonlar (asl matn mazmuni barcha tafsilotlari, matn turi, kompozitsion va lingvistik xususiyatlari saqlangan holda to'liq takrorlanadi).

2. Tanlangan bayonlar (butun matn takrorlanmaydi, balki uning ma'lum bir mavzu bilan bog'liq bo'lgan qismi; asl matnning turi, uning tarkibi, qoida tariqasida, o'zgaradi).

3. Qisqartirilgan gaplar (asosiy maqsad uzatiladi, matnning asosiy mazmuni, tafsilotlari tushiriladi. Matn turi qisqartirilish hajmi va xarakteriga qarab saqlanishi yoki o'zgartirilishi mumkin).

4. Ijodiy topshiriqli bayonlar (bayon asl namunaning mazmuni yoki tarkibiga ma'lum o'zgartirishlar kiritishni o'z ichiga oladi – hikoya qiluvchining shaxsini almashtirish, matn qo'shish, qismlarni qayta joylashtirish va hokazo. Matn turi, uning lingvistik xususiyatlari saqlanib qolishi yoki o'zgartirilishi mumkin, vazifaning xususiyatiga qarab).

5. Rasm yordamida bayon (bu yerda rasm yordamida o'quvchilar manba matn mazmunini idrok etadilar. O'qituvchi matnni o'qiyotganda o'quvchilar matn mazmniga mos rasm chizadilar, o'z rasmlari asosida bayon matnini yaratadilar,

mazmuni saqlanib qolinishi yoki o'zgartirilishi mumkin, vazifaning xususiyatiga qarab).

6. O'qituvchi matnni o'qiyotganda o'quvchilar o'z chizmalari bilan matnni tuzatadilarva rasm yordamida matnni idrok etadilar.

Ushbu turdagi bayonlarning har biri muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlarning umumiy tizimida alohida o'rin tutadi. Ko'rib chiqilgan bayon turlari o'quvchining aqliy faoliyatini turli yo'llar bilan rivojlantiradi. Analitik va sun'iy ish jarayonida

batafsil bayon bilan vaqt, sabab-oqibat, fazoviy munosabatlar tushunchasi mavjud. Matnni tanlab va ixcham takrorlash bilan o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, fikrlash faolligi va matn tanlashiga yordam beradi.

Ijodiy topshiriqli bayonlar o'quvchining tasavvurini rivojlantiradi va ijodiy fikrlashni faollashtiradi. Matnni idrok etish va takrorlash o'zaro bog'liqdir. Matnni idrok etishning u yoki bu usulini tanlash (tinglash, o'qish, tinglash va o'qish) matnni takrorlashda hal qilinadigan vazifalar bilan belgilanadi. Shunday qilib, qisqa yoki tanlab bayon qilinganda (o'rganishning birinchi bosqichlarida) matnni eshitish orqali idrok etish yetarli emas, uni vizual idrok etish ham zarur. O'quvchilar nutqida muayyan grammatik kategoriyadan foydalanishni faollashtirish uchun bayon-miniatyuralar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. 10-15 daqiqaga mo'ljallangan bunday mashq o'quvchilarning faol nutqiga ma'lum grammatik vositalarni kiritishning asosiy omildir.

Butun dars uchun mo'ljallangan bayonlarning maqsadi ancha kengroq bo'lib, ular o'quvchilarning intellektual va izchil nutqini rivojlantirishning turli tomonlarini qamrab oladi. Nutqni boyitishga qaratilgan ishlar, leksik va grammatik vositalardan to'g'ri va o'rinli foydalanishga o'rgatish har qanday bayonga tayyorgarlik ko'rishda doimo diqqat markazida bo'lishi kerakligi shubhasiz.

Maxsus tadqiqotlar, bayonlar uchun matnlar to'plami va ish tajribasini tahlil qilish bayonlarni o'tkazishda foydalanish tavsiya etiladigan asosiy usullarni ajratib ko'rsatish va tavsiflash imkonini beradi. Aytish kerakki, ishning ba'zi usullari uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan (boshlang'ich matn mazmunini tahlil qilish, reja tuzish, og'zaki takrorlash va boshqalar).

Ishning individual usullarini tavsiflashda biz usulning maqsadi, uning o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanilishi xususiyatlariga e'tibor qaratamiz. Sinfni bayonga tayyorlashda, o'qituvchi vazifalarni yanada muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradigan usullarni tanlaydi. Yuqoridagilarga asoslanib, biz bayon ustida ishlashning

boshqa usullarini ko'rib chiqdik. Bizning amaliyotimizda manba matnни idrok etishning turli darajalariga duch kelamiz. Vizual xotirasi yuqori darajada rivojlangan o'quvchi rasm yordamida manba matn mazmunini aytib berishlari, manba matnни osonroq idrok etishlari, matnни idrok etishning tasviriy usulida foydalanishlari mumkin. Bayon ustida ishlashning noan'anaviy usuli taklif etiladi. Bu usul 7- 9-sinflarda sinovdan o'tkazildi. Ushbu matnlar tasvirlash elementlariga ega bo'lgan badiiy hikoyalardir. Aynan shu usul badiiy tavsif bo'yicha ishlarni maqsadga muvofiq amalga oshirishga yordam beradi. Matn tanlash o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ishlab chiqiladi.

Tahrirlash. (xatolarni tekshirish va tuzatish. Matnни tuzatish.)

Ushbu matnlar tasvirlash elementlariga ega bo'lgan badiiy hikoyalardir. Aynan olgan holda qayta hikoya qilinadi.

Masalan, matn mazmunidan xabardorlik sifatini solishtiradigan bo'lsak, noan'anaviy usul natijasida kommunikativ ko'nikmalarni takomillashtirish nutq va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ko'nikma va malakalarining ortib borayotganligini ko'ramiz. Tajriba davomida ma'lum bo'ldiki, ushbu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilarda bilim olishga qiziqish, mustaqil ishlash ko'nikmalari paydo bo'lishi aniqlandi. Muloqotning turli hayotiy vaziyatlarida kommunikativ vazifani amalga oshirish uchun bayon ustida ishlashning noan'anaviy usullaridan foydalanish, yangilash va takomillashtirish kerak, bu esa o'quvchiga o'qitishni ish sifatida faollashtirishga, tasavvurni rivojlantirishga va o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Matn mazmunidan xabardorlik yuqori darajada bo'lad:

-bunday ishlar amalga oshirilganda, matnни eshitish va vizual idrok etish rivojlanadi; Bayon ustida ishlashning noan'anaviy usulini qo'llashdan oldin bu usulni batafsilo'rganish kerak va undan o'quvchilarning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda istalgan sinfdan foydalanish mumkin:

-o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak.

-o'quvchilarni oldinda turgan ishlar, ish bosqichlari bilan tanishtirish zarur.

-o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rasmlar, jadvallar,diagrammalardan foydalanish mumkin.

Bunday usullar bilan bayon har chorakda 2-3 marta o'tkazilishi mumkin, shundan so'ng o'quvchilarda bayon yozishga qiziqish, izchil matn tuzish ko'nikma va malakalari paydo bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bayonlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Manba matnining hajmiga qarab, batafsil va ixcham bayonlar.

A. Batafsil bayonning vazifasi asl matnning mazmunini iloji boricha to'liq keltirishdir.

B. Qisqartirilgan bayonning vazifasi mazmuni qisqacha, umumlashtirilgan tarzda yetkazishdir. Buning uchun dastlabki matndan asosiysini tanlash qobiliyati talab etiladi. Bunday holda, matn qisqartirish darajasi har xil bo'lishi mumkin. Muayyan nutq vazifasiga qarab, manba matn yarmiga, to'rt dan uchga va hokazo qisqartirilishi mumkin. Agar batafsil bayonda asl matnning uslub xususiyatlari saqlanib qolsa, ixcham bayonda bu shart emas.

2. Til vazifasining murakkabligiga ko'ra leksik, grammatik, stilistik va boshqa vazifalarga ega bayonlar ajratiladi. Ushbu vazifalarning 2 turi mavjud:

-shaxs bayonini, zamoni, holatni o'zgartirish, masalan, asl matn mazmunini o'tgan zamon emas, balki hozirgi zamon shaklida yetkazish talab etiladi;

-bayonda asl matnda mavjud bo'lgan ayrim so'zlar, iboralar, jumladan foydalanish talab etiladi. Bunday til vositalari matnda farqlanadi, ajratiladi, yoziladi va hokazo.

3. Asl matnning idrokiga ko'ra, bayonlar farqlanadi.

-o'qilgan, vizual idrok etilgan matn;

-eshitilgan matn orqali qabul qilingan;

-ham eshitilib, ham vizual tarzda qabul qilinadigan matn.

Ushbu turdagi bayonlar matnni idrok etish uchun o'quvchilarning turli xususiyatlarini rivojlantirishi bilan maqsadga muvofiqdir.

4. Manba matni bilan tanishish darajasiga ko'ra, notanish va tanish bayonlar ajratiladi. A. O'quvchilarga ma'lum bo'lgan matn.

B. O'quvchilarga ma'lum bo'lmagan matn.

5. Manba matn mazmuni bilan bog'liq holda bayonlar to'liq, tanlangan, qo'shimchavazifalar bilan farqlanadi.

To'liq bayonlarda asl matnning mazmuni to'liq uzatiladi.

Tanlangan bayonlarda mavzu manba matni mavzularining (mikro-mavzularning) turli qismlarida joylashgan "tarqalgan" mavzulardan qayta ishlab chiqariladi.

Qo'shimcha topshiriqli bayonlarda dastlabki matn shunday qayta ishlanadiki, natijada uning mazmuni qayta yaratilgani bilan mos kelmaydi. Bunday bayonlar uchun ikkita vazifa guruhi mavjud:

-boshni (kirish), oxirni (xulosa) qo'shish, matnni boshqa shaxs nomidan aytish va hokazo. Unga tavsif elementlari kiritiladi (qahramonlarning tashqi ko'rinishi, vaqt, harakat joyi), dialog, matnda ko'tarilgan masala yuzasidan fikr yuritiladi. Bunday holda, asl matnga o'zgartirishlar kiritiladi;

-savollarga javob berish, matnda aytilganlar bo'yicha o'z fikrlarini bildirish va hokazolar taklif etiladi.

Bunday holda, asl matnga hech qanday o'zgartirish kiritilmaydi;

-o'qituvchi qoida tariqasida, asl matnni taqdim etgandan so'ng, o'quvchilar o'z matnini yaratadi. Bayonlar uchun matnlar qiziqarli, tushunarli, o'quvchiga yaqin tanlangan bo'lishi kerak. O'rganishni hikoya matnidan boshlash kerak, bu yerda harakatning rivojlanishi osonlikcha kuzatiladi, aniq syujet, xarakterlar mavjud bo'ladi. Keyinchalik, o'quvchilar hikoya matniga tavsif elementlarini (peyzaj eskizlari, personajlarning ko'rinishi va boshqalar), shuningdek, fikrlash elementlarini kiritishni o'rganadilar. O'quvchi uchun



qiziqarli mavzu tanlansa, yaxshi ifodalab bera oladi. Mavzuni har tomonlama yoritib beradi, shundagina bunday bayon mukammal hisoblanadi. Matn yuzasidan qo'yiladigan savollarga javoblar bilan cheklanmasdan, balki uning ichki mantig'iga, rejaga asoslangan bayon yaratishadi.

Og'zaki va yozma nutqning odatiy kamchiliklari:

- boshlay olmaslik
- boshlanish va xulosalanmagan yakun;
- muhim jihatlarni yo'qotish;
- tilning qashshoqlashuvi.

Qayta hikoya qilishning eng oddiy turi namunaviy matnga yaqin. Unda o'quvchi tomonidan nafaqat mazmun, balki til ham katta darajada saqlanib qoladi va uzatiladi. U, birinchidan, o'qilgan, tinglangan narsaning mazmunini barcha tafsilotlari va bog'lanishlari bilan xotirada mustahkamlovchi vosita bo'lsa, ikkinchidan, ularning harakatida model va til vositalarining mantiqiylikini o'zlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Uchinchidan, bu allaqachon og'zaki yoki yozma nutq jarayonidir. Ishning 1-bosqichi uchun vizual idrok etilgan matn bo'yicha batafsil bayondan foydalanish eng qulaydir. 2-bosqichda bayon haqidagi barcha bilimlar mustahkamlanadi va tizimlashtiriladi.

Manba matn mazmuni:

- barcha tafsilotlari bilan to'liq keltirilgan;
- matn turi saqlanadi;
- uning kompozitsion va lingvistik xususiyatlari saqlanib qoladi.

Ushbu turdagi bayonning asosiy didaktik vazifasi o'quvchilarda har xil turdagi va uslubdagi matnlarni batafsil aytib berish qobiliyatini shakllantirishdir. O'quvchining vazifasi muallifning pozitsiyasini tushunish, matnni ma'lum bir semantik, tarkibiy va stilistik yaxlitlik sifatida qubul qilish va uni adekvat ravishda qayta bayon qilishdir.

**Ta'limiy bayonning murakkab turlaridan biri – ijodiy bayon** tanlangan matn mazmuniga o'quvchining ijodiy yondashishi jihatidan bayonning boshqa turlaridan farq qiladi. Bunda o'quvchi matnga tasvir unsurlarini qo'shib yoki lisoniy hamda imloviy topshiriqlar asosida kiritilgan yoxud o'qituvchi boshlab bergan hikoyani davom ettirgan holda bayon yozishi mumkin. Ona tili ta'limi metodikasida ijodiy bayonning shaxsini o'zgartirib yozish, lisoniy topshiriqli bayon, tasvir unsurlarini kiritib bayon yozish, boshlab berish yo'li bilan bayon yozish turlari mavjudligi ta'kidlanadi.

Tasvir unsurlaridan foydalanib bayon yozishda o'quvchi matn mazmuniga bog'lab, mustaqil ravishda ayrim predmet, voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Boshlab berish yo'li bilan bayon yozishda boshlanishi berilgan hikoyani o'quvchilar ijodiy davom ettirib, uni to'liq hikoya shakliga keltiradilar.

Tekshiruv bayoni ona tili izchil kursining ma'lum bo'limlari o'tib bo'lingandan keyin o'quvchilarning o'zlashtirgan lisoniy bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

O'quvchi bayoni mazmun izchilligi va lisoniy qurilishi jihatidan talab darajasida bo'lishi bilan birga, savodli yozilishi kerak. Shuningdek, bayonning reja asosida yozilishiga erishish zarur. Aniq tuzilgan reja o'quvchi bayonining izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi.

Bayon o'quvchilarning nutqini o'stirish, to'g'ri yozish va fikrni uslubiy jihatdan to'g'ri tartiblash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun taqdim etilgan matnning og'zaki yoki yozma ravishda qayta bayon qilingan ifodasidir.

Matnning qayta yoritilish hajmiga ko'ra bayonlar batafsil, ixchamlashtirilgan yoki tanlama ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Batafsil bayonlar xotira mashqida yordam beradi, bayon matni detallariga va matn izchilligiga rioya qilishni talab etadi. Ixchamlashtirilgan bayon matndagi muhim o'rinlarni konspektlashtirishga o'rgatadi.

Matnda qo'llangan nutq tiplariga ko'ra bayon quyidagilarga ajratiladi: *Ma'lumot xarakteridagi bayon* – bayonning bu turida o'quvchilardan, eng avvalo, matnning asosiy voqealari yoki voqea-hodisalar ketma-ketligini to'g'ri bayon qilish talab qilinadi.

*Tavsif xarakteridagi bayon* – yozma ishning nisbatan murakkab bo'lgan ko'rinishi. Bunday matnlar qiyin o'zlashtiriladi va matnni qayta tiklashda obrazli tasvir vositalaridan unumli foydalanishni taqozo qiladi.

- *Muhokama bayon* – bu o'rinda matnning asosiy tezislarini ilg'ab olish va qayta hikoya qilishda mantiqiy jihatdan asoslash va fikrlar o'rtasidagi oraliq ifodani yetkazib berish talab etiladi.

- *Batafsil bayon* – yozuvchi uslubiga xos xususiyatlarni: xarakterli tasviriy vositalar, detallar, uslubiy-sintaktik xususiyatlarni, iboralarni saqlagan holda to'liq bayon etishni nazarda tutadi.

Odatda matnlarda bir necha tiplarning qorishiq holati ko'zga tashlanadi. Ma'lumotnoma xarakteridagi bayonlarda tavsifiy xususiyatlar, tavsifiy matnlarda muhokama, muhokama bayonlarda esa o'z navbatida tavsif va ma'lumot, xabar uchraydi.

Matnlar orasidan har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bayonning u yoki bu tipini ajratib olish muhimdir.

Xabar, ma'lumot mazmunidagi yoki syujetli bayon – yozma ishning oddiy ko'rinishidir. Unda sodir bo'lgan voqea-hodisalar, xalq hayoti yoki mamlakatlar, shaharlar, qaysidir faoliyat turi haqida so'z borishi mumkin. Xabar odatda badiiy shaklda bo'ladi, sof informatsion xarakterda bo'lishi ham mumkin. Xabar mazmunidagi bayonlarda asosiysi voqea-hodisalarning galma-gal o'rin almashishidir.

Xabarning tipik xususiyati – bir xil tipdagi voqelikni aks ettirgan matnning ifoda etilishidir. Voqea-hodisani bayon qilishda va shaxsni tavsiflashda so'zlar takroriga yo'l qo'ymaslikka e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Fe'l shakllarining qo'llanishidagi aniq qonuniyatga amal qilish lozim. Voqea-hodisalarni berishda ketma-ketlikka,

izchillikka amal qilish, zamon tasvirlarini muvofiq ravishda berish talab etiladi. Darak gap mazmunidagi matnlarni to'liq bayon qilish uchun uning mavzusi va asosiy mazmunini aniqlash zarurdir (ba'zan mavzu va mazmun, g'oya matn sarlavhasida ko'zga tashlanadi). So'ng kichik mikromavzularni ajratish va ularni nomlash talab qilinadi.

Syujet bayoni o'quvchi fikrini tartibga soladi, faktlarning berilishiga e'tiborini qaratadi, yuz berayotgan voqea-hodisaning sababini aniqlashga, asosiy fikrni ikkinchi darajalidan farqlashga, badiiy asar kompozitsiyasi va g'oyasini yoritishga xizmat qiladi.

**Tavsifiy bayon** — nisbatan murakkab yozma ish turi. Tavsifiy bayonlarda narsa-buyum (hodisa, holat, shaxsning tashqi qiyofasi) va belgilarining to'liq tasviri aks etadi. Bu tipdagi bayon turini yozishda umumiy kartinani tashkil etuvchi har bir predmet, kichik detalni ham ko'zdan qochirmaslik kerak.

Narsa-buyum tavsifi bilan bog'liq matnni o'zlashtirishda o'quvchi quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

1. Narsa-buyum qanday detallardan iborat ekanligini va narsa-buyumni tavsiflashdanega aynan shu belgilar tanlanganligini izohlay olishi kerak.
2. Bu detalning matnda aks etgan belgilarini tavsiflash talab qilinadi.
3. Bu belgilarning guruhlanishiga e'tibor qaratish lozim.
4. Qaysi til vositalaridan foydalanilganligini tahlil qila bilishi kerak.

Bu talablarga javob berish tavsifiy bayonga tayyorgarlikni ifoda etadi. Bu tayyorgarlikda mavjudlik va mavjud emaslikni farqlash; ularni butun kartinani tasvirlash jarayonida tavsiflash kerak bo'ladi. Masalan, kitoblarni, kartinalarni, markalar kolleksiyasini, nishonlarni yig'ish, kutubxona, muzey, ona yurtning diqqatga sazovor joylarini tavsiflash jarayonida xotira pand bersa, matn to'lig'icha esda qolmasa, eruditsiya yordamga kelishi mumkin: bu sohadagi shaxsiy taassurotlar va qo'shimcha bilim bayon yozishda

asqotadi.

**Muhokama bayon** o'quvchilardan ko'proq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi. Bu o'rinda tafakkurning tahlil qilinishi, "Nima va qayerda sodir bo'lyapti?" savoligagina emas, "Nima sababdan yuz beryapti?", "Sodir bo'lish manbai nimada?", "Kelajakdagi rejalar qanday?" kabi savollarga ham javob berish talab qilinadi.

Bayon yozish uchun o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlash;

- faktik materialni o'ziga xos tartibda keltirish;
- til vositalarini saralash;
- matnni uchinchi shaxs tilidan bayon qilish.
- o'qib eshittirilgan matndan ma'lum xulosalar bilan asoslangan mustaqil fikr, mulohazalarni to'g'ri tartiblash kerak bo'ladi.

Muhokama bayon mantiqiy tafakkurni o'stirishda, matndan qisqa xulosa chiqarishda, tezislarga ajratib tahlil qilishda ahamiyatlidir.

Agar o'quvchining xotirasi mustahkam bo'lsa, berilgan matndagi faktik materialni, asosiy mantiqni, mazmunni, xulosani ajrata olsa, og'zaki va yozma nutq me'yorlarini puxta o'zlashtirgan bo'lsa, batafsil bayon matnini yarata oladi. O'quvchi asosiy fikr bilan ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan mulohazani ajrata olmasa, xotirasi kuchsiz bo'lsa, o'qilgan matnning barcha qirralarini yorita olmasa, matnning mohiyati qolib keraksiz ma'lumotlarni keltirsa, bayon matnini qisqa yozgani ma'qul.

Sinov maqsadida o'tkazilgan bayonlarda matnni imkon qadar aniq, ravon uslubda, izchil, mantiqiy jihatdan muvofiq tarzda, tavsiflangan voqea-hodisaning muhim elementlarini tushirib qoldirmasdan, kamida ikki-uch standart sahifa hajmida yozish talab qilinadi.

Bayon o'tkazishda uning barcha turlari (**ijodiy, saylanma, ixcham, matnga yaqinlashtirilgan bayon, qisqartirilgan bayon,**

**tekshiruv-sinov bayoni**)da o'quvchilar matnni qanday tushunganliklari, o'z fikr va tushunchalarini qanday ifodalaganliklari, nutq malakasi va savodxonligini sinab ko'rish talab etiladi. Bayon nazorat shaklida o'tkaziladi.

O'quvchilar ijodkorligini oshirishda, bayondan foydalanish usullari:

1. Yaxshi boshlangan ish-muvaffaqiyatning yarmi. (S.A. Yesenina)  
Darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni o'z fikrlarini malakali va chiroyli ifoda eta olishi uchun, albatta, ularni qiziqтира bilishi kerak.

Eng yaxshi bayon uchun o'qituvchiga eslatma:

-natijani sinfda o'qishni unutmang;

-namuna sifatida devoriy gazetaga osib qo'ying;

-gazeta, jurnalga yuboring;

-“Bizning ijodimiz” sinf jurnaliga yopishtiring;

-jurnalga qo'shimcha besh qo'ying;

-daftarning muqovasiga chiroyli stiker yopishtiring;

-parallel sinf yoki o'rta maktab o'quvchilariga namuna sifatida ko'rsatiladi;

-boshqa o'qituvchilar, ota-onalar yig'ilishida o'qing.

1. O'quvchingizga imkon qadar tezroq mehnati uchun e'tirof va zavq olish imkoniyatini bering.

2. Matn o'qilishidan oldin, o'quvchilar o'qib bo'lingan matn mazmuni bo'yicha savollarga javob berishi haqida ogohlantiriladi va kim to'liq javob berganianiqlanadi:

-qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida;

-qatorlar boyicha;

-o'quvchilar alohida.

3. Albatta, to'liq va aniq javoblari uchun o'quvchilar rag'batlantiriladi. Ishga ijodiy yondashganlarni e'tirof etish zarur.

4. Yaxshi o'qiydigan o'quvchiga matnni o'qitish ham mumkin, qolgan o'quvchilar o'qilayotgan matnni ko'z yugurtirib kuzatib

boradilar.

5. Har bir matnga taxminiy sarlavhalar qo'yilib, sinfda muhokama qilinib, boshqa variantlar ham taklif etiladi.

6. Matn ma'noli qismlarga ajratiladi. Har bir qismga sarlavha topiladi. Reja tuziladi. Qismlar rejasi har bir o'quvchida turli xil bo'lishi mumkin. Asosiysi sarlavhalar qismlarga mos tushishi shart.

7. Har bir bayon matnidan keyin orfografik tayyorgarlik o'tkaziladi. Yoki har bir sinfda aynan qaysi so'zlarda ko'proq xato uchrashi inobatga olinadi.

8. Bu sinonimlarni, antonimlarni, omonimlarni tanlash shuningdek, so'zning aniq ma'nosini topishdir.

9. Matn mazmuni 2-3 o'quvchiga qayta gapirtiriladi. Yaxshisi, matn bo'limlari bo'yicha gapirtirilgan ma'qul. Kuchli sinflarda 1 marta, kuchsizroq sinflarda 2-3 martagacha.

10. Xohlovchi o'quvchilar o'zlari reja tuzadilar va doskada tuzilgan reja bilan solishtiradilar.

11. Oxirgi marta tinglash uchun o'qib beriladi. Butun diqqatlarini jamlab, bo'limlar rejasi va tayanch so'zlar bilan to'g'ri kelishini tekshiradilar

12. Agar bayonga 2 dars ajratilsa yoki nazorat bayonda qoralama tutish mumkin.

13. Agar qoramamaga yozilgan bo'lsa, O'quvchi matnni o'qib chiqishi kerak va ushbusavollarga javob topadi: fikrini aniq yetkazib berolganmi? Bir xil so'z va nutq birliklarida takrorlar yo'qmi? Hamma so'zlarni muvaffaqiyatli qo'llaganmi? Imlo vatinish belgilarni tekshirish

14. Bayonni bo'yamasdan, chiroyli va tartibli ko'chirish.

15. O'quvchi matnni o'qiydi va ushbu savollarga javob topadi: fikrini aniq yetkazib berolganmi? Bir xil so'z va nutq birliklarida takrorlar yo'qmi? Hamma so'zlarni muvaffaqiyatli qo'llaganmi? Imlo va tinish belgilarni tekshirish.

### **Bayonni baholashning asosiy mezoni:**

**-o'quvchining yozma ishlarini baholash.** Har qanday yozma nutq ichki kechinmalar, tuyg'ular, botiniy olam namunasi. Shu sababli o'quvchilardan olinadigan yozma ishlar asosan ma'naviy olamni, ma'naviyatni shakllantirishga qaratiladi. Ko'ngil mulki hisoblanmish, ichki kechinmalar aks ettiriladigan bunday faoliyatga, ya'ni ma'naviyat ko'zgisiga aslo salbiy baho qo'yib bo'lmaydi. Mustaqil fikr bildirayotgan yoki bunga intilayotgan o'z fikr-mulohazalarini asarlardan misol

keltirib asoslayotgan, uning mohiyatiga kirib borayotgan o'quvchiga "yomon" baho qo'yish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Qo'yiladigan baholar bir qadar shartli bo'lib, asosan, o'quvchining ma'naviyatini baholash lozim.

Bayon va insho uchun baho me'yor va mezonini alohida-alohida belgilash muhim amaliy va didaktik ahamiyat kasb etadi. Chunki bayon va insho tabiatan bir-biridan farqlanadi. Bayon uchun ikkita baho qo'yiladi:

-mazmuni va nutqiy dizayni uchun hamda;

-imlo va punktuatsiya savodxonligi uchun. Bayon mazmuni baholanadi:

-ishning mavzuga mosligi;

-bayonning to'liqligi;

-daliliy materialni taqdim etishning to'g'riligi;

-fikrlar mantig'iga ko'ra.

Nutq dizaynini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

-leksik, morfologik va sintaktik me'yorlarni buzish;

-matnning uslubiy birligini buzadigan uslubiy xatolar.

Bayonni baholash nutqni loyihalash me'yorlariga, shuningdek, imlo va punktuatsiyasavodxonligiga bog'liq.

**Bayonni baholash uchun** quyidagi me'yor va mezonga asoslanish ma'qul. Bayon vaqti – 2 soat; matndagi so'zlar miqdori 5-sinf uchun 100-150, 6-sinf uchun 150-200, 7-sinf uchun 250-300, 8-sinf uchun 300-350, 9-sinf uchun 350-400 atrofida bo'ladi.



T/r	Bilim, ko'nikma, malakalar	Maksimall ball
1.	Reja mavzuga muvofiq bo'lsa; asar voqeasi to'g'ri bayonqilingan, matn mantiqiy muvofiq tarzda va izchil ravishda ifodalangan, so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos, mazmun va ifodadagi nuqsonlar juz'iy bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita punktuatsion xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa –	<b>5 ball</b>
2.	Matn reja asosida yoritilib, kichik nuqsonlarga yo'l qo'yilgan, fikr bayonida izchillik qisman buzilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yilgan, savodxonlikda ikkita imlo, ikkita punktuatsion va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa –	<b>4 ball</b>
3.	Mavzu to'liq yoritilmagan; mavzudan qisman chetga chiqilgan; aniq voqealar izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda uchtagacha imlo, to'rttagacha punktuatsion, uchtagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa –	<b>3 ball</b>
4.	Asar voqeasi mantiqan to'liq ifodalanmagan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida nomuvofiqlik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi talab darajasida bo'lmasa; mazmun va ifodada besh-oltitagacha nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda yettitagacha imlo, yettitagacha	<b>2 ball</b>

	punktuatsion va yettitagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa -	
	«2» ball uchun belgilangan mezondan ortiq nuqsonlar uchrasa -	<b>1 ball</b>

### Savollar:

1. Syujet bayoni nima?
2. Manba matnini idrok etishning qanday usullarini bilasiz?
3. Muhokama bayon o'quvchilardan nimalar talab etadi?
4. Sinov maqsadida o'tkaziladigan bayonlarda nimalarga e'tibor qaratiladi?
5. Matnda qo'llangan nutq tiplariga ko'ra bayon qanday turlarga ajratiladi?
6. Bayon ustida ishlash tizimli holatda namoyon bo'lishi uchun o'quvchi nimalarga e'tibor qaratishi lozim?
7. Bayonni baholash mezonlari?

## **INSHO HAQIDA NAZARIY MA'LUMOT. INSHONING BELGILANGANMAQSADIGA VA MAZMUN-MOHİYATIGA KO'RA TURLARI. INSHO O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI**

Reja:

1. Insho haqida nazariy ma'lumot
2. Insho turlari va ularning o'ziga xos jihatlari
3. Insho yozish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar nutqini rivojlantirishda yozma ishlardan insholarning o'rni kattadir. Chunki, insholar orqali bolaning ichki dunyosiga kirish, uni bilish, hatto kashf qilish mumkin. Yozma nutqni oshirish jamiyatning barcha a'zosi uchun birdek dolzarb masala bo'lib, shaxsini tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Insho-bu bolaning atrofidagi o'rab turgan jamiyat haqidagi kechinmalarini bildirishi, voqelikka munosabatining ifodasi, uning qarashlarini zamon talablariga ko'ra tartibga solib, mantiqli gapirishga, savodxonlikka o'rgatadi. Kompetentli shaxsni yetishtirishda ham samarali natijalar beradi, mustaqil fikrni bayon qilishda yaratiladigan, tafakkur rivojida ahamiyati katta bo'lgan yozma ishdir.

Chunki, insho tafakkur natijasidir. Inshoda o'quvchidan mulohazalarini dalillab, mantiqiy fikrlab izohlash talab qilinadi. **Insho** arabcha so'z, "yaratish", "bino qilish", "qurish" ma'nosini beradi. Hozirgi tilimizda bu so'zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan "ijodiy yozma ish" ma'nosida qo'llanadi. Insho – muallifning ma'lum bir mavzu asosida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon qiluvchi kichik asar. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikrlash ko'nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi. Insho

– o'quvchi yaratadigan matn turi. Unda ma'lum bir mavzu mustaqil ravishda ochib beriladi. Inshoda o'quvchining o'z fikrlarini

yozma shaklda to'g'ri, ravon, savodli bayon qilish malakasi namoyon bo'ladi. Inshoda mavzu bo'yicha bilimlar yuzaga chiqadi. Yozuvchi va shoirlar, olim va muxbirlar o'zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta mas'uliyat bilan qaragani kabi o'quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Katta-katta olimlar ijodiy ishlarini o'quvchilik paytida insholardan boshlashgan. Insho yozish uchun, avvalo, bilim egallash zarur. Takror va takror yozish natijasida esa insho yozish ko'nikma va malakasi shakllanadi. Yaxshi inshoning zamirida boy bilim va tinimsiz mashq yotadi. Har qanday ish tartib bilan bajarilganligi kabi insho ham reja asosida yozilishi kerak. Puxta reja inshoning sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Inshoda o'quvchining o'z fikri va boshqa manbalardan olgan ma'lumotlari ajralib turishi kerak. Boshqalarning fikrini o'zinikiday qilib berish ko'chirmakashlik sifatida salbiy baholanadi. Insho — o'quvchi ijodiy mehnatning oliy ko'rinishi, uning aqliy mehnati mahsuli. Insho puxta reja bo'yicha yozilishi, mantiqan izchil, imloviy, uslubiy va punktuatsion jihatdan to'g'ri, dalillarga tayangan bo'lishi zarur. Insho yozish uchun mavzu chuqur va atroflicha o'rganilishi, dalillash uchun ko'chirmalar yig'ilishi, ularning manbalari aniq bo'lishi kerak. So'ngra reja tuzilib, reja asosida yozishni boshlash lozim. Insholar hajmi o'quvchining yoshiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, 8-sinf o'quvchisi 5-6 sahifadan iborat insho yozsa bo'ladi. Inshoning har bir turi o'ziga xos shakl va mazmun xususiyatiga ega.

Insho bilimlarni boyitish yoki namoyish qilish maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ta'limiy insholar va sinov insholari.

*Ta'limiy insholar* bilim berish, bilim olishga qiziqtirish, bilimlarni mustahkamlash, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Bunday insholarda o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari, qaror qabul qilish faolligi, insonlarga, narsa-hodisaga munosabat bildirish malakasini shakllantirish maqsadi qo'yiladi.

*Sinov insholari* o'tilgan mavzularga oid bilimlarni, insho yozish

ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholash uchun, nazorat ishi sifatida olinadi.

**Ta'limiy** (joriy) **insho** sinfda yoki uyda yozilib, izlanishga, bilimlarni boyitish va qo'llashga, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi. Ta'limiy inshoda o'quvchi tegishli mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi, boyitadi va namoyish qiladi. **Sinov insholari** o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarni sinovdan o'tkazish uchun chorak yoki o'quv yili oxirida olinadi. Ta'limiy (joriy) insho izlanish, bilim, tafakkur va bayon qilishga asoslansa, sinov inshosi bilim, tafakkur va bayon qilishni sinaydi. Sinov inshosida manbalardan izlanishga ruxsat berilmaydi. U sinfda, o'qituvchi nazorati ostida yoziladi.

**Pedagogik maqsadiga ko'ra esa** uch guruhga ajratiladi: ta'limiy insholar, nazorat insholari, ko'rik-tanlov insholari.

### **INSHONING MAVZU VA MAZMUNIGA KO'RA TURLARI**

Insholar mazmun-mohiyatiga

Insho mazmun-mohiyatiga ko'ra 3 xil bo'ladi:

- 1) adabiy mavzudagi insho.
- 2) erkin mavzudagi insho;
- 3) ilmiy insho.

**Adabiy insho** adabiyot darslarida o'tilgan ma'lumotlarga o'quvchining ijodiy munosabati (nuqtayi nazari) qo'shib ifodalanadigan insholarni o'z ichiga oladi. **Erkin mavzudagi insho** adabiyot fani dasturida mavjud bo'lmagan mavzuda yoziladi. Unda o'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy, ijtimoiysiyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalari aks etadi. **Ilmiy inshoda** biror fanga tegishli mavzu ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Unda ilmiy va ilmiy-ommabop manbalardan olingan materiallardan keng foydalaniladi. Ilmiy inshoda tasviriy vositalar deyarli qo'llanmaydi.

## **ADABIY VA ADABIY-IJODIY MAVZULARDAGI INSHOLAR**

Siz birinchi sinfdan yoza boshlagan oddiy yozma tasvir, rasm asosidagi hikoya, turli xil maktublar ham inshoga o'xshaydi. Lekin ularni insho deb bo'lmaydi. Chunki bunday yozma ishlar aniq reja asosida yozilmagan, ularda o'quvchining maxsus tayyorgarligi, ijodiy izlanishi va mustaqil fikrlashi talab etilmagan.

1. Muayyan badiiy asar, undagi qahramonlar haqidagi insho **adabiy insho**dir. Bunday mavzudagi inshoda biror badiiy asar yoki undagi qahramonlar taqdiri adibning badiiy mahorati bilan bog'lab, manbalarga tayanib tahlil qilinadi.

2. Adabiy-ijodiy inshoda biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdiri tahlilida o'quvchining mustaqil fikri, shaxsiy munosabati asosida yondashuvi talab etiladi. U adabiy inshodan shu jihati bilan farq qiladi.

3. **Erkin mavzudagi insholar** o'quvchining adabiyot darsligidagi ma'lumotlarga bevosita daxldor bo'lmay, umuman, ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insho **erkin mavzudagi insho**dir. Erkin mavzudagi inshoda o'quvchining biror mavzu bo'yicha turli fanlar, boshqa manbalardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi. Erkin mavzudagi insho ommabop uslubda yoziladi.

### **INSHOGA EPIGRAF TANLASH**

Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi. Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o'ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallif nomi qavs ichida beriladi. Inshoda epigraf bo'lishini qat'iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriy. Lekin mavzu va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlash inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko'rsatadi.

### **INSHO REJASI**

Tartib – taraqqiyot va rivojlanish asosi. Kunning tunga, tunning

kunga aylanishi, oy va fasllarning, yil va asrlarning almashinuvi tartibning yorqin namunasidir. Tartib bor joyda muvaffaqiyat bo'ladi. Tartibli bajarilgan har qanday ish yaxshi natijalarni beradi. Insonning tartibli faoliyati – rejali ish yuritish. Tartibli inson har bir ishini – mehnatdan tortib sarf-xarajatgacha reja asosida amalga oshiradi. Shuning uchun xalqimiz reja va rejalashtirishning hayotimizdagi ahamiyatini “Rejasiz ish – qolipsiz g'isht” degan maqol bilan bejiz ifodalagan. Qolipsiz yasalgan g'isht sifatsiz – qing'ir-qiyshiq bo'ladi. Insho yozish ham faoliyat, aniqrog'i, nutqiy faoliyat. U ham reja asosida amalga oshiriladi. Inshoni yozishga tayyorgarlik jarayoni ham, inshoning o'zi ham rejasiz amalga oshirilsa, u sifatsiz chiqishi muqarrar. Demak, insho yozish uchun tayyorgarlik jarayoni qat'iy reja asosida amalga oshiriladi. Inshoning o'zi ham puxta reja asosida yozilishi lozim. Har qanday ijodiy ish kabi insho rejasi ham uch qismdan iborat bo'ladi:

1.Kirish. 2.Asosiy qism.3.Xulosa.

Kirish inshoning boshlang'ich qismi, unda o'quvchi mavzu haqidagi umumiy fikrlarini bayon qiladi. Asosiy qismda maqsadga o'tiladi. Bu qism yana ichki kichik qismlardan tashkil topadi. Ularning miqdori birdan ortiq bo'ladi. Xulosa yakunlovchi qism bo'lib, unda o'quvchi asosiy qismdan kelib chiqadigan o'z fikri – xulosasini lo'nda bayon etadi.

*Namuna* Alisher Navoiy – g'azal mulking sultoni

I. K i r i s h. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir va atoqli shoir.

II. A s o s i y q i s m:

1. Alisher Navoiyning oshiqona g'azallari.
2. Alisher Navoiyning orifona g'azallari.
3. Alisher Navoiyning rindona g'azallari.

III. X u l o s a:

### **SODDA VA MURAKKAB REJALAR**

Butun bo'lak (qism)lardan tashkil topadi. Shuningdek, ushbu bo'laklar yana qismlarga bo'linishi mumkin. Biz inshoda ham

yoritilayotgan mavzuni oddiy “bo‘laklashimiz” – bir necha qismlarga ajratishimiz, ba‘zan esa ularni batafsilroq yoritish uchun bu bo‘laklarning ham ichki qismlarini aniqlab olishimiz zarur bo‘ladi. Natijada murakkab reja tuzishga to‘g‘ri keladi. Albatta, oddiy rejada yozilgan inshoda ham kirish, asosiy qism, xulosa bilinib turadi. Lekin murakkab rejada u yaqqol ko‘rinadi. Murakkab rejani tuzish oddiy rejaga nisbatan qiyinroq, lekin bu qiyinlik insho yozishni yengillashtiradi. Oddiy reja insho mavzusini bir bosqichda qismlarga ajratish bo‘lsa, murakkab reja ajratilgan qismlarni yana ichki qismlarga bo‘lish demakdir. Bir masala turli mavzudagi inshoda har xil ifodalanishi mumkin. Ilmiy inshoda berilgan mavzu biror fan nuqtayi nazaridan ilmiy nutqda yoritiladi. Ilmiy inshoda terminlar, ilmiy dalil va tushunchalardan keng foydalaniladi. Unda axborot aniq va lo‘nda ifodalanishi, tushunarli bo‘lishi lozim. Ilmiy inshoda nutqning tasviriy vositalaridan, ko‘chma ma‘noli so‘zlardan, obrazli ibora, maqol va matallardan deyarli foydalanilmaydi. Ilmiy insho tili bo‘yoqdorlik va ta‘sirchanlikdan xoli bo‘ladi. Ilmiy insho mantiqiy fikrlash, dalillarning mohiyatini tushunish, narsalarning xususiyatlarini yaxshi bilish asosida yoziladi. Ilmiy inshoda muallifning nuqtayi nazari, tegishli xulosa chiqarishi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ilmiy insho yozish o‘quvchilarning kelajakda ilmiy maqola, ilmiy kitoblar yozish malakasi hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. Kelajakda biror fan sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsangiz, ilmiy insho yozish mahoratini tinimsiz egallab borishingiz kerak. Barcha fanlar bo‘yicha ilmiy insho yozish mumkin. Ilmiy inshodan o‘quvchilarning ilmiy fikrlash darajasini aniqlash uchun foydalaniladi. Bunday inshoda ilmiy tushuncha va terminlar, dalillar ko‘p ishlatiladi. Ilmiy insho tili bo‘yoqdorlik va ta‘sirchanlikdan xoli bo‘ladi.

Adabiy janr xususiyatlari negizida ifodalanganligiga ko‘ra, inshoning tavsifiy insho, insho-miniatyura, muhokama-insho (esse), tasviriy insho, kartina bo‘yicha insho, mulohaza-insho, kundalik,



maktub, rivoyat-insho, ertak-insho kabi turlari mavjud.

Bu adabiy janr xususiyatlari insho kabi ifodalangani sababli *insho* deyiladi. *Insho* termini torayib, ta'lim bosqichlari jarayonlarida o'tkaziladigan yozma ishni ifoda etadi.

Yozuv ijodiy ish bo'lib, shaxs tafakkurini hamda hayotga munosabatini oshirishga ko'maklashadigan eng kuchli vositalardan biridir. Ayniqsa, maktab inshosi o'quvchilarning kommunikativ va nutq qobiliyatlarini shakllantirishda yetakchi o'rinda turadi. Bir vaqtning o'zida ham ta'lim-tarbiya beradi, ham rivojlantiradi. Ma'naviy boy, faol shaxsni shakllantirishda yetakchi o'rinlarda turadi. Umuman, insholar hayotning turli jabhalarida muloqot vositasi sifatida tilda ravon gapirishni, yozishni ta'minlaydi. Jumladan:

1. Insho yozish ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari bilimlariga o'rgatadi.

2. Yozma nutq shaxs o'z his-tuyg'ularini anglab yetishga yordam beradi, o'ziga ishonchini, hurmatini oshiradi, ijodga, san'atga qiziqishini rivojlantiradi. Insho tafakkurni tarbiyalaydi, ijodiy tasavvurini, fantaziyasini rivojlantiradi.

3. Ayniqsa, insho yoziladigan jarayonda bolalarda ijodiy yuksalish, ruhiy ilhom uyg'otadigan muhit yaratiladi.

Ishning samaradorligi insholarni tayyorlash va o'tkazishning turli uslubiy shakllari va metodlari bilan ta'minlanishidadir.

**Quyida, rasm asosida o'tkaziladigan bir qancha insho turlari bilan tanishtirib boramiz.** Rasm bo'yicha insholar barcha sinflarda ham o'tkazilishi mumkin. Chunki, insho ustida ishlashning muvaffaqiyati bolalarning insho mavzusiga qanchalik qiziqishlariga bog'liq.

Bunda o'qituvchi oldida mas'uliyatli vazifalar turadi:

-o'quvchilarni rasm mazmunini tushunishga, uning badiiy fazilatlarini ko'rishga va, albatta, insho yaratishga o'rgatish;

-rasmni tasvirlashda asosiy va ikkinchi darajalini farqlashni;

-tafsilotlarni ko'rishni va qismlar o'rtasidagi munosabatni

aniqlashni;

-barcha ko'rganlarini to'g'ri ketma-ketlikda tasvirlashni o'rgatish kerak. Bir so'z bilan aytganda, bolalar nima haqida yozishni, qanday yozishni, qanday tartibda yozishni bilishlari kerak.

Rasmlarga qarab syujetini tashkil etuvchi faktlarga munosabatini aniqlash, ularning mazmunini aniqlashtirish uchun savollar ham beriladi. Har qanday og'zaki hikoya yozma bayonlar uchun so'zlar beriladi, bu so'zlar uchun sinonimlar taklif etiladi, o'quvchilar har biridan foydalanishga harakat qiladilar. Rasm asosida insho yozishda o'quvchilarning kuzatuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlari ortib, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari oshadi. K.D.Ushinskiyning fikricha, "rasm o'quvchilarga shaxsiy hayotiy tajriba asosida kuzatishni shakllantirish imkonini beradi", shuning uchun rasmga asoslangan insho ham shaxsiy kuzatish va taassurotlarga asoslangan insho sifatida qaralishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, rasmga oid insho, bir tomondan, ko'rgan narsaga asoslangan rasmning insho-tavsifi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ko'rgan, eshitgan narsaga asoslangan rasm haqidagi insho bo'lishi mumkin. Qanday bo'lmasin, o'quvchilar tomonidan insho yozishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan darsda qanday tayyorgarlik ko'rilganligiga bog'liq.

Ishning bosqichlari.

1. O'quvchilarni ish mavzusi va maqsadi bilan tanishtirish.
2. Rassom, uning ijodiy yo'li haqida o'qituvchi yoki tayyorlangan o'quvchilarning kirish so'zi.
3. Lug'at bilan ishlash.
4. Insho rejasini jamoaviy yoki mustaqil tayyorlash (sinfning tayyorgarligiga qarab).
5. Rasm asosida tuzilgan insho bo'yicha o'quvchilarning mustaqil yozma ishi.
6. Bo'sh o'zlashtiruvchilarga e'tibor qaratish.
7. O'quvchilarning insholarini tahlil qilish.

## **O'quvchilarning insholarini tahlil qilish:**

Xato va kamchiliklarni ko'rsatish. Yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlash. O'qituvchining o'zi rasmni sinchkovlik bilan tekshirishi, uning mavzusini, g'oyaviymazmunini aniqlashi, rassomning qanday badiiy ifoda vositalaridan foydalanganinianiqlashi, uning niyatini ochib berishi juda muhim.

Kirish so'zida o'qituvchi yoki tayyorlangan o'quvchi rassom haqida ma'lumot beradi, ustaning rasm yaratish ustida qanday ishlaganligi haqida gapiradi, uning asarlari galereyasini taqdim etadi va nihoyat, o'quvchilar darsda ko'rib chiqadigan rasm bilan tanishtiriladi. Rasm bilan ishlashning muhim bosqichlaridan biri bu rasmning reproduksiyasini tekshirishdir. Tasvirni bemalol tekshirish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega, chunki fikrlash idrok bilan o'zaro bog'liqdir. Rasmni tekshirish jarayonida o'quvchilarda mushohada yuritish, obrazli fikrlash, rassomning niyatiga muvofiq rasm asarini yaxlit holda idrok etish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchi rasmga qarab, uni nima ko'proq tashvishga solayotganiga e'tibor qaratadi, u uchun yangi kutilmagan narsalar bilan qiziqadi. Aynan shu vaqtda o'quvchining rasmga munosabati aniqlanadi, uning bu badiiy asar haqida o'z tushunchasi shakllanadi. Rasm bilan bunday umumiy tanishish his-tuyg'u va tasavvurga turtki beradi, gapirish istagini uyg'otadi, garchi o'quvchilarning so'z boyligi dastlab kam bo'lganligi sababli mustaqil ravishda matn tuzish qiyin bo'ladi. Shuning uchun bu bosqichda o'quvchilarni o'z holiga qo'yib bo'lmaydi, o'qituvchining qat'iy rahbarligida rasmni tahlil qilish kerak bo'ladi.

Shuni esda tutish kerakki, rasmni tahlil qilishdan maqsad dastlabki idroknichuqurlashtirish, o'quvchilarga badiiy tasviriy tilni tushunishga yordam berish va rasmni mazmun va shakl birligida badiiy asar sifatida tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishdir. Suhbat davomida rasmni tahlil qilish amalga oshiriladi. Bundan tashqari, rasm haqida suhbat o'tkazish usullari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos uslublarga ega bo'lib,

bu o'qituvchi rasm mazmuni va badiiy ifoda vositalarining birligida tahlil qilishi kerakligini ifodalaydi. Qo'yiladigan savollarning asosiy vazifasi o'quvchilarga mazmun va ifoda vositalarining o'zaro bog'liqligini tushunishga yordam berishdir. Masalan, hikoya rasmi tahlilida o'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin. Rasmda nima ko'rsatilgan? Voqea qayerda va qaysi vaqtda sodir bo'lgan? Rasmda tasvirlangan qahramonlar haqida nima deya olasiz?

Rasm mazmunini yetkazishda o'quvchilar harakatni, rasmdagi belgilarning holatini bildiruvchi ko'plab fe'llarni nomlashadi. Bu fe'llar suhbat davomida doskaga yoziladi va keyinchalik ular og'zaki hikoyani tuzishda majburiy ravishda qo'llaniladi. Ammo peyzaj rasmda, o'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

1. Rassom nimani tasvirlagan? Rasmdagi asosiy rang qaysi?
2. Nega rassom bunday bo'yoqlar bilan, masalan, quyoshli yoz kuni taassurotini yaratdi? Bizda quvnoq yoki tashvishli kayfiyatni yaratish uchun rassom qanday ranglardan foydalanadi?
3. Rasmdagi qor qanday rangda? Nega rassom qishki osmonni bunday ranglar bilan tasvirlagan?

Rasm syujetini aniqlash va uni ifodalash usullari bilan bog'liq bir guruh savollarni ajratib ko'rsatish mumkin. Tahlil jarayonida rasmning mavzusi va asosiy g'oyasi, tasviriy vositalarning rassom niyatini ko'rsatishdagi roli ochib beriladi.

Savollar to'g'ri, ixcham, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, ya'ni ularning tayyorgarlik darajasiga mos kelishi zarur. Savollar o'quvchilarga rasm mazmuni va badiiy ifoda vositalarining birligida ko'rib chiqishga, tasviriy san'at asarining obrazli tilini ko'rishga va tushunishga yordam berishi, o'quvchilarning rasmdagi kuzatishlarini tashkil etishga yordam berishi, ularning e'tiborini ikkalasiga ham qaratishi kerak. Asosiy va ifodali detallarni sharhlay olish, aqliy va nutqiy faoliyatni faollashtiradi. O'quvchilarning solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish, sabab-natija munosabatlarini o'rnatish usullaridan foydalanish ular tafakkurini rivojlantiradi.

Suhbat jarayoni o'quvchilarga muallifning pozitsiyasini aniqlashga yordam berib, asar haqida mustaqil fikrni shakllantiradi. Rasmni qanday izohlashni o'rgatishda nutqni rivojlantirish jarayoni darsning muhim bosqichidir. Bunday ishlarning asosiysi lug'at ishi bo'lib, o'qituvchi rasmni tasvirlash kerak bo'lgan lug'at so'zlarni ketma-ketlikda bo'lishini ta'minlash kerak. Bundan tashqari, lug'at ishlari maktab o'quvchilarining so'z boyligini kengaytirishga, ularning nutqini tilning vizual vaifodali vositalari bilan boyitishga va nutqini faollashtirishga yordam berishi kerak. Suhbat davomida eng aniq va yorqin lisoniy faol vositalarni tanlashga e'tibor qaratish lozim. Natijada, o'quvchilar badiiy asarni tavsiflash uchun zarur bo'lgan so'zlarni jamoaviy izlaydilar, majoziy til vositalaridan epitet, taqqoslash, hissiy bo'yoqdor so'zlarni tanlaydilar. Va agar o'qituvchi lug'at ishini mohirona tashkil qilsa, o'quvchilarga kerakli so'zlarni tanlashda yordam bersa, sinfda kerakli lug'atni tanlashda ijodiy raqobat muhiti o'rnatiladi. Shu bilan birga, o'quvchilar e'tiborini rasmda tasvirlangan aniq narsa yoki hodisalarni tavsiflovchi bunday so'zlarni va lisoniy vositalarni tanlashga qaratish muhimdir.

O'quvchilar ishining tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari rasmni tavsiflashda rang, soyalarni bildiruvchi turli xil sifatlardan foydalanadilar: (nilufar) pushti, oq-pushti, och pushti, marvarid, binafsha, och binafsha, to'q binafsha, qizil. Rasmdagi ifoda rejasini tuzish bosqichi ham muhimdir. Bu ish ham jamoaviy, ham mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Ammo dastlabki bosqichda avval oddiy rejani, keyin esa murakkabni jamoaviy tuzish zarur. Shu bilan birga, inshoning turi hisobga olinadi, chunki reja kelgusi ish turi va uslubini oldindan belgilaydi. Rejani tuzish rasm tasviri bilan nutqni rivojlantirishning ajralmas elementidir, chunki bu o'qitish usuli to'plangan materialni tizimlashtirish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchilarni o'z yozma nutqlarini ravon, izchil yozishga tayyorlaydi. Rasmning insho-tavsifini yozishga tayyorgarlik ko'rayotganda, inshoning namunasini ko'rsatish shart, bu san'at

tarixi matni bo'lishi mumkin. Darsda ko'rib chiqilayotgan rasm uchun matn tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish muhimdir: mavjudlik, axborot mazmuni, badiiy-estetik qimmatlilik, kompozitsion to'liqlik; qo'yilgan kommunikativ vazifani hisobga olgan holda matnning turi va uslubi; matnning hajmi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va dars shartlariga muvofiqlik. Rasmga asoslangan insholar ustida ishlashning bu usuli samarali bo'lib, o'quvchilar nutqining rivojlanish darajasini va umumiy madaniyatini oshirishga yordam beradi. Rasmlarning o'ziga xos tipologiyasi bor:

a) rasmning tavsifi;

b) maktab o'quvchilari tasavvuriga asoslangan syujetli hikoya; rasm ularning tasavvuriga turtki beradi, go'yo hayotning muzlatilgan lahzasi kabi;

v)rasm rejasi vazifasini bajaradigan 5-6 ta rasm seriyasiga asoslangan insho (bu rasm bo'yicha eng oddiy, eng qulay insho turi);

d) rassom va rasm tarixi haqida insho; rasmning o'zi tahlili kengaytirilgan kontekstda berilgan;

e) portret-insho: rasmda tasvirlangan qahramon xarakterini va bu personajni gavdalantirishga muvaffaq bo'lgan rassomning mahoratini ochib berish (inshoning eng murakkab varianti).

O'quvchini rasm bo'yicha inshoga tayyorlash o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- birinchidan, o'quvchi tasviriy san'at asoslari bilan boshlang'ich darajada tanish bo'lishi kerak: muzeyga, ko'rgazmaga tashrif buyurish, rassom bilan uchrashuvga borish, mashhur rasmlarning reproduksiyalarini bilish va hokazo;

- ikkinchidan, rasmni ko'rib chiqish, tahlil qila bilish zarur: rang tasvirni grafikadan, manzarani natyurmortdan ajrata bilish; oldingi fonni ko'ra olish, rasm kompozitsiyasini tushunish;

- uchinchidan, rasmning g'oyasini, uning pafosini, kayfiyatini va rassomning uslubini olish kerak.

Rasm bo'yicha insholar quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: doskada-har qanday rasm (ertak illyustratsiyasi, tabiat surati, faqat bitta gul yoki jonsiz narsa). Misol uchun, moychechak chizilgan. Birinchidan, bolalar gulning tashqi tavsifini berishadi, so'ngra moychechakning ichki dunyosini tasvirlashadi. Buning uchun quyidagicha savollar berish mumkin: "Gulning kayfiyati qanday?", "Moychechak o'ylashi, quvonishi, xafa bo'lishi mumkinmi va agar shunday bo'lsa, nimani tasvirlashi mumkin?". Shunday qilib, rasm asosidagi insho ustida ishlash bolalarning o'qiyotgan tizimiga, o'qituvchining qarashlariga, insho turiga va boshqalarga qarab turli shakllarda bo'lishi mumkin. Har bir o'qituvchi bolalar sinfi va darajasi uchun zarur deb hisoblagan rasm bo'yicha ishlar tashkil qilish huquqiga ega. Rasmga asoslangan insholarning eng oddiy turlaridan biri tavsif insho, shuningdek, maktab o'quvchilari tasavvuriga asoslangan rasmga asoslangan syujetli hikoyadir. Yuqorida tilga olingan insho turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ustida ishlash usullari ham bir-biridan farq qiladi. Matn yaratishning ham o'ziga xos usullari, darajalari, yuzaga kelish sabablari mavjud. Tabiat tasvirini yaratish insonning tashqi qiyofasini tasvirlashdan tamomila farq qiladi. Har bir insho turining alohida o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish lozim bo'ladi. Jonsiz obyekt ham tasvirlanish mumkin (masalan: uy jihozlari, eski ko'cha, tosh va boshqalar).

**Maktub-insho.** Bolalar avvalo xat olishadi (o'qituvchi uni yozadi va boshqa o'qituvchi-hamkasblardan biri olib keladi va bolalarga beradi). Quyi sinflarda ertak qahramonlaridan xat kelsa, o'quvchilar o'zlari xohlagan xat-javob yozadilar (quyon, tulki, mushuk ...). Bolalar buni katta zavq bilan qilishadi. Yuqori sinf

o'quvchilari o'zlari sevgan asar qahramonlariga maktub yozishlari ham mumkin. O'quv mashqlari uchun har bir o'quvchi o'zining kichik daftariga(qattiq muqovada) ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir, unga har qanday mavzu bo'yicha kichik insho-tavsiflarni(5 ta jumla) yozib boradilar. Bu ish ko'chada, tanaffusda

olib boriladi, ba'zan bolalar bo'sh vaqtlari bo'lsa, o'zlari mavzu tanlab, uyda yozadilar. Insho mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijod mahsuli bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi.

Inshoda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga, o'zgalarga, jamiyatga munosabati, axloqiy-ma'naviy saviyasi, mustaqil turmushga tayyorlik darajasi aks etadi. Boshqacha aytganda, insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu dir. Bu ko'zgu orqali u nafaqat o'zini ko'radi, balki boshqalarga o'zligini tanitadi, munosabatini ifoda etadi, qalb tuyg'ularini, fikr-o'ylarini, ichki kechinmalarini bayon qiladi. Ijodiy yondashuv, mustaqil fikr inshoning zarur shartlaridan biridir. Adabiy mavzudagi insholar matn asosidagi insholar, deb ham yuritiladi.

Insholar badiiy nutqni rivojlantiradi, unga o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a singari tasvir vositalaridan foydalanishni, oddiy so'zlar bilan ma'nosi kuchaytirilgan bo'yoqdor so'zlarni farqlash va qo'llashni o'rgatadi.

### **Savollar:**

1. Insholar mazmun-mohiyatiga ko'ra necha xil bo'ladi?
2. Pedagogik maqsadiga ko'ra insholar shartli ravishda qanday guruhlarga ajratiladi?
3. Insho rejasini tuzish va tezis sifatida shakllantirishda nimalarga ahamiyat berishkerak?
4. Insho mavzusini tanlash va shakllantirish uchun beriladigan tavsiyalar?
5. Oddiy so'zlar bilan ma'nosi kuchaytirilgan bo'yoqdor so'zlarni farqlab matntuzing.
6. Rasm bo'yicha insholar qanday tuziladi?
7. Insholarni tayyorlash va o'tkazishning qanday uslubiy shakllari va metodlarinibilasiz?



## ESSE YOZISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Reja:

1. Esse haqida nazariy ma'lumot
2. Esse turlari va ularning o'ziga xos jihatlari
3. Esse yozish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari

**ESSE**(frans. — urinish, sinash, ocherk) — erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy, biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy ommabop yoki sof belletristik xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. Mustaqil janr sifatida A. Montel ijodida tarkib topdi. O'zbek adabiyotida XX asrning 70—80-yillaridan Esse yaratila boshlandi.

Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni ongli qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Muhimi, keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir.

### Esse va inshoning farqli tomonlari

Esse	Insho
------	-------

<p>Esse–fransuz tilida “essai” – “tajriba”, ingliz tilida “essay”, “assay” – intilish, ijodiy sinov, ocherk; lotincha “exagium” – “o‘ylash” degan ma’noni bildiradi Esse – o‘quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalar asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Uning o‘zgachaligi mavzuda ko‘tarilayotgan muammoga fakt va dalillarni o‘rinli keltirish orqali o‘z munosabatini bildirish.</p>	<p>Insho – arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, “bino qilish”, “qurish” degan ma’noni bildiradi. Insho o‘quvchining o‘zbek adabiyoti fanidan olgan nazariy bilimlarini o‘z fikri va dunyoqarashi bilan bog‘lab yozadigan ijodiy mehnati. Bunda o‘quvchidan o‘qilgan badiiy asarni chuqur o‘ylashi, tahlil qilishi, so‘ng badiiy til bilan ta’sirli ifodalashi talab etiladi.</p>
<p>Esse erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo‘lib, badiiy-publitsistik janrning bir turi. Esse muayyan bir reja asosida yozilmaydi.</p>	<p>Insho – tuzilishi jihatdan hajmi keng, fan bo‘yicha egallangan nazariy bilimlar asosida yoziladigan ijodiy ish. Insho uchun reja tuziladi va epigraf yoziladi.</p>
<p>Essening turlari bir necha xil bo‘lib, yozilish maqsadiga ko‘ra uning qay turga mansubligi aniqlanadi. Essening maqsadi – o‘quvchini faol fikrlashga o‘rgatish, o‘z mulohazalarini dalillashga yo‘naltirish, til unsurlaridan o‘rinli foydalanish orqali fikrni to‘g‘ri yetkazib berish ko‘nikmalarini shakllantirish</p>	<p>Insho shartli ravishda uch guruhga bo‘linadi: adabiy, ijodiy va erkin mavzudagi insholar. Inshodan ko‘zda tutilgan maqsad o‘quvchining yozmanutqini rivojlantirish</p>

### **Essening tuzilishi.**

## **Kirish**

Kirish – mavzuni mantiqiy va uslubiy jihatdan bog‘lab oydinlashtirish. Bu bosqichda qalamga olingan mavzuni yoritish uchun savolni to‘g‘ri qo‘yish muhim. Chunonchi, bu o‘rinda esse yozuvchi “Kirish qismida ushbu mavzuga ma‘lumot berish kerakmi?”, “Men tanlagan mavzuning dolzarbligi qay darajada?”, “Men esse yozish davomida o‘z fikrimni dalillash uchun qanday manbalarga tayanaman?”, “Men kalit so‘zdan kelib chiqqan holda tezis qo‘ya olamanmi?” kabi savollarni o‘z oldiga qo‘yishi va shuning tevaragida fikr yuritgani ma‘qul.

Essening kirish qismi kamida, ikki xatboshidan iborat bo‘lishi va har bir xatboshida ikki-uch gap ifodalanishi mumkin. O‘quvchini qiziqtirish, uning e‘tiborini jalb etish maqsadida essening kirish qismi jonli va aniq yozilishi kerak. Bunda xitob, undov, shaxsiy tajribaga ishora, ritorik so‘roq kabilardan foydalanish o‘rinlidir. Kirish qismida o‘quvchi esse mavzusiga tushuncha beradi, shu orqali uningesse mavzusini qanday tushunganligi aniqlanadi va bu mavzu nima uchun dolzarb ekanligi yoritiladi. Mavzu va uning dolzarbligi yoritilgandan keyin tezis qo‘yiladi.

Tezisdan keyin asosiy qismga bog‘lovchi gap yoziladi. Agar tezis aniq va yaqqol berilsa, gap yozilmasligi ham mumkin. Tezis qo‘yish essening eng muhim shartlaridan biridir. Tezis – essening kaliti. Kaliti topilmasa, essening asosiy maqsadiga yetish qiyin.

Tezis – muallifning shaxsiy nuqtayi nazarini bildirib, asosiy qismda isbotlanadigan fikrni yo‘naltiruvchi g‘oya hisoblanadi. Tezis essening kirish qismida yoziladi.

### **Asosiy qism.**

Asosiy bo‘lim – mavzuning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi bo‘lim. Bunda mavzuga mos barcha bilimlar, asosiy fikr va muammoga bog‘liq dalil va faktlar jamlangan bo‘lib, unda dalillar, xabarlar, turli statistik ma‘lumotlardan foydalanib, mavzu yoritiladi, ko‘tarilgan muammoning kelib chiqish

sabablari oydinlashtiriladi. Bu jarayon birmuncha murakkabroq kechadi. Shu sababli, asosiy bo'limni bir necha kichik qismlarga bo'lish mumkin. Har bir qismni dalillar asosida yoritish asosiy savolga javob topishga ko'maklashadi. O'quvchining keltirilgan fakt va dalillarni taqqoslab, o'z qarashlarini tahlil orqali ko'rsatib borishi asosiy bo'limning to'liq yoritilishiga imkon beradi. Qismlarga to'g'ri ajratish va izchillik bilan bayon etish mavzuning yoritilishidagi mantiqiylikni ta'minlaydi.

Dalillar – o'quvchi tomonidan aytilgan fikrni isbotlash uchun keltiriladigan ko'chirma (maqol, sitata, hikmatli so'z, rivoyat, she'riy parchalar va h.k.). Qo'yilgan tezisga kamida ikkitadan dalillar keltirilishi kerak.

Asosiy qismni yoritish uchun kerakli ma'lumotlarni keltirish jarayonida qo'yilayotgan masalaga o'quvchining shaxsiy munosabatini bildiruvchi, shuning bilan birga, *menimcha, mening fikrimcha, birinchidan, ikkinchidan, shu kabi, demak, biroq, unday bo'lsa* kabi kirish so'zlardan foydalanish o'rinli bo'ladi.

### **Xulosa**

Xulosa – mavzu bo'yicha chiqariladigan yakuniy jumlar bo'lib, unda yangi fikr-mulohazalar bildirilmaydi, balki dalillarga suyangan holda yakun chiqarilib, uni yechish yo'llari ko'rsatiladi.

Essening yakuniy qismida asosiy qismda berilgan muammoning yechimi tasdiqlanadi va mazmunning mohiyati ochiladi, ya'ni "Esse boshida ko'tarilgan masala bo'yicha nima deyish mumkin?" degan savolga aniq va tushunarli javob tarzida yozilishi kerak.

Xulosa qismida quyidagi kirish so'zlardan foydalaniladi: ***men shunday xulosaga keldimki., qisqasi, asosiy fikrim shuki., xulosa qilib aytganda...*** va boshqalar.

**Esse yozish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:**

1. Kirish va yakuniy qismdagi fikr asosiy masalaga uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, kirish qismida ***"Men... haqida shuni aytmoqchiman"*** deb boshlansa, yakuniy qismda ***"Men ...xulosaga***

***keldim***” kabi tugallanadi.

2. Esse yozishda his-hayajonli/ta’sirchan va badiiy bo’yoqdor so’zlardan foydalaniladi.

3. Esse ko’lamiga e’tibor berish. (200-250 so’zdan iborat bo’ladi. Kirish –60-70 so’z, asosiy qism –100-130 so’z, xulosa – 30-40 so’z)

4. Esseda birgina mavzu atrofida fikr yuritiladi. Unda birgina fikr o’rtaga tashlanadi va rivojlantiriladi. Uning bir necha mavzu va bir qancha g’oyasi bo’lishi maqsadga muvofiq emas.

5. Esse erkin kompozitsiya asosida yoziladi. Yaxshi essenini mavzuni yaxshi tushungan, uni har tomonlama idrok eta olgan, o’z g’oyalari bilan o’quvchini o’ylanishga majbur eta oladigan odamgina yoza oladi.

6. Esse yozishda bir qolipdagi so’zlardan foydalanish, so’zlarni qisqartirish, yuzaki xulosa chiqarishdan xoli bo’lish kerak. Esse tili salmoqlilikni talab qiladi. Bunda esse mavzusini oydinlashtirish, hajmini va maqsadni aniq belgilab olish muhimdir.

7. Esseda badiiy to’qima va fantaziya bo’lmaydi. Unda adabiy til uslublaridan to’g’riva o’rinli foydalaniladi.

8. Esse ixcham hajmli bo’lgani bois, fikr-mulohaza bildirishda batafsil hikoyalashdan cheklanish, keltirilgan ma’lumotni ipidan ignasigacha bayon etishdan saqlanish, bir aytilgan fikrni yana qayta takrorlashga yo’l qo’ymaslik kerak. Uzundan uzoq, aralash turdagi qo’shma gaplar o’rniga qisqa va ixcham ifoda usulini qo’llagan ma’qul.

9. Esse xatboshilarga to’g’ri ajratilishi kerak. Essenini yozib bo’lgach, uni qayta-qayta o’qib chiqish tavsiya etiladi.

10. Ensiklopediya va turli manbalardan olingan ma’lumotlar o’z o’rnida qo’llanilishi kerak. Aks holda, essening badiiyligi va ta’sirchanligiga putur yetadi.

**Esse yozishda quyidagi talablarga qat’iy rioya qilinadi:**

- shaxsiy munosabatning bildirilishi;

- tezis – kalit soʻzni toʻgʻri aniqlash;
- faktli dalillar (argumentlar);
- nazariyaga asoslanish;
- atamalarni oʻz oʻrnida qoʻllash;
- sitatalar keltirish;
- mantiqiy qonuniyatning saqlanishi;
- taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish;
- savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari);
- yumor, oʻtkir hajv;
- foydalanilgan ilmiy manbalarga havolalar.

### **Mulohazali esse namunasi**

#### **Mavzu: Erkka intiluvchi insonni yengib boʻlmaydi.**

Men esse yozish uchun ushbu mavzuni tanladim. Chunki Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini oʻqiganimda, nihoyatda taʼsirlanganman. Asarga qoʻyilgan nom kishini oʻziga jalb etadi. Nega hikoya “Dahshat” deb nomlangan? Erk oʻzinima? Erksizlik-chi? Erkparvar inson qanday boʻladi? Nega odamzod erkka talpinib yashaydi?

Erk – kishining oʻz xohishi bilan ish-harakat qilish huquqi. Erksizlik – tobelikdagi hayot, haq-huquqsizlik.

Mening fikrimcha, hikoya qahramoni Unsin erk yoʻlida qurbon boʻldi. Nima uchun? Unsin – oʻn oltiga toʻlib-toʻlmagan qiz – Olimbek dodxohning sakkizinchi xotini edi. U insofsizlik va shafqatsizlik hukm surgan bu xonadonga koʻnikolmas, berahm dodxohning xotinlariga koʻrsatayotgan sitamlarini koʻngilga sigʻdirolmas edi.

Oilada goʻriston haqidagi vahimali hangomalar aytilgan kuzning quruq sovuqli bir kechasida Nodirmohbegimning hikoyasiga javoban:

1. Oʻlsin, nokas odam ekan, bitta qoʻyni deb...Koshki arziydigan narsa boʻlsa!.. –dedi.

Nafsoniyati qo'zg'agan dodho Unsinning gapiga g'ashi kelib, uni masxaraladi:

– Obbo, tegirmonchining qizi! Bitta qo'yni nazarlariga ilmaydi!..Yuzta qo'y,davlatimning yarmini bersam borasanmi?

Unsin unga javoban:

Menga davlat kerak emas...Men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz...Bir emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelardim, – dedi va kundoshlari va Olimbek dodxohni lol qoldirib, jasorat ko'rsatdi: go'ristonga borib qumg'on qaynatib kelishga otlandi.

Hammayoq zim-ziyo qorong'u. Uvillagan shamol kishining ko'ngliga qo'rqinch soladi. O'z qishlog'iga, ota-onasi yoniga borish, ozod bo'lish ilinjida bo'lgan Unsin qorong'ilikdan ham, go'ristondan ham qo'rqmay qumg'on qaynatish uchun qabristonga yo'l oladi. Mushtday qizning erk uchun intilishini o'ziga qarshi ko'tarilgan isyon deb bilgan dodxo qizni qattiq qo'rqitish maqsadida Unsinning ketidan maymunini yubordi.

Rangi bo'zdek oqargan Unsin bazo'r uyga kirdi.Tong saharda qishlog'iga, ota- onasi diydoriga yetolmay, Unsinning joni uzildi.

Shunday qilib, Unsin tobelikdan qutulish yo'lida berilgan birgina imkoniyatdan foydalandi, ammo qurbon bo'ldi. Unsinning o'limi aslo yengilish emas, balki zulm va nohaqlikka qarshi isyon edi. Men shunday xulosaga keldimki, erkka intilgan insonni yengish mumkin emas. Inson o'z erki va mustaqilligi uchun doimo kurashishi, uni himoya qilishi kerak.

### **Argumentli esse namunasi**

#### **Inson hayotida yoshlikning ahamiyati qanday?**

Mening fikrimcha, yoshlik – bu insonning kuch-quvvatga to'lgan pallasi. U bitmas-tuganmas kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat, jur'at va qat'iy iroda manbai. Yoshlik yillarida insonning tengsiz bunyodkorlik va ijodkorlik faoliyati namoyon bo'ladi, jamiyat uchun yangidan-yangi kashfiyotlari yuzaga keladi. Bu mavzuda qalam

tebratish, menimcha, juda dolzarb masala, chunki yoshlar jamiyatning harakatlantiruvchi asosiy kuchi va ertangi kun vorislaridir. Xo'sh, bugungi yoshlar o'z hayotini nima bilan bezamoqdalar? Umr, tiriklik mazmunini ular qanday tushunadilar? Yoshlikning qadr-qimmatini ular qanday baholaydilar?

Donolar "Yoshlikni umr gulshanining gultoji", deydilar.

Shu o'rinda men e'tiborni ajdodlarimizning hayot yo'llariga qaratgim keladi. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy yoshligidan ilm o'rganishga, kitobga mehr qo'ygan. Tinimsiz mutolaalar sabab, u yigirma sakkiz yoshida mukammal bilimlar egasi, mutafakkir, el-yurtga tanilgan shoir va tajribali, insonparvar davlat arbobi darajasiga erisha olgan.

Dunyo xalqlarini o'z ilmi bilan hayratga solgan Abu Ali Ibn Sino o'n olti yoshidayoq Qur'oni Karimni yoddan bilgan va tibbiyot ilmiga ixlos qo'yib, tabib maqomini olgan. Bu kabi insonlar navqironlik davrining qadriga yetib, fursatni g'animat bilib, uni bilim va hunar o'rganish uchun sarflaganlar. Shuning natijasida olamshumul darajadagi fozillar qatoridan o'rin olganlar.

Bugun o'z yoshligining qadr-qimmatini baholay olmaydigan kishilar ham jamiyatimizda talaygina. O'z vaqtini behuda narsalarga sarf etayotgan yoshlar sirasiga hali balog'at yoshiga yetmay turib, turmushning qing'ir ko'chalarida adashib yurganlar kammi? "To'qlikka sho'xlik" qilib o'g'irlik, talonchilik, buzuqlik natijasida qora kursida o'tirgan, oqibat umrining bebaho damlarini panjara ortida o'tkazishga mahkum bo'lganlar-chi? Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 18431 bola ichki ishlar mahkamalari hisobiga olingan. Ulardan 619 nafari 14-15 yoshlar oralig'idagi bolalar bo'lsa, 2035 nafari esa 16-17 yoshlar chamasidagi o'smirlar.

Yuqoridagi fikrlarni kelib chiqqan holda shuni aytishim mumkinki, yoshlik har bir insonga o'zligini anglash, komillikka intilish, hayotda o'zining munosib o'rnini topishi uchun beriladigan katta imkoniyatdir. Shunday ekan, biz, yoshlar vatanimiz kelajagi bizning qo'limizda ekanligini his qilishimiz lozim. Bugungi



jamiyatdagi mavqe va mas'uliyatimizni oshirish uchun har bir daqiqani g'animat bilishimiz, qaytarilmas yoshlikning qadr-qimmatini to'g'ri baholashimiz kerak.

**Shaxmat tugagandan so'ng shoh ham, piyoda ham bir qutiga solinadi...**

Tobelik va tenglik... Jamiyatni tartibga solib turadigan borliqning qat'iy tuzilmasi. Bir istiloh doirasidagi ushbu zid ma'nolar o'rtasida o'zaro mutanosiblik va mukammal uyg'unlik mavjud. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Shoh Iskandarning Arastudan olamdagi narsalar teng taqsimlanmaganligi sababini so'ragani bobida shoirning chuqur falsafiy mushohadalari yotgani ma'lum. Mulohazalarim ushbu qonuniyatning ijtimoiy munosabatlarda amal qilishi yuzasidan kechadi. Avvalo, olamning tobe tarkibi, zidliklar mutanosibligi haqida ikkiog'iz so'z.

Qadim Sharq falsafasiga ko'ra, bu olam bir sahna bo'lib, unda har kimning o'z vazifasi va darajasi belgilangan. Biz undagi o'yinchilarmiz. Ushbu asar qat'iy tartibga asosan sahnalashtirilgan. Rollar o'rtasida turlicha munosabatlar o'rnatilgan: rahbar-xodim, ota-o'g'il, ustoz-shogird, shoh-piyoda... O'yin tugagandan so'ng aktyorlar teng, do'stona munosabatlarini davom ettirishadi. Lekin sahnada qat'iyqoidaga amal qilinsagina, qarashlar, amallarda o'zaro uyg'unlikka erishiladi, maqsadlar amalga oshadi, barqarorlikka erishiladi. Demak, asar sujeti unsurlarining qat'iy darajali tarkibi mavjud. Bunday tuzilma uzoq davrlar davomida asar qayta-qayta mutolaa qilinishining zaruriy shartidir.

Davlatidagi tuganmas kurashlar davrida yashagan Konfutsiy jamiyatni tartibga keltirishni maqsadiga aylantirdi. Uningcha, davlatni boshqarishda jamiyatda tobelangan munosabatga qat'iy amal qilish muhim. Bu esa oiladan boshlanadi. Oilada o'rnatilgan bunday darajalilik hamda axloqiy qadriyatlarga asoslangan qat'iy tartib jamiyat munosabatlarining ham tartibli va adolatli bo'lishida muhim o'ringa ega. Oiladagi qat'iy tobe munosabat hamda o'zaro rozilikka asoslangan hurmat, a'zolarining o'rniga ko'ra o'z vazifasini

bajarishi ularning ongostida qadriyat, qonuniyat darajasida muhrlanadi. Konfutsiyga ko'ra, ushbu an'ana, natijada, jamiyatdagi munosabatlarga tomon o'sib boradi.

Hindistonda mavjud *kasta* tizimi ham darajalilikning yaqqol namunasi. Hind xalqi ushbu taqsimotni moddiy olamning adolatli tarkibi sifatida qadrlaydi, rioya etadi.

Tomonlar muvozanatini ushlab turish puxta ishlangan formulaga asoslangan. Inson fitratidagi ezgulik hamda shakllangan yovuzlik kabi ziddiyatlar uning kamoloti uchun muhim. Imom G'azzoliy fikricha, «Shak yaqiyin – ishonchli ilmning birinchi pog'onasidir». Qalbdan sodir bo'ladigan *shak*, *ikkilanish* imon butunligi uchun zarur, chunki aynan shubha sababli inson haqiqat sari izlanadi.

Shaxmat o'yini davomida donalar o'rtasidagi *tobelik*, zidliklar kurashi hamda o'yindan keying *tenglik*, aslida, bir butunlikdir. Tomonlar mohiyatan bir ma'noli bo'lib, o'yin davomida bir-birining *ASL*ni aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.

Bildimki, hayot ziddiyatlari qalbimni yondirish barobarida toblaydi ham... Meni o'tda qoldirganlarga nisbatan shukrli, bag'rikeng va mushohadakor bo'lishim lozimligini har lahzada o'zimga ta'kidlayman.

Esse mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida tarkib topgan. Bu janr G'arbda oldinroq ishlatilgan bo'lsa-da, o'zbek adabiyotida XX-asrning 70-80-yillaridan esse yaratila boshlandi. Talabalarning faqatgina umumiy tushunchalar bilan tanish ekanligi yetarli emas. Talabalar har qanday mavzudagi qarama-qarshi fikrlar va qarashlarni o'zlashtirishlari, ya'ni ularni tahlil va kerak bo'lsa tanqid qilib ham o'rganishlari talab qilinadi. Muhokama va bahs olib borish usullari va ilmiy tarzda o'z xulosalarini taqdim etish yo'llari muhim ahamiyatga ega.

***Muhokamada ishlatiladigan so'zlar*** Esse shartlarida talabalardan ko'pincha mavzuni muhokama qilish so'raladi, masalan: Bu holatda aytilgan fikrning afzalliklari va zararlarini baholash talab

etilmoqda. Unda quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin: Yuqoridagi so'zlardan foydalanib gaplarni to'ldirish mumkin. Har yili millionlab talabalar chet mamlakatlarda o'qishni tanlashadi. Buning sezilarli (a) bo'lishi mumkin, qaysiki boshqa bir madaniyat bilan tanish bo'lish imkoniyatidek, ammo vatanni qo'msash, yakkalanib qolish kabi muayyan (b)\_ham qamrab oladi. Boshqa bir (c) tomoni yashash xarajatlari va u yerdagi narxlarning balandligi bo'lishi mumkin.

**Tashkil etish** Muhokama ikki xil yo'lda tashkil etilishi mumkin.

**Quyidagi mavzuda esse yozishingiz talab etiladi:** Jadvalga fikrlaringizni yozib qo'ying (ijobiy va salbiy xususiyatlarini ajratgan holda). So'ng esa vertikal yoki gorizontaal strukturalardan birini belgilab oling.

***Muhokama tili*** Mavzuniyoritayotganingizda *menimcha, mening fikrimcha, o'ylaymanki* kabi subyektiv iboralardan foydalanmang, uning o'rniga obyektiv birikmalardan foydalaning. *Umuman olganda, uyda ishlash yo'lga ketadigan vaqtni tejaydi. Ko'pchilik biladiki, e-mail va Internet xizmati ofis ishlarini ham bajaradi. Ko'pchilikda hamkasblar bilan yuzma- yuz muloqotga zarurat tug'iladi. Bo'lishi mumkin, ko'proq korxonalar uyda turib ishlashni qo'llab-quvvatlashadi. Vaziyat shuni taqozo etadiki, muayyan kishilar o'zlari mustaqil ish olib borishni yoqlashadi.*

***Qarshi fikrlar*** Qarshi fikrlar qarashlarga teskari bo'lishi mumkin. Mavzuni ilmiy muhokama qilayotganda masalaning ikkala tomoni haqida ham qarashlarni bildirib, o'z fikrlaringizni dalillar bilan qo'llab-quvvatlashingiz lozim. Odatda, o'z g'oyangizni taqdim etishdan avval unga teskari bo'lgan qarashlarni keltirish ma'qulroq. Qamoqxonalar mavzusida yozilgan quyidagi misolda muallifning munosabati qanday? Esselar ham, hisobotlar ham o'z ichiga batafsil ravishda ko'rib chiqilgan aniq vaziyatlarni misol tariqasida olishi mumkin. Bir aniq vaziyat essening asosiy mavzusi bo'lishi yoki esse har xil vaziyatlarni ko'rsatish uchun bir necha misollarga ega bo'lishi mumkin. Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga,

mavzuga aloqador m

**Savollar:**

1. Esselar mazmun-mohiyatiga ko'ra necha xil bo'ladi?
2. Esse yozishda qanday talablarga rioya qilinadi?
3. Esse qismlarini tuzish va tezisni yoritishda nimalarga ahamiyat berish kerak?
4. Esseni mavzusini tanlash va shakllantirish uchun beriladigan tavsiyalar?
5. Oddiy so'zlar bilan ma'nosi kuchaytirilgan bo'yoqdor so'zlarni farqlab tuzing.
6. Muayyan mavzu bo'yicha elar qanday tuziladi?
7. Esselarni tayyorlash va yozishning qanday uslubiy shakllari va metodlarini bilasiz?

## **YOZMA ISHLARDA XATOLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI**

Reja:

1. Yozma ishlarni tashkil etishda uchraydigan asosiy xatolar
2. Yo'l qo'yiladigan xato turlari
3. Xatolar ustida ishlash va ularni bartaraf etish metodikasi

Xatolar ustida ishlash o'quvchilarning imlo qobiliyatlarini shakllantirishning muhim bosqichidir. O'qituvchi tomonidan bu jarayon muntazam ravishda izchil amalga oshirilishi kerak. Imlo va tinish belgilari savodxonligining boy tarixga ega bo'lishigava bizning davrimizda savodli yozish uchun ko'plab ishlar mavjud bo'lishiga qaramay, imlo va tinish belgilarini o'rgatish murakkab jarayon. Maktab o'quvchilarida savodli yozish ko'nikmalarini shakllantirish, ehtimol, til o'qituvchisi hal qilishi kerak bo'lgan eng murakkab vazifalardan biridir.

### **Bolalarda imlo xatolarining sabablari.**

O'quvchilarning yozma nutqida imlo xatolarining paydo bo'lishi, o'quv jarayonining tabiiy hodisasidir. Ular obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Obyektiv sabablar quyidagilardir:

- yozma ish vaqtida imlo qoidalarini bilmaslik;
- o'quvchilar foydalanayotgan lisoniy hodisaning o'tilmaganligi;
- yozma ish jarayonida ruhiy yoki jismoniy toliqish;
- matnda uchraydigan notanish so'zlarning ko'plik miqdori kabilar.

Agar imlo qoidalar o'rganilmagan holatlarda yoki o'tilmagan mavzularda imlo xatolarga yo'l qo'yilsa istisnoli holatda qabul qilinadi. Bundan quyidagi uslubiy qoidalar kelib chiqadi: yozishdan oldin imloda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni ogohlantirish va oldini olish, ularni imlo savodxonlikni baholashda xatolar qatoriga kiritmaslik kerak. Odatda bunday so'zlar doskaga yoziladi, noto'g'ri yozilishi mumkin bo'lgan imlolarning tagiga chiziladi va qisqacha tushuntirish beriladi. Imlo tilning barcha bo'limlari (shu jumladan lug'at) bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bolalar uchun

so'zlarning semantikasini, ularning tarkibiy va semantik yaqinligini tushunish katta ahamiyatga ega, chunki imlo ko'nikmalarini shakllantirishko'p sonli so'zlar bilan ishlashni talab qiladi. Ammo bu shart yetarli darajada amalga oshirilmaydi, chunki imloni o'rganish 13 yoshda (VII sinf) tugaydi va yangi lug'atning asosiy oqimi keyingi o'quv yillarida to'g'ri keladi. Bundan quyidagi uslubiy qoida kelib chiqadi: V-VII sinflarda imloni o'rganish jarayonida imkon qadar yangi lug'at kiritilishi, VIII-IX sinflarda esa sintaksis va tinish belgilarini ko'proq ishlatib o'rganish kerak. Bunda ham ko'proq yangi lug'atlar bilan tanishtirib borish zarur. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun o'rta maktab va OTMlarga tayyorlanadigan abituriyentlarning qo'llanmalaridan foydalanish mumkin. Maxsus kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, imlo xatolari ko'pincha yozma ish oxirida paydo bo'ladi. Shu sababli, ishni tugatishdan oldin qisqa tanaffus qilish ruhiy va jismoniy charchoqni bartaraf etadi. Jismoniy daqiqa; biroz jismoniy harakatlar, holatni sal o'zgartirish mumkin.

Imlo qoidasi qiyin so'zlarni e'tibordan qochirmaslik **metodi**, ya'ni sodir etilishi mumkin bo'lgan imlo xatolarni ogohlantirish. Imlo xatolarining oldini olish ikki shaklga ega: o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan ish va lug'at, imlo ishlarini bajarishda o'quvchilar o'zini o'zi nazorat qilish. O'quvchilar o'zini o'zi nazorat qilish. O'z-o'zini nazorat qilish-xatolarni topish va ularni tuzatish uchun yozilganlarni qayta o'qish. Quyidagi usullar yordamida rivojlanadi:

1. Bo'g'inlab talaffuz;
  - yozilganni bosma matn bilan so'zma-so'z solishtirish;
  - imlo lug'ati yordamida yozganlarini tekshirish;
  - so'zning morfemik bo'linishi. Bo'g'inlab talaffuz yozilganlarni vizual idrok etish bilan bir vaqtning o'zida, so'zlarning fonemik tarkibini buzadigan imlo xatolarini topishga imkon beradi. U nusxa ko'chirishda ham, diktant yozishda ham qo'llanilib, bayon va insholarda ham foydalidir. O'quvchilar yozganlarini tekshirishda doimo imloni bo'g'inlash talaffuzidan foydalanishini ta'minlash

kerak.

2. Bosma matn bilan yozilganni so'zma-so'z taqqoslash ko'chirib yozishda qo'llaniladi. Ushbu o'z-o'zini nazorat qilish texnikasidan foydalanganda o'quvchilar bosma matndan yozma matnga yoki yozma matndan bosma matnga o'tishlari mumkin.

**Muammoli ta'lim texnologiyasi** bilan o'tkazilgan darslar doimo yaxshi samara beradi. Ammo shuni ta'kidlash joizki yozma ishlarni o'tkazishda muammoli yondashuvni qo'llash o'ziga xos qiyinchiliklarga ega. O'qituvchiga materialning "an'anaviy" berilishidan ko'ra ko'proq vaqt kerak bo'ladi. O'quvchi ham oldingi bilimlar tizimiga ega bo'lishi kerak, chunki tizimning zaifligi qo'yilgan muammoni natijali muhokama qilishga to'sqinlik qiladi. Bunda o'qituvchi bilimini muntazam takomillashtirib borishi, o'z faoliyatida va ayniqsa darsda faol qo'llashi kerak.

Muammoli izlanish metodlarida maqsadga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini faol o'zlashtira

oladilar. Bu metodlar o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ijodiy va mustaqil fikr yuritishini ta'minlash bilan muammolarni yechishning eng maqbul yo'lini topishga tayyorlaydi.

Muammoli vaziyat tashkil etilib, muammoni yechishda o'qitishning zamonaviy metodlaridan induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish, metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Induktiv metodda – o'quvchilarning e'tibori avval xususiy faktlarni o'ranishga jalb qilinadi, so'ngra xususiyan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltiriladi.

Deduktiv metodda avval umumiy qonunlarni o'rganishdi, keyin xususiy xulosalar chiqarishadi.

Tahlil metodida axborotni anglab, idrok etishgach o'rgangan obyektlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlab tarkibiy qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi boshlanishlar, sabab - oqibatlarini aniqlashga harakat qilishadi.

Bosh g'oyani ajratish metodi muhim ahamiyat kasb etib o'quv materialidan asosiy g'oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so'z va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarishga o'rganishadi.

Qiyoslash metodida o'quv topshiriqlarida berilgan qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirishga o'rganishadi. Ayniqsa, matn turlarini qiyoslab o'rganishda yaxshi samaralar beradi.

Umumlashtirish metodida muammolarni hal etish jarayonida o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

Muammoli ta'lim jarayoni mukammal aloqadagi tobora murakkab vaziyatlardan iborat. Muammoli o'qitish texnologiyasida

o'qituvchi ko'pincha muammoli savollardan, topshiriqlardan, muammoli hikoya usulidan kognitiv (muammoli) vazifalar shaklida foydalanadi. Muammolarni yuzaga keltiruvchi izchil vazifalar majmui muammoli o'qitishning asosiy vazifasi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu esa o'quvchilar izlanishlari jarayonida ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishiga imkon beradi. Muammoli ta'lim texnologiyasiga didaktik vositalardan foydalanish o'quvchilar ijodkorligini shakllantirishda eng qulay usullardan sanaladi. Bunda o'quvchiga munozarali matn yoki tarqatma didaktik kartochkali topshiriqlar beriladi va o'quvchining jarayon yoki hodisani izohlash orqali kreativ fikrlash tarzi rivojlantiriladi. Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan

qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli o'qitish texnologiyasi – berilgan matnning mazmunidan kelib chiqib muammoli vaziyat yaratish. Masalan: “So‘z sehri” mavzusida muammoli matn tuzish uchun quyidagi misralar beriladi:

*Yaxshi so‘zga uchar qushlar el bo‘lar, Yomon so‘zga pashsha kuchi fil bo‘lar.*

O'quvchilar bilan ezgulik uchun aytilgan so'zlarning kuchiga, yomon fikrli yoki o'ylanmay aytilgan so'zdan keladigan zulm va adolatsizlikning oqibatiga e'tibor qaratilib, munozara uyushtiriladi. Muammoli vaziyat yaratilib, muammoni bartaraf etish yo'llari matnda aks ettirilishi talab qilinadi. Bunday vaziyatda didaktik asarlardan foydalanilsa ham yaxshi samara beradi.

**Rezyumye tuzishda** aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli jadvali ma'lumotlarni o'qiy olish va o'zi haqida ma'lumotlar bera olish, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi shakllanadi.

**Integratsiyaga asoslangan tizimli va mantiqiy texnologiyalar.** Bu texnologiyalar “oddiydan murakkabga”, “nazariydan amaliyga” tizimli yondashuv va prinsiplarga asoslanadi. Tizimli yondashuv texnologiyasiga muvofiq har qanday

o'rganilayotgan obyekt "tizim" tushunchasi orqali ko'rib chiqiladi. Har bir tizim o'ziga xos tuzilishga ega va o'zaro bog'liq elementlardan iborat.

Bu ta'limning barcha darajalarida o'quv materialining uzluksizligi va mantiqiy izchilligini ta'minlashga imkon beradi. O'rta maktablarda yozma ishlarni tuzishda ham ma'lum tushunchalar umumiy filologik qonunlar atrofida to'planishi mumkin. Tizim (yunoncha - qismdan tashkil topgan, bog'langan) - elementlar to'plami, o'zaro bir-biri bilan munosabat va aloqada ma'lum bir butunlikni, birlikni tashkil qilish. Ta'limning istalgan darajasidagi tizim bu o'zaro bog'liq qismlardan tashkil topgan bir butunlikdir. Yozma ishlar bilan bog'liq tizimlar, boshqalaridan farqli o'laroq quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: yozma savodxonlik, yozma nutq, mustaqil fikrlash, kompetentlik, tafakkur rivoji, ma'naviy yetuklik, mantiqiy fikrlash, aql- idrok, o'zini o'zi boshqarish. Bular esa bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ta'limga bo'lgan ushbu yondashuvning asosiy natijasi: avvalgi bilimlarga tayanish, umumiy tushunchalar tizimida ishlash nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki tizimli-mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, demak, o'qitishning yuqori natijalariga olib keladi. Zamonaviy o'qitishda motivatsiya uyg'otish, bilim olish ishtiyoqini yaratish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabga asoslangan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi-o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir. Pedagogik

texnologiya turli-tuman qirralarga ega bo'lib, integratsiya va shu orqali samarali natijaga erishish yo'l-yo'riqlarini ko'rib chiqamiz.

Integratsiya - bu yaxlitlanish bo'lib, ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi va bir butunga aylanishidir. "Integratsiya" tushunchasiga XVIII asrda Spenser tomonidan izohlik kiritilgan. Ta'limda integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida tadbiq etib, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini

takomillashtirishda foydalanishni yo'lga qo'yish zarur. Integratsiya – "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, biz tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishni nazarda tutamiz.

Yozma ishlarni tashkillashtirish jarayoniga integrativ yondashuv, kompetentlik sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Metodik jihatlarini tahlil qilib va integratsiyaga asoslangan darslarni ta'lim jarayonida qo'llashning uslubiy taraflarini o'rganib, foydalanish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning yozma savodxonligini, ijodkorligini, tafakkurini bir butunlikda rivojlantirish maqsadida, yozma ish turlaridan ketma-ketlikda, uzviy bog'lab foydalanish samarali hamda tejamli bo'ladi. Yozma matn, ijodiy bayon, insho va diktant yoki matn yaratish kabi ish turlarini ta'limiy maqsadda yaxlitlash mumkin.

Nutq uslublaridan ham jamiyatning barcha sohalariga mo'ljallab matn tuzishda foydalanish mumkin. Nutq uslublariga doir matn tuzilganda integratsiyaga asoslangan klaster metodidan foydalanilsa, shaxsni jamiyat bilan bog'liq barcha sohalarga tayyorlashda yaxshi samara beradi.

### **FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

Mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishlarni ham hisobga olgan holda integratsion-klaster metodidan foydalanish ko'zlangan maqsadni beradi. Klaster metodi bir qancha o'zaro yaqin metodlar bilan birga qo'llanilsa yanada samarali kechadi. Bunda, albatta, o'quvchilarning o'zlashtira olishini, mustaqil ishlash darajasini, yosh va shaxs xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

«IKKI YOQLAMA KUNDALIK» metodidan foydalanganda o'quvchining qarashlari bilan asar ma'lumotlari o'zaro taqqoslanib, bugungi kundagi ahamiyati haqida qiyosiy matn yaratadi. «Ikki yoqlama kundalik» metodida o'rganilgan asardan muhim jihatlar olinadi va o'quvchi o'z qarashlari bilan yozma muhokama qiladi hamda erkin, mustaqil fikrlari bilan ijodiy yondashib to'ldiradi.

SVETOFOR – matn yaratish jarayonidan oldin o'qituvchi sinf

doskasiga tezis shaklida mavzuga oid ma'lumotlarni yozib chiqadi yoki plakatlarda, tasvirda namoyish etadi. O'quvchilarga o'ylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. So'ng tezis bilan rozi bo'lgan har bir o'quvch yashil kartochkani ko'taradi; rozi bo'lmagan – qizil kartochkani; ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishda betaraflar – sariq kartochkani yuqoriga ko'taradi. O'z fikrlarini yozma ravishda matnda aks ettirib topshiradilar. Ushbu mashq barcha o'quvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi: hech kim oddiygina tomoshabin bo'lib qolmaydi. Ishtirokchilarga mashq boshlanganidan keyin fikrlardagi tafovutlar sabablarini bilish va o'z fikrini asoslash bo'yicha qizg'in jarayon tashkillashtiriladi. O'quvchilarning nutqini, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. Har qanday topshiriqlar ma'lum o'quv mavzusiga va ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga moslashtirilgandan keyin, o'z natijasini ko'rsatadi.

«TARMOQLAR» metodi (KLAUSTER) FIKRLARNING TARMOQLANISHI, bu – pedagogik strategiya bo'lib, u ko'zlangan maqsadga erishishga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki mustaqil fikrini erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashga o'rgatadi. Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

1. Badiiy adabiyotga murojaat etilib, an'anaviy mavzu va obrazlarni ketma-ket yozib tahlil etadilar.
2. «Moziyga sayohat» uyushtirilib, ma'naviy meroslarimizdan birin-ketin namunalar keltiriladi.
3. O'zaro bog'liqligi ahamiyatga olinadi va ko'paytiriladi.

Mumtoz adabiyotimiz janrlaridan foydalanib “qoliplovchi – qoliplanuvchi” usullaridan ham matn yaratishda foydalanilsa, yosh avlod tafakkuri, ongi, mantiqiy fikrlashi, ma'naviy olami o'sishida katta natijalar beradi. Bolani ta'limdan sovushi, zerikishi, majburiy bosim bilan o'qishining oldi olinadi. O'quvchi o'zi xohlab, katta qiziqish bilan yondashsa har bir harakat yaxshi samara beradi. Yozma nutq oshishida nafaqat yozma savodxonlik, balki ma'naviy

olam, tafakkur va tasavvur olamida ham ulkan kashfiyotlar ro'y beradi deb ayta olamiz. O'qituvchi tomonidan zamon talabiga mos, muammoli vaziyat talab etiladigan matn havola qilinib, o'quvchilarga mavzu doirasida muammoni bartaraf etishga qaratilgan matnlar yaratib taqdim etishlari tashkillashtiriladi. Bu jarayonni musobaqali uyushtirilsa yanada qiziqarliroq va maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilar yoshi muammosiga bog'liq matn taqdim etadi va barcha ishtirokchilar bu muammoli vaziyatda yordamga chaqiriladi. Masalan, yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlash masalasida vaziyatga quyidagicha yondashish mumkin. O'qituvchi tomonidan qoliplovchi matn taqdim etilib o'quvchilarga muammoni yechishda taklif va maslahatlarini yozib berishlari tashkillashtiriladi.

5-6 – sinf o'quvchilariga odob – axloqqa chaqiruvchi matnlardan ko'proq berish maqsadga muvofiqdir. O'g'rilik singari yomon illatlardan nafratlanish tuyg'ularini shakllantiradigan matnlardan o'qituvchi qoliplovchi hikoya sifatida keltirsa o'quvchilar tomonidan qoliplanuvchi ibratli matnlar yoki hikoyalar tuzib berish tashkillashtiriladi. O'quvchilar o'g'irlikning, qolaversa yomon ishlarning oqibatlarini haqida dalillar keltirilgan qoliplanuvchi matnlar tuzishga o'rgatiladi. Bunday topshiriqni, ya'ni asoslab matn tuzishni amalga oshirish jarayonida o'quvchilar o'z xohish va qiziqishlari bilan kitob o'qishga harakat qiladilar. O'quvchilar tomonidan keltiriladigan qoliplanuvchi matn yoki hikoyalarda o'z mustaqil fikrlariga tayanish yoki tajribalari asosida ijod qilish ham mumkin.

**Qoliplanuvchi hikoyalarga o'qituvchi tomonidan o'qishga tavsiya etiladigan namunalari:**

- 1.A.Avloniyning "O'g'rilikning jazosi", "Yomonotliqning jazosi".
- 2."Egri va to'g'ri" ertagi xalq og'zaki ijodidan.

Asoslab beriladigan matnlar yosh avlod tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bu jarayon yakka tartibda ham hamkorlikda ishlash metodida ham yaxshi samara beradi. O'quvchilarni guruhlariga

bo'lib, qaysi guruh ko'proq asos keltirish musobaqasi uyushtiriladi. Guruh ishtirokchilari mavzu doirasida badiiy asarlardan hikoya va rivoyatlardan namunalar topib guruh sardoriga topshiradi. Barcha namunalar asosida qoliplanuvchi matnlar tuziladi. O'quvchilar zo'r ishtiyoq bilan ijod etadilar. Matn yaratishga qiziqishlari ortadi. Ular o'z xohishlari bilan bajaradigan yozma ishlarda, kashfiyotchilik qobiliyatlari rivojlanadi.

II. "Reminissensiya"- hodisasi. O'quvchilarning o'qish va yozish savodxonligini oshirib, xotirasini tiklashda yaxshi samara beradi. O'quvchilar yozma ishlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida asarning xotirada yaxshi saqlangan qismini aynan keltirishga e'tibor qaratadilar. Bunda ko'chirmachilikka yo'l qo'ymaslik uchun, asar mohiyatini tushunib, o'zlariga yoqqan yoki ta'siri kuchli qismlarini (jumalarni)ni keltirishga harakat qiladilar. Bu jarayonda ko'proq sinfdan tashqari kitob o'qishga ahamiyat beriladi. O'quvchilar yozma ishlarida o'qigan asarlaridan parchalarni aynan keltiradilar. Bu usul hamkorlikda ishlash jarayonida barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Bunda sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linadi. Har har bir guruh a'zosi o'z xotirasida qolganlar bilan guruhga kerakli ball beradi. Guruh sardori ishtirokchilar bilan birgalikda to'plangan ma'lumotlari asosida umumlashma yozma ish yaratishadi. Bu usul turli fikrlarni jamlab matnda ifodalash uchun kuchli tafakkur, mantiq zaruriyatini tug'diradi. Bu usul ham barcha ishtirokchilardan faollik talab qilish bilan birga, yozma nutq shakllanishida mustaqil kitob o'qishning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Xotira kuchayishi va yozma savodxonlikni oshiradi.

Yozma ishlarni tashkil etish samaradorligi o'qituvchining yozma ish o'tkazish metodlarini mukammal bilishi, metodni tanlay olishi va ularning har birini o'z o'rnida qo'llay olishiga bog'liq.

**YOZMA ISH DARSLARINI LOYIHALASH BOSQICHLARI.**  
Yozma ishlarni

loyihalash bosqichlarida avvalo AKT lardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.



**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.** Axborot texnologiyalari bugungi ta'limda o'quv jarayoni sifatini oshirishning zamonaviy va samarali vositasi. Maxsus texnik axborot vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan barcha texnologiyalar o'qitish amaliyotida axborot texnologiyalari deb ataladi. O'qituvchi o'quvchilar bilimlari xususiyatidan va dastur talablaridan kelib chiqib, matnni tanlash imkoniyatiga ega. Yozma ishlarni o'tkazish jarayonida o'qituvchi quyidagi ish shakllaridan foydalanadi:

- CRC va ESD bilan ishlash;
- multimedia ko'magidagi topshiriqlar;
- multimedia prezentatsiyalarini yaratish;
- sinfda va sinfdan tashqari ishlarda ilmiy tadqiqotlar tashkil etish, kitobxonlik tadbirlarini o'tkazish;
- o'quvchilar tadqiqotlari to'g'risida hisobotlarini namoyish etish;
- ma'lumot izlash, tarmoqdan topilgan manbaga sharhlar yozish, berilgan mavzu bo'yicha internet-resurslarning izohli ro'yxatlarini yaratish;
- kompyuterda ishlashni o'rgatish;
- interfaol test yordamida mashg'ulotlarni boshqarish.

### **Materialni tushuntirishda kompyuterdan foydalanish.**

1. **Rangli chizmalar va fotosuratlar** illyustratsion doirani kengaytirishga, unga ko'proq hissiylik, haqiqiy hayotga yaqinlikni berishga imkon beradi. Katta illyustratsion materialdan foydalanish yaxshiroq qabul qilishga va o'zlashtirishga yordam beradi.

2. **Video fragmentlar** - kompyuter texnologiyalari bilan yaratilgan video fragmentlar video materialni darsda muammoli vaziyat yaratishning o'ta samarali quroli etib foydalanishga imkon beradi.

3. **Animatsiyalar** – matn yaratish jarayonlarining tarkibini, shu jumladan asarlar syujetlarini tasvirlash uchun o'quv filmlari va videofilmlarga kiritilgan an'anaviy "multifilmlar" fragmentlarining analoglari. Animatsiyalarda to'xtash va kerakli qismga o'tish qulay,

chunki sinxronlashtirilgan ovoz hamrohligi tufayli jarayonni vizual sifatli tushuntirish mumkin.

4. **Interfaol modellar, chizmalar va diagrammalar.** Interfaol modellar - animatsiya, ularning o'tishi belgilangan dastlabki shartlarga bog'liq. Matn yaratishda jarayonni jonlantirish uchun foydalanish mumkin. Interaktiv jadvallar deb atalib, ularda fragmentlar qisqa animatsiyalarda "jonlanishi" yoki yangi tafsilotlar paydo bo'lishi bilan kattalashishi mumkin.

5. **Multimedia taqdimotlari.** Ushbu shakl o'quv materialini tizimli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, jonli tasvirlar tizimi sifatida taqdim etishga imkon

beradi. Idrok etishning turli kanallari ishtirok etadi, bu esa ma'lumotni assotsiativ shaklda ham xotirada saqlashga imkon beradi.

Ma'lumotlarini bu usulda taqdim etishdan maqsad o'quvchilarda obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir.

1. Javoblarni tanlash va vazifalar bilan ishlash. Tegishli maqola: O'quvchilarning o'z ona tilida erkin muloqotga kirishish, kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik usul va texnologiyalardan foydalaniladi. Kompyuter texnologiyalari taklif qilinganda bir yoki bir nechta javob variantlarini talab qiladigan vazifalarni tahlil qilish, saqlash va qayta ishlashga imkon beradi. Matndan tashqari, bunday vazifalarda rasmlar, shuningdek fotosuratlar, video va animatsion qismlar bo'lishi mumkin. O'quvchilar tomonidan bunday topshiriqlarning bajarilishi o'rganilayotgan material bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga imkon beradi. Elektron ta'lim manbalaridan foydalanish o'quvchilarga jozibali va o'qituvchi uchun qulay.

2. Stimulyatorlar bilan ishlash. Ushbu turdagi ish o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

3. Virtual taqdimot ishlarini amalga oshirish, bilim va amaliy

ko'nikmalarni mustahkamlashdan tashqari, yozma ishlarga sarflanadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartirishga va moddiy bazaning yetarli emasligi muammosini hal qilishga imkon beradi.

4. Interfaol vazifalar bilan ishlash - bajarilish bosqichlari va xatolarni ekranlarda ko'rsatish orqali boshqarishni o'z ichiga olgan vazifalar (vazifalar tizimi), keyingi bosqichni tanlash uchun ko'rsatmalar tizimi, birinchi bosqich natijalariga qarab tarmoqlanadigan tizim mavjud. Interfaol vazifalar tarkibida foto, video va animatsion obyektlar bo'lishi mumkin. Bunday topshiriqlar ushbu obyektlarni illyustratsiya toifasidan o'quv materiallari toifasiga o'tkazadi. Interfaol jadvallarda interfaol doska bo'lsa, ushbu turdagi ish juda qulaydir.

5. **Badiiy labirintlar bilan ishlash** – o'quvchilar uchun qiziqarli, jozibali shaklda tavsiya etilgan mavzu bo'yicha bilimlarni ishlab chiqish va mustahkamlashga imkon beradi. O'quvchilarga quyidagi vazifa taklif etiladi: "Biz sizni badiiy asarlar syujetlari orqali hayajonli sayohatga taklif qilamiz. Asarni o'qib chiqib, siz har doim chiqish yo'lini topasiz. Agar chiqish yo'lini topsangiz yoki tiqilib qolsangiz labirint tugaydi. "Labirintlar" bilan ishlash jarayonida o'quvchilar algoritmik fikrlashni, ma'lumotlarda to'g'ri harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi va guruhlarda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Labirintlar darsga qiziqarli lahzani kiritadi, bu o'quvchilar e'tiborini o'rganilayotgan materialga qaratishga imkon beradi. Ta'lim texnologiyasi – talabaning shaxsiy sifatlarini, kasbiy, umumkasbiy va umummadaniy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o'qitish va tarbiyalash texnologiyasidir.

Ta'limni ilmiy loyihalash va uning aniq kafolatli muvaffaqiyatini ta'minlovchi tizimdir.

Tobora ko'proq yangi raqamli ta'lim manbalari paydo bo'lmoqda.

Ulardan foydalanish darsga tayyorgarlik ko'rish uchun vaqtni tejashga, yangi mavzuni to'liq qamrab olgan materialni tanlashga,

tekshirishga imkon beradi. CRC vositalari yordamida bizdan uzoq bo'lgan jarayonlar va hodisalarni vaqt va makonda ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Ijodiy ishlarda AKTlar juda katta imkoniyatlar beradi. Chunki, jonli narsalardan foydalanish har doim ham mumkin emas. Masalan, "O'zbek xalq ertaklari" asosida ijodiy ish bajarishda kompyuter qahramonlar faoliyatini kuzatishga imkon beradi, filmning bir bo'lagi qahramonlar xususiyatlarini namoyish etadi.

An'anaviy ravishda dars-konferentsiyalar o'tkazish. O'quvchilar mavzularni tanlaydilar, loyihalar tayyorlaydilar, ajoyib prezentatsiyalar, risolalar, varaqalar, esse, maqola va boshqalarni yaratadilar.

AKT darslarning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Yuqori natijalarga erishish vositalaridan biri bu innovatsion texnologiyalar, ya'ni bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning prinsipial yangi usullari pedagogik faoliyat natijalariga samarali erishishni ta'minlaydi.

Shu munosabat bilan, o'quv faoliyatini texnologlashtirish bilan bir qatorda, uni insonparvarlashtirish jarayoni ham xuddi shunday muqarrar. O'quv jarayonida o'quvchining kognitiv va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun ta'lim sifatini oshirishga, o'quv vaqtidan unumli foydalanishga va vaqtni qisqartirish orqali o'quvchilarning reproduktiv faolligi ulushini kamaytirishga imkon beradigan zamonaviy loyihalash bosqichlaridan foydalaniladi.

**Loyihalash texnologiyalari.** Loyiha - bu o'qituvchi tomonidan maxsus yaratilgan va o'quvchilar mustaqil bajara oladigan, ijodiy mahsulotni yaratish bilan xulosalanadigan jarayonlar birligi. Loyiha ko'p qirrali, samarali, natijaviy hamda tejamli bo'lmog'i zarur. Zamonaviy ta'lim tizimini dizayn texnologiyalari va o'quv jarayonini birlashtirmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. O'qituvchi ishidagi loyiha faoliyati predmetli ta'lim doirasidagi loyihalar va sinfdan tashqarida amalga oshiriladigan umumiy loyihalarga bo'linadi. Ona tili va

adabiyot fani o'qituvchilari hamkorlikda "Til bayramlari" va bir qator adabiy va ma'rifiy tadbirlar o'tkazishadi: Navoiyxonlik, Boburxonlik, badiiy kechalar, ijodkorlar bilan uchrashuvlar va boshqalar. Ayniqsa, adabiy mavzudagi yozma ishlarning maqsadi o'tmish va bugunning manfaatlarini umumlashtirishga qaratilgan. Xorij ta'limi va baholash tizimida ham yozma nutqqa e'tibor kuchaytirilgan. Yozma ishlarni tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish. Ammo bugunga qadar foydalanib kelinayotgan pedagogik texnologiyalarning aksariyati nazariy muammolar uchun bo'lib, amaliyotga ta'siri kamroq sezilmoqda. Hozirda zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish va joriy etish talab etilmoqdi.

Yozma ishlarni tashkillashtirishda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan elementlar bilim, ko'nikma va malakalarni, albatta, hisobga olish kerak. Bunda ular yillik jadval qilib olishlari tavsiya qilinadi. Yozma ishlarni loyihalashtirish qaysi yozma ish turi tashkillashtirilishiga bog'liq. Quyida inshoni loyihlashtirilishi xususida to'xtalib o'tamiz.

Insho yozishda, asosiysi, o'quvchida o'ziga yaqin va qiziqtirgan mavzuni tanlay bilish qobiliyatining rivojlangan darajada bo'lishi zarur sanaladi. Insho mavzulari maktab dasturidagi adabiy asarlar yoki umuminsoniy qadriyatlar haqida bo'lishi davr talabiga aylangan. Insho yozma tafakkur va bilimlarga, tajriba va hissiyotlarga asoslangan shaxsiy fikrni yozma tarzda ifodalashni nazarda tutadi.

Agar mavzu o'quvchiga yaxshi tanish bo'lsa, u bu haqda istagancha uzoq gapirishi mumkin. Mana shu davomli nutq va suhbatlarni qog'ozga tushirish kerak.

Tanlangan mavzu darsliklarda bayon qilingan yoki o'qituvchi tomonidan xattaxta yonida aytib turilgan fikrlarga mos kelmasligi mumkin, biroq ular mavjudlik huquqiga ega bo'lishlari zarur.

Insho bayoni har bir o'quvchining ongida ma'lum darajada o'z

aksini topadi. O'quvchi insho yozishga kirisharkan, mavzu doirasidan chetga chiqmagan holda reja tuzib olishi kerak, dastlab personajning xarakteri va biografiyasi haqida qisqacha ma'lumot berish, so'ng epizodik bayonlar bilan uning xulqiga baho berishi kerak. Keyin asar muallifining kundaliklar va xatlarida bayon qilingan fikrlarini keltirish joiz. Xulosada esa to'qima obraz va zamonaviylik o'rtasidagi mutanosiblikni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Inshoda uning mavzusiga mos keladigan iqtiboslar va hikmatli so'zlardan ham foydalanish mumkin.

Matnga mavzuga mos tushadigan epigraf alohida ko'rk bag'ishlaydi, unga tanlangan iqtibos qisqa bo'lishi va insho matniga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Keng tarqalgan, ko'p takrorlanadigan "balandparvoz so'zlar"dan qochish lozim. Iboralar epigraf bo'lmaydi.

Insho hajmining minimum va maksimum darajasi berilishi yoki qancha so'zdan iborat bo'lishi belgilanishi mumkin, asosiysi, ijodiy fikrlashga qaratiladi. Zamonaviy, ma'lumotli, tilni yaxshi biladigan o'quvchining inshosida nimalar bo'lmasligi haqida fikr yuritamiz.

Shunday qilib, yaxshi inshoda quyidagilarga yo'l qo'yilmasligi kerak:

- \* g'aliz leksik konstruksiyalar, sodda yig'iq gaplar (mazmunni intonatsionta'kidlash uchun qo'llanilgan yig'iq gaplar bundan mustasno);

- \* kamida ikkita xatboshida so'zlar va so'z birikmalarini asossiz takrorlash;

- \* juda ham murakkab sodda yoyiq (hatto butun bir xatboshini egallagan, butun bir tinish belgilar jamlanmasini to'plagan) gaplar tuzish;

- \* yettitadan ortiq gapdan iborat bo'lgan katta xatboshilardan foydalanish;

- \* bayon qilingan fikrni qayta takrorlash;

- \* fikrni mantiqsiz dalillash;

- \* hajvdan ortiqcha foydalanish;
- \* oddiy so‘zlashuv uslubidan foydalanish;
- \* “hujjatlar tili”ga xos qolip so‘zlardan;
- \* badiiylikka kuchli berilish, sifatlash va ko‘chimlardan ortiqcha foydalanish;
- \* imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yish

Avvalo, mavzuni ochib beradigan tayanch tushunchalarning mavjudligi yoki yo‘qligidan qat’i nazar, insho matnini hayotiy dalillar bilan mustahkamlash uchun asosiy g‘oyani shakllantirib olish lozim. Shuningdek, qoralama nusxada inshoning namunaviy rejasi tuzib olinsa, o‘quvchi mavzuni yoritishda “chekkaga o‘tib ketmaydi”. Eslatib o‘tmoqchimizki, to‘g‘ri yozilgan insho uch qismga bo‘linadi. Quyida ana shu uch qismning o‘ziga xosliklari keltirilgan:

### **Kirish: tezis, asosiy g‘oya**

O‘quvchi muhokama-insho yozishga kirishganida, dastlab kishi diqqatini tortish maqsadida muammoning mohiyatini bayon qilishi juda muhim. Mavzuning yoritilishida o‘quvchi o‘z nuqtayi nazarini aniqlab olishi uchun 3-4 gap yetarli sanaladi.

### **Asosiy qism: dalillar va isbotlar**

Asosiy qism insho hajmining 2/3 qismidan iborat bo‘lishi kerak. Bu bo‘limda insho mavzusida ilgari surilgan fikrni kamida uch xil isbotlar (barchaga ma‘lum tarixiy voqealar, statistika ma‘lumotlari, mavzuga doir vaziyatlar tasvirlangan badiiy asarlar) bilan dalillashi, mavzuning mohiyatini ochib berish kerak. Shaxsiy tajriba asosiy dalillarga faqatgina qo‘shimcha bo‘la oladi. O‘quvchiga o‘z mulohazalarining nechog‘li to‘g‘riligini aniqlab, tushunib olishi uchun o‘z tezisini ichida, ovoz chiqarmay aytib berish va “Nima uchun?” degan savolga javob berish topshiriladi.

### **Xulosa**

Inshoning xulosa qismida natijalar ko‘rsatiladi, o‘quvchi muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z fikrlarini keltirishi, yangi qoidalarni berishi mumkin. Xulosa hajmi, taxminan, kirish qismi

hajmi bilan teng bo'lishi kerak.

### **Muhokama-insho yozish sirlari**

Maktab insholari orasida eng murakkabi muhokama-insho sanaladi. Birinchidan, muhokama-insho o'quvchidan nafaqat o'z fikrlarini chiroyli tarzda savodxonlik bilan ifodalash, balki mavzu bo'yicha o'z shaxsiy fikriga ega bo'lishni, uni badiiy ifodalab, himoya qilish qobiliyatini ham talab qiladi. Ikkinchidan, o'quvchi o'rganilayotgan muammo bayon qilinayotgan daliliy materialni chuqur bilishi lozim bo'ladi. Shu sababli, muhokama-insho va uni yozish bu boradagi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

### **Muhokama-inshoning qurilishi**

Muhokama-inshoning qurilishi quyidagicha bo'ladi:

Isbot talab qiladigan tezis beriladi.

Dalillash: tezisdagi muammoning 2-3 tadan kam bo'lmagan isboti. Tezisdagi keltirilgan fikrning qat'iy isboti bo'lgan xulosa.

### **Kirish qanday yoziladi?**

Muhokama-inshoning kirishida o'quvchini muammo bilan tanishtirilishi, ya'ni savol yoki sitata bilan ifodalanishi lozim.

Masalan:

“Alpomish” dostonida Boybo‘ri va Boysari arazininig aybdori kim? “Zamonaviy manqurtlar” – kimlar? Navoiyning “Hayratul-abror” dostonida so‘z qudratini tasvirlash masalalari o‘quvchini mumtoz adabiy asarlar haqida o‘ylashga undaydi, shuning uchun inshoning kirish qismida aynan nimani tasvirlash, nima haqida fikr yuritish lozimligini ko‘rsatadi.



## TEST SAVOLLARI:

1. Hajm belgisiga ko'ra matn qanday turlarga bo'linadi?

- A) Mikromatn va makromatn
- B) Monologik va dialogik matn
- C) Buyruq mazmunli va xabar mazmunli matnlar
- D) Tasviriy va hikoya mazmunli matnlar

2. Matn bu...

A) Muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki buyozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi.

B) Hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va yozuvchi nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma.

C) Berilgan mavzu bo'yicha yozilgan qisqa axborot. Muhokama etilayotgan masalahaqida umumiy tushuncha berish.

3. Insho belgilangan maqsadga ko'ra necha xil bo'ladi? A) 2 xil: ta'limiy insholar va sinov insholar.

B) 2 xil: adabiy mavzudagi insholar, erkin mavzudagi insholar.

C) 3 xil: ta'limiy insholar, nazoratga qaratilgan insholar, ko'rik-tanlov insholari. D) 2 xil: ta'limiy va nazoratga qaratilgan insholar.

3. Pedagogik maqsadiga ko'ra insholar necha guruhga ajratiladi?

A) 2 xil: ta'limiy va nazoratga qaratilgan insholar.

B) 2 xil: ta'limiy insholar va sinov insholar.

C) 2 xil: adabiy mavzudagi insholar, erkin mavzudagi insholar.

D) 3 xil: ta'limiy insholar, nazoratga qaratilgan insholar, ko'rik-tanlov insholari.

4. Insholar mazmun-mohiyatiga ko'ra necha xil bo'ladi?

A) 2 xil: adabiy mavzudagi insholar, erkin mavzudagi insholar.

B) 3 xil: ta'limiy insholar, nazoratga qaratilgan insholar, ko'rik-tanlov insholari.

C) 2 xil: ta'limiy insholar va sinov insholar.

D) 2 xil: ta'limiy va nazoratga qaratilgan insholar.

5. Arabcha “joylashtirilgan”, “to‘qib chiqarilgan” ma‘nolarini anglatuvchi atama qaysi qatorda berilgan?

- A) Reja
- B) Mavzu
- C) Insho
- D) Bayon

6. Fors-tojikcha “kir yoyiladigan ip”, “arqon”, “saf” ma‘nolarini anglatuvchi atama qaysi qatorda berilgan?

- A) Mavzu
- B) Insho
- C) Bayon
- D) Reja

7. Yunoncha “qoida”, “isbot” ma‘nolarini ifodalab, mavzuning yoki matnning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi qisqa ifodalar qanday nomlanadi?

- A) Insho
- B) Tezis
- C) Reja
- D) Mavzu

8. Tezis maqsadiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?

A) 2 xil: matn mazmunini yorituvchi tezis, matn tuzishga yo‘naltiruvchi tezis.

B) 3 xil: matn mazmunini yorituvchi tezis, matn tuzishga yo‘naltiruvchi tezis, matn mazmunini aks ettiruvchi tezis.

C) 2 xil: matn tuzishga yo‘naltiruvchi tezis, matn mazmunini aks ettiruvchi tezis.

D) 2 xil: matn mazmunini yorituvchi tezis, matn mazmunini aks ettiruvchi tezis.

9. Insho tezisi tezisning qaysi turiga mansub?

- A) Matn mazmunini yorituvchi tezis.
- B) Matn tuzishga yo‘naltiruvchi tezis.
- C) Matn mazmunini yorituvchi tezis, matn tuzishga yo‘naltiruvchi tezis.

D) Matn mazmunini aks ettiruvchi tezis.

10. Qaysi qatorda inshoni yuzaga keltirish jarayoni modeli to'g'ri ko'rsatilgan?

A) reja – mavzu – tezis –matn

B) reja – mavzu – tezis –matn

C) tezis – mavzu – reja –matn

D) mavzu – reja – tezis – matn

11. Yunoncha “ustidagi”, “yozuv” ma'nolarini anglatuvchi atama qaysi qatordaberilgan?

A) Reja

B) Epigraf

C) Mavzu

D) Insho

12. Adabiy asar yoki asar qismining boshida berilgan va uning mazmuniniifodalaydigan sitata, ibora, maqolni ifoda etayotgan atama qaysi?

A) Epigraf

B) Mavzu

C) Reja

D) Bayon

13. Yozma ishlarda uchraydigan xatolar qaysilar?

A) Imlo xatolari,punktuatsion xatolar.

B) Uslubiy xatolar,mantiqiy xatolar.

C) Imlo xatolari,punktuatsion xatolar, uslubiy xatolar,mantiqiy xatolar.

D) Imlo xatolari, uslubiy xatolar,mantiqiy xatolar.

14. So'z tanlash, sinonim, paronimlarni, qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash bilanbog'liq xatolar qaysi xato turiga kiradi?

A) Punktuatsion xatolar.

B) Imlo xatolari.

C) Mantiqiy xatolar.

D) Uslubiy xatolar.

15. Jumla mazmuni, mantiq bilan bog'liq xatolar qaysi xato

turiga kiradi?

- A) Mantiqiy xatolar.
- B) Punktuation xatolar.
- C) Uslubiy xatolar.
- D) Imlo xatolari.

16. Matnda unli va undoshlarni noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq xatolar qaysixato turiga kiradi?

- A) Punktuation xatolar.
- B) Imlo xatolari.
- C) Uslubiy xatolar.
- D) Mantiqiy xatolar.

17. Arabcha "aniqlik", "ravshanlik", "ifodalash" ma'nolarini anglatuvchi yozmaish turi qaysi qatorda berilgan?

- A) Bayon
- B) Matn
- C) Insho
- D) Diktant

18. Lotincha "hadeb gapiravermoq", "takrorlamoq" ma'nolarini anglatib, imloviy, punktuation qoidalarning o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun o'tkaziladigan yozma ish turi qaysi qatorda berilgan?

- A) Matn
- B) Diktant
- C) Insho
- D) Bayon

19. Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar qanday nomlanadi?

- A) Matn
- B) Ilmiy insho
- C) Insho
- D) Bayon

20. Quyida berilgan fikrlar jadid pedagoglaridan qaysi biriga tegishli? "... mushkul iboratlik uzun insholar, albatta, bola zehnini ochmay, balki fikrini(ng) yo'q bo'lishig'a sabab bo'lur. Biljumla

mamoliki islomiyaning maktablaridagi bolalar uchun yengil suratda insho tayyorlanubdurki, ibtidoiyya, rushdiyya, e'tidodiyya maktab talabalarini(ng) har birig'a muvofiq suratda insho ta'lim beriladur".

- A) Mahmudxoja Behbudiy
- B) Abdulla Avloniy
- C) Hamza
- D) Ibrat

21. Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko'rinishi.....

- A) Yozma ish
- B) Diktant
- C) Matn
- D) Bayon

22. ".... inson tafakkuridagi jarayon bo'lib, miyadagi nutq mexanizmi

- A) Ichki nutq
- B) Tashqi nutq
- C) Matn
- D) Bayon

23. Og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladigan nutq qaysiqatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Og'zaki nutq
- B) Ichki nutq
- C) Tashqi nutq
- D) Yozma nutq

24. Til va adabiyot ta'limi jarayonida qaysi nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim?

- A) Tashqi nutq
- B) Ichki nutq
- C) Yozma nutq
- D) Og'zaki nutq

25. Nutq qanday shakllarda ifoda etiladi?

- A) Og'zaki va yozma
- B) Og'zaki va ichki

- C) Tashqi va ichki
- D) Tashqi va yozma

26. O'quvchining matn mazmunini o'z so'zi bilan yozma ravishda qayta bayonetishdan iborat ijodiy ishi qanday nomlanadi?

- A) Insho
- B) Diktant
- C) Matn D) Bayon

27. Qaysi qatorda ijodiy bayon turlari to'liq ko'rsatilgan?

A) Shaxsini o'zgartirib yozish, tasvir unsurlarini kiritib yozish, boshlab berish yo'libilan bayon yozish

B) Shaxsini o'zgartirib yozish, tasvir unsurlarini kiritib yozish, lisoniy topshiriqli, boshlab berish yo'li bilan bayon yozish.

C) Tasvir unsurlarini kiritib yozish, lisoniy topshiriqli, boshlab berish yo'li bilan bayon yozish.

28. Matnning oliy ko'rinishi....

- A) Insho
- B) Bayon
- C) Diktant
- D) Ijodiy ish

29. Qaysi qatorda adabiy mavzudagi insho mavzusi berilgan?

A. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin!"

B. "She'riyat – ruhiyat ko'zgusi"

C. "Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis" D "Ajdodlarimiz fazilati – ibrat namunasi"

30. Qaysi qatorda erkin mavzudagi insho mavzusi berilgan?

A. "She'riyat – ruhiyat ko'zgusi"

B. "Qutadg'u bilig – ilk badiiy doston"

C. "Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis"

D. "Qutadg'u bilig" dagi axloqiy-ma'rifiy qarashlar"

31. Til hodisalaridan amalda foydalanishga o'rgatish, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish kabi zarur malakalar, asosan, qanday insholar orqali shakllantiriladi?

- A) Ta'limiy insholar

- B) Nazoratga qaratilgan insholar
- C) Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar
- D) Sinov insholar

Noan'anaviy testlar:

1. Ot obrazi sadoqatli do'st sifatida xalq og'zaki ijodining qaysi janrida uchraydi? "Chindo'st" mavzusida bog'li matn tuzing.

- A. Qo'shiq. Mehnat qo'shiqlari.
- B. Ertak. "Uch og'ayni botirlar"
- C. Doston. "Alpomish"




2. Qo'lingdan kelguncha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,

Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Ushbu misralar qaysi asardan keltirilgan, ma'nodosh so'zlarning vazifasini aniqlang va mazmunini nasriy yo'lda yozing.

- A. "Go'ro'g'li" dostoni;
- B. "Rustamxon" dostoni'
- C. "Ravshanxon" dostoni



## Yozma ishlarni tashkil etishga doir rasmlı topshiriqlar

1. Ushbu rasm asosida hikoya, mulohaza, tasviriy matn tuzing



2. Quyidagi rasm tasvirini nutq uslublariga bog'lab matn tuzing.





## GLOSSARIY

**Adabiy mavzudagi insho (Literary work)** – ta’lim dasturida qayd qilingan, dars jarayonida o‘tilgan mavzular asosida yoziladigan, darslar va darsliklardagi ma’lumotlarga o‘quvchining munosabati, shaxsiy fikrlari ifodalanadigan, ijodiy yondashuv asosidagi yozma ishdur

**Adabiy nutq (Literary speech)** – muayyan tarixiy bosqichlarda ishlangan, qat’iy me’yorlarga ega bo‘lgan nutq ko‘rinishidir

**Batafsil bayon (Detailed work)** – yozuvchi uslubiga xos xususiyatlarni: xarakterli tasviriy vositalar, detallar, uslubiy-sintaktik xususiyatlarni, iboralarni saqlagan holda to‘liq bayon etishni nazarda tutadi

**Bayon (Essay)** arabcha “aniqlik”, “ravshanlik”, “tavsiflash”, “ifodalash” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, o‘qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozib chiqilgan ish; yozma ish

**Diktant (Dictation)** lotincha *dictare* “hadeb gapiravermoq”, “takrorlamoq”; “aytib turib” ma’nolarini ifoda etadi. Imloviy va punktuatsion qoidalarning o‘zlashtirilish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish

**Erkin mavzudagi insho (Essays which free topics)** adabiyot fani dasturida qayd etilmagan, ijtimoiy hayotning muhim masalalari, milliy qadriyatlar, urf-odat, an’analar, davr mafkurasi, yoshlar faoliyati bilan bog‘liq axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy mavzularda yoziladi

**Eydos (yun.-ko‘rinish, timsol)**- yunon falsafasi va adabiyotidagi tushuncha. Dastlab “ko‘rinadigan”, “ko‘rinib turgan”, “tashqi” (Gomer), keyinchalik muayyan hodisa, ko‘rinadigan mohiyat (Parmenid), substansional g‘oya (Platon), shakl (Aristotel) ma’nolarini bildirgan. E. Gusseri (1859-1938) fenomenologiya fakt (hodisa)dan farqlanadigan mohiyat sifatida tavsiflangan. So‘ngi davr falsafasida Eydos tushunchasi “mutlaq g‘oya” ma’nosini anglatadi.

**Evfemizm (yun. yeirpegsha — yumshoq ifodalash)** — so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar.

**Ijodiy-tavsifiy matn (Literary-artistic text)** – voqea-hodisa, voqelikka soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan bildirilgan munosabat asosida yuzaga keladi. Maʼlum voqea-hodisalarga, narsa-buyum va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan taʼriflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardir. Insho ijodiy-tavsifiy matn turi hisoblanadi.

**Imlo xatolari (Orthographic mistakes)** – kirill va lotin alifbosi asosidagi yozuv qoidalarini farqlamaslik, soʻzlarni yozma tarzda ifodalashda, qoʻshib, ajratib, chiziqcha bilan yozishda, tutuq belgisini qoʻllashda yoʻl qoʻyiladigan xatolar

**Insho (Essay)** - Maʼlum bir mavzu yuzasidan oʻquvchilarning oʻz fikrlarini ifodalash vositasi

**Izlanish (Researching)** – oʻylash, xotirada tiklash, soʻrash, lugʻat, qomus, internet manbalaridan foydalanish asosida bilimlarni boyitish

**Izohli diktant (Commented dictation)** – oʻquvchilarni matn tarkibidagi imlosi qiyin soʻzlar bilan ishlashga oʻrgatadi

**Innovatsiya (English Innovation - innovatsiya)** - kadrlar tayyorlash, taʼlim va fan sohasida yangi shakllar, usullar va koʻnikmalarni joriy etish.

**Koʻrsatish diktanti (Demonstrative dictation)** – yangi mavzuni yoritishga vamustahkamlashga xizmat qiladi

**Kuzatish (Observing)** – berilgan topshiriq asosida til hodisalarini tahlil qilish

**Kompetensiya “to sompete”** soʻzidan olingan boʻlib, kurashmoq, musobaqalashmoq, raqobatlashmoq, bellashmoq, chiniqmoq maʼnolarini bildirib, musobaqalashishga layoqatlilik maʼnosida keladi. Tub mohiyati samaradorlik, ziyraklik, epchillik, qobiliyatlilik, moslashuvchanlik, yutuqlilik, muvaffaqiyatlilik, tushunuvchanlik, hamfikrlilik, natijalilik, uquvlilik, sifat, miqdor kabi tushunchalar bilan ham tushuniladi

**Lugʻat diktant (Dictionary dictation)** – oʻrganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, oʻquvchilar lugʻatini boyitish

maqsadida olinadi

**Ma'lumot xarakteridagi bayon (Essay through information)** – bayonning bu turida o'quvchilardan, eng avvalo, matnning asosiy voqealari yoki voqea-hodisalar ketma-ketligini to'g'ri bayon qilish talab qilinadi. Ma'lumotnoma matnida bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida shunchaki axborot beriladi, asosan, uslubiy betaraf so'zlardan foydalaniladi.

**Mavzu (Theme)** – arabcha “joylashtirilgan”, “to'qib chiqarilgan”, “tema”, “syujet” ma'nolarini ifodalaydi. “Ilmiy tadqiqot, badiiy asar, fikr-mulohaza yuritish, suhbat, ma'ruza va sh.k. uchun tanlab olingan obyekt” tushunchasini aks ettiradi

**Muhokama bayon (Discussional dictation)** – bu o'rinda matnning asosiy tezislarni ilg'ab olish va qayta hikoya qilishda mantiqiy jihatdan asoslash va fikrlar o'rtasidagi oraliq ifodani yetkazib berish talab etiladi.

**Murakkab tarkibli matn (Complicated text)** – biror g'oya, mavzu bilan bog'liq bo'lgan fikr ifodalaniib, uning tarkibi qismlar, boblar, paragraflardan tashkil topadi

**Qiyoslash (Comparing)** – tizimdagi hodisalarni o'zaro taqqoslay bilish

**Reja (Plan)** – ish-faoliyatni tartibga solish, amalga oshirish rejimidir. Reja forsha-tojikcha “kir yoyiladigan ip”, “arqon”; “saf”, “qator” ma'nosidagi so'z bo'lib, biror ishni tartibi bilan va o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo'ljal, belgili tartib, qoida, o'lchovni bildiradi

**“Reminissensiya (lot. reminiscentia – xotirlash, eslash)** – adabiy hodisalarning dialogik munosabatda bo'lishi natijasi o'laroq yuzaga keluvchi hodisa, adabiy asardagi ilgari mavjud bo'lgan asarlarni yodga soluvchi nuqtalar.

**Saylanma diktant (Chosen dictation)** – o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, ularni amalda qo'llashga yordam berish bilan birga yordam beradi

**Sinov insholari (Exam essays)** o'rganilgan mavzularga doir

bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash hamda baholash uchun muayyan mavzular tugagandan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida nazorat ishi sifatida, davlat attestatsiyalarida, olimpiadalarda, ijtimoiy-gumanitar sohalarga doir tanlovlarda o'tkaziladi

**Sodda tarkibli matn (easy component's text)** – bir yoki bir necha gaplardan iborat bo'ladi. Bunday matnlar xabar, maqol, matal bilan ifodalanib, hajmi jihatidan kichik bo'lsa-da, ma'lum maqsadda shakllantiriladi

**Ta'kidiy diktant (Stressed dictation)** – o'rganilgan mavzular bo'yicha qoidalarni yodlatishga, gaplarni tahlil qilishga o'rgatishga xizmat qiladi

**Ta'limiy insholar (Scientific essays)** sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi

**Tasviriy insholar (Imaginary essays)** – turmushdagi narsa-buyumlar, hayotdagi voqea-hodisalar, insonlar, jamiki jonli va jonsiz mavjudotning muhim belgilari, xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan insholardir

**Taqriz** (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.

**Tinish belgilari xatosi (Punctional mistake)** – tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolar. Maqsad, fikr og'zaki nutqda ma'lum ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali aks ettiriladi

**Tizim (yunoncha - qismdan tashkil topgan, bog'langan)** - elementlar to'plami, o'zaro bir-biri bilan munosabat va aloqada ma'lum bir butunlikni, birlikni tashkil qilish.

**Uslubiy xatolar (Stylystic mistake)** – so'z tanlash, sinonim, paronimlarni, qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq xatolar

**Yozma ish (Writing work)** – imiy xarakterdagi yozma ishlar, yozma shaklda bajariladigan nazorat turlari, topshiriqlar, ko'chirib yozish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори, -Тошкент, 1997. 7-6.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikdabarpo etamiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2016. 14-bet.
3. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. — Toshkent, Turon zaminziyo, 2017.
4. Gulomov A., Qodirov M. Ona tili oqitish metodikasi. — Toshkent, Fan vatexnologiyalar, 2012.
5. Kompetensiyaga yonaltirilgan Davlat talim standarti va oquv dasturi: Ona tili, adabiyot, ozbek tili (5-9 sinflar). — Toshkent, 2016.
6. I. Mo'minov. O'zbekistonda ijtimoiy- falsafiy tafakkur tarixidan. Toshkent, O'z FAnashriyoti, 1960, 152-153-betlar.
6. Xiromiy. Chor darvesh. Toshkent, O'z Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960, 90-bet.
7. Мадаев О. Иншо кандай ёзилади? Урта махсус укув юртлирининг укутувчилари учун методик кулланма.- Т.:Укутувчи,1991.
8. Ивченков П. Ф. Обучающие изложения. 5-9-классы: пособие для учителя / П.Ф. Ивченков. -М.: Просвещение 1994 - 224 с.
9. Махмудов Н., Рафиев А., Йулдошев И. Нутк маданияти ва давлат тилида ишюритиш. -Тошкент: Чулпон, 2012.
10. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
11. Махмудхужа Бехбудий. Мухтарам ёшларга мурожаат. Танланган асарлар. -Тошкент: Маънавият, 1997. 153-154-б.
12. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Баркамол авлод — Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори. -Тошкент, 1997. 38-б
13. Пленкин Н.А. Изложение с языковымразбором текста : пособие для учителей / Н. А. Пленкин. -2-е изд., испр. и доп. - М.:Просвещение, 1978. - 190 с.
14. Русова Н.Ю. Как писать сочинение, изложение и диктант: учеб. пособие для сред, шк., абитуриентов, родителей / Н. Ю. Русова. — Нижний Новгород: Деком, 1994. -192 с.

15. Сморгонь М. Ф. Изложения: для абитуриентов / М. Ф. Сморгонь. - Минск: Высшая школа, 2000. -171 с.

16. Узбек тилининг изохли лугати. I, II, III, IV, V. -Тошкент: "Узбекистон Миллий энциклопедияси" давлат нашриёти 2006-2008.

17. Rasulov.R. va Mirazizov A. O'zbek tili ( Oliy o'qov yurti rus guruhlariga uchun). Darslik. T Aloqachi 2005.81. 633.1 RU31 U-6311 40 ta.

18. Махмудхужа Бехбудий. Китобатул-атфол (Болалар мактаби). Танланган асарлар.-Тошкент: Маънавият, 1997.179-180- б.

19. Саидов М. Узбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи укув топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси.

20. Кобышева, А.С. Методика обучения письменной речи как компоненту межкультурной компетенции лингвиста-преподавателя: дис. канд. пед. наук: 13.00.02/ Кобышева Анна Сергеевна. – Ставрополь, 2009. – 214 с.

21. В.Валихо'аев. Хамсачилик ан'анасининг ба'зи хусусиятлари ҳақида мулоҳазалар// O'zbek adabiyotining ayrim masalalari, Yangi seriya, 2-son, Samarkand, 1961, 92-bet. "Chor darvesh". Dushanbe, Nashriyot davlati Tojikiston, 1961, sah. 5-11.

22. "Hind ertaklari". Toshkent, O'zdamnashr, 1956, 8-bet.

### **Foydalanish uchun internet saytlari.**

1. [www.ta'lim.uz](http://www.ta'lim.uz)
2. [www.talant.spb.ruG`wald.html](http://www.talant.spb.ruG`wald.html)
3. [www.school.edu.ru](http://www.school.edu.ru).

## MUNDARIJA:

Kirish	3
Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	6
DTS yozma ishlarga qo'yiladigan umumiy talablar...	18
Yozma ishlar o'quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita sifatida	30
Og'zaki va yozma nutqni shakllantiruvchi yozma ishlar	55
Yozma ishlarning turlari	66
Sodda va murakkab tarkibli matnlar	80
Diktant va uning turlari	96
Ona tili ta'limida diktantning o'rni. Diktant o'tkazish texnologiyasi	109
Diktantga qo'yiladigan talablar. Nazorat diktantlarini baholash mezonlari	128
Bayon haqida umumiy ma'lumot	141
Bayon va uning turlari. Bayon yozish usullari. Bayonni baholash mezonlari	146
Insho haqida nazariy ma'lumot. Insho va uning turlari. Insho o'tkazish texnologiyasi	163
Esse yozish bo'yicha uslubiy tavsiyalar	177
Yozma ishlarda xatolar ustida ishlash metodikasi	189
Yozma ishlar tashkil qilishda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar. Yozma ish darslarini loyihalash bosqichlari	208
Testlar	233
Glossariy	241
Foydalanilgan adabiyotlar	245

**RAYXON RASULOVA BAXRITDINOVNA**

**YOZMA ISHLARNITASHKIL ETISH METODIKASI**

**O'quv qo'llanma**

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. "Cambria" garniturası, kegli 16.  
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 15.5. Adadi 100  
dona. Buyurtma № 371

**Zebo prints MCHJda chop etildi.**  
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,  
22-harbiy shaharcha



## QAYDLAR UCHUN

## QAYDLAR UCHUN

## QAYDLAR UCHUN